*Ключевые слова: технология, метод, искусственный интеллект, интеллект, виртуальный, визуальный, визуализация, моделирование, интерактивный, оценка, автоматизация, интеграция.*

## PROSPECTS FOR USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS

*Abdurakibov Akmal Abdugaparovich,  
Teacher of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technologies*

*Halilov Ikromjon Komiljon oglu,  
Teacher of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technologies*

*Abstrakt: This article analyzes the importance, opportunities, and practical applications of using digital technologies and artificial intelligence (AI) in teaching physics. The article discusses how digital technologies and AI can help create interactive and personalized forms of education, improve teachers' pedagogical approaches, and increase student motivation. It also emphasizes the need to improve the skills of teachers and strengthen educational infrastructure for the effective use of technological tools. The article shows the importance of modern technologies and artificial intelligence in teaching physics and emphasizes the importance of their integration into the education system.*

*Keywords: technology, method, artificial intelligence, intellect, virtual, visual, visualization, modeling, interactive, evaluation, automation, integration.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan so'ng yurtimizda kompyuter texnologiyalari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shuni hisobga olgan holda Internet texnologiyalarini rivojlantirish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Ayni paytda Internet foydalanuvchilari o'z ehtiyojini qondira oladigan ma'lumotlarga Internet tarmog'i orqali ega bo'lishi mumkin. Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo'lmoqda. Hamma Internet tarmog'idan biror turdagi axborot olishga harakat qiladi. Internet tarmog'i kun sayin rivojlanib bormoqda. Buning asosiy sababchisi esa jamiyatimizning barcha sohalarini qamrab olgan axborot resurslari sonining ortib borishi hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan va e'tibor markazida bo'lgan sun'iy intellekt texnologiyalari, bulutli texnologiyalar va smart texnologiyalar haqida gapiradigan bo'lsak, bu texnologiyalar har qadamda ko'plab sohalarda bizga yordamchi bo'la oladi.



Hozirgi kunda ta'lim sohasida ham bu kabi texnologiyalar keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Ayniqsa talabalarining mustaqil ta'lim olishlarida bu kabi texnologiyalarning o'rni beqiyos darajada. Bugungi kun yoshlari biror bir ma'lumotni olishda, biror sohani o'rganishda, u til o'rganish bo'ladimi yoki zamonaviy sohalarni o'rganishmi, ma'lum bir masofani bosib o'tishi, soatlab kitob varoqlashi yoki qaysidir ustozining bo'sh vaqti bo'lishini kutishiga deyarli hojat qolmadi. Bu kabi texnologiyalarni maksimal darajada o'rganib, foydalanib kelayotgan

ko'plab yoshlarimiz yaxshi natijalarga erishib kelishmoqda. Lekin afsuski tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, bu kabi texnologiyalardan ijobiy maqsadda foydalanish o'rniga turli ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini zoye ketkazayotgan, turli o'yinlarga mukkasidan ketib moliyaviy muammolarga ega bo'layotgan, turli ko'z kasalliklari hamda asab kasalliklariga chalinayotgan yoshlar ham afsuski yetarlicha. Bugungi kunda diqqatni jamlashning sustligi va xotirani pasayishi kabi muammolar yoshlar orasida keng tarqalgan. Bu kabi bugungi kunning eng dolzarb muammolari bilan ota-onalar va ustozlar hamkorlikda hamfikir bo'lib kurashmasak yoshlarimizning kelajagiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq.

Bugungi kunda bu kabi muammolar har bir fan o'qituvchisini talabalarga sifatli ta'lim berishida katta to'siq bo'lib kelayotgani sir emas. Bu esa har bir fan o'qituvchisining zimmasiga o'z mutahassislik fanidan tashqari, zamonaviy kompyuter texnologiyalarni ham bilishdek vazifani yuklaydi. Zamon bilan hamnafas ravishda talabalarga sifatli ta'lim tarbiya berishni maqsad qilgan har bir pedagog bu kabi vazifalarni bajarishga mas'uliyat bilan yondoshadi. Ushbu maqolada talabalarga sifatli ta'lim tarbiya berish va auditoriyada o'tkaziladigan darslarni yanada jozibador qilish, talabalarni diqqatini darsga jalb qilish uchun Sun'iy intellektning an'anaviy o'qitish usullari bilan aralashtirishning avzalliklarini ko'rib chiqamiz.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini, jumladan, fizika kabi ayrim fanlarni o'qitishni takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Fizika fanini o'zlashtirish talabalardan olamning fizik manzarasi, fundamental tushuncha va konsepsiyalarini atroflicha anglash, fizik masalalarni yechish, laboratoriya tajribalarini o'tkaza olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo qiladi. Fizika darslarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ushbu fanni o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, o'quv jarayonini interfaol, individual yo'naltirilgan va ilg'or fan yutuqlariga asoslangan holda takomillashgan ko'rinishga keltirishi mumkin. Bir qancha xorijiy davlatlarda fizika fanini o'qitishda sun'iy intellektni qo'llash borasida qimmatli tajribalar to'plangan bo'lib, undan fizika fanini o'qitishdagi ko'plab metodik muammolarni samarali hal qilishda foydalanilmoqda. Ta'limda sun'iy intellektning roli talabaga shaxsiy yondashuv va moslashtirilgan tavsiyalar berish asosida uning o'rganish tajribasini oshirishdan iborat. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar o'quvchining individual kuchli va zaif tomonlarini baholashi, uning muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun darslarni moslashtirishi va real vaqt tartibida mulohaza va tavsiyalarni taqdim etishi mumkin. Bunday shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarda murakkab tushunchalarni yanada samaraliroq va o'ziga xos sur'atda o'zlashtirishga yordam beradi[2]. Sun'iy intellekt informatikaning muayyan sohasi bo'lib, u odatda inson aqli talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir aqlli mashinalarni yaratish bilan shug'ullanadi. Bu vazifalar muammoni hal qilish, nutqni anglab yetish, qaror qabul qilish va o'rganish kabilarni o'z ichiga oladi. SI tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash, qonuniyatlarni aniqlash va to'plangan ma'lumotlar asosida bashorat yoki tavsiyalar berish uchun mo'ljallangan.



Fizika ta'limi kontekstida SI mavhum va murakkab tamoyillarni tushunishni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda SI tizimlari talabalarning o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi va shu asosda kuzatuvchi-pedagog darhol anglashi qiyin bo'lgan qonuniyatlarni aniqlashi mumkin. Bu esa talabalarga fizika qonunlari va ularning qo'llanilishi haqida tushunchalarni to'g'ri va to'liq yetkazish imkonini beradi. So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda fizika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatiladi:

-virtual laboratoriyalar: talabalar tajribalar o'tkazishi va fizik hodisalarni kuzatishi mumkin bo'lgan interfaol virtual laboratoriyalarni yaratish uchun sun'iy intellektli simulyatsiyalaridan foydalanish. Bu kabi virtual laboratoriya ishlari murakkab yoki xavfli fizikaviy jarayonlarni bexatar o'rganish imkonini beradi.

-vizuallashtirish va modellashtirish: fizikaviy ob'ektlar harakati, elektromagnit maydonlar va kvant hodisalari kabi fizik tushunchalarni dinamik vizuallashtirish va 3D modellarini yaratish uchun sun'iy intellekt generatorlarini qo'llash. Ushbu yo'nalish talabalarga abstrakt fizik tamoyillarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

-interfaol o'qitish tizimlari: o'quvchilarning fizikani o'zlashtirish dinamikasini kuzatib boruvchi, undagi muammolarni aniqlaydigan hamda shaxsiy tushuntirish va amaliy topshiriqlarni taklif qiluvchi moslashuvchan sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish. Bunday tizimlar o'quvchilarga bilimlarni mustahkamlash va fizik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'l keladi.

-baholashni avtomatlashtirish: Fizik hisoblashlar, laboratoriya hisobotlari va yozma ishlarni avtomatik tekshirish hamda baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Bu o'qituvchilarga talabalar faoliyatini muntazam baholab borishga kamroq vaqt sarflash va ularni individual qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi.

-boshqa ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash: Sun'iy intellekt tizimlarini kengaytirilgan reallik, virtual simulyatorlar va bulutli hisoblash kabi boshqa ta'lim texnologiyalari bilan kombinatsiyalash. Bu fizikani o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan keng qamrovli raqamli ekotizimlarni yaratishga yordam beradi. Yuqorida ko'rib o'tilgan tendensiyalar sun'iy intellekt OTMlarda fizika fanini o'qitishning zamonaviy, ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatgan holda, fizik qonuniyat, hodisa va jarayonlarni o'rganishni yanada interfaoligini ta'minlash, individuallashtirish va boshqa texnologiyalarga moslashtirishga ko'maklashadi.

So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar quyidagi Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlarda faol olib borilmoqda. Bu mamlakatlarda fizika fanini o'qitishda SI dan foydalanish, ushbu fanni o'qitish sifati va samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadam sifatida qaraladi. Ilg'or xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limiga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash an'anaviy o'qitish va o'qitish usullarini isloh qilish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ilmiy adabiyotlarni keng qamrovli o'rganish fizika ta'limida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari, muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Intellektual repetitorlik tizimlari va moslashtirilgan o'quv platformalari kabi sun'iy intellekt asosida ishlaydigan vositalar o'quvchilarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirilgan individual ta'lim olish imkonini beradi. Ushbu individuallashtirish talabalarga fizikaviy qonuniyatlarni o'rganishdagi to'siqlarni yengib o'tishga hamda ularni chuqurroq anglab yetishga yordam beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektning real vaqt rejimida fikr-mulohaza va baho berish imkoniyatlari o'quvchilarni baholash samaradorligini oshiradi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qiladi, o'zlashtirishdagi yutuqlarini kuzatib boradi,

mavjud muammoli joylarni aniqlaydi, o'z vaqtida aralashuvni osonlashtiradi va o'qituvchilar tomonidan maqsadli yordam berish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, SI fizika fanini ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlikda o'rganishga yordam beradi. Intellektual agentlar, chatbotlar va virtual repetitorlar qiziqarli va interfaol ta'lim muhitini targ'ib qilib, talabning tengdoshlari orasidagi bahs-munozara, muhokamalarini rag'batlantiradi. Biroq, fizikani o'qitishda SIni muvaffaqiyatli tatbiq etish ham o'ziga yarasha murakkabliklari mavjud. Ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda texnik infratuzilmaning mavjudligi, maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. SI ilovalarini ishlab chiqishda yoki o'quv jarayonida foydalanish uchun saralashda ma'lumotlar himoyasi, xavfsizligi va algoritmik tarafdashlik kabi masalalarni ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqish, bunda o'quvchi manfaatlari ustuvorligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Fizikani o'qitishga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish avvalambor, bu borada SI, undan o'quv jarayonida foydalanish usullari bo'yicha bilim va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish lozim bo'ladi. Ushbu jarayonlarda zarur zamonaviy bilimlarni bo'lajak o'qituvchi hamda pedagoglar diqqat-e'tiboriga yetkazish bilan bir qatorda mazkur yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan tadqiqotchilar, ta'lim boshqaruvi idoralari, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlar hamkorligini ta'minlash muhimdir. Zarur bo'lganda huquqiy-normativ bazaga zarur qo'shimcha va o'gartirishlar kiritishga to'g'ri keladi.

Fizika ta'limiga sun'iy intellektni joriy qilish yo'nalishidagi kelgusi tadqiqotlarda SI ga asoslangan innovatsion ilovalarni har tomonlama o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda sun'iy intellektning o'quvchilar ta'lim olishiga uzoq muddatli ta'siri bo'yicha tadqiqotlar, o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish, texnik va metodik qo'llab-quvvatlashning samarali strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sun'iy intellektga asoslangan individual ta'lim yondashuvlarining o'quvchilarning akademik o'zlashtirishiga, fizikani konseptual tushunishi, uzoq muddatli xotira, eslab qolish ko'nikmalariga ta'sirini o'rganish SI vositalarining barqarorligi va samaradorligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni taqdim qilishi mumkin. Bundan tashqari ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish ko'lamining tobora ortib borayotganligini inobatga olgan holda axborot xavfsizligi va axloqiy oqibatlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt algoritmlarida maxfiylik, shaffoflik va adolatni o'rganish, sun'iy intellektga asoslangan o'qitish tizimlarida noxolislik, potensial kamsitish ta'sirini yumshatish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish SIDan barcha teng foydalanishini ta'minlash uchun zarurdir. Sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta'lim va individual yondashuvlar samaradorligiga turli madaniyatlar, yosh guruhlari, o'quv muhiti, ta'lim sharoitlarining ta'sirini o'rganish ham muhim ilmiy metodik muammolar sanaladi. Shu jihatdan kelgusida bizni sun'iy intellektidan ta'limda, jumladan, fizikani o'qitishda foydalanish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar kutib turibdi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. F Mahligawati, 2 Artificial intelligence in Physics Education: a comprehensive literature review Journal of Physics 2023
2. G'ulomov S.S. va boshqalar "Axborot tizimlari va texnologiyalari". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - T: «Sharq», 2000 y. 336-368 b.

## THE CURRENT STATE OF THE DIGITAL EDUCATIONAL SYSTEM OF HIGHER EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Abduvohidov Khalilillo Shukrullo o'gli*  
*PhD Doctoral Student, Andijan Mechanical Engineering Institute*

*Shavkatov Otabek Kozimbek o'gl*  
*Teacher of Andijan Mechanical Engineering Institute*

*Annotation. The article analyzes the current state of the digital educational system of higher education in the Republic of Uzbekistan. The main achievements and challenges associated with the Introduction of information and communication technologies (ICT) in the educational process are considered. The development of digital infrastructure, the use of learning management systems (LMS), electronic learning resources, distance and hybrid learning, as well as adaptive technologies and personalization of learning are discussed. The importance of professional development of teachers for successful digital transformation is noted. The article emphasizes significant improvements in the quality of education and the adaptation of educational processes to modern requirements.*

*Keywords: Digital transformation, higher education, information and communication technologies (ICT), learning management systems (LMS), electronic learning resources, distance learning, hybrid learning, adaptive technologies.*

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.

*Абдувохидов Халилилло Шукрулло угли*  
*Phd Докторант Андижанского Машиностроительного института*

*Шавкатов Отабек Козимбек угли*  
*Преподаватель Андижанского Машиностроительного института*

*Аннотация. В статье анализируется текущее состояние цифровой образовательной системы высшего образования в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные достижения и вызовы, связанные с внедрением информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательный процесс. Обсуждаются развитие цифровой инфраструктуры, использование систем управления обучением (LMS), электронных учебных ресурсов, дистанционного и гибридного обучения, а также адаптивных технологий и персонализации обучения. Отмечается важность профессионального развития преподавателей для успешной цифровой трансформации. Статья подчеркивает значительные улучшения в качестве образования и адаптацию учебных процессов к современным требованиям.*

*Ключевые слова: Цифровая трансформация, высшее образование, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), Системы управления обучением (LMS), электронные учебные ресурсы, дистанционное обучение, гибридное обучение, адаптивные технологии.*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIMNING RAQAMLI TA'LIM TIZIMIDAGI HOZIRGI HOLATI

*Abduvohidov Xalilillo Shukrullo o'g'li,  
PhD doktorant, Andijon mashinasozlik instituti*

*Shavkatov Otabek Qozimbek o'g'li,  
O'qituvchi, Andijon mashinasozlik instituti*

*Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limning raqamli ta'lim tizimining hozirgi holati tahlil qilinadi. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish bilan bog'liq asosiy yutuq va muammolar ko'rib chiqiladi. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ta'limni boshqarish tizimlaridan (LMS), elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, masofaviy va gibrid ta'lim, shuningdek, adaptiv texnologiyalar va ta'limni shaxsiylashtirish masalalari muhokama qilinadi. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish muhimligi qayd etilgan. Maqolada ta'lim sifati va ta'lim jarayonlarini zamonaviy talablarga moslashtirishda sezilarli yaxshilanishlar qayd etilgan.*

*Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, oliy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Learning Management Systems (LMS), elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim, gibrid ta'lim, adaptiv texnologiyalar.*

Цифровая трансформация высшего образования на сегодняшний день является важным аспектом модернизации образовательных систем по всему миру. Она связана с внедрением информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), которые кардинально меняют подходы к обучению, преподаванию и управлению образовательным процессом. Эта статья рассматривает ключевые компоненты и текущее состояние цифровой образовательной системы в высшем образовании.

Развитие цифровой инфраструктуры.

Узбекистан активно инвестирует в развитие цифровой инфраструктуры, необходимой для эффективной реализации образовательного процесса.


□ **Высокоскоростной интернет и облачные технологии:** Вузы Узбекистана обеспечивают доступ к высокоскоростному интернету и облачным сервисам, что позволяет студентам и преподавателям эффективно взаимодействовать и использовать современные образовательные ресурсы.

□ **Современные компьютерные классы и лаборатории:** В университетах создаются и оснащаются современные компьютерные классы и лаборатории, оборудованные необходимыми техническими средствами для работы с образовательным программным обеспечением.

Системы управления обучением (LMS).



LMS становятся неотъемлемой частью образовательного процесса в узбекских вузах.



□ **Hemis и другие платформы:** Вузовские системы управления обучением, такие как Hemis, Moodle используются для создания, управления и мониторинга учебных курсов. Эти платформы обеспечивают доступ к учебным материалам, контроль успеваемости и взаимодействие между преподавателями и студентами.

**Электронные учебные ресурсы.**

Использование электронных учебных ресурсов значительно расширяет возможности для обучения и делает образовательные материалы более доступными.

□ **Электронные библиотеки и базы данных:** Университеты предоставляют доступ к электронным библиотекам и базам данных научных статей, что облегчает подготовку к занятиям и проведение исследований.

□ **Массивные открытые онлайн-курсы (MOOCs):** Платформы, такие как Coursera и edX, позволяют студентам получать знания у ведущих мировых преподавателей, расширяя их образовательные горизонты.

**Дистанционное и гибридное обучение.**

Дистанционное и гибридное обучение становятся важными элементами образовательного процесса.

□ **Онлайн-лекции и семинары:** Проведение занятий в виртуальной среде с использованием видеоконференций и вебинаров становится стандартной практикой, особенно в условиях пандемии COVID-19.

□ **Гибридные модели обучения:** Сочетание очного и онлайн-обучения, где теоретические занятия проводятся дистанционно, а практические - в аудиториях, позволяет повысить гибкость и адаптивность образовательного процесса.

**Адаптивные технологии и персонализация обучения.**

Адаптивные технологии способствуют индивидуализации учебного процесса и повышению его эффективности.

□ **Адаптивные платформы:** Системы, анализирующие успеваемость студентов и предлагающие персонализированные учебные траектории, становятся все более популярными.

□ **Аналитика обучения:** Использование данных для оценки прогресса студентов и адаптации учебных планов помогает своевременно выявлять проблемные зоны и предоставлять необходимую поддержку.

**Профессиональное развитие преподавателей.**

Цифровая трансформация требует от преподавателей новых навыков и подходов к обучению.

□ **Курсы повышения квалификации:** Программы для обучения преподавателей работе с цифровыми технологиями способствуют их профессиональному развитию и повышению качества преподавания.

□ **Семинары и тренинги:** Регулярные мероприятия по обмену опытом и освоению новых инструментов помогают преподавателям оставаться в курсе последних тенденций и инноваций.

**Заключение**

Современное состояние цифровой образовательной системы высшего образования в Республике Узбекистан характеризуется активным внедрением инновационных технологий, улучшением инфраструктуры и повышением доступности образовательных ресурсов. Эти изменения способствуют повышению качества образования, индивидуализации учебного процесса и подготовке студентов к требованиям современного рынка труда. Важно продолжать инвестировать в развитие цифровых технологий и профессиональное развитие преподавателей, чтобы обеспечить устойчивое развитие образовательной системы Узбекистана.

**Использованная литература**

1. Axmedov, F. (2022). The development of e-learning in higher education of Uzbekistan: current state and future prospects. *Journal of Education and Training*, 34(2), 123-135.

2. Bekmurotov, S., & Tursunova, D. (2021). Digital transformation in higher education in Uzbekistan. *Higher Education Policy*, 14(1), 45-58.

3. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Digital Transformation Strategy of Higher Education Institutions*. Tashkent: MHSSE.

4. Nazarov, A., & Karimov, R. (2020). Challenges and opportunities in the implementation of LMS in Uzbek universities. *International Journal of Educational Technology*, 29(3), 211-224.

5. Rahimov, M. (2021). E-learning platforms in Uzbekistan: Usage and impact. *Central Asian Journal of Education*, 5(1), 78-91.

6. Tashkent State University of Economics. (2022). *Annual Report on Digital Initiatives in Higher Education*. Tashkent: TSUE.

## ERKIN KURASHCHILARNING HUJUM REAKSIYASINI OSHIRISH

Anarbayev Temur Risbekovich,

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi O'zbekiston, Chirchiq shaxri*

*Annotatsiya. Mazkur maqola erkin kurashchilarning hujum reaksiyasini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqadi. Hujum reaksiyasini tezlashtirish va samaradorligini oshirish kurashchilarning bellashuv jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir. Maqolada hujum reaksiyalarining psixologik, fiziologik va motorik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu reaksiyalarni rivojlantirish uchun turli xil mashqlar, metodlar va trening usullarining samaradorligi muhokama qilinadi. Kurashchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, shuningdek, tezlik va koordinatsiyani oshirish uchun zarur bo'lgan mashg'ulotlar, ularning samaradorligini qanday yaxshilash mumkinligi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.*

*Kalit so'zlar: erkin kurash, reaksiya tezkorligi, himoya, hujum reaksiyasi, sport vazirligi, yoshlar sporti.*

## РАЗВИТИЕ АТАКУЮЩИЙ РЕАКЦИЯ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ

Анарбаев Темур Рисбекович,

*Узбекский государственный университет физической культуры и спорта  
Старший преподаватель кафедры Теории и методики международной выводов борьбы Узбекистан, г. Чирчик*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются научные, методические и практические аспекты повышения атакующей реакции борцов вольного стиля. Ускорение атакующей реакции и повышение ее эффективности является одним из важных факторов, обеспечивающих успех борцов на соревнованиях. В статье анализируются психологические, физиологические и двигательные основы наступательных реакций. Обсуждается также эффективность различных упражнений, методов и методов тренировки для развития этих реакций. Дается подробная информация о физической и психологической подготовке борцов, а также об упражнениях, необходимых для повышения скорости и координации, а также о способах улучшения их результатов.*

*Ключевые слова: вольная борьба, скорость реакции, защита, атакующий реакция, министерство спорта, молодежный спорт*

**Kirish.** Erkin kurash – Olimpiya sport turlaridan biri bo'lib, bu mashg'ulot orqali o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida Vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularini mustahkamlash, jismonan sog'lom va ma'nau barkamol qilib tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aynan shu jihatlarni inobatga olgan holda sportning barcha turlariga yurtimizda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022 yil 29-iyuldagi PQ-336-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.[1]

Erkin Kurashda hujum reaksiyasining ahamiyati. Erkin kurash — bu nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladigan sport turi. Bu sportda muvaffaqiyatga erishish uchun kurashchi jismoniy kuchdan tashqari, tezkor fikrlash, shoshib qolmaslik va hujum reaksiyasini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Hujum reaksiyasini oshirish nafaqat raqibni sindirish, balki o'z imkoniyatlarini maksimal darajada foydalanish uchun ham zarur. Shu sababli, hujumni kuchaytirish uchun kurashchi jismoniy tayyorgarlikdan tashqari psixologik o'quv jarayonlarini ham mustahkamlashi kerak.

**Hujum reaksiyasi nima? Hujum reaksiyasi — bu raqibga nisbatan tajovuzkor xatti-**

harakatlarning tezkor amalga oshirilishidir. Erkin kurashda bu reaksiya, asosan, kurashchining jismoniy va psixologik holatiga bog'liq bo'ladi. Kurashchi raqibning himoyasini buzib, hujumga o'tishga qaror qilganda, o'zining texnikalarini va jismoniy kuchini maksimal darajada ishlatadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi erkin kurashchilarning hujum reaksiyasini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy yondashuvlarni aniqlashdir. Tadqiqotda hujum reaksiyalarini yaxshilash uchun turli metodlar, mashqlar va trening usullarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, kurashchilarning psixologik, fiziologik va motorik holatlarini hisobga olgan holda hujum reaksiyalarini tezlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari erkin kurashchilarni yuqori sport natijalariga erishishga tayyorlash uchun metodik yondashuvlar yaratishga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari:

1. Erkin kurashchilarning hujum reaksiyalarini tahlil qilish: Kurashchilarning hujum reaksiyalarining psixologik, fiziologik va motorik jihatlarini o'rganish. Hujum reaksiyalarini oshirish usullarini aniqlash: Hujum reaksiyalarini tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun samarali trening metodlari va mashqlarni belgilash.

2. Jismoniy tayyorgarlikning hujum reaksiyalariga ta'sirini o'rganish: Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi (tezlik, kuch, chidamlilik) va ularning hujum reaksiyalariga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish.

3. Psixologik omillarni o'rganish: Kurashchilarning psixologik holati va tayyorgarligi hujum reaksiyalariga qanday ta'sir qilishini aniqlash.

4. Trening jarayonida texnik va taktika elementlarini joriy etish: Hujum reaksiyalarini oshirishda texnik va taktika jihatlarining o'rni va samaradorligini tahlil qilish.

5. Erkin kurashchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish: Tadqiqot asosida erkin kurashchilarni hujum reaksiyalarini yaxshilash uchun metodik tavsiyalar tayyorlash.

Erkin kurashda hujum reaksiyasini oshirish uchun zarur bo'lgan jismoniy tayyorlik. Erkin kurashda hujum reaksiyasini oshirishda jismoniy tayyorgarlik asosiy rol o'ynaydi. Kurashchining tezligi, kuchi, chidamliligi va reaksiya vaqtining qisqarishi hujumni samarali amalga oshirish uchun muhimdir. Bunday jismoniy tayyorgarlikni oshirishda quyidagi elementlar e'tiborga olish kerak:

Tezlik va reaksiya vaqti. Tezlik erkin kurashda eng muhim komponentlardan biridir. Kurashchi raqibni oldindan ko'ra olish va uning hujumlariga javob berish uchun tezkor reaksiya vaqtiga ega bo'lishi zarur. Bu maqsadda maxsus tezlikni oshirishga qaratilgan mashqlarni bajarish kerak. Masalan, tezkor oyoq ishlashlari, yengil yasalishlar va raqibni aniqlab olishdagi tezkor reaksiyalarni rivojlantirish kurashchiga hujumda yaxshiroq imkoniyatlar yaratadi.

Kuch va chidamlilik. Erkin kurashda hujumni davom ettirish uchun kurashchi katta kuch va chidamlilikka ega bo'lishi kerak. Kuchni oshirish uchun og'irlik ko'tarish, sprintlar va boshqa jismoniy mashqlarni bajarish kerak. Shuningdek, chidamlilikni oshirish uchun uzoq masofali yugurish va izchil ishlash mashqlari foydalidir. Chidamli kurashchilar raqibni engib o'tishda uzoq vaqt davomida yuqori darajadagi hujumni davom ettirishi mumkin.

Erkin kurashchi talabalardan tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlaridan olingan hujum reaksiyasini aniqlash va oshirish ko'rsatgichlari. (n=12)

1-jadval

T/r	Test mashqlari	Tajriba guruhi $\bar{X}$	Nazorat guruhi $\bar{X}$	P
1	Tik turgan holatda signalga rangli fishkalarga qo'l tekkazish (s)	0.70	0.65	>0,001
2	Joyida yugurib signalga rangli fishkalarga qo'l tekkazish (s)	0.83	0.72	>0,001
3	Tik turgan holatda tennis koptogini ushlab (s)	1.40	1.45	<0,001
4	Kuraklarga yotgan holda signalga yelkadan oshirib tashlash (s)	1.78	1.80	<0,001
5	Kuraklarga yotgan holda signalga qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash (s)	1.80	1.78	>0,001
6	Kuraklarga yotgan holda signalga ikki oyoqqa o'tib zarb bilan yiqitish (s)	1.86	1.90	<0,001
7	Joyida yugurib signalga yelkadan oshirib tashlash (s)	0.90	1.0	<0,001
8	Joyida yugurib signalga qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash (s)	0.90	0.60	>0,001
9	Joyida yugurib signalga ikki oyoqqa o'tib zarb bilan yiqitish (s)	1.20	1.15	>0,001
10	Joyida yugurib signalga yelkalardan oshirib tashlash (s)	1.05	1.25	<0,001
11	Qo'llarga tayangan holda oyoqlarni orqaga tashlash (s)	0.80	0.99	<0,001

2-jadval

T/r	Hafta kunlari					
1	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
2	MJT UJT	T, quv mashg'ulot bellashuvi	Kross, tiklanish	MJT UJT	TT, quv mashg'ulot bellashuvi UJT	Sport o'yinlari UJT

**Izoh:** MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, UJT-umumiy jismoniy tayyorgarlik, TTT-texnik taktik tayyorgarlik

**Erkin kurashchi talabalardan tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhlaridan olingan hujum reaksiyasini aniqlash va oshirish ko'rsatgichlari. (n=12)**

3-jadval

T/r	Test mashqlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	P
		$\bar{X}$	$\bar{X}$	
1	Tik turgan holatda signalga rangli fishkalarga qo'l tekkazish (s)	0.48	0.40	>0,001
2	Joyida yugurib signalga rangli fishkalarga qo'l tekkazish (s)	0.57	0.69	0,001
3	Tik turgan holatda tennis koptogini ushlab (s)	1.30	1.42	<0,001
4	Kuraklarga yotgan holda signalga yelkadan oshirib tashlash (s)	1.57	1.78	<0,001
5	Kuraklarga yotgan holda signalga qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash (s)	1.42	1.53	<0,001
6	Kuraklarga yotgan holda signalga ikki oyoqqa o'tib zarb bilan yiqitish (s)	1.72	1.98	<0,001
7	Joyida yugurib signalga yelkadan oshirib tashlash (s)	0.82	0.98	>0,05
8	Joyida yugurib signalga qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash (s)	0.78	0.59	>0,001
9	Joyida yugurib signalga ikki oyoqqa o'tib zarb bilan yiqitish (s)	1.04	1.10	<0,001
10	Joyida yugurib signalga yelkalardan oshirib tashlash (s)	0.77	0.95	<0,001
11	Qo'llarga tayangan holda oyoqlarni orqaga tashlash (s)	0.52	0.71	<0,001

Xulosa. Jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati bilan birga, erkin kurashda psixologik yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Kurashchining o'zini his qilish, raqibni tahlil qilish, tashvishlarni yengib o'tish va o'z ustida ishlash orqali hujum reaksiyasini oshirish mumkin. Erkin kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya juda muhim. Kurashchi o'zining maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan energiya va iroda bilan to'ldirilishi kerak. Ijobiy psixologik holat kurashchiga hujumni amalga oshirishga yordam beradi, shuningdek, ruhiy va jismoniy charchoqni yengib o'tishda ham qo'llaniladi. Erkin kurashda stressni boshqarish

juda muhim. Kurashchilar ko‘pincha katta stress ostida baxs olib boradilar. Agar kurashchi stressni boshqarishni o‘rganmasa, bu uning hujum reaksiyasiga ta’sir qilishi mumkin. Stressni boshqarish uchun nafas olish mashqlari, meditatsiya yoki tasavvur qilish usullari yordam berishi mumkin. Bu usullar kurashchining to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga va raqibga qarshi hujumni samarali amalga oshirishiga yordam beradi.

Erkin kurashda hujum reaksiyasini oshirish — bu murakkab jarayon bo‘lib, unda jismoniy va psixologik omillar o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Jismoniy tayyorgarlik va psixologik o‘quv jarayonlari birgalikda kurashchiga hujumni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. To‘g‘ri psixologik holat, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va yaxshi rejalashtirilgan taktika orqali erkin kurashda hujum reaksiyasini oshirish va yengilishning oldini olish mumkin.

Yuqoridagi maxsus mashqlar va texnik xarakterliklar kurashchini tezkor qaror qabul qilishini, hujum reaksiyasining oshirishini ko‘rsatdi. Mashqlar kompleksi yosh kurashchilar va yengil vazndagi sportchilarda ko‘proq reaksiya tezkorligining oshishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PQ-336-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

2. <https://lex.uz/docs/-5080074>

3. Anarbayerov T.R. Sport kurashlarida chidamlilikni rivojlantirish uchun aylanma mashqlardan foydalanish samaradorligi. Academic Research in Educational Sciences. “Multidisciplinary Scientific Journal”. 2022- T. 2. – №. 4. – С. 846-851 s.

4. T.R.Anarbayerov, O.N.Kurganov, X.M.Qayumov. Yosh erkin kurashchilarni texnik tayyorgarligini rivojlantirish xususiyatlari.// «кураш спорт турини ривожлантириш истиқболлари» халқаро илмий-амалий анжумани 2022 йил 8-9 апрел, 297-299

5. Berdiyev F. O. Erkin kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida tezkor-kuch sifatlarini takomillashtirish //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 3. – С. 61-67.

6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. Toshkent. 2017

7. T.R.Anarbayerov “Zamonaviy jismoniy tarbiya va sportda: integratsiya, evolyutsiya, modernizatsiya, fan va ta’limni rivojlantirish yo‘llari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024 yil 22 noyabr 142-145b.

## **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI**

*Atamuratova Nesibeli Dawirxan qizi  
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida so'z boradi. Axborot kompetensiyasining olimlar tomonidan berilgan ta'riflari, ta'limni axborotlashtirish sharoitida mutaxassisni kasbiy tayyorlash maqsadlari, talabaning axborot kompetensiyasini rivojlantirish me'zonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil qilish yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: axborot kompetensiyasi, kompyuter texnologiyalari, kasbiy sifatlar, AKT vositalari, texnik qurilmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

*Атамуратова Несибели Давирхан кызы  
Базовый докторант Нукусского государственного педагогического института*

*В статье говорится о педагогических условиях формирования информационных компетенций будущих учителей начальных классов. Анализируются определения информационной компетентности, данные учеными, цели профессиональной подготовки специалиста в условиях информатизации образования, критерии развития информационной компетентности студента. Также были даны рекомендации по организации практической работы по развитию информационных компетенций будущих учителей.*

*Ключевые слова: информационная компетентность, компьютерные технологии, профессиональные качества, средства ИКТ, технические устройства, информационно-коммуникационные технологии.*

## **PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMING INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS**

*Atamuratova Nesibeli Dawirkhan qizi  
Nukus State Pedagogical Institute, basic doctoral student*

*The article talks about the pedagogical conditions for the formation of information competences of future primary school teachers. The definitions of information competence given by scientists, the goals of professional training of a specialist in the conditions of informatization of education, the criteria for the development of information competence of a student are analyzed. Recommendations were also made regarding the organization of practical work on the development of information competencies of future teachers.*

*Key words: information competence, computer technologies, professional qualities, ICT tools, technical devices, information and communication technologies.*

*Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiya asrida yurtimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy tendensiyalar va axborotlashtirish jarayonlari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga va kompetensiyalarini rivojlantirishga katta talablar qo'yimoqda. Zero, ta'limni axborotlashtirish, axborot texnologiyalarining kengayishi insonning fikrlashi, turmush tarzi va ijtimoiy makonga yo'naltirish usullarini o'zgartirishga*

xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, pedagoglarning axborot kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish;

milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish [1]. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'lajak pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi va axborot kompetensiyasiga ega malakali kadr sifatida yetishib chiqishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Axborot kompetensiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini samarali olib borishida katta ahamiyatga ega. Chunki, bu yosh mutaxassisga maktabning ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi.

M.Lebedeva o'qituvchining axborot kompetensiyasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amalda foydalana olishni o'z ichiga olgan bilim va ko'nikmalar majmuasi sifatida belgilaydi [5].

Olim V.Kyurshunova axborot kompetensiyasi haqida quyidagicha fikr bildiradi: boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetensiyasi uning shaxsiy va kasbiy sifati bo'lib, u boshlang'ich ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga qaratilgan bilim, ko'nikma va qadriyatli munosabatlarning yig'indisidir [4].

A.Xutorskiy axborot kompetensiyasini o'qituvchining ta'lim berish jarayonida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish qobiliyati deb tushuntiradi [6].

Boshqa bir qator olimlarning fikricha, axborot kompetensiyasini samarali shakllantirish AKT vositalaridan foydalanish asosida axborot-ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy yo'nalishni kuchaytirishdir [3]. Haqiqatdan ham, bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirishda AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmasi katta ahamiyatga ega.

M.Lebedeva ta'limni axborotlashtirish sharoitida mutaxassisni kasbiy tayyorlash maqsadlarini uch guruhga bo'lib tasniflaydi:

1. Axborot texnologiyalari jamiyatining talablariga javob berish, ya'ni, dasturiy ta'minot va texnik qurilmalar bilan ishlash, internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2. Kompyuterlashtirilgan ta'lim sharoitida amalga oshiriladigan yangi turdagi o'quv faoliyatiga tayyor turish (AKTdan foydalangan holda o'qitishni loyihalashtirish, o'quv ma'lumotlarini izlash va taqdim etishni ta'minlash).

3. Zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan axborot madaniyatiga ega bo'lish [5].

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni va fikrlarni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, olimlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetensiyasini quyidagicha izohlaydilar: axborot kompetensiyasi o'qituvchining axborot texnologiya vositalaridan foydalangan holda kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati. Bizning nuqtai nazarimizda axborot kompetensiyasi – bu bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida turli shakllarda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan

ishlashda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash orqali ulardan amaliyotda samarali foydalanish qobiliyati.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari muhokama qilinadi. Shuningdek, tadqiqotimiz doirasida pedagogik manbalar va mavzuga oid huquqiy-normativ hujjatlar, "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining malaka talablari o'rganiladi va olimlarning fikrlari tahlil qilinib, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi asosiy vazifalaridan biri shundaki, aynan u kichik yoshdagi bolalarni ta'lim muhitiga moslashtiradi, turli fanlar doirasida axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, axborot jamiyatida bilim olish va o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatlarini ko'rsatish funksiyasini amalga oshiradi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompyuter savodxonligiga, kichik yoshdagi o'quvchilarda axborot savodxonligini rivojlantirish ko'nikmasiga ega bo'lishi, boshlang'ich ta'limda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlar va o'zgarishlarning mohiyatini tushunishi, zamonaviy ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan axborot ta'limi muhitining sub'ekti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lishi kerak.

Shuningdek, talabning axborot kompetensiyasini rivojlantirish me'zonlari sifatida quyidagilarni tanlash mumkin:

boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil eta olish;

zamonaviy axborot jamiyatiga mos keladigan yangi va samarali pedagogik vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim muammolarini hal qila olish;

uzluksiz modernizatsiya qilinayotgan va yangilanayotgan dasturiy ta'minotni o'zlashtirishga tayyor turish.

Boshlang'ich ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy pedagogik faoliyatiga doir talablarda ham ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish malakasini egallash majburiyati talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan [2].

Bundan kelib chiqib oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi bir qator pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi, jumladan:

1. Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar doirasida multimedia ilovalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. Bu talabalarga axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida qanday foydalanish haqida ham bilim olish imkonini beradi.

2. Amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv. Ya'ni, talabalarning ta'lim amaliyotida axborot texnologiyalaridan foydalanishini ta'minlash. Masalan, raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish, interfaol doskalar va onlayn xizmatlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish. Amaliy ishlar talabalarda texnologiyadan foydalanishga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Talabalarning oliy ta'lim muassasasidagi axborot ta'lim muhitida o'tkazgan o'qish yillari ularga o'z tajribasini keyingi kasbiy faoliyatga o'tkazish imkonini beradi. Demak, oliy ta'lim tizimining vazifalaridan biri talabalarni ushbu faoliyatga jalb etgan holda axborot muhitini qurish va samarali faoliyat ko'rdatishi uchun imkoniyatlar yaratish.

3. Raqamli ta'lim muhitini yaratish. Ta'lim muassasasi zamonaviy texnik vositalar va ta'lim platformalaridan foydalanishni ta'minlashi kerak. Raqamli vositalarni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash ham muhimdir.

4. O'qituvchilarni uslubiy ta'minlash. Talabalarga axborot texnologiyalaridan foydalanish usullarini o'rgatadigan, shuningdek raqamli xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy vositalar bilan ta'minlaydigan mutaxassislarni tayyorlash.

5. Talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirish. Muvaffaqiyatli kompetensiyani rivojlantirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z kasblarida axborot texnologiyalarining muhim ekanligini tushunishlari kerak. Bunga rag‘batlantiruvchi seminarlarni o‘qitish va o‘tkazishda texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanish misollari orqali erishish mumkin.

6. Qobiliyat darajasini va o‘z-o‘zini baholash. Talabalarning axborot kompetensiyalari darajasini muntazam ravishda diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ta‘lim jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

7. Pedagogik oliy ta‘lim muassasasi talabalarining ta‘lim olish doirasida axborot kompetensiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligini baholash.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta‘lim platformalaridan foydalanish. Masalan: Moodle, Hemis, Google Classroom, Yandex, Darslik kabi platformalarda ishlashni mashq qilish.

2. Loyiha faoliyati: AT dan foydalangan holda ta‘lim loyihalarini yaratish. Masalan: interaktiv darslar yoki veb-kvestlarni ishlab chiqish.

3. Onlayn amaliyot: virtual master-klaslar, pedagogik forumlar, seminarlar va vebinarlarda ishtirok etish.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, raqamli ta‘lim talablariga javob beradigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetensiyalarini shakllantirishga va kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga zamin yaratadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchining axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi o‘qitish sifatini oshirishga, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va o‘qituvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-son Farmoni

2. Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 344-sonli buyrug‘i. – Toshkent, 2023. – 14 b.

3. Давкуш Н.В., Павловская Н.К. Специфика процесса формирования информационной компетентности будущих учителей начальной школы // Реализация компетентностного подхода в системе профессионального образования педагога. Евпатория. 2018. С.17-19.

4. Кюршунова В.В. Становление информационной компетентности будущего учителя начальных классов: дис. ... канд. пед. наук [Текст] / В.В. Кюршунова. – Петрозаводск, 2006.

5. Лебедева М.Б. Система модульной профессиональной подготовки будущих учителей в области информационных и коммуникационных технологий. СПб.: Речь, 2006. 234 с

6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования. М.: ИОСО РАО, 2002. 157 с.

## **ТЕХНИК ОЛИЙ ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИГА ОИД ФАНЛАРНИ О'QITISHDA MIXED REALITY ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚО'LLASH USULLARI**

*Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali, mustaqil izlanuvchi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada texnik oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o'qitishda virtual borliq texnologiyalarining ahamiyati, ularning qiyosiy tahlillari, Mixed Reality texnologiyasini qo'llash usullari yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: virtual borliq, raqamli texnologiya, axborot kompetentligi, modellashtirish, vizuallashtirish, interaktiv ta'lim, immersivlik, Mixed Reality texnologiyasi*

## **МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИН ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ**

*Азамханов Баходир Сайиткамолхонович*

*Ташкентский университет информационных технологий, Ферганский филиал,  
независимый исследователь*

*Аннотация: В данной статье рассматривается важность технологий виртуальной реальности при преподавании предметов, связанных с информационными технологиями в технических вузах, их сравнительный анализ и методы применения технологии Mixed Reality.*

*Ключевые слова: виртуальное реальность, цифровые технологии, информационная компетентность, моделирование, визуализация, интерактивное образование, иммерсивность, технология Mixed Reality.*

## **METHODS OF USING MIXED REALITY TECHNOLOGY IN TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY SUBJECTS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*Azamkhonov Bakhodir Sayitkamolkhonovich*

*Tashkent University of Information Technologies Fergana Branch, independent  
researcher*

*Abstrakt: This article examines the importance of virtual reality technologies in teaching subjects related to information technology in technical universities, their comparative analysis and methods of using Mixed Reality technology.*

*Keywords: virtual reality, digital technologies, information competence, modeling, visualization, interactive education, immersiveness, Mixed Reality technology.*

**KIRISH.** Bugungi kunda texnik yo'nalishdagi talabalarni o'qitishda ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ularning axborot kompetentligini takomillashtirish dolzarb masalalardan bo'lib, rivojlangan davlatlarning ushbu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish jarayonida ham yangicha yondashuv va usullarni kuzatish mumkin. O'rganilgan ishlar natijasida xorijiy texnik oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan keng foydalanish, texnik va texnologik jarayonlarni modellashtirish, vizuallashtirish, intellektual tizimlar orqali axborotlarni tizimlashtirishning usul va vositalarini ishlab chiqish jadallik bilan rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Texnik va texnologik ob'ektlarni modellashtirish, vizuallashtirish va shu orqali texnik yo'nalish talabalari uchun virtual ta'lim muhitini yaratishda virtual borliq texnologiyalari

muhim pedagogik vosita sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalarni tezkor rivojlanishi texnik yoʻnalish talabalarini oʻqitishda ularning axborot bilan ishlash va yangi texnologiyalarga tezkor moslashish koʻnikmalarini takomillashtirishni talab etadi.

Oxirgi uch yilda Yevropa ittifoqi davlatlarida IT sohasi boʻyicha umumiy mutaxassislar, shuningdek oliy va kasb-hunar taʼlimini bitirganlar soni bilan birgalikda 7,8 milliondan 8,7 million nafarga yetdi. Raqamli texnologiyalar boʻyicha ushbu xalqaro statistik maʼlumotlar asosida quyidagi bir qator xulosalarni berish mumkin:

- Mobil internet tizimi, sunʼiy intellekt texnologiyalari, katta maʼlumotlar va mashinali oʻqitish, VR/AR/MR texnologiyalar, Internet narsalar (IoT) va sanoatni avtomatlashtirish jarayonlari ish sharoitlarini oʻzgartirmoqda va raqamli koʻnikmalarga ega boʻlgan mutaxassislariga ehtiyojni oshirmoqda;

- Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish taʼlim olish va mehnat qilish hoxishiga kuchli motivatsion taʼsir koʻrsatadi;

- Yangi raqamli texnologiyalar muhitida vaqt va makon tushunchalari ahamiyatini yoʻqotib boradi, xavfli va muntazam zerikarli ishlar avtomatik tizimlar, robotlar zimmasiga yuklanadi, shuning xisobiga xodimlarning yangi ichki salohiyatlari takomillashtirilib boriladi;

- Xodimlarning raqamli savodxonligi masalasi dolzarb boʻlib, bu asosan raqamli texnologiyalar va Internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalar toʻplami bilan belgilanadi. Raqamli savodxonlik axborot kompetensiyalarga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi turli vazifalarni hal qilish qobiliyatlariga asoslanadi. Turli tadqiqotchilar koʻp jihatdan bir-birini toʻldiradigan raqamli kompetensiyalar va koʻnikmalar modellarini ishlab chiqmoqdalar. Ular raqamli/axborot kompetensiyalar, kommunikatsiya va hamkorlik, katta maʼlumotlar oqimi bilan ishlash va kompyuterlar hal qila olmaydigan muammolarni hal qilish kabi asosiy yoʻnalishlarni belgilaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Virtual borliq texnologiyalari interaktiv taʼlim muhiti va immersivlik tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq. Interaktiv taʼlim muhitini yaratish muammolari va shu asosida taʼlim jarayoniga tadbiiq etishning ilmiy yondashuvlarini bir qator MDH olimlari asarlarida ham uchratish mumkin. (V.I. Panov, S.D. Deryabo, K.S. Lebedeva, Yu.S. Manuylov, S.F. Sergeev va boshq.). Taʼlim sohasida virtual borliq texnologiyasini turli xil yoʻnalishlarga qoʻllash mumkin [7,9]:

- Foydalanuvchining stereoskopik, audiovizual va hissiy sezgilarini virtual haqiqat obʼektlari bilan bevosita aloqasini modellashtirishda;

- Virtual borliqda sodir boʻladigan obʼektlar yoki jarayonlar bilan kontaktsiz oʻzaro taʼsiri va ularni boshqarishda;

- Real jarayonni imitatsiya qilishda, foydalanuvchilarni bevosita jarayonda ishtirok etishi uchun;

Taxirov B.N. bugungi kunda virtual borliqqa asoslangan taʼlim resurslarini quyidagicha tasniflash mumkinligini taʼkidlaydi [7,9,10]:

- birinchi daraja-maxsus texnik vositalar (shlem–display, maxsus elektron qoʻlqoplar) yordamida toʻliq virtuallikka erishish.;

- ikkinchi daraja–uch oʻlchovli monitorlar yoki proektor va maxsus koʻzoynaklar yordamida uch oʻlchovli tasvirni yaratish;

- uchinchi daraja-standart kompyuter monitori yoki proektsiya vositasiga asoslangan virtual haqiqatni namoyish qilish.

Respublikamizda oʻquv jarayonida axborot texnologiyalari va mul-timedia vositalaridan foydalanishni didaktik va uslubiy yondashuvlar asosida oʻrganib chiqqan M.M.Aripov, A.I.Ashirova, U.Sh.Begimqulov, T.F.Bekmuratov, F.M.Zokirova, X.Z.Ikromov, M.E.Mamarajabov, B.B.Moʻminov, N.I.Taylaqov, X.A.Toʻraqulov, U.Yu.Yuldashev,

S.S.G'ulomov kabi olimlar ushbu sohadagi turli muammolarni o'rganganlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari jumladan, texnik yo'nalishdagi talabalarni o'qitishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, texnik tizimlarni virtual modellaridan foydalanish, texnologik jarayonlarni kompyuterli o'qitish dasturlari orqali boshqarish, avtomatlashtirilgan intellektual loyixalash tizimlarini qo'llash, VR/AR/MR texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlarga kiritib borish orqali nazariy, pedagogik, ergonomik, texnologik yondashuvlar va ta'limiy tamoyillar takomillashtirilib borilmoqda.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishlardagi bir qator olimlarni ilmiy -tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin, jumladan ta'limga raqamli texnologiyalarning tadbig'i va ta'lim axborot platformalaridan foydalanishni rivojlantirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, O.X.To'raqulov, N.Taylaqov, M.R.Fayzieva, U.Yu.Yuldashev, J.A.Hamidov, R.X. Xamdamov, S.S.Beknazarova, O.S.Abdullaeva va boshqalarning tadqiqotlarida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kasb-hunar ta'limi, o'rta maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalariga axborotlarni qayta ishlash usul va shakllari ko'rsatib berilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Hozirda rivojlangan davlatlarning (AQSH, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Xitoy) texnik oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish sohasiga tegishli texnik tizim va jarayonlarni modellashtirish, vizuallashtirish orqali o'quv jarayonida yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunga misol tariqasida virtual borliq asosida jarayonlarni modellashtirish uchun mo'ljallangan Mixed Reality texnologiyasini keltirish mumkin. Ushbu raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bugungi kunda tibbiyot, biznes, kimyo, fizika, biologiya va texnik yo'nalishdagi fanlarning ta'lim resurslarini virtual borliq muhitida modellashtirish keng rivojlanib bormoqda[4-6].

Mixed Reality texnologiyasini yaxshiroq tushunish uchun kengaytirilgan (AR) va virtual (VR) haqiqat texnologiyalarini bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. AR da haqiqiy olamning ob'ektlari kompyuterli modellar yordamida tasvirlanadi, lekin ularga teginish, olish, harakatni amalga oshirish mumkin emas. VR texnologiyada haqiqiy olam ob'ektlari raqamlashtiriladi. Foydalanuvchi haqiqiy olamdan chiqib virtual olamga o'tadi. VR texnologiya harakatlarni simulyatsiya qiladi, virtual voqelikning xususiyatlari va harakatlarini kompyuter sintezi orqali real vaqtda amalga oshiradi[ 1,5,10].

Mixed Reality texnologiyasida esa virtual ob'ektlar haqiqatga aylanadi va foydalanuvchi tizim modellari bilan o'zaro ta'sir qila boshlaydi. Ushbu texnologiyalarning asosiy xususiyatlari va farqlarini 1-jadvalda ko'rish mumkin.

	<b>VR</b>	<b>AR</b>	<b>MR</b>
<i>Xaqiqiy olam bilan o'zaro aloqasi</i>	-	-	+
<i>Instrumentlar</i>	Oculus VR, PlayStation VR, HTC Vive	Google Glass, Meta Vision	Microsoft HoloLens, MagicLeap
<i>Foydalanuvchi xolati</i>	Virtual olamda	Xaqiqiy olamda	Xaqiqiy olamda
<i>Atrof-muhit xolati</i>	Kompyuter orqali to'liq tasvirlash	Xaqiqiydek ko'rish mumkin	Xaqiqiydek ko'rish va o'zaro ta'sir qilish mumkin


Xorijiy davlatlarda ta'lim resurslarini ushbu Mixed Reality texnologiyalari asosida

raqamlashtirish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etish orqali texnik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari fanlardan yuqori o'zlashtirish samaradorligiga erishmoqdalar. Mixed Reality texnologiyasini texnik oliy ta'lim sohasida qo'llash va natijalar tahliliga bag'ishlangan bir qancha xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan bo'lib, bugungi kunda boshqa davlatlarning pedagogika sohasidagi ilmiy izlanuvchilarida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Mixed Reality texnologiyasi texnik oliy ta'lim fanlarini o'qitish uchun eng ahamiyatli kelajak ta'lim texnologiyasi sifatida baholanmoqda [1,4].

Yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari, jumladan AQSh, Germaniya, Angliya, Finlandiya, Niderlandiya, Fransiya kabi davlatlarning universitetlarida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llash, yangi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish natijasida ta'lim sifati va o'zlashtirish darajasi boshqa oliy o'quv yurtlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda [2].

Ushbu davlatlarning ta'lim jarayonlarida asosan internet resurslari, raqamli platformalar va dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan keng foydalanilgan xolda ta'lim oluvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirish vazifalari samarali amalga oshirilmoqda (rasm 1).

AQSH ning San Diego Davlat Universiteti professorlari Sean Haus va James Marshal [4] larning fikrlariga ko'ra, so'nggi yillarda Mixed Reality texnologiyasini oliy ta'lim o'quv jarayoniga tezkorlik bilan kirib kelishi talabalarda o'quv motivatsiyalarini ortishiga, vizual axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga va amaliy o'quv mashg'ulotlari sifatini takomillashishiga olib kelmoqda.



Axborotlarni tez o'zlashtirish, bilimlarni takomillashtirish va tushunishni osonlashtirish uchun pedagogik usullardan biri empirik o'qitishda amaliy o'quv jarayonlariga katta ahamiyat beriladi. Empirik o'qitishda Mixed Reality texnologiyasidan foydalanish orqali o'quv jarayoni sifatini oshirish, talabalarni murakkab texnik tizim va jarayonlarda faol ishtirok etishlarini xavfsiz muhit sharoitida ta'minlash mumkin. Texnik ta'lim fanlarini o'qitishda talablarning o'quv natijalari, motivatsiyasi va akademik ko'rsatkichlarini Mixed Reality texnologiyasi va uning immersiv muhitidan foydalanish orqali sezilarli darajada yaxshilanish mumkin [1-4]. Olib borilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlilida ham tajribaga va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan immersiv o'quv muhiti orqali talabalarni o'qitish ularning yangi bilimlarni samarali o'zlashtirishlari, axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan omillardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni axborot kompetentligini takomillashtirishda, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv jarayoniga raqamli ta'lim resurslari va vositalarini qo'llash orqali ularning ahamiyatini ilmiy asoslash va asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklarini tahlilliy yoritib berishdan iborat. Tadqiqot orqali texnik oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot kompetentligini zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish bo'yicha yangi ilmiy g'oyalarni berish va ularni ish beruvchilarning talablariga moslashtirish ishning asosiy maqsadidir.

XULOSA. O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikamiz texnik oliy ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalariga oid fanlarini o'qitishda Mixed Reality texnologiyasini qo'llash orqali yuqori samaradorlik va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish mumkin. Ushbu texnologiya tajribaga asoslangan o'qitish jarayonida murakkab g'oya va ko'nikmalarni o'zlashtirish, axborotlar bilan qulay ishlashni samarali usuliga aylanishi mumkin. Tadqiqotda texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim talabalarini fanlar bo'yicha axborot kompetentligini Mixed Reality texnologiyasi orqali takomillashtirishni nazariy usullari va ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hauze, S., & Marshall, J. (2020). Validation of the instructional materials motivation survey: Measuring student motivation to learn via miXed reality nursing education simulation. *International Journal on E-Learning*, 19, 49–64.

2. Maas, M. J., & Hughes, J. M. (2020). Virtual, augmented and miXed reality in k–12 education: A review of the literature. *Technology, Pedagogy and Education*, 29, 231–249.

3. Pellas, N., Kazanidis, I., & Palaigeorgiou, G. (2020). A systematic literature review of MiXed Reality Environments In K-12 Education. *Education And Information Technologies*, 25, 2481–2520.

4. Роберт, И. В. Развитие информатизации образования на основе цифровых технологий: / И. В. Роберт. – Текст: электронный // Наука о человеке: гуманитарные исследования. – 2017. – № 4 (30). – С. 65–71.

5. Тахиров, Б. Н. Понятие виртуальной реальности / Б. Н. Тахиров. –Текст: электронный // Наука, образование и культура. – 2020. – № 8 (52).

6. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютера (педагогика третьего тысячелетия). - Москва: Изд-во Моск. психол.-сос. ин-та; Воронеж: Изд-во НПО «МОДЕК», 2002. - 352 с.

7. Н.Тайлоков, Р.Хамдамов, У.Бегимкулов. Таълимда ахборот технологиялари. Тошкент: 2010. – 120 б.

8. Зеер Э.Ф. Ключевые квалификации и компетенции в личностно ориентированном профессиональном образовании // Образование и наука. Изв. Урал. отд. РАО, 2000. № 3 (5). С. 13-21.

9. Гнатышина Е. А. Компетентностно-ориентированное управление подготовкой педагогов профессионального обучения: монография / Е. А. Гнатышина. Санкт-Петербург: Книжный Дом, 2008. 424 с.

10. Дидактические основы подготовки инженеров-педагогов: учебное пособие / Н. М. Жукова [и др.]; под ред. П. Ф. Кубрушко, В. П. Косырева. Екатеринбург, 1997. 200 с.

## **BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING DARS JARAYONLARIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA TEZ AYTISHLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Baynazarova Jamila Jolmurzaevna,*

*Ajinyoz nomidagi NDPI, “Gumanitar va ijtimoiy fanlarni masofadan o‘qitish” kafedrasini,  
“Boshlang‘ich ta’lim“ yo‘nalishi assistent o‘qituvchisi.*

*Annotatsiya: Tez aytish – xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yangilash ketish mumkin bo‘lgan qo‘fiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarining ona-tili va o‘qish darslarida ularning nutqini rivojlantirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda tez aytishlardan foydalanishning ijobiy ta’siri, xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan va tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: nutq, til, tovush, tez aytish, o‘qish, dars, mashq, nutq mashqlari, o‘yin, pedagogik asoslar*

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

*Байназарова Джамия Жолмурзаевна,*

*НГПИ имени Аджинеза*

*Кафедра «Дистанционное образование гуманитарных и социальных наук».*

*Ассистент преподавателя кафедры «Начальное образование».*

*Аннотация: Быстроречие – это вид народного творчества. В быстрой речи используются рифмующиеся предложения, в которых возможны ошибки. Он повторяет определенные звуки, особенно звонкие согласные, слова произносятся быстро, ритмично и с акцентами. В данной статье представлена информация и проанализированы положительные эффекты и особенности использования быстрого произношения в развитии речи и формировании навыков правильного произношения звуков на родном языке и на занятиях по чтению у учащихся младших классов.*

*Ключевые слова: речь, язык, звук, скороговорка, чтение, урок, упражнение, речевые упражнения, игра, педагогические основы.*

## **PEDAGOGICAL BASIS OF USING TONG TWISTERS AS A MEANS OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRIMARY GRADE STUDENTS’ LESSON PROCESSES**

*Baynazarova Jamila Zholmurzaevna*

*NSPI named after Ajinyoz*

*Department of «Distance Learning of Humanities and Social Sciences»*

*Assistant teacher of the direction of «Primary Education».*

*Abstrakt: Tong twister is a type of folk oral art. Tong twister uses sentences made up of rhyming words that can be mistaken. In it, certain sounds, especially sonorous consonants, are repeated, and words are pronounced quickly with rhythm and accents. This article provides information and analyzes the positive effects and features of using rapid pronunciation in developing the speech of primary school students and forming their skills in pronouncing sounds correctly in their native language and reading lessons.*

*Keywords: speech, language, sound, tong twisters pronunciation, reading, lesson, exercise, speech exercises, game, pedagogical foundations*

Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat.

Inson butun umrini nutqini takomillashtirishga, til boyliklarini o'zlashtirishga sarflaydi. Har bir yosh bosqichi uning nutqining rivojlanishiga yangi narsalarni olib keladi. Nutqni o'zlashtirishning eng muhim bosqichlari bolalik davrida, maktabgacha va maktab davrlarida sodir bo'ladi.

Bolaning nutqini rivojlantirishning birinchi sharti – muloqot yoki muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Ammo muloqot faqat umumiy tushunilgan belgilar yordamida mumkin, ya'ni so'zlar, ularning birikmalari, turli xil nutq shakllari. Shuning uchun bolalarga nutq namunalarini berish yoki nutq muhitini yaratish kerak. Bu bolaning nutqini rivojlantirishning ikkinchi shartidir. O'z nutqining boyligi, rang-barangligi va to'g'riligi ko'p jihatdan u qanday nutq muhitiga ega ekanligiga bog'liq. Nutq muhiti – bu ota-onalar, boshqa qarindoshlar va do'stlarning nutqi, xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, radio va televideniya, kino va teatr, maktabda, shuningdek, o'qituvchilar va boshqa maktab xodimlarining nutqi, darsda eshitiladigan nutqi, bolalar tili, darsliklar va o'quv qo'llanmalar.

Nutq bolaga nafaqat boshqa odamlar bilan muloqot qilish, balki dunyoni o'rganishga yordam beradi. Nutqning boyligi, to'g'riligi va mazmunlilik bola ongini turli g'oya va tushunchalar bilan boyitishga, o'quvchining hayotiy tajribasiga, bilimlarining hajmi va dinamikligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, nutq rivojlanish jarayonida nafaqat lingvistik, balki faktik materialga ham muhtojdir. O'quvchi faqat o'zi yaxshi bilgan narsasini aytadi yoki yaxshi yozadi: u hikoya mavzusi bo'yicha bilim, materialga ega bo'lishi kerak, keyin u asosiy, muhim narsalarni ajratib ko'rsatishi mumkin. Material mazmunli bo'lishi kerak. Bu ham o'quvchilar nutqini rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Bola uchun yaxshi nutq muvaffaqiyatli o'rganish va rivojlanishning kalitidir. O'tkazilgan tadqiqotlarda nutqi zaif bolalar ko'pincha turli mavzularda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi aniqlangan. Shuning uchun ham maktabda dars mashg'ulotlarida ona-tili va o'qish darslarida ayniqsa boshlang'ich sinflarda bolalarning nutqini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish lozim. Maktabda o'quvchilar o'qish va yozishni o'zlashtiradilar. O'qish ham, yozish ham til tizimiga, uning fonetikasi, grafikasi, lug'ati, grammatikasi, imlosi, o'z nutqini qurish va boshqa odamlarning nutqini idrok etish qobiliyatiga tayanadigan nutq qobiliyatlaridir. Yozma nutq har doim og'zaki nutqdan ko'ra qattiqroq bo'ladi, unda kichik maktab o'quvchilariga xos bo'lgan barcha xato va kamchiliklar aniq ko'rinadi. Yozma nutq so'z birikmalarini yasashda, lug'at tanlashda, grammatik shakllardan foydalanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar yozma tilni o'zlashtirib, hikoya matnlari, tavsiflari, dalillari, xatlari, gazeta maqolalari va boshqalarning xususiyatlarini o'rganadilar va ularning uslubiy farqlari bilan tanishadilar. Nutq inson faoliyatining juda keng doirasidir.

Tez aytishlar xalq og'zaki ijodi bo'lib tarixi Qadimgi Rus davriga borib taqaladi va ular Rossiyada ham, Evropa va Osiyoning ko'plab mamlakatlarida ham mashhurdir.

Tez aytishlar yordamida, teleboshlovchilar va radio boshlovchilari, bo'lajak aktyor va aktrisalar talaffuzni mashq qiladilar. Buning asosiy sababi, ushbu kasb egalari uchun ona tilidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olish muhimdir. Nafaqat bu kasb egalari balki barcha insonlar uchun ham o'z ona tilidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, ravon so'zlay olish juda muhimdir. Shuning uchun ham tez aytishlar hali ham unutilmaydi va hatto zamonaviy mavzularda yangilari tug'iladi.

Ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish uchun tezaytishlar nutq nuqsonlarini bartaraf etish va erta yoshdan boshlab to'g'ri diksiyani rivojlantirish ustida ishlashning oddiy va qulay vositasidir.

S.I.Ojegov tezaytishga quyidagicha ta'rif bergan: "Tez aytish – tez nutq, talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlarni tanlab olish bilan o'yin-kulgi uchun sun'iy ravishda o'ylab topilgan, tez, duduqlanmasdan talaffuz qilinishi kerak bo'lgan ibora... «.

Tez aytishlarning butq rivojlanishiga ta'siri borasida izlanishlar olib brogan olimlar nutq shakllanishining dastlabki yillarida ham bola bilan tezaytishlar orqali nutq ustida ishlashni boshlashingiz mumkin deya tavsiyalarni berishgan. Bu orqali kelajakda chaqaloqning nutqining rivojlanishiga hech qanday nuqsonlarsiz erishish mumkin bo'ladi. Kichkintoylar uchun oddiy va qisqa tez aytishla tanlanishi kerak, ularni haddan tashqari murakkab vazifalar va qat'iyyat bilan qo'rqitmaslikka harakat qilish lozim.

Bolaning nutqini rivojlantirish uchun juda ko'p turli xil usullar va usullar mavjud, ammo bu usullardan ehtimol ehtimol, eng qadimgi, eng qiziqarli va eng qulayi tezaytishlardir. Qizig'i shundaki, tezayti dastlab ixtiro qilingan, ehtimol bu bolalarni nutqini rivojlantirish maqsad uchun qo'llanilmasdan, balki faqat o'yin-kulgu va kayfiyatni ko'tarish uchun qo'llanilgan. Odamlar turli xil bayram kechalarda to'planishganda, qo'shiq aytishgan, raqsga tushishgan, til o'yinlarini o'ynashgan ya'ni tez aytishlar orqali va bayramlarni juda qiziqarli o'tkazishgan. Shuning uchun tezaytishlar folklorga tegishli bo'lib, xalq amaliy san'atining maxsus hajviy janri hisoblanadi.

Tez aytishlar - bu talaffuz qilish qiyin bo'lgan so'zlar, tovushlar va bo'g'inlar birikmasidan tuzilgan va baland ovozda aytish uchun mo'ljallangan ibora yoki qofiya. Tez aytishlarda o'xshash tovushli so'zlar ko'p. Bu so'zlar tez aytilsa, chalkashib ketadi va bu kulgili bo'lib chiqadi. 19-asrda nutqni rivojlantirish vositasi sifatida tez aytishlarga alohida e'tibor berilgan. V. I. Dal "Rus xalqining maqollari" to'plamida ushbu janrga quyidagi ta'rifni beradi: "Tez aytishlar, sof tilni tez va aniq talaffuz qilishni mashq qilish uchun tuzilgan, unda tovushlar nima uchun to'qnashib, tez gapirishni qiyinlashtiradi..." [1].

Ma'lumki, tez aytishlar talaffuz mashqlari uchun juda foydali materialdir, chunki ular tovushli takrorlashlarga boy va ularda nutq ritmi yaxshi ifodalangan. Tez aytishlarning mazmuni kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli, bolalar ularni osonlikcha eslab qolishadi va qoida tariqasida ularni qiziqish bilan takrorlaydilar.

Tez aytishlarni talaffuz qilish nafaqat ona tili tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi, balki so'zlar va harf birikmalarida to'g'ri diksiya va tovushlarni aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Ularning yordami bilan nutq terapiyasi muammolari bo'lgan odamlarda tilni bog'lash va ba'zi turdagi duduqlanishlarni bartaraf etish mumkin. Ta'lim dasturlarida rus kulgili folkloriga tegishli bo'lgan ko'plab shakllardan biri sifatida tez aytishlardan foydalanish bolalarda chinakam qiziqish uyg'otadi.

Tez aytishlar bilan mashq qilish bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi muhim muammolarni hal qiladi:

1. Artikulyar praksis va artikulyar vosita ko'nikmalari tufayli umumiy nutq qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

2. Tovushlarni farqlash va avtomatlashtirish kabi bosqichlarda tovushlarning talaffuzini tuzatish orqali nutq orfoepiyasini yaxshilashga yordam beradi.

3. So'zlarning bo'g'in tuzilishi va tovush bilan to'ldirish jarayonlarida mavjud nuqsonlarni tuzatadi.

4. Lug'atni boyitadi va yangilaydi.

5. Xotirani, diqqatni va tovushlarni eshitishni idrok etishni rivojlantiradi.

6. Fonemik jarayonlarni rivojlantiradi.

7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual tovushlarni talaffuz qilish, yozish va o'qish buzilishlari mavjud bo'lganda profilaktik funktsiyani bajaradi.

8. Bolalarni milliy madaniyati bilan tanishtirishga yordam beradi, uning kelib chiqishi bilan tanishtiradi [2]

Tez aytishlarning pedagogik funktsiyalari, asosiylari diagnostik va tuzatish bo'lib, bu sizga bolalar nutqining rivojlanish darajasini baholashga va grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bilan bog'liq kommunikativ va nutq faoliyati sohasidagi shaxsiy ko'rsatkichlarni oshirishga imkon beradi. adabiy til me'yorlariga mos ravishda. Ovozli talaffuzni tuzatish maqsadida tezaytishlar bilan so'z o'yinlaridan foydalanish bo'yicha katta tajriba shuni ko'rsatadiki, tezaytish maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun juda qiziq.

O'quv jarayonida tez aytishlardan foydalanishning ahamiyati shundaki kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy psixologik xususiyatlaridan biri sifatida shuni aytish joizki bu yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati yetakchi faoliyat turi sifatida saqlanib qolinadi. Ya'ni bola maktabgacha qadam qo'yishi bilan unda asta sekinlik bilan o'qish faoliyatiga o'ta boshlaydi, biroq bolada o'yin faoliyat ham hali faol bo'ladi. Tez aytishlarning ijobiy xususiyatlaridan biri ham shuki bola tezaytish jarayonida o'yin faoliyati bilan bog'liq ravishda nutqini rivojlantiradi. Tez aytishlar zararsiz va qiziqarli so'z o'yini hisoblanib tezaytish aytishni bola o'yin sifatida qabul qiladi. Va odatda, ularni bolalar bilan o'rganish qiyin emas. Ammo maxsus maktab internatlari o'quvchilari uchun tilni o'rganish juda murakkab va ko'proq pedagogik ishni talab qiladi.

Tez aytishlarni aytish jarayonida bola tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish qobiliyatini mustahkamlash, eshitish e'tiborini, fonemik idrokni rivojlantirish, ovoz apparatini rivojlantirish, tovushlar, so'zlar va she'riy shakllarni aniq talaffuz qilish bilan birlashtirilgan nutq nafasini mashq qilishga qaratilgan. Bularning barchasi nutqning intonatsion ekspressivligini oshirishning zaruriy sharti bo'lib, pedagoglar tomonidan bunga katta e'tibor berish lozim. Bu orqali bolalar nutqning texnikasi, tembr va ritmini o'zlashtiradilar.

Talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlar birikmasidan iborat qofiyali satrlar nafaqat ota-onalar, balki o'qituvchilar, tilshunoslar, nutq terapevtlari va hatto bolalar psixologlari tomonidan nutqni rivojlantirish darslarida qo'llaniladi. Ularning yordami bilan mutaxassislar quyidagi yechimga e'tibor berishadi:

- aniq diksiya;
- tilni bog'lash oqibatlarini bartaraf etish;
- malakali nutq;
- faol so'z boyligini oshirish;
- fonemik eshitishni rivojlantirish.

Shuningdek, nutqi juda tez va xira bo'lgan bolalar tomonidan tovushlarni "yutish" kabi muammolarni hal qilish uchun ushbu turdagi darslar o'tkaziladi. Bunday bolalar bilan so'zlardagi tovushlarning qiyin kombinatsiyasi bilan qofiyalangan satrlar bilan gaplashish orqali bola nutqni tuzatishga erishish mumkin, tezaytishlar orqali mashq qilish natijasida bolada so'zlar keyinchalik aniqroq va tushunarli bo'ladi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, tez aytishlar bolalarga diqqatni jamlash va eshitgan narsalarining asosiy ma'nosini tushunish qobiliyatini o'rgatish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida maktabda keyingi o'qish uchun yaxshi yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dal, V.I. Rus xalqining maqollari: to'plam. 2 jildda - M.: Xudoj. lit., 1984. - T.1. - 15-bet.
2. Весельева, Е. Е. Развитие культуры речи у дошкольников и младших школьников посредством использования словесной игры со скороговорками / Е. Е. Весельева. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы XXXIX Междунар. науч. конф. (г. Казань, декабрь 2022 г.). — Казань : Молодой ученый, 2022. — С. 1-8. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/469/17640/> (дата обращения: 28.11.2024).
3. Ozhegov, S.I., Shvedova, N.Yu. "Rus tilining izohli lug'ati"; 2001 yil.
4. Bondarenko, A.A. Boshlang'ich maktabda diksiya ustida ishlash / A.A. Bondarenko // Boshlang'ich maktab. - 1987. - No 1. - B. 30-35.
5. Lvov, M.R. Boshlang'ich sinflarda rus tilini o'qitish metodikasi / M.R. Lvov, V.G. Goretskiy, O.V. Sosnovskaya. - M., 2000 yil.

## O'QUV JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Bekbo'taeva Durdona Elmurot qizi  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali  
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi  
magistratura talabasi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayonida didaktik o'yinlardan, jumladan interfaol metodlarni samarali qo'llash haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: didaktik, interfaol, metod, izohli o'qish, mantiqiy o'qish, badiiy o'qish, ifodali o'qish.*

## METHODS OF APPLYING DIDACTIC GAMES DURING EDUCATIONAL PROCESS

*Abstrakt. The article discusses the effective application of didactic games, in particular, interactive methods in the reading lessons of primary school students in general secondary schools.*

*Keywords: didactic, interactive, method, explanatory reading, logical reading, art reading, expressive reading.*

*Kirish. "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.."*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan ta'lim jarayoniga juda katta e'tibor berilmoqda va keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-2030 yilarga belgilangan Davlat ta'lim sifatini oshirish yuzasidan konsepsiyalarni belgilangani va bu yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlarimiz ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida belgilanganidek umumiy o'rta ta'limimizning quyi bosqichi hisoblangan boshlang'ich sinflarda dars o'tishni yangicha tusga kiritish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu singari maqolada asosiy vazifamizni didaktik o'yinlar nima, interfaollik nima kabi savollarni qo'yishda, bu – o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi – o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi – o'qituvchi, o'quvchi – o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlari bo'yicha ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim –tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlariga ajratiladi. Bularning orasida ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi.

Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQSH-da so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar.

Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakillari

Ishchanlik o'yini darsi –dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'qituvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darsi.

O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirishlari tashkil qilish darsi.

“Sud darsi” - o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

“Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi - dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo'lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Integral (integratsiyalashgan) darsi - bir necha fanlarga oid integratsiyalash uchun

qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini ortirib, ta‘lim jarayonidagi faolliklarini ta‘minlaydi.

Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ulardan olam tuzilishining ularning ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo‘jizalar maydoni” darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlari

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e‘tiborida bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi.

Didaktik o‘yin turlarini tanlash me‘zonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha o‘g‘il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar katta yoshdagilar uchun o‘yinlar;
- ishtirokchilar soni bo‘yicha –yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqobtdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o‘yinlar;
- o‘yin jarayoni bo‘yicha – fikrlash, o‘ylash topog‘onlik, harakatlar musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan yo‘llar;
- vaqt me‘yori bo‘yicha dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar.

Umuman olganda, interfaol ta‘lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta‘lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta‘lim metodlaridan iborat.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta‘minlagan bo‘lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta‘lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta‘lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritimiz: Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Interfaol o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni

tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki arlash guruhlar uchun o'yinlar:

-ishtirokchilarning soni bo'yicha –yakka, juftlikda, kichik guruh, kata guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o'yinlar:

- o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

-vaqt me'yori bo'yicha –dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yirituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

Xulosa

O'quv jarayonida, avvalambor, boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqollar va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan aqliy hujum, tarmoqlash, guruhlar bilan ishlash, blits texnologiyasi kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan, didaktik uslubdan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари. *Academic Research in Educational Sciences*, 1281-1286.
2. Zubaydullayev O'.R., Ibragimov J.O. (2024) Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi va ustuvor yo'nalishlari. "Inklyuziv talim istiqboli: muammo va yechimlar" Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami.
3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 132-137.
4. B.Sobirov. Interfaol metodlar. Farg'ona. 2020.

## HARBIY SPORT KOMPLEKSI KO'PKURASHI MUSOBAQASIGA TAYYORGARLIK KO'RISH

I.B.BOBOMURATOV

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi*

*Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kursantlarining jismoniy tayyorgarliklarini oshirish yo'llari yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, kursantlar.*

## ПОДГОТОВКА К СОРЕВНОВАНИЯМ ВОЕННО-СПОРТИВНОГО КОМПЛЕКСА ПО ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

БОБОМУРАТОВ И.Б.

*Академия Вооружённых Сил Республики Узбекистан*

*Аннотация. В статье раскрываются пути развития физической подготовленности курсантов Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан.*

*Ключевые слова: физическая подготовка, курсанты.*

## PREPARING FOR THE COMPETITION OF THE MILITARY SPORTS COMPLEX ATHLETICS

I.B. BOBOMURATOV

*Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan*

*Annotation. The article explains the distribution of workloads on the subject of physical training at the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan. The article also explains the ways of development of physical training.*

*Key words: physical training, cadets.*

Jismoniy mashqlar kursantlarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy mashqlardan muntazam va to'g'ri foydalanish kursantlarning tayanch apparatini mustahkamlaydi, suyaklarning qalinlashishi, mo'rt bo'lmashligi, bo'g'imlarning egiluvchanligini oshirishga olib keladi.

Harbiy sport kompleksi ko'pkurashi kursantlarning irodaviy sifatleri, ya'ni maqsadga intiluvchanlik, dovyuraklilik, qat'iyatlilik va o'z kuchiga ishonch sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilib, shu bilan birga kursantlarning kuchi, tezkor kuchi, tezligi, tezkor-kuch chidamliligi va umumiy chidamkorlikni rivojlantiradi.

Harbiy sport kompleksi ko'pkurashi 5ta mashqdan iborat:

- turnikda tortilish;
- 100m.ga yugurish;
- Granatani uzoqlikka uloqtirish;
- Yagona to'siqlar yo'lagida umumiy nazorat mashqini bajarish;
- 3km.ga yugurish.

Kursantlarga jismoniy yuklama berishdan oldin ularning to'g'ri yugurish texnikasiga ega bo'lishlariga ahamiyat qaratilishi lozim.

To'g'ri texnikasiz dunyodagi eng yaxshi dastur ham tez yugurishga yordam bermaydi. Yugurish tayyorgarligining bu asosiy elementiga ko'pchilik yosh murabbiylar ahamiyat qaratishmaydi. Noto'g'ri yugurilsa natijalarda o'sish bo'lmaydi va borib-borib tayanch-harakat apparatining jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Har- bir mashg'ulot jarayonida kursant birinchi qadamidan oxirigisigacha to'g'ri texnikani

qo'llashi kerak.

O'qituvchining vazifasi- yuqori tezlik yoki tezkor kuchni talab etadigan yuklamalarni berishdan oldin shaxsiy tarkibning individual texnikasiga e'tibor qaratishi lozim.

Yugurish- odamning tabiiy harakatlanish usuli hisoblanib, bir xil harakat sikli qaytariladi, ya'ni tana bir oyoq bilan yerga qo'nadi va havoda uchadi. Tanani uchish holatiga o'tishi depsinuvchi oyoqni yerdan uzilishi va oldinga chiqarilgan bo'sh oyoqni yerga qo'nishigacha davom etadi.

Tezkorlik hatti-harakatlarni tez amalga oshirishni talab etadigan jismoniy mashqlar vositasida rivojlantiriladi. Shu maqsadda, tez bajariladigan va asosan musobaqa uslubi tarzida tez amalga oshiriladigan har- xil mashqlar ya'ni qisqa masofalarga yugurish, yugurish bilan bog'liq maxsus mashqlar va sakrash mashqlari, qo'llaniladi.

Yagona to'siqlar yo'lagi tezkor kuchni rivojlantirish bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarni jang maydonida tez, mohirona va epchil harakatlanishlariga tayyorlaydi.

Mushak kuchi - bu mushak tomonidan bajariladigan maksimal harakat. Mushakning chidamliligi deganda mushakning ma'lum vaqt davomida harakatlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash qobiliyati tushuniladi.

Kuch va chidamlilik bir -biri bilan bog'liq, bittasining ko'payishi, qoida tariqasida, ikkinchisining ma'lum o'sishiga olib keladi.

Ba'zi kursantlarning tanasi tezroq, boshqalariniki sekinroq reaksiyaga kirishadi.

Hatto bir xil mashqlar, mashg'ulotlar davomiyligi va jismoniy tayyorgarlikning boshlang'ich darajasi bir xil bo'lsa ham, ikki kursant bir xil natija ko'rsata olmaydi.

Shug'ullanish dasturi qanchalik yaxshi bo'lmasin, u hamma kursantlarning ehtiyojlarini bir xil darajada qondira olmaydi. Chunki har bir kursantning o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari bo'ladi.

Vzvodda 17 yoshar kursant ham bor 25-26 yashar kursant ham bor. Barchasiga bir xil jismoniy yuklama berib bo'lmaydi.

17 yoshar kurant hali balog'at yoshidagi bola. Biologik yoshi bilan pasport yoshi bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Jismoniy rivojlanganlik darajasini inobatga olib yuklama berilsa har xil "varikoz"lar bo'lmaydi.

5 xil sur'atda jismoniy yuklama berish rejimlari mavjud:

- tiklantiruvchi. YuQS (yurakning qisqarish soni) bir daqiqada 120 marotabagacha;
- rivojlantiruvchi. YuQS bir daqiqada 130-150 marotabagacha;
- ekstensiv. YuQS bir daqiqada 150-170 marotabagacha;
- shiddatli. YuQS bir daqiqada 170-190 marotabagacha;
- maksimal. YuQS bir daqiqada 190 va undan yuqori.

Har bir yugurish rejimini o'z mashqlari bor. Musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonidagi rejamda ko'rsatib o'tilgan.

T/r	Familyasi ismi sharifi	Ko'krak raqami	100 m.ga yugurish		Turnikda tortilish		YaTYda UNM		Granata uloqtirish		3000 m.ga yugurish		Shaxsiy ball	Shaxsiy o'rin	Umumiy ball	Umumiy o'rin
			Natija	ball	Natija	ball	Natija	ball	Natija	ball	Natija	ball				
<b>ROSSIYA FEDERATSIYASI</b>																
1.	USHKOV Dmitriy Vladislavovich	34	12,7	840	24	808	1,42	1520	59,6	984	9,53*	1162	5314	4	15040	2
2.	MARTINOV Vadim Dmitreivich	67	13,2	680	32	1064	1,50	1200	61,8	1054	10,25	980	4978	6		
3.	TROFIMOV Semen Pavlovich	36	12,6	872	20	680	1,49	1240	60,8	1024	10,37	932	4748	8		
<b>BELARUS RESPUBLIKASI</b>																
1.	PODBEREZSKIY Rostislav Aleksandrovich	44	12,6	872	27	904	1,51	1160	64,2*	1126	10,42	912	4974	7	14928	3
2.	CHAYCHIS Anton Viktorovich	39	11,8	1200	24	808	1,53	1080	57,9	916	11,25	740	4744	9		
3.	KARACHUN Anton Ivanovich	54	12,7	840	29	968	1,41	1560	54,1	764	10,07	1078	5210	5		
<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI</b>																
1.	TUYCHIEV Islombek Mamaraim o'g'li	21	11,8	1200	28	936	1,35*	1800	57,4	896	10,33	948	5780	1	17080	1
2.	KARSHIEV Muxitxon Abdusamat o'g'li	7	11,6*	1300	28	936	1,40	1600	64,2	1126	11,07	812	5774	2		
3.	OMONOV Zokir Abduxoshim o'g'li	27	11,7	1250	26	872	1,40	1600	56,1	844	10,3	960	5526	3		

### Dushanba

Ertalab:5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt:60daqiqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.  
Kunduzi: 10.00-12.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

Takroriy yugurish: 4-6x1000m/400m. Vaqt: 3.25-3.15. YuQS 170-190 zar/daq.

2-3 km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

6x100m avtomobil shinalari bilan yugurish (ichiga 2-4kg.lik 1-2ta tabiiy tosh solingan)  
Vaqt:18-17soniya. YuQS 150-170 zar/daq.

4x100/100m texnikaga yugurish. Vaqt:15-14soniya. YuQS 160-180 zar/daq. 2km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

(500-600gr) granatani texnikaga uloqtirish- 8-10 marotaba.

Rezina(espander, jgut) bilan mashq bajarish: chap va o'ng qo'l bilan uloqtirishni taqlid qilib rezina tortish, oldinga egilib ikki qo'llab o'zi tomon eshish, chap va o'ng turishdan uloqtirishni taqlid qilish: 6x20 marotaba.

### Seshanba

Ertalab:5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt:60daqiqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.

Kunduzi: 10.00-12.00. 8km Fartlek. Vaqt: 35daqiqqa. YuQS 170-190 zar/daq. 2km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

Turnikda tortilish (zinapoya usuli/10m yurib dam olib): 1+2+3+4+5+6+7+8+9+10+10+9++8+7+6+5+4+3+2+1. YuQS 120-130zar/daq.

G'ovlar osha yugurish-sakrash mashqlari. Har-bir mashq 2 marotabadan takrorlanadi.

Balandligi 1m.li gimnastik ot ustiga sakrab chiqish(tushish)-10 marotaba.

2 km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

### Chorshanba

Ertalab:5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt:60daqiqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.

Kunduzi: 10.00-12.00. O'zgaruvchan yugurish: 4-6x 600m/400m. +400m/200m. Vaqt: 1.45-1.42- 1.15-1.12. YuQS 180-2000 zar/daq.

2km sekin sur'atda yugurish. Chigilyozdi mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

Alohida to'siqlardan oshib o'tish:

- to'siqlar yo'lagini boshlanishi, 2, 5m.li chuqur, labirint, 2m.li devor- 5marotaba. Vaqt:22-20soniya;

- buzuq ko'prik, buzuq zinapoya, devor tuynugi- 5marotaba. Vaqt: 16-13soniya;
- aloqa yo'li, 1m.li devor- 5marotaba. Vaqt: 9-7soniya;
- buzuq zinapoya, buzuq ko'prik, qiya taxta- 5marotaba. Vaqt: 16-12soniya;
- to'siqlar yo'lagingning boshlanishi.....transheya- 2marotaba. Vaqt: 40-38soniya;
- transheya.....to'siqlar yo'lagini boshlanishi- 2marotaba. Vaqt: 29-27soniya. YuQS 170-190 zar/daq.

Tosh bilan mashq bajarish(3-5kg.li tabiiy toshlar)

Toshni yuqoriga uloqtirib chap va o'ng oyoqqa qo'nib tosh bilan sapchish:2x50marotabadan/100m.

2x100m: toshni oldinga, orqaga, oldinga katta qadam tashlab chap va o'ng oyoqqa tayanib-turib uloqtirish.

2km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Payshanba

Ertalab:5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt: 60daqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.

Kunduzi: 10.00-12.00. 14-16km KROSS YuGURISH. Vaqt: 1.20-1.10. YuQS 140-160 zar/daq.

2km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00.

Erkin usulda suzish.

Juma

Ertalab: 5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt: 60daqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.

Kunduzi: 10.00-12.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

8km nazorat yugurish. Yugurish tezligi har 1km- 3.40-3.30. YuQS 180-190 zar/daq.

2km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00. 3-4km sekin sur'atda yugurish. URM, MYuM, 2x80m-tezlashib yugurish.

10x100m/100m Oyoqdan-oyoqqa sakrash. 1km sekin sur'atda yugurish.

2x350m/350m Sheriklari ustidan oshib va oyoqlari ostidan emaklab o'tib yugurish. 1km sekin sur'atda yugurish.

2x3daqiqali Majmuaviy kuch mashqi (turnikda tortilish + bruslarda qo'llarni bukib yozish + gimnastik skameykada o'tirib press qilish + ortga burilib oyolarni gimnastik skameykaga qo'yib qo'llar bilan yerga tayanib tirsak bo'g'imlarini bukib-yozish + qo'llar bosh orqasida holatda o'tirib - turish va hammasi boshidan boshlanadi). Har - bir mashq 5-10 soniya davomida bajariladi. Hushtak chalinishi bilan to'xtovsiz keyingi mashqni bajarishga kirishiladi. Mashqlar orasidagi masofa yugurib bosib o'tiladi. 1km sekin sur'atda yugurish. Mushaklarni cho'zish mashqlari.

Shanba

Ertalab: 5.00-6.30. 12km yugurish. Vaqt: 60daqqa. YuQS 110-130 zar/daq. URM, MYuM.

Kunduzi: 10.00-12.00. 18-20km Kross yugurish. Vaqt: 1.40-1.30. YuQS 140-150 zar/daq. Chigilyozdi mashqlari.

Kechqurun: 17.00-19.00. Hammom.

Xulosalar: 1)O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida mazkur dastur bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar bo'lajak ofitserlarimizning professional faoliyatlarini asosi hisoblanadigan jismoniy tayyorgarliklarini oshishiga zamin yaratdi.

2). Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi bir necha marotabaga yaxshilandi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib borish bo'yicha qo'llanma..-T.:MV, 2020.

2. Наставление по физической подготовке в Вооружённых Силах Российской Федерации. –М.: МО, 2009.

3. Наставление по физической подготовке в Вооружённых Силах Республики Беларусь. - Мн. : МО РБ, 2009.

4. Jismoniy tayyorgarlik. Darslik. Bobomuratov I.B.-T., 2024

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MILLIY KURASH DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI O'RGANISH

*Boltaboev Hamidullo Habibulloyevich*

*University of Business and Science Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori  
(PhD), professor*

*Annotatsiya. Maktab o'quvchilarining "Jismoniy tarbiya" darslarida milliy kurash turlarini (xalharo kurash) o'rgatish, ularning maxsus jismoniy tayyorgarliklarini tarbiyalash ijtimoiy - pedagogik jarayon sifatida muxim ahamiyat kasb etmoqda.*

*Kalit So'zlar: Milliy kurash, jismoniy - tarbiya, milliy qadriyatlar, botirlik, halol, yonbosh, chala, dakki, g'irrom, to'hta, vaqt.*

## ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ БОРЬБЫ В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

*Boltaboev Hamidullo Habibulloyevich*

*University of Business and Science Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori  
(PhD), professor*

*Аннотация: Обучение национальной борьбе (международной борьбе) в классах «Физическое воспитание» школьников, обучение их специальной физической подготовке приобретает все большее значение как социально-педагогический процесс.*

*Ключевые слова: Национальная борьба, физическое воспитание, национальные ценности, храбрость, честность, сторона, чала, дакки, гирром, тохта, время.*

## STUDYING METHODS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF NATIONAL WRESTLING LESSONS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

*Boltaboev Hamidullo Habibulloyevich*

*University of Business and Science Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences  
(PhD), professor*

*Annotation: Teaching national wrestling (international wrestling) in "Physical Education" classes to schoolchildren, teaching them special physical training is becoming increasingly important as a social and pedagogical process.*

*Key words: National wrestling, physical education, national values, courage, honesty, side, chala, dhaki, girrom, tokhta, time.*

Kirish. Mamlakatimizda har bir shaxs salomatligini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Bu borada jamiyatimiz a'zolari, qolaversa, o'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga, ularni jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirish borasida ko'plab ilmiy-nazariy va amaliy asoslardagi tadqiqotlarning olib borilishi zaruratini belgilaydi.

Mavzuni o'rganilganligi: Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonlik olimlar turli davrlarda kurash tarixi, kurash bilan shug'ullantirish yo'nalishlarida anchagina tadqiqodlar o'tkazishgan jumladan; Kerimov F.A, Nurshin J, Toymurodov N, Shakirjanov A, Abdiev A.N, Nurillaev A.K, Ro'ziev A.A, Po'latov F.M larning tadqiqotlarida o'quvchilarni milliy kurash va jismoniy

madaniyati, uning ta'limiy fenomeni, ratsional kun tartibida jismoniy mashqlar va ular bilan maqsadli shug'ullanish jarayonini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot maqsadi. Umumiy o'rtata'lim tizimida o'quvchilarining "Jismoniy tarbiya" dasturi asosida milliy kurashga o'rgatishda dars mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga haratilgan.

Tadqiqot vazifalari. Ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi

1.Maktab o'quvchilari bilan o'tkazilayotgan kurash darslari yuzasidan ilmiy uslubiy ma'lumotlarini taxlil etish va ilmiy - pedagogik jihatdan o'rganish;

2.Maktab o'quvchilarini milliy kurash sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini taxlil qilish;

3.Milliy kurash darslaridagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish va ularni ommalashtirish;

4.Milliy kurashga o'rgatishda darslarini samaradorligini oshirishda maxsus jismoniy tayyorlashning yangi usullarini aniqlash va ularni amalga oshirish yo'llarini tavsiya etish.

Tadqiqot uslublari: nazariy tahlil va umumlashtirish, suhbat, matematik statistika, pedagogik tajriba.

Natijalar taxlili: Darslarni samaradorligini oshirish ilmiy - pedagogik jihatdan tadqiq qilish va sinov tajriba natijalarini optimallashtirish ishlari, maktablarning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va bolalar uchun tadqiqot natijalari nazariy jihatdan yaqindan yordam beradi. Ularning bilim doiralarini yanada kengaytirib pedagogik jihatlar milliy kurash sohasida amaliy dars mashg'ulotlariga yangilik sifatida ilgari suradi.

*Pedagogik tadqiqot yakunida nazorat va tadqiqot guruhlarida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi*

1 - jadval

Test mashqlari	g u ruhlar	Ko'rsatkichlar					
		Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida		
		X	a	v%	X	a	v%
Turnikda tortilish (foiz)	n	18,25	1,40	7,27	21,70	1,02	5,45
	t	18,85	1,48	7,45	24,80	1,01	3,88
Qo'lning elka yozuvchi va sonning oldingi yozuvchi mushaklari kuchi 906< ushlab turish (soniya)	n	12,96	1,19	9,16	17,88	2,10	4,11
	t	13,65	0,40	2,93	22,50	2,20	1,03
Soning oldinga yozuvchi mushaklari kuchi Joyidan turib uzunlika sakrash (sm)	n	2,17	0,12	5,52	2,19	1	5,50
	t	2,20	0,14	6,36	2,22	3,10	7,20
Maxsus tezkor -kuch soniya ichida Beldan oshirib tashlash usulini bajarish, umumiy soni	n	5,5	0,70	4,46	6,10	0,75	2,40
	t	6,42	0,70	11,5	7	0,80	8,2
Maxsus tezkor -kuch 10 soniya ichida yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, umumiy soni	n	6,25	1,05	16,8	7,15	1,55	12,58
	t	6,71	0,74	0,11	7,50	0,88	0,5
Tezkorlik sifati 100 metrga yugurish, soniya	n	12,6	0,31	4,42	12,4	0,31	1,03
	t	12,3	1,48	1,44	12,1	1,48	1,05
Tezkorlik sifatim30 metrga yugurish, soniya	n	4,38	0,17	3,88	4,22	0,20	3,90
	t	4,13	0,16	1,43	4,10	0,18	1,05
Chidamlilik sifati 1000 metrga kross yugurish,soniya, soniya	n	3,39	0,15	4,42	2,90	1,03	7,50
	t	4,21	0,14	4,21	3,50	1,10	8,13
Chaqonlik sifati 4x10 metrga mokisimon yugurish, soniya	n	7,35	0,31	1,47	7,45	0,68	3,10
	t	7,22	0,16	2,21	7 <sup>50</sup>	0,98	3,20
Egiluvchanlik sifati Oldinga egilish, sm	n	26	2,80	10,77	28,8	4,12	13,17
	t	26,14	2,96	11,3	34,12	4,05	10,97

Chunonchi, qo'lni yelka bukuvchi mushaklar kuchi tadqiqot yakunida nazorat guruhidagi kurashchilarda, 2,45 foizga o'sdi. yaqni nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich tadqiqot boshida 19,25 foizga teng bo'lsa, tadqiqot yakunida 21,70 foizga oshdi.

Tadqiqot guruhida bu ko'rsatkichlar 19,85 va 24,80 foizga teng bo'ddi. qo'lning yelka yozuvchi va sonning oldingi yozuvchi mushaklar kuchi tadqiqot yakunida, tadqiqot guruhidagi kurashchilarda nazorat guruhidagilarga nisbatan 3,95 soniyaga oshdi. Nazorat guruhidagi kurashchilarda ushbu farq 4,9 soniyaga teng bo'ldi.

Sonning oldingi yozuvchi, orqa bukuvchi va medial mushaklarining tezkor - kuchi (joyidan turib uzunlikga sakrash) nazorat guruhida dastlab 2,17 sm.ga teng bo'lsa, tadqiqot yakunida 2,19 sm.gacha o'sdi. Tadqiqot guruhida bu ko'rsatkich 2,20 sm. dan- 2,22 sm.gacha o'zgardi. Kurashchilarning maxsus tezkor - kuchlilik sifatleri 10 soniya ichida " ikki oyoq oldidan oyoq bilan ko'tarib tashlash", "Yelkadan oshirib tashlash" testi bo'yicha baqolanadigan dastlabki ko'rsatkichi nazorat guruhida 5,5; 5; 4,40 foizga teng edi, tadqiqot yakunida 6,10; 6,20 foizga ortdi. Tadqiqot guruhida ushbu ko'rsatkich dastlab, 6,42; 6,30; 6,20 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot yakunida 7,0; 6,50; 6,30 foizga teng bo'ldi. Bu esa tadqiqot davomida tadqiqot guruhi uchun qo'llangan jismoniy mashqlar majmuasi to'g'ri tanlanganini tasdiqladi.

Shuningdek, kurashchilarning maxsus tezkor -kuch chidamliligini aniqlash uchun qo'llanilgan 1 soniya mobaynida baxolanadigan "Kurashish" testi bo'yicha nazorat guruxi sportchilarining ko'rsatgan natijalari dastlab 6,25 ballni tashkil qilgan bo'lsa, yakuniy natija esa 7,15 ballga teng bo'ddi.

#### XULOSA

Mazkur test bo'yicha tadqiqot guruxining sportchilari tadqiqot boshida 6,71 ball olishgan bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 7,50 ball natija ko'rsatishdi. Ushbu test bo'yicha sportchilar 1 soniya mobaynida kurash tushib, maksimal 10 ball olishi zarur edi. Nazorat guruxidagi kurashchilardan 3 tasi 1 - 2 ball past oljshdi. Bu ma'lumot shu o'quvchilarni hali to'liq sport formasiga kirmaganligini ko'rsatib turibdi. Tadqiqot guruxidagi kurashchilarning ko'rsatkichlari ijobiy bo'lib, bu guruxdagi sportchilar sport formasida ekanligini isbotlashdi.

"30 metrga startdan chiqib yugurishda" nazorat va tadqiqot guruxi kurashchilarining tezkorlik sifatleri darajasi quyidagi ko'rinish oldi. Ya'ni nazorat guruxi kurashchilari dastlab 4,38 soniya ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqot so'nggida bu ko'rsatkich 4,22 soniyaga hamaydi.

Tadqiqot guruxida esa 4,13 soniya- 4,10 soniyaga hamaydi. Guruxlar o'rtasidagi farq 0,13 soniya'ni tashkil qilgan bo'lsada, statistik ma'lumot deyarli yo'q Kurashchilarning chidamlilik sifatini ko'rsatuvchi "1000 metrga kross yugurishda" nazorat guruxi sportchilari tadqiqot boshida 3,39 soniya'ni qayd qilishgan edi. Ushbu ko'rsatkich tadqiqot oxirida 2,90 soniya'ni tashkil etdi.

Aksincha tadqiqot guruxidagi kurashchilarda ushbu farq dastlab 4,21 soniya bo'lsa, so'nggi natija esa 3,50 soniyaga to'g'ri keldi. Demak, tadqiqot davomida muntazam ijro etilgan, yo'naltirilgan mashqlar majmuasi, tadqiqot guruhida chidamlilik sifatining o'sishiga ijobiy tasir etib, 6 oylik uzluksiz mashg'ulotlar yakunida tadqiqot boshida ko'rsatilgan natija 4,21 soniyadan 3,50 soniya ya'ni 0,71 soniyaga kamayishiga olib kelgan 7 nafar milliy kurashchilarning egiluvchanlik sifatleri "Oldinga egilish" testi bo'yicha nazorat guruhi, sportchilari dastlab 26 sm.ni tashkil qilgan edi, tadqiqot oxirida ushbu ko'rsatkich 28,8sm.ga to'g'ri keldi.

Tadqiqot guruxi sportchilarida aynan shu test bo'yicha, dastlab 26,14 sm.ga teng edi, tadqiqot oxirida esa ushbu ko'rsatkich ancha yaxshi natija ya'ni, 34,12 sm.ga o'sdi. Nazorat va tadqiqot guruxlari o'rtasidagi farq 5,3 sm.ni tashkil qilgan bo'lsada, guruxlar o'rtasida statistik farq yo'q.

Shuningdek, kurashchilarning chaqqonlik qobiliyatini aniqlash uchun qo'llanilgan "4 x 10 metrga mokisimol yugurish" testi bo'yicha nazorat guruxi o'quvchilarining chaqqonlik sifatleri tadqiqot boshida 7,35 soniyaga teng edi. Tadqiqot oxiri esa ushbu ko'rsatkich 7,45

soniyaga to'g'ri keldi.

Tadqiqot guruxi o'quvchilarining ko'rsatgan natijalari esa dastlab, 7,22 soniyaga, so'ngra 7,50 soniyaga teng keldi

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalari, tadqiqot guruxida qo'llangan jismoniy mashqlar majmuasini o'ta afzalligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev A.A, Xonkeldiev Sh.X “Bolalar va o'smirlar jismoniy tayyorgarligining ahamiyti” Farg'ona 2016 y.

2. Kerimov F.A. “Sport kurashi nazariyasi va usuliyati” darslik Toshkent 2001 y .

3. Nurshin J., Toymurodov N., Shokirjonov A. “O'zbekcha milliy kurash usullari” Toshkent 1987 y.

4. Nurullaev A.K. “Buxorocha milliy kurashda texnik - Taktik tayyorgarlikni kuch, tezkorlik sifatini takomillaytirish asosida oshirish” nomzodlik dissertasiyasi, avtoreferat. Toshkent 1997 y.

5. Po'latov A.A. “Harakatni aniq, ijro etishda vestibulyar analizatorning o'rni” Jismoniy tarbiya, sport va manaviyat ilmiy anjuman tezislar. Toshkent.

6. Toymurodov O.R. «O'zbek milliy kurashi»

7. Boltaboyev X.X “Kurash nazariyasi va uslubi” Namangan 2023 y.

## XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Dauletmuratova Bayramgul Maxsetbay qizi,  
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini xalq og‘zaki ijodi asosida rivojlantirishning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Kreativ qobiliyat, folklor, xalq og‘zaki ijodi tushunchalarining ta‘riflari, olimlarning fikrlari tahlil qilindi. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning tamoyillari va amaliy ahamiyati ham ko‘rib chiqildi.*

*Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, kreativ qobiliyat, xalq og‘zaki ijodi, folklor, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shiqlar.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

*Даулетмуратова Байрамгуль Махсетбай кызы,  
базовый докторант Нукусского государственного педагогического института*

*В данной статье говорится о теоретических основах развития навыков творческого мышления учащихся младших классов на основе народного творчества. Проанализированы определения понятий творческой способности, фольклора, народного творчества, мнения ученых. Также были рассмотрены принципы и практическая значимость развития навыков творческого мышления учащихся в начальных классах.*

*Ключевые слова: творческое мышление, творческие способности, фольклор, фольклор, сказки, загадки, пословицы, песни.*

## THEORETICAL PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS ON THE BASE OF FOLK’S ORAL CREATION

*Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay qizi,  
basic doctoral student of the Nukus State Pedagogical Institute*

*This article talks about the theoretical basis of developing creative thinking skills of elementary school students based on folk art. Definitions of the concepts of creative ability, folklore, folk art, opinions of scientists were analyzed. Also, the principles and practical importance of developing students’ creative thinking skills in primary grades were considered.*

*Key words: creative thinking, creative ability, folklore, fairy tales, riddles, proverbs, songs.*

*Kirish. Jamiyatimizda fan va texnikaning yuqori sur‘atlarda rivojlanishi va axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan insonning ijodiy va samarali fikrlashiga qo‘yiladigan talablar ham keskin ortib bormoqda. Bu esa, kichik maktab yoshidan boshlab bolalarni muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qiladigan, mustaqil ravishda samarali harakat qiladigan insonlarni tarbiyalab yetishtirishni taqozo etadi.*

*Yurtimizda yuqori salohiyatli, ijodiy fikrlaydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kelajak kasblar uchun zarur bo‘ladigan malakali bitiruvchilarni tayyorlashda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda “IT-Nation” dasturini joriy etish, kichik yoshdan o‘quvchilarda*

o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida kompyuterlashtirish darajasini ko'tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etish [1]. Xalq ta'limi tizimida belgilab qo'yilgan ushbu vazifalarni amalga oshirish bolaning boshlang'ich sinfdan boshlab kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish katta samara beradi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim o'z oldiga nafaqat o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni, balki ularning kreativ qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirishni o'z ichiga olgan maqsadlarni ham qo'yadi. Bolaning shaxsiy fazilatlarini, intellektual qobiliyatlari va ma'naviy sohalarining rivojlanganlik darajasi keyinchalik namoyon bo'lsa ham, asosan boshlang'ich sinf yoshidan boshlab shakllanadi.

Bu muammoning o'rganilganlik darajasiga nazar soladigan bo'lsak, qobiliyatlar nazariyasining konseptual asoslari, mazmuni va asosiy qoidalari B.Ananyev, V.Davidov, A.Leontiev, S.Rubinshteyn, B.Teplov, L.Vigotskiy kabi olimlarning va pedagoglarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

L.Aidarova, D.Elkonin, Z.Kalmikova, V.Krutetskiy, L.Zankov singari psixologlar o'quvchilarning kreativ fikrlashi va kognitiv faolligini rivojlantirishda, ijodiy faoliyat yuritish malakasining shakllanishida ta'lim sifatining ahamiyati katta deb hisoblaydilar.

A.Afanayev, F.Buslaev, V.Gusev, P.Kireevskiy, V.Suxomlinskiy, A.Vasilenko [5] va boshqalarning asarlarida turli davrlarda xalq og'zaki ijodi asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash muammosi o'z ifodasini topgan.

O'quv jarayonida o'quvchilarning xalq og'zaki ijodi asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari L.Vigotskiy, V.Drujinin, O.Sisun, V.Kuxaronak, N.Linkova, T.Radionova va G.Shevchenkolar tomonidan tadqiq qilingan.

Xalq og'zaki ijodi ilmiy adabiyotlarda folklor, og'zaki xalq ijodiyoti, xalq ijodiyoti deb yuritiladi [4, 3-b.].

O'zbek tilining izohli lug'atida, folklor – xalq ijodiyoti, xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (ertak, doston, qo'shiq, lapar, masal, maqol, matal, topishmoq va b.), – deb izohlanadi [6].

V.Gusevning ta'rifiga ko'ra, xalq og'zaki ijodi – ommaning dunyoqarashini ifodalovchi hamda ularning hayoti, turmish tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalq ijodiyoti [3, 6-b.].

Demak, xalq og'zaki ijodi xalqning intilishlari va g'oyalari, orzu-niyatlari va she'riy fantaziyasini o'zida mujassam etgan xalq og'zaki ijodidir.

Kreativlik – bu insonning standart g'oyalardan va qoidalardan chetga chiqish qobiliyati. Qobiliyatning bu turi intellektdan mustaqil ravishda – yangi narsani yaratish yoki kashf qilish bilan bog'liq fikrlash tarzida o'rganila boshladi.

D.Bogoyavlenskayaning nuqtai nazaridan, kreativlik – bu ma'lum bir muammodan tashqariga chiqish istagida namoyon bo'ladigan vaziyatga bog'liq bo'lmagan faoliyat [2].

Bizning fikrimizcha, kreativ fikrlash – tubdan yangi sub'ektiv bilimlarni yaratish yoki kashf qilish, o'ziga xos g'oyalarni yaratish bilan bog'liq ko'nikma.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirishning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Shuningdek, mavzu yuzasidan didaktik, pedagogik, psixologik manbalar o'rganiladi va olimlarning tadqiqotga doir ko'z qarashlari tahlil qilinib, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Yosh avlodni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi alohida ahamiyatga ega. Zero, ta'lim-tarbiya o'z xalqining ma'naviy me'rosini, tilini, folklorini, ya'ni xalq og'zaki

ijodiyoti g'oyalarining shakllanishidan boshlanadi. Xalq og'zali ijodi namunalari o'quvchi shaxsining ijtimoiy rivojlanishining yetakchi omili bo'lib xizmat qiladi. Xalq ijodiyotiga mehr qo'yish ajdodlar tajribasini o'zlashtirish va o'z xalqining madaniy qadriyatlarini tushunish qobiliyatini shakllantirishning dastlabki jarayoni hisoblanadi.

Bolalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, aynan boshlang'ich sinf yoshida bolalarda fikrlash, mulohaza yuritish, muammoni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati shakllanadi. Bu ko'nikmalarining shakllanishi erta yoshdan boshlanishi kerak. Xalq og'zaki ijodi madaniy merosning bir qismi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish uchun o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyati – ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan, moddiy va ma'naviy ob'ektlarni bilish, yaratish, o'zgartirish va foydalanishning ijodiy tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan bolalar faoliyatining samarali shakli.

O'quv faoliyatida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanish o'qituvchiga bolalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini va tasavvurlarini erkin rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar hali o'ynashni yaxshi ko'radigan yosh davrida bo'lib, atrofdagi dunyoni va boshlang'ich bilimlarni o'yin orqali o'zlashtiradi. O'yinga bo'lgan bu talablar bolalar folklorining barcha janrlari o'yin orqali boshlanishini oldindan belgilab beradi. Agar qaysidir janr bolaning o'yin harakatlari bilan bog'liq bo'lmasa, unda o'yin ma'no, tushuncha, so'z yoki tovushga bog'liq tashkil qilinishi mumkin.

Kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi faoliyat, tasavvur, assotsiativ fikrlash va divergent yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Xalq og'zaki ijodi (ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlar) ushbu jarayonni faollashtirishga hissa qo'shadigan majoziy va badiiy vositalarning boy majmuasini o'z ichiga oladi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda quyidagi janrlarning ahamiyati katta:

1. Ertaklar. O'quvchilarga muqobil yakunlarni tahlil qilish, izohlash va yaratishga imkon berish.

2. Maqol va matallar. Ular assotsiativ fikrlashni rag'batlantiradi va yashirin ma'nolarni anglashga o'rgatadi.

3. Topishmoqlar. Ular mantiqiy va ijodiy fikrlashni, aniq javoblarni izlab topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Dostonlar va afsonalar. Ular mifologiyaga qiziqish uyg'otadi va kreativ fikrlash asosida yangi hikoyalar yaratishni rag'batlantiradi.

Bolalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va xalq amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi tamoyillarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Faollik tamoyili. Talabalar jarayonning faol ishtirokchilari bo'lishlari kerak, masalan, ertaklarning davomi yoki o'z topishmoqlarini o'ylab topishlari kerak.

2. Integratsiya tamoyili. Xalq ijodiyoti boshqa fanlar – adabiyot, tasviriy san'at, musiqa bilan uyg'unlashishi kerak.

3. Tizimlilik tamoyili. Kreativlikni rivojlantirish izchillikni talab qiladi: oddiy vazifalardan (masalan, maqollarni yozish) murakkabroq (ertak yozish)gacha.

4. Muammoli ta'lim tamoyili. Talabalarga nostandart yechimlarni topishni talab qiladigan topshiriqlar taklif etiladi, masalan, "Agar qahramon bunday yo'l tutmaganida, berilgan vazifalari bajarmaganida ertak qanday tugar edi?"

5. Individuallashtirish tamoyili. Har bir bolaning qobiliyati va qiziqishi hisobga olinadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi o'qish, ona tili, musiqa va texnologiya darslari bilan birlashtirilishi mumkin. Masalan:

1. O'qish darslarida. Ertaklar tuzilishini tahlil qilish, matnlarda noodatiy yechimlarni izlash, ertaklar uchun yangi qahramonlar yaratish yoki topishmoqlar uchun rasmlar chizish.

2. Ona tili darslarida. O'rganilgan grammatik qoidalardan foydalangan holda yangi topishmoqlar yoki maqollar tuzish.

3. Musiqa darslarida. Xalq qo'shiqlari asosida kuylar yaratish.

4. *Texnologiya darslarida. Ertaklar syujetiga oid illyustratsiyalar va hunarmandchilik buyumlarini yaratish.*

*Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, xalq og'zaki ijodi manunalari nafaqat bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi, balki boshlang'ich sinf o'quvchisining shaxsiyatini shakllantirish uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonini an'ana va madaniy meros bilan bog'lashning samarali usuli hisoblanadi. Bu boradagi izlanishlarni davom ettirish, o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish va o'qituvchilar bilan tajriba almashish, o'qitishda yangi marralarni zabt etishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Yuqoridagi tamoyillarni hayotga tatbiq etishda xalq amaliy san'atini ta'lim jarayoniga integratsiyalash, bolalarning kognitiv qiziqishini rag'batlantirish va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.*

*Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni

2. Богоявленская, Д.Б. Диагностика становления творческой личности - Таллинн, 2000.

3. Гусев В.Е. Эстетика фольклора / В.Е. Гусев. - Л.: Наука, 2003. – 318 с.

4. Орлова Н. Использование пословиц и поговорок в работе с детьми / Н. Орлова // Дошкольное воспитание. - 1984. - № 4. - С. 8–11.

## BOSHLANG'ICH SINFDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH

*Davletova Mavluda Rustamovna  
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti 2-bosqich magistri.*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va tanlash, iqtidor tushunchasi o'zi nima ekanligi, boshlang'ich sinflarda o'quv yillik qay tarzda shakllantirilgan va o'quvchilarning qiziqishga qarab to'g'arak mashg'uloti tanlangan. Ularga qanday topshiriq berilsa samarali bo'lishi, to'g'arak mashg'uloti integratsiyalashtirilgan holda tuzilgan, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish va o'quvchilar iqtidorini rivojlantirishning samarali ishlashini ta'minlovchi pedagogik mahorati va qobiliyati bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: ijodiy faoliyat, iqtidorli o'quvchilar, topshiriqlar, pedagogik-psixologik va jismoniy rivojlanishi, ta'lim samaradorligi.*

## ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА РАБОТЫ С ОДАРЁННЫМИ УЧАЩИМИСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Аннотация: В данной статье проводится выявление и отбор одаренных учащихся, что такое понятие одаренности, как формируется учебный год в начальных классах, подбирается групповая деятельность исходя из интереса учащихся. Описаны педагогические умения и навыки, обеспечивающие эффективное функционирование обучения и развития талантливых учащихся, развитие таланта учащихся.*

*Ключевые слова: творческая деятельность, одарённые ученики, задания, педагогическое, психологическое и физическое развитие, эффективность обучения.*

## ORGANIZING THE PROCESS OF WORKING WITH TALENTED STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL

*Annotation. This article discusses identifying and selecting talented students, the concept of talent itself, how the academic year is structured in primary grades, and how extracurricular activities are chosen based on students' interests. It also elaborates on which assignments are most effective for them, the integration of extracurricular activities, the upbringing and development of talented students, and the pedagogical skills and abilities required to foster and enhance students' talents effectively.*

*Key words; Creative activity, talented students, assignments, pedagogical-psychological and physical development, educational efficiency.*

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida iqtidorli o'quvchini tanlab olish, ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror misol bo'la oladi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son.

Ayni damda "Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud"1.

Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2024 yildagi PQ-346-sonli.

“Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurati ham mavjud.”<sup>2</sup>

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi iqtidorli o'quvchilarni qanday aniqlab oladi. Avvalam bor, iqtidor tushunchasiga to'xtalsak. Iqtidor arabcha so'zdan olingan bo'lib “qodir bo'lmoq, qila olmoq” ma'nolarni anglatadi. Shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha. Ko'p adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Masalan:

“1) iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi”<sup>3</sup>

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror-bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

“Iqtidorli bola – bu u yoki bu faoliyat turida yorqin, ravshan, ba'zan ajoyib yutuqlar bilan ajralib turadigan (yoki bunday yutuqlarning ichki shart-sharoitlariga ega) bola. Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi; – nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, kompyuter va kompyuter o'yinlariga, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- zamonaviy kompyuter texnologiyasida maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi.

Pedagogik nuqtayi nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar – maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu umumiy qobiliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat – aktual, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat – potensial qobiliyat deyiladi.”<sup>4</sup>

O'quvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishning samarali

yo‘li ularni turli to‘garaklarga jalb etishdir. O‘quvchilar o‘z qiziqishlari, ba‘zan ota-onasining maslahati bilan darsdan so‘ng muayyan fan to‘garaklariga a‘zo bo‘lishadi. To‘garak mashg‘uloti darsdan tashqari ijodiy jarayon bo‘lib, to‘garak rahbari tuzadigan to‘garak mashg‘ulotlarining dasturi va rejasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsda o‘zlashtirishi murakkab bo‘lgan mavzular yoki o‘quvchilar yanada chuqurroq bilishni xohlaydigan mavzularga oid materiallardan iborat bo‘lishi lozim.

Bunda o‘quvchining yoshi, qiziqishi va darslarda qaysi mavzularni qiyinchilik bilan yoki uzoq muddatli takrorlashlardan so‘ng qabul qila olishiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

To‘garak mashg‘ulotining vazifasi dars o‘tish yoki bilim berishgina emas, balki, o‘quvchilar bilan birgalikda turli o‘yinlar orqali o‘rganilayotgan mavzu doirasida amaliy jarayonni tashkil etishdan iboratdir.

O‘quvchining to‘garakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga, o‘z qiziqishlariga qarab yo‘naltirilganligi ham muhim o‘rin tutadi. Agar o‘quvchi o‘ziga mos mashg‘ulotga jalb qilinmasa, ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bola o‘zi qiziqmagan, o‘z qobiliyatiga mos bo‘lmagan mashg‘ulotlarga majburlansa, tezda bu ishdan bezib qolishi turgan gap. Ayniqsa, bolaning jismoniy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olishni unutmazlik lozim.

To‘garak mashg‘uloti aynan bitta fan yuzasidan olib boriladigan bo‘lsa, o‘quvchilarni qiziqitira olish imkoniyati kamroq bo‘ladi. Agar, fanlararo integratsiyalashuv asosida olib borilsa, sinf o‘quvchilarining aksariyat qismini jalb qilinishiga sababchi bo‘ladi.

Ushbu to‘garak mashg‘uloti integratsiyalashtirilgan holda tuzilgan bo‘lib, barcha fanlarni qamrab oladi. Bu esa o‘quvchilarning to‘garak mashg‘ulotiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshishiga, hayot saboqlarini puxta egallashlariga turtki bo‘ladi. Shu fikrlarni inobatga olib va kuzatishlarim natijasida shuni bildimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umumiy hamda universal qobiliyat shakillangan bo‘ladi. Buni sinflar kesimida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Boshlang‘ich ta‘lim 1-2-3-4-sinflarni o‘z ichiga oladi. Bizga ma‘lumki, 1-sinfning 3-choragidan iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayoni boshlanadi va qolgan sinflarda to‘garak mashg‘ulotlari haftasiga 2 marta, o‘quv yili davomida 34 soat iqtidorlilar bilan ishlash va bosh o‘zlashtiruvchilar bilan ishlash kiradi. Jami 68 soatni tashkil etishi belgilab qo‘yilgan. Kuzatish metodi orqali iqtidorli o‘quvchilarning qiziqishidan va qobiliyatidan kelib chiqib fan to‘garaklari shakllantiriladi. 1-sinfda, asosan, ona tili va matematika fanlariga qiziqishini ko‘rishimiz mumkin. To‘garakka nom qo‘yiladi, shu fanlardan mavzular, kunlari va soati ajratilib taqvim – reja tuziladi. Namuna :

#### 1-sinf “ Ijodkorlar” mashg‘uloti. 17 -soat

№	Mavzular	Soat	Sana
1	To‘garak va uning maqsadi haqida umumiy ma‘lumot.	1	
2	21-100 ichidagi sonlar “ Oyim bergan pomidor “	1	
3	Kim tez o‘qiydi? O‘qish fanidan musobaqa	1	
4	Mantiqiy masalalar yechish	1	


2-sinf uchun yiliga 68 soat ajratilgan. 34 soat iqtidorlilar bilan ishlash va 34 soat bo'sh o'zlashtiruvchilar bilan ishlash.

3-sinf uchun yiliga 68 soat ajratilgan. 34 soat iqtidorlilar bilan ishlash va 34 soat bo'sh o'zlashtiruvchilar bilan ishlash.

4-sinf uchun yiliga 68 soat ajratilgan. 34 soat iqtidorlilar bilan ishlash va 34 soat bo'sh o'zlashtiruvchilar bilan ishlash.

Sinflarda kelib chiqib, iqtidorli o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, mavzularga mos ravishda "uchtasi birda" yoki "to'rtasi birda" topshiriqlar tuzilmasini tayyorlash mumkin. Namuna:


### Topshiriq



Topshiriqda qatnashgan geometirik shaklni chizing va bo'yang .

#### 1. Hisobla va mazaykadan to'liq rasm hosil qil

234+135	146+233	362+135	424+75
450+25	475+25	525+50	575+25
425+135	346+226	247+161	508+132
700+150	600+225	240+500	167+400



#### 2. "Chalkash" bo'g'inlarni joy- joyiga qo'yib so'zlarni to'g'rilab husnixat asosida yozing.

TOB-KI \_\_\_\_\_ S H I - M A - N A  
 \_\_\_\_\_ L I S H - K A \_\_\_\_\_ L E - T E - F  
 O N \_\_\_\_\_ L A M - Q A \_\_\_\_\_ R A -  
 T O - G ' O \_\_\_\_\_ S H U K - M U \_\_\_\_\_  
 L A K - M A - K A \_\_\_\_\_ L A K - K O ' Y  
 \_\_\_\_\_ K O P - L I - C H A \_\_\_\_\_

#### 3. Rasm asosida matn yarating va yozing. Matnda kim? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni tagiga bir chiziq chizing.



Savol ;

1. Rasmda O'zbekistonning qaysi hududi tasvirlangan?
2. Rasmda aks etgan qanday milliy o'yin turi?
3. O'qish kitobingizda milliy o'yinlar mavzusi bormi? Sarlavhasini toping va u nima haqida ekanligini yozing.
4. Siz ham raqsga tushing.

Iqtidorli o'quvchilar bunday topshiriqlarni katta qiziqish bilan kutishadi, sababi har bir o'quvchi boshlang'ich sinf fan darsliklarini yanada ko'proq bilim olish uchun bajaradilar. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni faollikka, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga, o'tilgan mavzularni va yangi bilimlarini mustahkamlashga, jismoniy quvvatini oshirishga yordam beradi.

“To'rtasi birda” deb nomlanishiga sabab bunda to'rtta fandan topshiriq va savollar tuzilgan. Qancha fan qo'shishi yoki kamaytirish pedagogning xohish va istagi, shunga qarab nomi ham o'zgarib boradi. Bu topshiriqda fanlar bir biriga bog'langan, soddadan murakkabga qarab borgan. Birinchi topshiriq rasmi bunda matematik mantiq va geometrik chizmalar chizishadi. Ikkinchi topshiriqda matematik tezkorligini va texnologiya fanida o'rgangan mazusi mazayka ustida ish bajaradilar. Uchunchi topshiriqda esa diqqatini, xotirasini kuchaytiruvchi, so'zning fanetik tuzilishi va husnixatini ustida ish olib boradi. To'rtinchi topshiriqda kuzatuvchanligini, olgan bilimni hayotga qo'lay olishini, o'ziga ishonchini va har bir fan bir birini to'ldirishini anglagan holda topshiriq bajaradilar. Shundan kelib chiqib, iqtidorli o'quvchilarni yanada ko'paytirish va yoqtirgan mashg'uloti ishlash uchun bunday topshiriqlarni ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilib aytganda har bir bolajonda qobiliyat va iqtidor bo'ladi. Iqtidorli o'quvchilarni safini kengaytirish maqsadida qaysi fanga qiziqishi va layoqati borligini bilib, aniqlab va ular bilan ishlash turini pedagog anglab tushunishi kerak. Yuqorida ko'rib chiqqan to'garak mashg'ulotimiz uchun qilingan topshiriq ish turimizning bir ko'rinishi desak bo'ladi. Bunday ish turlarini ishlab chiqish uchun pedagogda kreativ fikr, zamonaviy ped texnologiyalarni qo'llovchi, o'z ustida ishlovchi va muhimi o'quvchilar qayerida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishini payqay olib to'garak mashg'ulotlarini, shu to'garaklarga tizimli, izchil davomiy, fanlar aro integratsiyalashtirilgan topshiriqlar tuzuvchi bo'lish kerak. Shunda pedagog iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yadi, ko'zlagan natijasiga erishadi. Inson yoqtirgan mashg'uloti bilan shug'ullansa albata biron bir yutuqga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4306/3078-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz Davlat dasturi to'g'risida”gi PF-5466-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3907- son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.

4. Lex .uz PQ-4306-son 03.05.2019. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va...

lex.uz/docs/-4320713

5. ziyonet > Kutubxona > Boshlang'ich sinflarda iqtidorli...

library.ziyonet.uz>book/11917

6. Umumiy psixologiya. P.I. Ivanov, M.Ye. Zufarova. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. Toshkent, – 2008-yil.

7. Методические рекомендации по организации работы специалистов сферы общего образования по выявлению и сопровождению детей, проявивших выдающиеся способности. Авторы-составители: Яковлева Н.И., Иванова Т.С. и др. МОН РФ ГОУ ВПО Московский государственный областной университет. 2017 г.

8. Otajonovna K.M. Pedagogical bases of formation of innovative culture of the educator of preschool educational institution // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 5. – S. 457–460.

9. Otajonovna K.M., Bakhodirovna N.M., Kizi T.R.N. Pedagogical bases of the organization of methodical work in professional colleges // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 4. – S. 1095–1098.

10. Rahmatova F.G'. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning nazariy-texnologik jihatlarini. Uslubiy qo'llanma. Samarqand-2019. – S. 46–48, 66–68.

## **GERMENEVTIK TA'LIMOT ASOSIDA ONA TILI TA'LIM MAZMUNINI METODIK RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI**

*Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna*

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, katta o'qituvchisi*

*Аннотация. Она тили та'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak Она тили o'qituvchilariga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida Она тили o'qitish metodikasi ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Talabalarda она тилиni o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari, germeneytik yondashuv, она тилиning ta'lim mazmunida tutgan o'rni, Она тилиning har bir sathi doirasida talabalarga beriladigan BKMLar majmuasi, innovatsion pedagogik-metodik faoliyatining nazariy asoslariga oid nazariy bilimlarni oquv topshiriqlari ustida ishlash, talabalar bilan она тили ta'lim mazmuni metodikasiga oid amaliyotini to'liq o'zlashtirishlariga erishish. Она тили ta'lim mazmunida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir germeneytik ta'limot maqolada o'z aksini topgan.*

*Kalit so'zlar: Til, tafakkur, uzviylik, so'z, vosita, mahsul, moddiy borliq, o'quv jarayoni, til birligi, nutq, talaba, germeneytik ta'limot*

## **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАЗРАБОТКИ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Джураева Шахноза Шакирьяновна*

*старший преподаватель Ташкентского университета прикладных наук*

*Аннотация. Уметь использовать научно-теоретические основы обучения узбекскому языку, наиболее удобные и современные методы обучения на разных этапах обучения, преподавать методику преподавания узбекского языка с учетом профессиональных требований к будущим учителям узбекского языка. Оно заключается в обучении эффективным методам, формам и методам обучения содержанию языка на уровне современных требований с выделением педагогических и методических возможностей их реализации. Методы и методы обучения студентов каракалпакскому языку, их теоретические основы, герменейтический подход, роль узбекского языка в содержании образования, набор БКМ, даваемых студентам на каждом уровне узбекского языка, теоретические знания узбекского языка. теоретические основы инновационной педагогической и методической деятельности для работы над поставленными задачами, достижения полного овладения на практике методикой содержания образования узбекского языка со студентами. В статье отражено герменейтическое учение о развитии научного мировоззрения в узбекском языковом образовании.*

*Ключевые слова: Язык, мышление, единство, слово, орудие, продукт, материальная сущность, учебный процесс, языковая единица, речь, ученик, герменейтическое учение.*

## DIDACTIC FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE CONTENT OF NATIVE LANGUAGE EDUCATION ON THE BASIS OF HERMENEUTIC EDUCATION

*Djorayeva Shakhnoza Shakirjanovna*  
*Senior Lecturer, Tashkent University of Applied Sciences*

*Annotation. To be able to use the scientific and theoretical foundations of mother tongue education, the most convenient and modern methods of teaching at different stages of education, to teach the methodology of teaching the uzbek language based on the professional requirements for future teachers of the uzbek language. It consists of teaching effective methods, forms and methods of teaching the content of the language at the level of modern requirements, highlighting the pedagogical and methodological possibilities of their implementation. The methods and methods of teaching the uzbek language to students, their theoretical foundations, the hermeneutic approach, the role of the uzbek language in the educational content, the set of BKMs given to students at each level of the uzbek language, theoretical knowledge of the theoretical foundations of innovative pedagogical and methodological activities to work on the tasks, to achieve full mastery of the practice of the uzbek language educational content methodology with the students. The hermeneutic teaching on the development of a scientific worldview in the uzbek language education is reflected in the article.*

*Key words: Language, thinking, unity, word, tool, product, material entity, educational process, language unit, speech, student, hermeneutic teaching*

Kirish. Bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarga modul-kredit tizimini keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik va metodik shart-sharoit talabalarni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ona tili o‘qitish metodikasiga oid kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni metodik rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko‘zda tutilgan. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko‘zda tutilgan. Ona tili o‘qitish metodikasida o‘rganishga qo‘yilgan aniq malaka talablari asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o‘qish) va (yozish) ko‘nikmalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatib turibdi. Bu esa, o‘qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, pedagogic-didaktik shart-sharoitlarini takomilashtirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o‘qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh. Yusupova va N. Dadajonova kabi tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tili ta‘limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi asosida o‘qitishni targ‘ib qilgan. A.G‘ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, A. Bobomurodova, N. Alavuddinova, V. Karimjonova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o‘qitish asosida mustaqil ta‘lim topshiriqlarini ishlash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. T. Yusupova gapning bosh bo‘laklarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta‘lim mazmunida metodik va nazariy ta‘lim bo‘yicha tadqiqotchi olimlar H. Ne‘matov, A. G‘ulomov, M. Qodirov, A. Nurmonov, A. Sobirov, B. Mengliyev, L. R. Raupova, B. To‘xliyev, Sh. Yusupova, T. Ziyodova, O. Oxunjonova, D. Jumashv kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlar yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishlarni O. Roziqov, N. Mahmudov, R. Safarova, U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev, H. Alavuddinova, R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, kabi tilshunos olimlar o‘rganagan.

Ona tili ta‘lim mazmunini metodik o‘rganish, ona tili o‘rganish tizimi ona tilning barcha

tomonlarini, yani fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis) ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi. Ona tili ta'lim mazmunini metodik barcha tomonlari o'zaro bog'lanishining ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon boiadi. Aloqa vositaligi tilning muhim xususiyati, asosidir. Bu vazifani tilning har bir qismi boshqa qismlar bilan o'zaro bog'lanishda bajaradi. Har bir so'zga xos bo'lgan tovush shakli kishilarga aloqa uchun imkoniyat yaratadi. Ammo so'zning tovush qurilishi, shakli mazmunsiz, aqlga to'g'ri kelmaganidek, o'zicha yashamaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qilishi mumkin. Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Ona tilining lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi. So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalishining xarakterli xususiyatlari mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalish usullari tilshunoslik fanining so'z yasalishi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Morfologiya va sintaksis har tomonlama o'zaro bog'lanadi. Morfologiyada, asosan, so'zlarning grammatik ma'nosi va uni ifodalash shakllari o'rganiladi; sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lanib so'z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi o'rganiladi. So'z morfologiyada ham, sintaksisda ham o'rganiladi, ammo o'rganish obyekti har xil bo'ladi. Sintaksisning o'rganish obyekti gapdir; unda so'z gap yoki so'z birikmasida boshqa so'zlar bilan ma'no va grammatik jihatdan bog'langan holda o'rganiladi. Morfologiyada so'z gapdan tashqarida ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bog'liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so'z va gapning o'zida yashaydi. So'zlar so'z o'zgarish tizimiga ega bo'lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalishi va so'z yasalishi morfologiyada o'rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so'zlarning o'zaro bog'lanish qoidalarini o'rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. "So'z birikmasi" tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanish usulini aniqlashda shu so'z birikmasiga kirgan so'z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo'limi ekanini ta'kidlash uchun etarli. Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga predmetlararo ichki bog'lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'rgatish metodikasini belgilaydi:

Tahlil va natijalar. Ona tilining barcha tomonlari o'zaro bog'liqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, talabalar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur. Filologik ta'lim yo'nalishlarida 1-4-kurslarda ona tilini metodik o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va grammatikaning o'zaro bog'lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hoi dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

Ona tili ta'lim mazmunining barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak. Shularni hisobga olib, 1-kurs talabalar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini grammatik nuqtai-nazardan tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida

tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi. "So'z" mavzusi o'tilayotganda talabalar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham talabalarning metodik tushunib olishlariga erishishi lozim. Gap" mavzusini o'rganish vaqtida esa ishning asosiy yo'nalishi nutqda gapning ona til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va talabalarda og'zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish hisoblanadi. OTMda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadi-gan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi. Talabalarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini germenevtik ta'limot asosida rivojlantirishdir. Bu vazifani hal qilishda ta'limiy maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – talabalarni shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda talabalarda ilmiy dunyoqarashni germenevtik ta'limot asosida metodik usulini belgilaydi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa vazifasini ifodalashdan iboratdir. OTMda, shu jumladan, 1-2-kurs talabalarida ona tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi talabalar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ondan tashqarida o'zicha yashamaydi. Ona tili ta'lim mazmunining barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish talabalarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun germenevtik ta'limot ilmiy asos yaratadi.

Ona tili ta'lim mazmunining rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni 1-2 kurs talabalar ot, sifat, son, fe'lni grammatik o'rganish jarayonida bilib boradilar. Bu o'rinda "So'zning tarkibi" bo'limi katta imkoniyatga ega. Talabalar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalishi bilan tanishadilar. Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: uzum tipida uzumzor, suvchi tipida bo'zchi kabi. Ona tili ta'lim mazmunida yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: ishli, ishsiz, ishchi kabi. Ona tili ta'lim mazmunining rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmagan. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan xarakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida talabalar saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va talabalarning kuzatishlari talabalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini rivojlantirishga mos material beradi. Ona tili ta'lim mazmunidan bilim berishda talabalarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi ilmiy-metodik umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham talabalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Ona tili ta'lim mazmuniga oid bilimni o'rganish natijasida talabalar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Germenevtik ta'limot asosida dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish

ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati talabalarda asta-sekin rivojlana boradi va o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda talabalarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Tilni o'rganishda talabalar uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida talabalarning o'zlari "topgan" yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi. Ona tili ta'lim mazmunini o'rganish jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarini metodik rivojlantirish masalasini hal qilishda ona tili ta'lim mazmunining o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi talabalarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, ona tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalihi uchun morfema, tuzilishi va yasalihi jihatdan so'z hisoblanadi. So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalihi turi, biror grammatik kategoriyasi, ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydinlashadi. Gap va so'z birikmasi "qurilish material" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir. Shunday qilib, tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Ona tili ta'lim mazmunida Grammatik bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xshash murakkabdir. Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi. Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi. Leksikologiya so'z yasalihi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalihi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi. Morfologiya leksikologiya va so'z yasalihi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi. So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalihi xarakterli xususiyatlarni mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalihi usullari ona tili ta'lim mazmunining so'z yasalihi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Morfologiyada so'z gapdan tashqarida ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday har xil yondashish

ularning bir-biriga bog‘liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so‘z va gapning o‘zida yashaydi. So‘zlar so‘z o‘zgarish tizimiga ega bo‘lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shaki yasalishi va so‘z yasalishi morfologiyada o‘rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qoidalarini o‘rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usulini aniqlashda shu so‘z birikmasiga kirgan so‘z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo‘limi ekanini ta’kidlash uchun yetarli hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimova, K. Mavlonova, S. Qurunov, Sh. Tursun, Z. Rozmetova Ona tili ta’lim mazmunini takomillashtirish T.: Respublika ta’lim markazi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: 2022.-144 b.
2. Axmedova M.E. Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida o‘zbek tili ta’limda mustaqil o‘quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. Uslubiy ko‘rsatma, “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022
3. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida) Monografiya., Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022. 173 bet
4. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi// O‘zMU XABARLARI, 2022, 1/2/1, 95-97 betlar
5. Axmedova M.E. Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari// Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2 (86), Xorazm Ma’mun akademiyasi nashirlik bulimi, 2022, 470-472 betlar
6. Axmedova M.E. OTM filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari
7. Borovkov A., G‘ulomov A., Ma’rupov Z., Shermuhammedov T. O‘zbek tili grammatikasi. Yetti yillik va o‘rta maktablarning 5-6-sinflari uchun darslik. I qism. Fonetika va morfologiya. –T.: O‘zdavnashr, 1946. – 227 b.
8. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr 2020, 252 bet.
9. Ziyodova T., va boshqa O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun. O‘quv qo‘llanma – T.: Bayoz, 2012. – 152 b.
10. Koziyeva T.T. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari. Monografiya. 2024 yil 180 bet

## МА'NAVİY – AXLOQIY QADRYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Elboboyev Yashin Komil o'g'li,  
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ro'y berayotgan ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, Yohlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oyasi ostida tashkil etilganligi, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxs-larni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanganligi haqida to'xtalib o'tilgan. Mazkur maqolaning asosiy mazmun-mohiyati o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qad-riyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va g'ururni yuksaltirish, bebaho boylik – tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarini shakllantirish, zarurat bo'lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iboratligi, ma'naviy – axloqiy qadryatlar asosida yohlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish haqidagi fikrlar yoritilgan. "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishning milliy ma'naviyat paradigmasini yuksaltirish yo'llari, ya'ni etnopsixologik tahlil qilish, ijtimoiy muhitga asoslanish, kognitiv yondashuv asosida tarbiyalash" usullari ham maqolada yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Xulq-atvor, qadriyat, qonun, tizim, axloq, aksiologik, estetika, lokal, armiya, vatanparvar, g'oya, harbiy, ta'lim, fan, tahlil, entopsixologik, burch, g'urur, ma'suliyat, mashaqqat, ona-yurt, tarbiya, muhabbat, tuyg'u, tasavvur, shubha, faxr-iftixor.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ ДУХОВНО- НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Эльбобоев Яшин Камил оглы,  
Независимый соискатель ТГПУ имени Низами

*Аннотация: В данной статье рассматриваются социально-политические изменения, происходящие сегодня, работа по воспитанию молодежи в духе военного патриотизма «Родина велика, долг свят!» Оно было организовано в соответствии с концептуальной идеей мышления и мышления людей с сильными убеждениями как личной задачи. Сохранить в поколении первоначальную суть этой статьи – нашу великую историю, уважая древние ценности, поднимая дух и гордость, соблюдая необходимость сохранения и защиты бесценного национального богатства – мира и спокойствия. Мысли о совершенствовании механизма воспитания в духе патриотизма, основанного на моральных и нравственных ценностях, состоящего из воспитания, готового защитить суверенитет страны в случае необходимости. В статье также освещены методы «пути поднятия национальной духовной парадигмы восстановления патриотизма у молодежи, то есть этнопсихологический анализ, основанный на социальной среде, воспитание, основанное на когнитивной основе».*

*Ключевые слова: Поведение, ценность, закон, система, мораль, аксиологическая, эстетическая, местная, армия, патриот, идея, военное, образование, наука, анализ, этнопсихологическое, долг, гордость, ма . ответственность, трудолюбие, Родина, образование, любовь, чувство, воображение, сомнение, гордость.*

## IMPROVING THE MECHANISM OF EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM BASED ON SPIRITUAL AND MORAL VALUES

*Elboboev Yashin Kamil ogli,  
Independent applicant of Nizami TSPU*

*Abstrakt: In this article, the social and political changes taking place today, the work of educating young people in the spirit of military patriotism, «Motherland is great, duty is sacred!» It was mentioned that it was organized under the conceptual idea, and that the formation of individuals with strong opinions and beliefs is defined as the main task. The main content of this article is to form qualities in the growing generation, such as the need to treat our great history and ancient values with respect and honor, to raise the national spirit and pride, to preserve and protect the priceless wealth - peace and tranquility. The idea of educating young people in the spirit of military patriotism on the basis of spiritual and moral values is explained. «The ways of raising the national spiritual paradigm of forming patriotism in young people, i.e. ethnopsychological analysis, based on the social environment, education based on the cognitive approach» are also covered in the article.*

*Keywords: Behavior, value, law, system, morality, axiological, aesthetic, local, army, patriot, idea, military, education, science, analysis, entopsychological, duty, pride, ma responsibility, hard work, motherland, education, love, feeling, imagination, doubt, pride.*

Hozirgi kunda ro‘y berayotgan ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar xulq-atvorning yangi ijtimoiy me‘yorlari va andazalari paydo bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda. Madaniy-tarixiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishi esa o‘z navbatida, insonning yetakchi qadriyatlari mazmun-mohiyatida aks etadi. Turli tizimlardagi odat va an‘analarning to‘qnashuvlari natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-normativ mavhumlik to‘g‘ri va noto‘g‘ri, ezgulik va yovuzlik, qonun va axloq, erkinlik va mas‘uliyat o‘rtasidagi chegaralar buzilishiga olib keladi. Ideal olamning abadiy qadriyatlari bilan bir qatorda hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan lokal “bir kunlik”, “yanglish qadriyatlar” paydo bo‘lmoqda. Hozirgi kun voqeligi shundayki, ma‘lum geografik koordinatalarga ega konkret joyda istiqomat qilayotgan inson turli qutbli madaniy an‘analarni bosimini his qiladi. Ijtimoiy olamning aksiologik manzarasi bunday qarama-qarshi yo‘nalganlikni insoniyat tarixida ilk bor paydo bo‘lgani bois, “kim bo‘lmoq”, “qanday bo‘lmoq” tanlovi hudud va an‘analardan holi ko‘rinishni qabul qilmoqda.

Ma‘naviyat – yaxlit bir tizim. Bu tizim o‘z navbatida ijtimoiy ong shakllariga mos keladi. Bu tizim huquq, siyosat, din, axloq, estetika, adabiyot, san‘at, fan kabi nisbatan mustaqil tuzilmalardan tashkil topgan. Ularning har biri o‘z qonuniyat doirasida shakllanib, rivojlanib, bir-birini to‘ldirib boradi. O‘z navbatida ma‘naviyat yaxlit tizim sifatida tarkibiy qismlariga ta‘sir o‘tkazadi, shu bilan birga qismlar ham yaxlit tizim – ma‘naviyatga ta‘sir qiladi. Ma‘naviyatga jamiyat taraqqiyotining quyi pog‘onalarda ilm-fan, adabiyot va san‘atga nisbatan ko‘proq axloq, din ta‘sir ko‘rsatadi.

Inson ma‘naviy ongi axloqiy his-tuyg‘ulardan “unib” chiqadi. Ya‘ni insonparvarlik, vatanparvarlik, rahm-shafqat, izzat-hurmat, burch, uyat, g‘urur, or-nomus, vijdon azobi, minnatdorlik, zavq-shavq, xursandchilik, baxt, xafagarchilik, qo‘rquv kabi his-tuyg‘ulardan axloq boshlanadi. Axloqiy his-tuyg‘ulardan tashqari, go‘zallik, erkinlik, teng huquqlilik, nafs, hirs, shayton vasvasasi, savob-gunoh va boshqa diniy tuyg‘ular ham insonga xosdir.

Vatanparvarlik deganda yurtga muhabbat va sadoqat, yurt uchun xizmat qilish, bu yo‘lda butun umr va salohiyatingizni, kerak bo‘lsa, joningizni fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha xalqlar, millatlar va elatlarga xos umuminsoniy tuyg‘ular va ma‘naviy qadriyatlardan biri bo‘lib, asrlar osha sayqallanib kelgan. Tarixiy nuqtai nazardan, vatanparvarlik – odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida o‘z Vatani taqdiri, xalqlarning o‘zi yashayotgan hududning yaxlitligi va mustaqilligi uchun kurashi bilan bog‘liq bo‘lgan tuyg‘ular majmui. Vatanning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanish, uning kelajagi haqida qayg‘urish va manfaatlarini himoya qilish.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oyasi ostida tashkil etilib, unda qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxslarni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va g'ururni yuksaltirish, bebaho boyluk – tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo'lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu o'rinda e'tiboringizni "harbiy-vatanparvarlik" tushunchasiga qaratmoqchiman. Chunki harbiy va vatanparvarlik tushunchalari o'zaro mushtarak bo'lib, ularni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu yaxlit tushunchaning asosiy maqsadi ham yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat. "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishning milliy ma'naviyat paradigmasini yuksaltirish yo'llari, ya'ni etnopsixologik tahlil qilish, ijtimoiy muhitga asoslanish, kognitiv yondashuv asosida tarbiyalash" usullarini ham ko'rib chiqish tadqiqot ishining ilmiy farazini asoslashga yordam beradi. Milliy ma'naviyat paradigmasi bu har bir millatning ma'naviy qadriyatlarini asos qilib olgan holda milliy qahramonlik obrazlari, tarixiy buyuklik ideologiyasi va milliy qadriyatlar va o'zlikning softligi g'oyasi asosida birlik va birdamlikka yo'naltirilgan vatanparvarlik tarbiyasi hisoblanadi. Chunki vatanparvarlik uchun vatanda qadrlil tushunchalar bo'lishi talab etiladi. Yani yoshlarni vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda o'z vatanida qadrlil va yuksak ma'noga ega bo'lgan nimadir bo'lishiga urg'u beriladi.

Mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta'kidlaganidek: "...mamlakatimiz bo'ylab "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakatini tashkil etganimiz hamda barcha umumta'lim maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o'quvchi yoshlarni qamrab olgan guruhlarini tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotganini ta'kidlash lozim".

"Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakatining huquqiy asoslari haqida so'z borganda, Prezidentimizning 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga to'xtalish lozim. Farmonga muvofiq, "O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlangan.

Dasturning 3-qismida yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan bir qancha bandlar belgilangan. Jumladan, Mudofaa vazirligi huzurida bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Ayni vazifalar 2021-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida ilgari surilgan yangi tashabbus va g'oyalarni amalga oshirish hamda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini so'zsi ta'minlash maqsadi bilan chambarchas bog'liqdir.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Eng bebaho oliy ne'mat – tinchligimiz va

osoyshtaligimizning qadriga yetishimiz, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxt-u kamoli uchun bu ulug' boylikni asrab-avaylashimiz lozim. Shu maqsadda yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak".

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to'g'ri. Ammo, biz bu tuyg'uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo'llagan bo'lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik ma'lum va mashhur tamoyil bo'lib, u insonning o'z Vatanga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Bu tamoyil xayoliy tuyg'uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar majmuidir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki, uni tayyor holda qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir. Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo'lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalik kabi ezgu g'oyalar yotadi. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasining barcha yo'nalishlarida olib borilayotgan islohotlarning asosiy negizida, ertasi hamda poydevori, kelajagi bo'lgan yoshlarning talim-tarbiyasi, vatanparvarligi, qadriyatlari, shuningdek, jamiyat rivojlanishida, bosqichma-bosqich yuksalishida pedagoglar jamoatchilik orasida ta'lim-tarbiya, qadryat muammolariga qiziqish sezilarli ta'sir etish muhim ahamiyat ega bo'lib bormoqda. Yurtimiz hayotida bir qancha vazifalarning hal etilishi yosh avlodda qadryat, vatanparvarlik hissi rivojlantirish hamda vatanparvar shaxs qiyofasini vujudga keltirish kabi ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, ma'naviy-axloqiy qadryatlarini tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi asosiy o'rin tutadi.

Bugungi kunda yosh avlod bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligi

ularni qadryatlarini shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda shaxsiy sifatlarini yuqori darajaga olib chiqish va ongida vatan taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan yoshlar tarbiyasi masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, millatning tarixiy an'analari, qadryatlari hamda dunyo mamlakatlari tajribalarini umumlashtirgan holda, zamonaviy ilmiy natijalar bo'yicha davlatimizda yosh bolalar va o'smirlar tarbiyasida harbiy vatanparvarlik tashkilotlari o'z faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida hayotida tub o'zgarishlarga olib kelishi "Yangi – O'zbekiston" mamlakat rivojlanishi poydevoridir,- degan, ulkan maqsad yo'lida birlashib harakat qilmoqlik asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. "O'zbekiston yoshlar ittifoqi"ni tashkil topishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo minbarlarda ham ushbu tashkilot faoliyatini jadallashirish hamda tashkilot maqsadi sifatida mamlakatda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy, umuminsoniy va diniy qadriyatlarga yuksak e'tibor ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fanga keng jalb etish, ularni "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, yurtimiz yoshlarga oid siyosatini ro'yobga chiqarishda bir maqsad yo'lida birlashishi ham milliy qadryatlarni shakllantirish hamda yoshlarni vatanparvar shaxs sifatida rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Yoshlarni katta hayotga, harbiy va jismoniy tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda qatnashishda beparvolik va sustkashlikka yo'l qo'yish xato ekanligini ham alohida aytib o'tish lozim. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy qadryatlar asosida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosiy o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: "mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar avlod tashkil etadi. Yurtimizdagi har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z imkomiyatlarini namoyon etishi bo'yicha yuksak ishlar amalga oshirilmogda". O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmogda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti kafilligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab – quvvatlashga chaqiraman - degan fikrlari dunyo hamjamiyatida respublikamizda ulg'ayib borayotgan yosh bolalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ham keng e'tirof etmogda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulzoda Rahmonova "Tafakkur" jurnali, 2017-yil 4-son. "Ma'naviyat va axloq" maqola
2. Tursunov Ilxomjon Ikromovich Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali O'R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi, Qurollanish va otish sikli katta yo'riqchisi, I-darajali serjant
3. 2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish.
4. 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qaroriga muvofiq, "2023—2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi"
5. Ixtiyor Mizrabovich Saidov Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i dotsent, falsafa fanlari doktori (PhD) polkovnik maqola. 2023
6. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 23 sentyabrdagi BMT 75 sessiyasidagi nufuzi. 2017 y. 24 sentyabr soni.
7. Xodjaev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori. ...diss. – T., 2016.

## **XORIY TAJRIBALARI ASOSIDA BO'LG'USI TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI**

*Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi,  
Navoiy Davlat Universiteti Tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyaviy ko'nikmalarini xorij tajribalari asosida rivojlantirish, uning qonuniyatlari, xususiyatlari, xorij tajribalari, bilim, ko'nikma va malakalar, yondashuv, texnologiyalar, metodlar, motivlar, rassom-pedagoglar, qobiliyatlar, imkoniyatlar, layoqat haqida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: bo'lajak, rassom-pedagog, kompetensiya, ko'nikma, bilim, malaka, ko'nikma, san'at, qobiliyat, maqsad, bilim, nazariy, amaliy, yechim, texnologiya, metod, motiv, mahorat, layoqat, intellectual, yondashuv, xorijiy, tajriba, takomillashish, rivojlanish.*

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

*Файзуллаева Зарнигора Аборовна,  
Докторант Навоийский государственный университета*

*Аннотация: в данной статье рассматривается развитие навыков профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства на основе зарубежного опыта, его закономерностей, особенностей, зарубежного опыта, знаний, умений и квалификации, подходов, технологий, методов, мотивов, художников-педагогов, навыков, возможности, талант обсуждаются.*

*Ключевые слова: будущее, художник-педагог, компетентность, умение, знание, мастерство, искусство, способность, цель, знание, теоретическое, практическое, решение, технология, метод, мотив, умение, способность, интеллектуальный, подход, зарубежный, опыт, улучшение, развитие.*

## **FEATURES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE SKILLS OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS BASED ON FOREIGN EXPERIENCE**

*Fayzullayeva Zarnigor Abror kizi,  
Doctoral student of Navoi State University*

*Abstrakt: This article discusses the development of professional competence skills of future teachers of fine arts based on foreign experience, its laws, characteristics, foreign experience, knowledge, skills and qualifications, approach, technologies, methods, motives, artist-pedagogues, abilities, opportunities, competence.*

*Keywords: future, artist-pedagogue, competence, skills, knowledge, qualifications, skills, art, abilities, goal, knowledge, theoretical, practical, solution, technology, method, motive, skill, competence, intellectual, approach, foreign, experience, improvement, development.*

*Kirish. Oxirgi uchinchi mingyillikda ta'lim sifati samaradorligini rivojlantirish, ta'minlash zamonaviy dunyoning eng muhim talablaridan biridir. Ta'lim samaradorligini ta'minlashda bo'lg'usi pedagoglarning kasbiga nisbatan munosabatini, kasbiy madaniyatini rivojlantirib borish zarur. Bo'lajak pedagoglar kasbiy ta'limni o'zlashtirib boshlaganidan to' pedagog bo'lib yetishish davrigacha kasbiy professionallik, mahorat, layoqat va kompetensiyaviy yondashuvni o'zlashtirib boradi. Va bu jarayonda, kasbiy kompetensiya aynan bo'lajak rassom-pedagoglarda*

muhim o'rin egallaydigan xususiyatlardan biridir. Bo'lg'usi rassom-pedagoglar san'at insonlari bo'lganliklari sababli, ularda kasbiy kompetensiya pedagoglik sohasida yetakchi o'rin egallaydigan talablardan biridir. Aynan, rassom-pedagoglar uchun kasbiy kompetensiya ko'nikmalarini takomillashtirish ham amaliy ham nazariy bilimlar bilan birga olib boriladi. Har bir fan bilan kasbiy kompetensiya birgalikda olib boriladi. Va bu orqali bilim, ko'nikmalar va malakalar rivojlanib boradi. Mamlakatimizda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirib borish uchun ko'pgina yondashuvlar va texnologiyalar olib borilayapti. Shu vaqtgacha to'plab borilgan tajribalar asosida kasbiy kompetensiyalar ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida ko'p vaqt va mehnatni qilgan. Bu jarayonni takomillashtirishda kasbiy kompetensiya ko'nikmalari orqali vakolatli o'qituvchini tarbiyalab boriladi.

Vakolatli o'qituvchi - u kim? Uning shakllanishi jarayoni qanday o'tishi kabi savollar tug'iladi. Shu munosabat bilan biz «kompetensiya «va» kompetensiya» tushunchalari mazmunining mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har bir bo'lajak o'qituvchi «kompetensiya» nima ekanligini va uning «kompetensiya» dan qanday farq qilishini bilmaydi. «Kompetensiya» tushunchasi o'qituvchining ta'limi, ko'nikmalari, qobiliyatlari va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, bu uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyatidir. Aslida, ikkala atama ham o'xshash. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining professional kompetensiyasini shakllantirish bir qator murakkab ko'rinishlarda alohida o'rin tutadi. O'qituvchilarni tayyorlash. Kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi, ayniqsa, ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq islohotlarning hozirgi bosqichida namoyon bo'ladi [ ].

Kasbiy pedagogik jarayonga moslashuvni o'quv jarayonda bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetensiyaviy yondashuv olib borish zarur. Har tomonlama kompetensiyaviy bilimlarini shakllantirib borish zarur. Vakolatli o'qituvchi sifatlari ham shunday talablarga javob berishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini amaliy, psixologik, uslubiy, tadqiqot turlari bilan boyitadi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantiradi. Kasbiy kompetensiya diagnostikasi kasbiy rivojlanishning muhim xususiyatlari diagnostika, kommunikativ, boshqaruv va proektsion ta'lim guruhlarini o'z ichiga olishi kerak. Kognitiv faoliyat ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsaning murakkabligi, dinamikasi, nostandart tabiati, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, kuzatish, mahorat bilan belgilanadi. O'qituvchi va noaniqlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish, o'z-o'zini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari bu holda ularning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan xatti-harakatlarini qat'iy muvofiqlashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetensiyasini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda uning quyidagi turlari ajratiladi: -

- maxsus o'qitilgan qobiliyatlar;
- yetarlicha yuqori darajadagi kasbiy faoliyatga ega bo'lish, ularning keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy va tarbiyaviy kompetensiya - qo'shma kasbiy faoliyatni, hamkorlikni, shuningdek, ushbu kitobda qabul qilinadigan kasbiy aloqa uslublarini, ularning kasbiy faoliyati natijalari uchun ijtimoiy javobgarlikni o'zlashtirish.

Ushbu jarayonda mahalliy tajribalardan foydalanish jarayoning samarali olib borishga yordam beradi. Qobiliyatlar turlari kasbiy kompetensiya ko'nikmalarini egallash jarayonini tezlashtirib beradi. Pedagogik qobiliyat va kompetensiya bir-biriga bog'liq. Va bundan tashqari, bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilari kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish va o'rganish jarayonni komplekslashtirib beradi. Talabalarda xorijiy kompetensiyaviy tajribalar ko'proq taassurot qoldiradi. Dunyoning ko'zga ko'ringan xorijiy davlatlarida kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tajribaga tayanib

ish tutishadi. Hozirgi rivojlanayotgan zamonaviy ta'lim sharoitida ham talabalarning ta'limiy va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xorijiy tajribalardan qo'shma dasturlardan foydalaniyapti. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Finlandiya kabi mamlakatlarda tasviriy san'at o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakarini rivojlantirish maqsadida amaliyotga va san'at imkoniyatlariga ko'proq e'tibor qaratishadi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofi kasbiy malaka mutaxassisning malakasi va uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi - bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashning muhim pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni tan olish mumkin:

-talablarga javob beradigan normativ va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ish rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ish dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, darslarni ishlab chiqish, loyihalar va boshqalar) mavjudligi;

-ilmiy pedagog xodimlarning (professorlar, dotsentlar, o'qituvchilar, malakali o'qitish ustalari, texnik xodimlar) yuqori darajadagi bilimlari, ko'nikmalari va ko'nikmalari, kasbiy kompetensiya darajasini yetarli darajada shakllantirish va ilmiy salohiyatning mavjudligi;

-Professional kompetensiya - zamonaviy -moddiy-texnik (o'quv xonalari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya uskunolari) mavjudligi, axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuterlar, nusxa ko'chirish mashinalari, laboratoriya uskunolari, audio, video, multimedia, trenajyorlar, kinoprojektorlar, diaproyektorlar, video projektorlar, texnik vositalar majmuasi va boshqalar)) yetarli darajada ta'minlash;

-ijtimoiy muhitni yaratish, ammo, o'qituvchilar, talabalar, menejerlar va talabalar, shuningdek, talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'quv va texnologik jihatdan qulay muhiti (mazmuni, yo'nalishi, maqsadlarning birligi va boshqalar). ;

-tashkiliy va o'quv-amaliy faoliyatni izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish. Xorijiy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning kasbiy malakasi nuqtai nazaridan pedagogik salohiyatiga qarab, ular biznikidan bir oz boshqacha ta'lim tizimiga ega deb aytish mumkin.

Kasbiy malaka mutaxassisining kompetensiyasi ushbu yondashuvlar orqali olib borish professional kompetensiyani kasbiy jihatdan mustahkamlaydi. Zamonaviy innovatsion ta'lim muhitida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish uchun eng yaxshi shartlaridan biridir. Izchillik va uzluksizlikni ham ta'minlab bera oladi. Bu orqali bizning oliy maqsadimiz bo'lgan innovatsion fikrlaydigan kompetensiyaviy ko'nikmasi yuqori rassom-pedagoglarni tarbiyalagan va ta'lim bergan bo'lamiz.

Germaniya va Fransiyada kasb-hunar ta'limi tarkibi:

Ushbu kontseptsiya barcha psixologik holatlar tananing tashqi reaksiyasi ekanligini anglab, insonning shakllanish sifatidagi kognitiv faoliyatni rad etadi, uning diqqat markazida harakatlarning namoyon bo'lishi muammosi bo'lib, uning ta'siri ostida talabalar idrokini namoyish etish kerak

1. Faktlarni yodlash;
2. Dalillarning ma'nosini tushunish;
3. Eslab qolinganalardan foydalanish;
4. Tarkib va shaklni tahlil qilish. Bu jarayon demontaj qilinadi va qismlar orasidagi ulanishlar olib tashlanadi va keyin butun mexanizm ishga tushiriladi;

5. Butunni qismlarga tushirish, bu jarayonda ma'lumotni tushunarli va idrok etishni osonlashtiradi;

6. Biror narsaning qiymati va zarurligini anglash;

Ruhiy ko'nikmalar:

1. Darajasi passiv: quloq a'zolari, ko'zlar orqali signallarni qabul qilib, diqqatni jamlash;
2. Aktiv: diqqatning biror narsaga o'z ta'sirini ko'rsatish;

3. Baholash: biror narsani kuzatish, ta'sir qilish;  
4. Tashkiliy g'oyalar: falsafiy rivojlanish, muammoli vaziyatlarni hal qilish Bir qiymatni boshqasidan ajrata olish.

5. Maqsadli faoliyat:

Muhokama.

Tekshiriladigan narxlar darajasida shaxs sifatida shakllanadigan faoliyat turli ijobiy va salbiy. o'qitish usulining ratsionalistik modeli o'quv materialini samarali o'zlashtirish, rivojlanishning didaktik maqsadiga erishish, kommunikativ ijodiy faoliyat mazmunining kasbiy tarkibiy qismini shakllantirishdan iborat. ta'lim qanday qilib shaxsiyat, ta'limning gumanistik jarayonlari, gumanistik ta'lim-tizim tarbiya, umuminsoniy qadriyatlarni, ekologik muammolarni, ijodiy faoliyatni shakllantirish.

Yosh o'qituvchilarni shakllantirish tushunchasi. Bitirgandan keyin talabalarni kasbga jalb qilish ikkita murakkab jarayonni o'z ichiga oladi.

1. O'qituvchi bo'lish, sharoitga moslashish va pedagogik mahoratga ega bo'lish

2. Yangi ijtimoiy kontekstni o'rganish, uni baholash va yangiliklarni amalga oshirish.

3. O'quv jarayonida maqsadlarni belgilash qobiliyati.

Maqsadni faqat aniq va to'g'ri tanlash o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini belgilaydi: munosabatlar, tarkib, samaradorlik. Aniq maqsadlarni belgilash nafaqat talabalarning yutuqlarini aniq tashxislaydi, ammo olingan bilimlarning natijasi, maqsad asosida, pedagogik faoliyatga bog'liq.

Shunday qilib, ma'lum bir maqsadni belgilash bir tomondan shaxsiy maqsad, ikkinchi tomondan, umumiy maqsadga erishish sifatida qaraladi. Bu umumiy maqsadlarni aniq belgilash, talabada bilimga assimilyatsiya va munosabatni shakllantirish qobiliyatidir. Jahon kasb-hunar ta'limi tizimini o'rganmasdan turib, ushbu sohada yangi shakllarni yaratish mumkin emas. Ushbu sohada biz uzluksiz ta'lim tizimini, ular tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini olib boruvchi davlatlar tajribasiga juda muhtojmiz. Bugungi kunda, Buyuk Britaniyada doimiy ravi shda yangi tizim ishlab chiqilgan ta'lim va kasb-hunar ta'limi to'g'risida. Bu tizim turli yo'nalishdagi mutaxassislarni, shuningdek boshlang'ich o'rta maktab o'qituvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan. Germaniyadagi kasb-hunar ta'limi tizimi. Germaniyada bir nechta murakkab tuzilmalarga ega bo'lgan ta'lim tizimi qabul qilindi, talabalarni mutaxassislik bo'yicha tayyorlashda boshlang'ich ta'limdan keyin o'z faoliyatini davom ettiradigan 3 bosqichli maktablar tashkil etildi. Lenin tomonidan yaratilgan. Germaniyada o'quv jarayonini tayyorlash va boshqarish markazlashtirilgan. O'quv jarayonining turli jihatlarida o'z vazifalariga ega bo'lib, u turli bosqichlarda farq qiladi.

Germaniyadagi kasb-hunar ta'limi tarkibi:

1-bosqich: kasbiy tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar ushbu kasbga o'tkaziladi va yo'naltiriladi).

2-bosqich: talabalar nazariy va amaliy oilaviy kasblar bilan tanishadilar (oxirida birinchi test topshiriladi).

3-bosqich: mutaxassislik-bu imtihon bilan yakunlanadigan jarayon.

Ushbu tizimda talabalar nazariy va amaliy bilimlarga, shuningdek, kasblarni tushunishga ega bo'lishlari kerak. Ular o'zlarining fikrlari ega bo'lishlari va qo'shimcha malakalarni shakllantirish bilan birga mehnat faoliyatiga hissa qo'shishlari kerak. 1-2-bosqich keng ma'noda, ishchilarni o'qitish orqali ular oddiy ish oqimlarini bajarish orqali murakkab jarayonlarda 3-bosqichga tayanadilar. 3-bosqich bo'lajak mutaxassis xodimlar ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega, asboblar va moslamalarni (dastgohlarni) sozlash, ta'mirlash ishlarini bajaradilar. - Kasbiy ta'limning frantsuz modeli. Fransiyada maktabni tugatgandan so'ng kollejlarda o'qitish tizimi ustunlik qiladi. Bu, o'z navbatida, erta martabadan qutqaradi. Franda boshlang'ich ta'limtion asosan 11 yoshgacha, shundan so'ng talaba kollejda ta'lim oladi. Talaba keyingi ta'limni umumta'lim yoki texnik litseylarda davom ettiradi. Bugungi

kunda texnik litseylar bakalavr darajasini olish uchun keng ko'lamli texnik bilimlarni taqdim etadilar. Ta'lim muassasasining ixtisoslashuviga qarab, bakalavr frantsuz tilini, sotsiologiya asoslarini, matematikani, fizikani, tabiiy fanlarni, texnologiyani yaxshi biladi. Bakalavrlar texnologiya sohalari chet tillarini, kompyuter va tijorat bilimlarini oladi, barcha bakalavrlar oliy o'quv yurtlarida o'qish huquqiga ega. Bakalavr darajasini olishni istagan ta'lim oluvchi, o'z navbatida, maktabni, kollejni tugatganligi to'g'risida diplom olishi va keyin 3 yil professional litseylarda o'qishi kerak. Davlat va xususiy o'rta maktablar malakali ishchilarni tayyorlash uchun ishlaydi va ularning barchasi davlat nazorati ostida bo'ladi. Professional o'qitish jarayoni davlatda yotadi. Kasb-hunar ta'limi tizimining barcha faoliyati markazlashtirilgan bo'lib, ta'lim mazmunini o'zgartiradigan qonunlar va qoidalar davlat darajasida qabul qilinadi. Umumiy kasbiy ta'limda o'qitish jarayoni bepul.[1]

Qo'shma Shtatlardagi tasviriy san'at ta'limi tizimi

Qo'shma shtatlarda badiiy ta'lim birinchi marta 1821 yilda sanoat inqilobi davrida me'moriy dizaynerlarga bo'lgan ehtiyoj natijasida davlat maktablariga kiritilgan, shundan so'ng butun mamlakat bo'ylab davlat maktablari o'sishni boshlagan va badiiy ta'limga sub'ektiv qiziqish paydo bo'lgan. 1870-yillarda ba'zi shtatlar 1870-yillarda san'at bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun davlat maktablariga. Taxminan shu vaqt ichida bo'yoq va qog'oz kabi badiiy materiallar sifat jihatidan yaxshilana boshladi, bu esa kengaytirishga imkon berdi yomon va o'z Shtatlarida badiiy ta'limni rivojlantirishni strategik rejalashtirishda ishtirok etadi. badiiy ta'limni targ'ib qiluvchi milliy tashkilotlar. Bularga Arts for Americans, badiiy ta'lim bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha milliy kompaniya, badiiy ta'limni targ'ib qilish assotsiatsiyasi, kollej san'at assotsiatsiyasi va san'at ta'limi milliy assotsiatsiyasi kiradi, ular boshqalarning san'ati kabi yirik loyihalarni taqdim etadi U Amerikada san'atni targ'ib qiluvchi, targ'ib qiluvchi va qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va shaxslar tarmog'iga xizmat ko'rsatish, rivojlantirish va boshqarish missiyasiga erishish uchun san'atni to'rtta asosiy maqsadga ajratdi:[2]

San'at va san'at ta'limini rivojlantirishga yordam berish uchun shaxslar va tashkilotlarga rahbarlik qilish va ularga xizmat ko'rsatish yanada jonli va ijodiy jamoalarni targ'ib qiluvchi muhitni yaratish. va badiiy ta'limni davlat va xususiy sektorning mazmunli siyosatini ta'minlash uchun. san'at ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim, ma'lum bir o'quv yilida uni ta'mirlash uchun javobgarlik Qo'shma Shtatlarda quyidagilar mavjud.

- Ko'proq rahbarlar va resurslarni yaratish Individual badiiy ta'limni takomillashtirish. rivojlanish san'at qadriyatlari va - Imkoniyatlar va muammolarga ijodiy javob berish qobiliyati orqali tashkilotning operatsion barqarorligini ta'minlash.

Bu maqsadlarga erishish uchun mahalliy, davlat va milliy san'at tashkilotlari bilan hamkorlikda butun mamlakat bo'ylab davlat idoralari, biznes rahbarlari, individual xayriyachilar, o'qituvchilar va jamg'armalar tashkil etilgan.

Natijalar: Kompetentli asoslangan ta'lim talabaga notanish vaziyatlarda yangi muammolarni hal qilishni o'rganishga yordam berishga qaratilgan bo'lishi kerak. Oliy ta'lim tizimini qayta qurishning umumiyevropa tendensiyasi tufayli mahalliy ta'limga kompetentli yondashuvni joriy etish o'qitish, mazmun va baholashga ta'sir qiluvchi chuqur tizimli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim natijasi sifatida kompetensiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u boshqa ta'lim natijalariga nisbatan:

- integrallashgan natijadir;
- vazifalarning butun sinfini hal qilishga imkon beradi (funktional savodxonlik elementidan farqli o'laroq);
- faoliyat shaklida mavjud bo'lib, u axborot emas (bilimdan farqli o'laroq);
- o'tkaziladigan avtomatlashtirish va ko'nikmaga aylantirish yo'lida emas, balki faoliyatning umumiy asoslarini anglash orqali boshqa kompetensiyalar va kompetentliklar bilan integrasiyalashuv yo'lida takomillashtirilgan;

- kompetentlikka asoslangan ta'lim jarayonida kompetensiya shakllanadi va harakat uslubining o'zi ichki resurslar bazasiga kiradi;

- ongli ravishda namoyon bo'ladi.[3]

Kompetentlikka asoslangan ta'lim talabaga yo'naltirilgan deb ataladi: o'quv jarayonining markazida talaba turadi. Ta'lim jarayonini tushunishning boshlang'ich mantiqiy nuqtasi, ya'ni natijasi talaba tomonidan shakllanadigan kompetensiyadir. Ta'lim jarayonining natijalari u tomonidan ko'rsatilgan kompetensiyalarga ega bo'lish sifatida shakllantiriladi. Buning uchun o'qituvchi shakllangan kompetensiyalarning nafaqat tuzilishini, balki xususiyatlarini ham tushunishi kerak. Kompetensiyalar o'zlashtiriladi, ya'ni talabalarni qanday o'rganish, bilim olish, bilim bilan ishlash ko'nikmasiga o'rgatish zarur. Shuning uchun professor-o'qituvchi talabalarning o'quv faoliyatini boshqarish qobiliyatini egallashi kerak - o'quv vaziyatlarini yaratish va o'quv vazifalarini taqdim etish, ularni hal qilish bo'yicha talabalarning harakatlarini tashkil etish, ularning o'quv yutuqlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish. Alohida e'tiborni talab qiladigan muammo ta'lim mazmunini tanlashdir. Bilimsiz kompetentlik ma'noga ega emas, lekin olingan bilimlar miqdori kompetentlikni kafolatlamaydi, chunki ularni tushunish, o'zlashtirish, egalik darajasiga yetkazish kerak. Shakllangan kompetensiyalarni baholash muammosi qiyin emas. An'anaviy baholash metodlari bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda o'zining munosibligini isbotladi. Qobiliyatlarni baholash uchun boshqa metodlarni ishlab chiqish talab etiladi. Faoliyatda kompetentlik shakllanadi, demak, professor-o'qituvchi oldida talabaning ta'lim faoliyati haqiqatan ham faollik sifatleri – motivatsiya, xolislik, onglilik, maqsadga muvofiqlik kabi shart-sharoitlarni yaratish vazifasi turibdi. Buning uchun talaba erkin tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan, o'z qiziqishlarini namoyon etishdan qo'rqmaydigan, shu bilan birga o'z huquq va majburiyatlarini ham biladigan ta'lim muhiti zarur.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: agar chet elda badiiy ta'lim tizimi biroz boshqacha bo'lsa, unda bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyamuammosi dolzarbdir. Chet elliklar xorijiy mamlakatlardagi yoshlarga o'zlarining milliy san'atlarini o'rgatish, san'atshunoslik tushunchalarini shakllantirish orqali mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shdilar. Chet elda amalga oshirilayotgan san'at ta'limi tizimi orqali biz xorijiy texnologiyalarni milliy lashtirish va ularni tasviriy san'at yo'nalishlarimizga kiritish, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tarkibiy qismini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga ham hissa qo'shamiz. Va bundan tashqari olib borilayotgan kasbiy kompetensiyaviy ta'limni ko'nikmalarga erishish uchun xorijiy tajribalarni milliy modelga aylantirib, kasbiy kompetensiya va layoqat ko'nikmalar rivojlantirishimiz va innovatsion yondashuvni ta'minlashimiz zarur. Zero, biz shu tajriba va bilimlar orqali zamonaviy innovatsion fikrlaydigan kasbiy kompetensiya ko'nikmasi yuqori rasom-pedagoglarni ajdodlarimizga mos qilib tarbiyalab ta'lim berishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Список литературы (References):

1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7308468>, VOLUME 1, ISSUE 2, 2022
2. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7308468>, VOLUME 1, ISSUE 2, 2022
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10159124>
4. Ш.Шарипов, Н.Муслимов, М.Исмоилова: «Касбий таълим педагогикаси». Usullar q'llanma. - T. 2005 yilda qo'shmalarining tarkibi.
5. Худойкулов Х.Ж. Жуманова Ф.У. КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА (ЎҚУВ ҚЎЛЛАНАМА) Toshkent-2020
6. Муслимов Н. Касб таълим ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик assoslari: dis.Referat. -Toshkent; TGPU, 2007.
7. Nurtayev U. tizimda O'zbekiston tasviriy san'atini o'rganish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash. Referat. Moskva: 1994 yil.
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/Art\\_education\\_in\\_the\\_United\\_States](https://en.wikipedia.org/wiki/Art_education_in_the_United_States)
9. [https://en.wikipedia.org/wiki/Americans\\_for\\_the\\_Arts](https://en.wikipedia.org/wiki/Americans_for_the_Arts)

## **PEDAGOGIK OLIV TA'LIMDA KONTEKSTUAL O'QITISH MODELLARINI QO'LLASHNING AMALIY MEKANIZMLARI**

*G'ulomova Maftunaxon Ravshanbek qizi,  
Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida kontekstual o'qitish modelini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Kontekstual o'qitish modeli nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga bog'lash orqali talabalarning bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv sifatida taqdim etiladi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirib, ularning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada kontekstual ta'limning asosiy xususiyatlari va afzalliklari, jumladan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, talabalarning qiziqishini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini joriy etish va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish yoritilgan. Shuningdek, ushbu modelning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, multimedia, simulyatsiyalar va onlayn platformalar bilan integratsiyasi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: kontekstual o'qitish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, fanlararo integratsiya, zamonaviy pedagogika.*

## **ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ МОДЕЛЕЙ КОНТЕКСТНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Гуломова Мафтунахон Равшанбек кизи,  
Аспирант Кокандского государственного педагогического института*

*Абстрактный: Данная статья посвящена изучению теоретических и практических аспектов использования модели контекстного обучения в современной системе образования. Модель контекстного обучения представлена как инновационный педагогический подход, направленный на обеспечение трансформации знаний учащихся в практические навыки путем связывания теоретических знаний с реальными жизненными ситуациями. Такой подход помогает сформировать у учащихся активную позицию участника процесса обучения, развить их творческое мышление и навыки решения проблем. В статье рассматриваются основные особенности и преимущества контекстного обучения, в том числе связь теоретических знаний с практикой, повышение интереса студентов, внедрение личностно-ориентированного подхода к обучению и повышение эффективности профессиональной подготовки. Также была проанализирована интеграция этой модели с современными педагогическими технологиями, такими как мультимедиа, симуляции и онлайн-платформы, и ее значение для повышения эффективности коммуникации учителя и ученика.*

*Ключевые слова: контекстное обучение, теоретические знания, практические навыки, личностно-ориентированное образование, профессиональная подготовка, междисциплинарная интеграция, современная педагогика.*

## PRACTICAL MECHANISMS OF USING CONTEXTUAL TEACHING MODELS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION

*Gulumova Maftunaxon Ravshanbek qizi,  
Core doctoral student of the Kokand State Pedagogical Institute*

*Annotation: This article is devoted to the study of the theoretical and practical aspects of using the contextual teaching model in the modern education system. The contextual teaching model is presented as an innovative pedagogical approach aimed at ensuring the transformation of students' knowledge into practical skills by linking theoretical knowledge to real-life situations. This approach helps to form students as active participants in the educational process, developing their creative thinking and problem-solving skills. The article highlights the main features and advantages of contextual teaching, including linking theoretical knowledge with practice, increasing student interest, introducing a person-centered educational approach, and strengthening professional training. The integration of this model with modern pedagogical technologies, such as multimedia, simulations, and online platforms, as well as its importance in increasing the effectiveness of teacher-student communication, are also analyzed.*

*Keywords: contextual learning, theoretical knowledge, practical skills, person-centered education, professional training, interdisciplinary integration, modern pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib, global miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Shunday vaziyatda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni, jumladan, kontekstual o'qitish modellarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kontekstual o'qitish modeli talabalar bilimini nazariy bilimdan amaliy ko'nikmalarga aylantirishga imkon beradi, bu esa bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri – ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini o'quvchilarning hayotiy tajribasi va ijtimoiy-kasbiy faoliyatiga bog'lashni nazarda tutadi, bu esa ularning qiziqishini oshirib, bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, kontekstual o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish pedagogik faoliyatni takomillashtirishda dolzarb masala hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda kontekstual o'qitish modeli zamonaviy ta'lim tizimida nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu model o'quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy amaliyot bilan uzviy bog'lash orqali ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kontekstual o'qitishning ahamiyati, bir tomondan, zamonaviy ta'limning innovatsion yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, ta'lim sifatini oshirish va talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining didaktik va metodik jihatlarini takomillashtirishga yordam berib, o'quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli o'quv muhitini yaratishga imkon beradi.[1;P.5] Bu esa talabalar nazariy bilimlarini nafaqat mustahkamlashni, balki ularning real hayotiy muammolarni hal etishdagi amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, kontekstual o'qitishning ta'lim jarayoniga kiritilishi davomida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar taklif qilish, uning pedagogik faoliyatda yanada muvaffaqiyatli qo'llanishiga zamin yaratadi.

Ishlab chiqilgan model va uning tatbiq etish metodologiyasi zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilib, boshqa o'quv dasturlariga moslashtirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Bu esa ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Kontekstual o'qitish modeli – o'quv jarayonini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali


talabalarda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishni maqsad qilgan pedagogik yondashuvdir. [2:P.19-26] Bu modelning nazariy asosi konstruktivizm tamoyillariga tayanadi, ya'ni bilimlar faqat tinglash yoki yodlash orqali emas, balki faol ishtirok va muammolarni hal qilish orqali o'zlashtiriladi. Kontekstual o'qitishning mohiyati talabalarni ta'lim jarayonining markaziga qo'yish va o'z-o'zini rivojlantirishga undashdir. Ushbu yondashuvda bilim olish jarayoni talabalarning kundalik hayoti va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda tashkil etiladi.

Mazkur modelning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, ta'lim jarayoni nafaqat mavhum nazariy tushunchalarni o'rganishga, balki ularni amalda qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli, kontekstual o'qitish o'quv materiallarini real hayotiy vaziyatlar, masalalar va muammolar bilan bog'lash orqali talabalarning bilimlarni chuqur va mazmunli o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Pedagogik nazariyada kontekstual o'qitish modeli ko'p yillik tadqiqot va amaliy tajribalar asosida shakllangan. Ushbu model shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, integratsion pedagogika, va konstruktivizm kabi yondashuvlarning sintezidan tashkil topadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kontekstual modelning asosiy prinsiplarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ushbu modelda ta'lim jarayoni talabalar shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtiriladi. Faoliyatga asoslangan ta'lim esa o'quv jarayonini amaliyotga yo'naltirish va talabalar faol ishtirokini ta'minlashni nazarda tutadi. [3;P39-46]

Muhokama. Kontekstual modelning ta'lim tizimidagi o'rni, avvalo, bilimlarni yodlash va qayta eslashga asoslangan an'anaviy yondashuvdan farq qilishida namoyon bo'ladi. Mazkur modelda ta'lim jarayoni real muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, ushbu model ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

### 1-rasm. Kontekstual o'qitishning asosiy xususiyatlari va afzalliklari.



Kontekstual o'qitish modeli zamonaviy ta'lim jarayonida bir qator afzalliklarni taqdim etadi [4:C5]

1. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash. Talabalar o'rganayotgan nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini oladilar. Bu ularning o'quv materiallarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

2. Qiziqish va ishtirokni oshirish. Kontekstual yondashuv talabalarning qiziqishini oshirib, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim samaradorligini oshiradi.

3. Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Ushbu model o'quvchilarni muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o'rgatadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi.

4. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Kontekstual model ta'limni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi, bu esa har bir talabanning o'z qobiliyat va maqsadlariga erishishiga ko'maklashadi.

5. Kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish. Talabalar o'z bilimlarini amaliy tajriba orqali mustahkamlab, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu afzalliklar tufayli kontekstual o'qitish modeli ta'lim tizimini rivojlantirish va talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda samarali yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, mazkur modelning muvaffaqiyatli qo'llanishi ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Kontekstual o'qitish modelini ta'lim jarayoniga joriy etish zamonaviy pedagogik metodologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu model ta'lim jarayonini talabalar uchun mazmunli, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan bo'lib, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan. Kontekstual o'qitishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun jarayonni puxta loyihalash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish imkonini beruvchi o'quv muhitini yaratishni talab qiladi. Darsni loyihalashda o'quv maqsadlari aniq belgilab olinib, mazmunni hayotiy kontekst bilan integratsiya qilish orqali talabalarni real muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuvda faoliyat talabalarning qiziqishini oshiradigan guruhli vazifalar, rolli o'yinlar va muammoli masalalarni o'z ichiga oladi.

Kontekstual o'qitish jarayonida zamonaviy didaktik vositalar va texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Multimedia vositalari, masalan, audio-vizual materiallar va interaktiv taqdimotlar, murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Simulyatsiya va virtual reallik vositalari talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, chunki bu texnologiyalar orqali talabalar nazariy bilimlarini xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Onlayn platformalar, masalan, Moodle yoki Google Classroom, talabalarning mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlaydi va ularni loyihaviy faoliyatga jalb qiladi. Shu bilan birga, interaktiv o'yinlar va muammoli topshiriqlar talabalarning faolligini oshirishga, o'quv jarayonida qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi.

Kontekstual o'qitish darslari bir necha asosiy bosqichlardan tashkil topadi. Darsning tayyorlov bosqichida o'quv maqsadlari aniqlanadi va muammoli vaziyatlar tanlanadi. Bu vaziyatlar talabalarni o'ylashga undash va ularning qiziqishini oshirish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Faoliyat bosqichida o'quvchilar real muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajaradilar. Ushbu jarayonda guruhli ish, rolli o'yinlar yoki simulyatsiyalar kiritiladi, bu esa talabalarni mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlashga undaydi. Tahlil va muhokama bosqichida talabalar o'z faoliyatlarini tahlil qilib, natijalarini baholaydilar. Bu jarayon bilimlarni mustahkamlashga va turli yondashuvlarni taqqoslashga yordam beradi. Yakuniy bosqichda dars mavzusi umumlashtirilib, talabalar nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qanday qo'llash mumkinligi haqida xulosalar chiqaradilar.

Kontekstual o'qitish modelining amaliy mexanizmlari zamonaviy ta'lim tizimini talabalar ehtiyojlari va jamiyatning real talablari bilan muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmlar pedagogik jarayonni shunday tashkil etadiki, unda talabalar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etib, o'z kasbiy faoliyatlariga tayyorgarlik ko'radilar. Kontekstual o'qitishni samarali qo'llash uchun aniq usullar, fanlararo integratsiya va pedagog hamda talabalar o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish asosiy omillardan hisoblanadi.

Kontekstual o'qitishni ta'lim jarayoniga joriy qilish uchun turli pedagogik usullardan foydalaniladi. Bulardan biri – muammoli o'qitish usuli, bu usulda talabalarga o'quv materiallari real hayotiy muammolar ko'rinishida taqdim etiladi. Talabalar ushbu muammolarni hal qilish jarayonida o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, iqtisodiy fanlar bo'yicha darslarda talabalar real biznes-rejalar tuzish yoki moliyaviy tahlil o'tkazishga jalb qilinadi. Bu nafaqat nazariy bilimni mustahkamlashga, balki kasbiy kompetensiyalarni

shakllantirishga xizmat qiladi. [5;743-744]

Yana bir samarali usul – rolli o‘yinlar va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Ushbu usul talabalarga real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali nazariy bilimlarni amalda sinab ko‘rish imkonini beradi. Masalan, tibbiyot talabalari uchun bemorni davolash jarayonini simulyatsiya qilish, muhandislik yo‘nalishidagi talabalar uchun texnologik jarayonlarni modellashtirish real hayotiy sharoitlarni taqlid qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, loyihaviy faoliyatni tashkil qilish kontekstual o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Talabalarga guruhlarda ishlash, murakkab muammolarni hal qilish uchun mustaqil loyihalar yaratish topshiriladi. Ushbu usul nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki muloqot ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlashni va jamoada ishlash malakasini rivojlantirishga yordam beradi.

Kontekstual o‘qitishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi va ta‘lim jarayonini yanada mazmunli qiladi. Fanlararo integratsiya orqali talabalar turli fanlarda olingan bilimlarni birlashtirib, murakkab muammolarni hal qilishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, ekologiya va iqtisodiyot fanlarini integratsiya qilish orqali talabalar barqaror rivojlanish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishi mumkin. Bu yondashuv talabalarda ko‘p qirrali fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiyaning amaliy natijalari orasida talabalarning bilimlarni tizimli ravishda tushunishi, nazariy tushunchalarni hayotiy vaziyatlarga moslashtirish qobiliyatini rivojlantirish va kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash kabi omillarni ko‘rsatish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo yondashuv asosida ta‘lim olgan talabalar mehnat bozorida raqobatbardoshlik jihatidan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladilar.

Kontekstual o‘qitish jarayonining muvaffaqiyati pedagog va talaba o‘rtasidagi samarali aloqani tashkil etishga bog‘liq. O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va talabalar faoliyatini kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Pedagogning vazifasi talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undash, ularning faoliyatini nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Talabalar esa o‘quv jarayonida faollik ko‘rsatishi va o‘z bilimlarini real sharoitlarda mustaqil qo‘llashi lozim.

O‘zaro muloqotni rivojlantirish uchun o‘qituvchi dars davomida muammoli savollar berish, guruhli muhokamalarni tashkil etish va talabalarning fikrini tinglash orqali ularni jarayonga jalb qiladi. Bu jarayonda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki har bir talabaga uning qobiliyati va ehtiyojlariga mos tarzda yordam ko‘rsatiladi.

Natijada, pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli va samarali muloqot ta‘lim jarayonini faollashtiradi va talabalar bilimini mustahkamlashda muhim omilga aylanadi. Ushbu muloqot o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishga yordam beradi va talabalarning nafaqat nazariy bilimini, balki mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, kontekstual o‘qitish modelining amaliy mexanizmlari pedagogik jarayonni nazariy va amaliy jihatdan yanada boyitadi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga, bilimlarni hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan qilishga va ularni mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Kontekstual o‘qitish modeli zamonaviy ta‘lim tizimida nazariy va amaliy bilimlarni birlashtiruvchi innovatsion yondashuv sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiliklari va kutilayotgan natijalari pedagogik jarayonda kontekstual yondashuvni yanada samarali tatbiq etishga xizmat qiluvchi yangi nazariy va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kontekstual o‘qitish modeli oliy ta‘limda sifatni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ta‘lim jarayonining talabalarning real hayotiy ehtiyojlari va kasbiy faoliyatlari bilan mosligini ta‘minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

kontekstual yondashuv asosida o'qitilgan talabalar nazariy bilimlarni o'zlashtirishda, ularni amaliyotga tatbiq etishda va muammolarni hal qilishda an'anaviy yondashuvlarga asoslangan ta'lim olganlarga nisbatan yuqori natijalarga erishadilar.

Xulosa va takliflar. Yondashuvning oliy ta'lim sifatini oshirishdagi roli, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali aloqani yo'lga qo'yishda namoyon bo'ladi. O'quv jarayonining interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, talabalar tomonidan o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu ta'lim sifati va mehnat bozoriga tayyor kadrlarni yetkazib berishdagi uzviylikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, kontekstual o'qitish modeli zamonaviy ta'lim tizimida yangi nazariy yondashuvlarni va innovatsion amaliyotlarni taklif etadi. Ushbu modelning muvaffaqiyatli qo'llanilishi oliy ta'lim sifatini oshirishga, talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga va ularning bilimlarini real hayotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar, bu esa ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вербицкий А. Контекстное обучение в компетентностном подходе. “Высшее образование в России” конференция: – Москва. Ноябрь, 2006 г. – 39-46 с.
2. Тенищева В.Ф. Интегративно-контекстная модель формирования профессиональной компетенции: дисс. пед. док. наук. – М.: 2008. – 5 с.
3. Putu Yulia Angga Dewi, Kadek Hengki Primayana. “Effect of learning module with setting contextual teaching and learning to increase the understanding of concepts”. International Journal of Education and Learning: 2019. – P. 19-26.
4. John H.Falk, Martin Storksdieck. Using the contextual model of learning to understand visitor learning from a science center exhibition. ResearchGate: 2005. – P. 743-744.

**“MAKTABGACHA TA’LIMDA SOG‘LOM OVQATLANTIRISH  
TEKNOLOGIYASI” FANI MISOLIDA TALABALARGA MUSTAQIL BILIM OLISH  
KO‘NIKMASINI MASOFAVIY O‘QITISHDA TAKOMILLASHTIRISH**

*Hakimova Shohida Jo‘rayevna,  
Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedراسي katta o‘qituvshisi,*

*Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi “Maktabgacha ta’limda sog‘lom ovqatlantirish texnologiyasi” fani misolida talabalarni mustaqil bilim olish ko‘nikmasini masofaviy ta’lim orqali takomillashtirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Oliy ta’lim muassasalarida (Xalqaro Nordik universiteti misolida) “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalariga Maktabgacha ta’limda sog‘lom ovqatlantirish texnologiyasi fani masofaviy tarzda o‘qitilishi natijasida o‘qituvchi va talaba ko‘zlagan maqsadiga erisha oladimi? Quyidagi maqolada borada so‘z boradi.*

*Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, oliy ta’limda masofaviy o‘qitish, masofaviy o‘qitish mexanizmlari, onlayn dasturlar, onlayn ta’lim, sog‘lom ovqatlantirish, ratsion, sanitariya.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ  
УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ НА ПРИМЕРЕ  
ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИИ ЗДОРОВОГО ПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ  
ОБРАЗОВАНИИ»**

*Хакимова Шохида Джораевна,  
старший преподаватель кафедры педагогики Международного Северного  
университета*

*Аннотация. Целью данной статьи является изучение возможностей совершенствования навыков самостоятельного обучения учащихся посредством дистанционного обучения на примере «Технологии здорового питания в дошкольном образовании». Могут ли преподаватели и учащиеся достичь своих целей в результате дистанционного обучения «Технологии здорового питания в дошкольном образовании» студентов «Дошкольного образования» в высших учебных заведениях (на примере Международного Северного университета)? Об этом расскажет следующая статья.*

*Ключевые слова: дистанционное образование, дистанционное образование в высшей школе, механизмы дистанционного образования, онлайн-программы, онлайн-обучение, здоровое питание, режим питания, санитария.*

**IMPROVING STUDENTS’ INDEPENDENT LEARNING SKILLS IN DISTANCE  
LEARNING ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT «HEALTHY NUTRITION  
TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION»**

*Hakimova Shohida Jorayevna  
Senior Lecturer, Department of Pedagogy, International Nordic University*

*Annotation. The purpose of this article is to study the possibilities of improving students’ independent learning skills through distance learning using the subject «Healthy Nutrition Technology in Preschool Education». Can the teacher and student achieve their goals as a result of distance learning of the subject «Healthy Nutrition Technology in Preschool Education» to students of the «Preschool Education» major in higher education institutions (in the case of the International Nordic University)? The following article discusses this issue.*

*Keywords: distance learning, distance learning in higher education, distance learning mechanisms, online programs, online education, healthy nutrition, diet, sanitation.*

Kirish. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Buning natijasida qisqa muddatda maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy qismi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olindi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilindi va bir qancha maqsadlarni o'z ichiga oldi. Shu maqsadlarning eng birinchisi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" bo'lib 1.1. bandi ta'lim tizimi islohotlariga qaratilgandir. Bunga ko'ra, Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash ko'zda tutilgan. Bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlari bilan to'liq qamrab olish. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish. 100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Sog'lom ovqatlanishni inson qanchalik erta boshlashi va yosh avlodga ham bu to'g'risida to'g'ri tushunchalar shakllantirishi orqali sog'lom va barkamol kelajagini yaratishi mumkin. Sog'lom ovqatlanish deganda, jismoniy va ruhiy farovonlikni qo'llab-quvvatlaydigan muvozanatli, ozuqaviy moddalarga boy dietadan bahramand bo'lishdir. Hozirgi kunda band turmush tarzi insonlarning sog'lom ovqatlanishini qiyinlashtirayotgan bo'lsada, to'g'ri ovqatlanishni rejalashtirish va ta'lim kabi strategiyalar odamlarga sog'lom odatlarni saqlashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolajonlarni to'g'ri va sog'lom ovqatlantirish masalasi ham muhim hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi buyudjeti mablag'lari hisobiga qoplanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari yoki muassasaning buyudjetidan tashqari mablag'lari hisobiga tashkil etilgan taqdirda, tarbiyalanuvchilar uchun belgilangan bir kunlik ovqatlanish ratsioni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq belgilangan normalardan oshmasligi lozim. Oziqlanishni baholash surunkali kasalliklarning oldini olishning muhim elementi bo'lib, ovqatlanish bo'yicha tavsiyalarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Bola kuniga taxminan 7-8 soatni bolalar bog'chasida o'tkazadi bu bolalarning 75-80% ovqatlanishiga to'g'ri keladi. U yerda beriladigan ovqatlar yosh organizmning to'liq psixofizik rivojlanishini ta'minlash uchun mos ravishda muvozanatli bo'lishi kerak. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarda hayoti davomida ta'sir ko'rsatadigan ovqatlanish odatlari paydo bo'ladi.

Shuningdek uyda tarbiyalanayotgan bolalarning ham sog'lom ovqatlanishi inobatga olgan holda bog'cha yoshidan to'g'ri ovqatlanishga odatlanishni o'rgatish lozim. Ushbu yondashuvning muvaffaqiyati faqat MTTda oshpazlar, uyda esa onalarning burchi va bu sohadaagi bilimlari emas balki, tarbiyachilar ham yetarli bilimlarga ega bo'lishi, butun aholi salomatligi bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalari "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalariga "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi" fanini o'qitishni yo'lga quyilishi bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning mazmuni va mohiyati, tarbiyalanuvchilarda sog'lom ovqatlantirish madaniyatini shakllantirish, turli yoshdagi bolalarda shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar, ovqatlanish ratsionini to'g'ri tashkil etish, taomnoma tuzish tartibi, mahsulotlarning qabul qilinishi, xom va pishgan mahsulotlarga organoleptik baho berish taomlarni to'g'ri texnologiya asosida tayyorlanishi, oshxonaning sanitariya va gigiyena talablariga javob berishi, oshxona jihozlarini yuvish, saqlash qonun qoidalari, mahsulotlarni saqlashda sanitariya qoidalari tartibi haqida bilimlar berish va amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishda ko'maklashadi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuni o'rganish davomida bir qator me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, tahlil etildi va ular ushbu maqolaning nazariy asoslarini tashkil etdi. Quyida talabalarga mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha ilmiy maqolalardan, F.V.Xalilov ning 2023 yil chop ettirilgan "Talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish", Nozima Shamuratova 15.10.2024 yilda chop ettirilgan "Ta'lim sifatini yaxshilashda talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi", N.B.Muratovanning "Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida" maqolasida talabalarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, axborotlarni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tadqiqot natijalarini yoritib bergan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini [ ] "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi. Bunga ko'ra, "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" [ ] gi nizom tasdiqlandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish haqida so'z boradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda maktabgacha ta'lim sohasini ham rivojlantirishga, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar quyidagi qonun va qarorlar asosida ishlab chiqarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida" [ ] gi qonuni asosida :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-son - "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [ ] gi,

-2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [ ] gi

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi 626-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" [ ] gi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralari bo'yicha sanitariya qoidalari va normalari [ ] ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Oliy ta'lim muassasalarida "Maktabgacha ta'limda sog'lom ovqatlanirish texnologiyasi" fanini innovatsion o'qitish usullari nafaqat auditoriyada balki masofaviy ta'limda ham ilg'or texnologiyalarni qo'llash yoki eng so'nggi ta'lim tendentsiyalaridan doimo xabardor bo'lgan holatda ta'lim usullaridan foydalanish orqali darslarni tashkil etish samarali usullardan biridir. Quyidagi maqolada ushbu fanni masaofaviy tarzda qanday o'qitish orqali samaraga erishish mumkinligi haqida boradi.

Talabalarining mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda masofaviy ta'limning quyidagi afzallik va qulayliklari mavjud bo'lib, birinchidan, talabalar moslashuvchanlik va vaqtni boshqarish, o'zlariga qulay vaqtda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularga shaxsiy rejalarini ta'lim jarayoniga moslashtirishga yordam beradi. Vaqtni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki talabalar topshiriqlarni mustaqil ravishda rejalashtirishni o'rganadilar.

Ikkinchidan, resurslardan keng foydalanish imkoniyati, shuningdek internet orqali turli xil elektron kitoblar, videodarslar, vebinarlar va ilmiy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati

kengayadi. Bu talabalarni turli manbalarni tahlil qilish va ulardan foydalana olishga undaydi. Bundan tashqari talabalar masofaviy ta'lim orqali texnologik ko'nikmalarni rivojlantirishadi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganadilar, masalan, onlayn platformalar, videokonferensiyalar va elektron pochta orqali muloqot qilish kabilar. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ta'limda, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham foydali bo'ladi. Mustaqil qaror qabul qilishni shakllantirishda ham masofaviy ta'lim ahamiyatli ya'ni, talabalar bilim olish usullarini va resurslarni tanlashda mustaqil bo'lishadi. Bu ularda tanqidiy fikrlash va o'z harakatlarini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har bir talabaga individual yondashuv imkoniyati bo'ladi, ular o'zining bilim darajasiga mos materiallarni tanlay oladilar. Bu esa talabalarni o'z ustida ishlashga va o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ochishga yordam beradi.

Uchunchidan, masofaviy ta'limning iqtisodiy jihatlariga qaraydigan bo'lsak, odatda iqtisodiy jihatdan arzonroq, chunki transport, yashash yoki darsliklar uchun qo'shimcha xarajatlar talab etilmaydi. Bu talabalar uchun ko'proq resurslarga investitsiya qilish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim talabalarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularda mustaqillik va o'z ustida ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu usul talabaning muvaffaqiyatli bilim olishiga ko'plab yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tahlil va natijalar: Sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi fanini o'zlashtirishda talabalar qanday mustaqil o'qish strategiyalaridan foydalanishi mumkin?


“Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish texnologiyasi” fanini o'zlashtirishda talabalar uyda hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarning turli yosh guruhlari uchun sog'lom ovqatlanishning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlilini yuritishdi. Bunga ko'ra: 567 nafar “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi talabalari uyda hamda maktabgacha ta'limda tarbiyalanayotgan bolalarning ovqatlanishi bo'yicha 3 oylik kuzatuv natijalari asosida qiyosiy tahlil olib borishdi. Qiyosiy tahlil olib borishda quyidagi so'rovnomadan foydalanildi.

**QIYOSIY TAHLIL JADVALI**  
**Yosh xususiyatlari (1-yoshdan 7 yoshgacha bolalar)**


№	Kunlik ratsion tarkibi va elementlari		Uyda		DMTTda		KKAL	
			tarbiyalanayotgan bolalar(gr)		tarbiyalanayotgan bolalar(gr)			
			O'gil bola	Qiz bola	O'gil bola	Qiz bola	O'gil bola	Qiz bola
1	Yoshga xos muvozanatli ovqatlanish	Oqsillar (gr)						
		Yog'lar (gr)						
		Uglevodlar (gr)						
2	Ovqat ratsionidagi portsiyalar (hajmi)	Nonushta (gr)						
		Tushlik (gr)						
		Qo'shimcha (gr)						
		Kechki (gr)						
3	Gazaklar (sabzavot, mevalar va ularning kunlik miqdori) (gr)							
	<b>Muammolari:</b>							
1	Bolalarning tanlab ovqatlanishi							
2	Ovqatlanishdagi vaqt cheklovlari							
<b>Xulosa</b>								
1 oylik ovqatlantirish bo'yicha kuzatish natijasida quyidagi savollarga javob bering?								
O'gil bola vazni/ bo'yi								
Qiz bolavazni/bo'yi								
Semirishga moyillilik								
Ovqat hazm qilish organlari kasalliklariga moyillilik								
Allergik kasalliklarga moyillilik								

Talabalar ushbu topshiriqni bajarishda asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Sanitariya qoidalari va normalaridan" foydalanishdi.

Talabalarning mustaqil tarzda bajargan qiyosiy tahlillari natijasi 25 balli baholash sistemasida baholandi. Bunga ko'ra:



Talabalarning mustaqil ish vazifasini bajarganlik holatini foiz ko'rsatkichi:



Kuzatuv natijalariga ko'ra, uyda tarbiyalanayotgan bolalarning ovqatlanish sifati uyda ota-onalarning bilim va ko'nikmalariga bog'liq ekanligi, shuningdek, uyda ovqatlanish odatda oila byudjeti, ovqat tayyorlash madaniyati va oila ichidagi turmush tarziga moslashgan. Bolalar ovqatlanish rejimiga doimiy rioya qilmasligi kuzatilgan, ayniqsa ota-onalarning bandligi sababli ovqatlanish vaqti o'zgaruvchan bo'lgan. Oiladagi boshqa a'zolarning odatlari, bolalarning tanlash imkoniyati va qiziqishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ba'zi bolalar noto'g'ri ovqatlanish odatlarini orttirganligi kuzatilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa ovqatlantirish, gigiyena talablari va balanslashgan taomnomaga ko'proq rioya qilinishi kuzatilgan. Bu joyda dietologlar tomonidan tavsiya etilgan ratsion asosida taomlar tayyorlanishi ko'proq bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlagan. Belgilangan vaqt rejimi asosida ovqatlanish tashkil etilgan, bu esa bolalarda odat va intizomni shakllantirilgan. Bolalar birgalikda ovqatlanishi, guruhda intizom saqlash va jamoa bilan ovqat iste'mol qilish madaniyatini rivojlantirganligini talabalar e]tirof etishgan.

Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqolada sog'lom ovqatlantirish

bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni masofaviy o'qitish orqali o'zlashtirish, talabalarning ijodkorlik salohiyatini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, fan bo'yicha bilimlarni chuqurroq egallash uchun multimediya materiallari, testlar, video darslar va masofaviy konsultatsiyalardan foydalanish taklif etilgan.

Talabalarga o'zlarini o'qitishda texnologik yechimlardan foydalanish orqali nafaqat ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Masofaviy ta'lim platformalari va raqamli vositalar yordamida talabalar sog'lom ovqatlanish texnologiyalarini mustaqil o'rganib, hayotiy ko'nikmalarni egallaydilar. Bu jarayon, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, o'z-o'zidan o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xususan, maqolada sog'lom ovqatlanish va mustaqil ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik va ularning talabalarning umumiy salomatligi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlariga ta'siri haqida to'xtalib o'tiladi.

Maqola yakunida masofaviy ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim platformalarini takomillashtirish, talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish va ular uchun moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratish muhimligi ta'kidlangan. Bu yondashuv talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### REFERENCE:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yil PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yil 559-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.11.2020 yil PQ-4887-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.05.2021 yil PQ-5124-son
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.07.2019 yil 626-son
7. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i, 17.07.2021 yil 0016-21-son
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son
9. F.V.Xalilov "Talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish" maqola Toshkent: 2023
10. Nozima Shamuratova "Ta'lim sifatini yaxshilashda talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi" maqola Toshkent: 2024
11. N.B.Muratovanning "Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida" maqola Toshkent: 2024

## SENNA TORA (L.) ROXB NING BUXORO SHAHRI SHAROITIDA AYRIM BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Halimova Shaxina Eminjon qizi*

*Buxoro Davlat Universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Biologiya kafedrasi katta o'qituvchisi b.f.f.d., (PhD)*

*Annotatsiya: Ilk bor Respublikamiz florasida uchramaydigan Asteraceae oilasiga mansub tur Senna tora (L.) Roxb.ning Buxoro iqlim sharoitida introduksiyasi o'rganilgan. O'simlikning laboratoriya va dala sharoitida urug' unuvchanligi, urug'ning unib chiqish energiyasi, turli xil muddatlarda saqlangan urug'larning unuvchanligiga haroratning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, urug'lar dala sharoitida kuz oylarida ekilganda, bahorgi ekilgan urug'larning unuvchanligidan yuqori bo'lishi. Shu boisdan o'rganilgan turlarning urug'lari O'zbekiston iqlim sharoitida bahorda ekish tavsiya etilgan.*

*Kalit so'zlar: Senna tora, urug', unuvchanlik, qulay harorat, vegetatsiya, moslanish, yuvenil, immatur holat, gullash dinamikasi.*

## НЕКОТОРЫЕ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ SENNA TORA (L.) ROXB. В УСЛОВИЯХ ГОРОДА БУХАРЫ

*Халимовой Шахина Эминджон,*

*Бухарский государственный университет, факультет естественных наук и агrobiотехнологии, старший преподаватель кафедры биологии, кандидат биологических наук, (PhD)*

*Аннотация: Исследовано введение Senna tora (L.) Roxb., вида семейства Asteraceae, который не встречается во флоре нашей Республики, в климатических условиях Бухары. Изучены всхожесть семян, энергия прорастания семян и влияние температуры на всхожесть семян, хранившихся в течение различных периодов, как в лабораторных, так и в полевых условиях. Также установлено, что семена, посеянные в поле осенью, имеют более высокую всхожесть по сравнению с семенами, посеянными весной. Поэтому рекомендуется высевать семена изучаемых видов в климатических условиях Узбекистана весной.*

*Ключевые слова: Senna tora, семена, всхожесть, оптимальная температура, вегетация, адаптация, ювенильное, незрелое состояние, динамика цветения.*

## SOME BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SENNA TORA (L.) ROXB. IN THE CONDITIONS OF BUKHARA CITY

*Halimova Shakhina Eminjon,*

*Bukhara State University, Faculty of Natural Sciences and Agrobiotechnology, Senior Lecturer of the Department of Biology, Ph.D., (PhD)*

*Annotation: The Introduction of Senna tora (L.) Roxb., a species belonging to the Asteraceae family, which is not found in the flora of our Republic, has been studied under the climatic conditions of Bukhara. The research examined the seed germination, germination energy, and the effect of temperature on the germination of seeds stored for various periods, both in laboratory and field conditions. Additionally, it was found that seeds sown in the field during the autumn months have higher germination rates compared to those sown in spring. Therefore, it is recommended to sow the seeds of the studied species in Uzbekistan's climatic conditions during the spring.*

*Key words: Senna tora, seeds, germination, optimal temperature, vegetation, adaptation,*

*juvenile, immature state, flowering dynamics.*

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamiz florasidagi dorivor o'simliklarni yetishtirish, turlar sonini ko'paytirish va xorij florasiga mansub turlarni introduksiya sharoitiga moslashtirish hamda ularning sanoat plantatsiyalarini yaratish, mahalliy sharoitda yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning turlarini ko'paytirish, turli tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan introdutsentlarni yetishtirish va amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda *Senna tora* (L.) qimmatbaho efirmoyli dorivor o'simlik hisoblanib turli tuproq iqlim sharoitida o'rganishni taqozo etadi.

*Senna tora* (L.) Roxb. – bir yillik o'simlik, balandligi 100-150 sm. Bargi murakkab, juft-juft bo'lib joylashgan. Tuxumsimon-lansetli, tuksiz, och yashil rangda bo'lib, katta barglari 3-4x2-2,5 sm. Gullari sariq, mayda, sharsimon. Dukkagi to'rtburchakli, teskari tuxumsimon, och qo'ng'ir rangli. Avgustda gullab, sentabr oyida urug'i pishib yetiladi. Sano turlarining Vatani Afrikaning cho'l va yarimcho'l vohalari va Arabistonning janubi, O'rta Osiyo, Qozog'iston va Kavkazda bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladi. Sano bargi va mevasidan tayyorlangan damlama me'da ichak kasalliklarida, surunkali qabziyatda surgu dori sifatida qo'llaniladi. *Senna tora* ning tarqalishi va dorivorligi A.Л. Тахтаджян tomonidan Жизнь растений. Цветковые растения (или Magnoliophyta Angiospermae) ma'lumotlar qayd etilgan.

#### Metodologiya

Hozirgi kunda *Senna tora* ni respublikamizning Toshkent shahri va Samarqand, Jizzax viloyatida olimlarimiz tomonidan o'rganilmoqda. Lekin tuproqlari turli darajada sho'rlangan Buxoro sharoitida bioekologik xususiyatlari o'rganilmagan, desak ham bo'ladi. Shu boisdan *Senna tora* ni Buxoro shahri sharoitida bioekologik xususiyatlari o'rganib, introduksiya qilishdan iborat.

Latent davri (se). O'simlikning urug'lari och jigarrang, to'rt qirrali, uzunligi 5-6 mm, eni 2-3 mm. 1000 dona urug' vazni 28-30 g. Laboratoriya sharoitida 15 0C haroratda urug'lar 56% unib chiqdi. Urug'larning unib chiqishi uchun optimal harorat 20-300C ni tashkil etdi. Ushbu haroratda urug'lar 85-98% unib chiqdi. (1-rasm). Uch yil saqlangan urug'lar 55 % ni, to'rt yilgisi 40 % ni tashkil etdi. Dala sharoitida kuzda ekilgan urug'lar 50-60% unib chiqishi kuzatildi (1-jadval).



1-rasm. *Senna tora* urug'lari va ularning laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi

### Natija va Muhokama

Virginil davri (v). Maysa bosqichi (p). Urug'lar kuzda 14 noyabr 2021 yili birinchi tajriba maydoniga ekilganda, 20.03.2022 da unib chiqqan, 28.03.2022 yilda yalpi unib chiqdi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati 11,6 0C, havoning nisbiy namligi 58% ni tashkil etdi. Maysa yashil rangda, bo'yi 1-2 sm, urug'palla bargi yumaloq, uzunligi va eni bir xil o'lchamda bo'lib (1 x 1 sm), ildizi 3-4 sm ga chuqurlashgan. Maysa bosqich 5-6 kuni tashkil etdi.

Yuvenil bosqichi (j). Aprel oyining boshlarida (2.04.2022) Cassia tora bo'yi 3-4 sm bo'lib, 12 aprelda beshtagacha haqiqiy barglari hosil bo'ldi. Ildizi 5-7 sm ga chuqurlashib, bir nechta ingichka yon ildizchalar paydo bo'ldi. Aprel oyining oxirlarida (26.04.2022) yuvenil o'simlik bo'yi 8-12 sm ga yetib, ildizi 7-9 sm ga chuqurlashdi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati 20,7 0C, havoning nisbiy namligi 48% ni tashkil etdi. May oyining boshlarida (3.05.2022) urug'palla bargi sarg'aydi, lekin to'kilmadi. Barglar soni ko'paymadi, ularning o'lchami 1-2 x 1,0-1,5 sm edi. Barcha barglari yashil holatda. Yuvenil bosqich 40-43 kun davom etdi. May oyining o'rtalarida (16.05.2022) o'simlik bo'yi 13-15 sm virginil holatda bo'lib, havo harorati 26,4 0S, havoning nisbiy namligi 33% edi. Bargi murakkab, besh bo'limli. Har bir bo'limda uchta juft haqiqiy barglari shaklangan. Ildizi tarmoqlangan, bir necha yon ildizlardan iborat bo'lib, uzunligi 6-7 sm ga yetgan. Virginil bosqich o'simlik hayotida ikki oyni (60-65 kuni) tashkil etishi aniqlandi (2- 3-rasmlar).

### Laboratoriya sharoitida *Senna tora* ning urug' unuvchanligi

(22.01.2021 y.).

Harorat, °C	4	5	8	9	11	12	13	15	19	20	21	23	24	25	Jami ungan urug'	Unish energiya
15	1	2	4	3	4	4	7	10	7	4	4	3	2	1	56	27
20	2	3	7	9	15	13	12	8	6	5	3	1	1	-	85	40
25	7	6	11	18	14	17	12	7	6	-	-	-	-	-	98	49
30	5	8	10	19	17	14	10	8	5	2	-	-	-	-	98	50



2-rasm. *Cassia tora* ning ontogenezi (2022 y.)



3-rasm. *Cassia tora* ning virginil holati (16.05. 2022 y.)

Generativ davri (g). May oyining oxirlarida (22.05) o'simlik bo'yi 20-25 sm ga yetib, g'unchalay boshladi. Iyun oyining boshlarida (2.06) birinchi guli ochildi. Bu vaqtda havoning o'rtacha harorati 28,6 0C, havoning nisbiy namligi 29% edi. Oy oxirlarida (26.06) o'simlik bo'yi 30 sm ga yetib, har bir tupda 2-3 tadan guli ochildi va g'uncha hosil qilishi davom etdi. O'simlikda barglar soni ko'paydi. Barglarida qurish holati kuzatilmadi. Iyul oyining o'rtalarida (14.07) havoning o'rtacha harorati 31,2 0C, havoning nisbiy namligi 28% bo'lganda, ba'zi tuplarining bo'yi 60-80 (95) sm ga yetdi. Har bir tupda 30-60 tadan gullari ochildi. Gullari ertalab va kechqurun ochilib, kunduzi yopildi. Bir tupdagi yon novdalar soni 4 ta gacha, ularning uzunligi 15-20 sm. Barglar soni (juft holda) 18 tagacha ko'paygan, ularning o'lchami 5-6 x 3-4 sm. Gulining o'rtasidan qo'zoq paydo bo'lgan, uning uzunligi 1-14 sm. Asosiy o'q ildizi 18-20 sm ga chuqurlashgan. Ko'p miqdorda ikkinchi tartibli ildizi bo'lib, ularning uzunligi 10-15 sm, uchinchi tartibli ildizchalar uzunligi esa 1-3 sm ga yetgan. Avgust oyida o'simlik bo'yi 100-120 sm ni tashkil etib, har bir tupda 20 tagacha qo'zoqlar hosil bo'ldi, ularning uzunligi 13-21 sm ga yetdi. Har bir qo'zoqda 16-37 tadan urug'lar borligi kuzatildi. Urug'lari 50-60% pishgan. Gullashi va g'uncha hosil qilishi davom etdi. Urug'lari sentabr oyida to'liq pishdi. 19 sentabrda o'simlik bo'yi 130-150 sm ga yetdi. 11.10.2022 yili Senna tora bir tupida 15 ta yillik yon novda hosil qilib, 146 ta qo'zoq hosil qildi (4-rasm).



**4-rasm. *Senna tora* ning generativ davri**

Shunday qilib, *Senna tora* ning vegetatsiya davomiyligi (2021 yili kuzda ekilganda) 190-215 kuni (20.03-11.10.2022) tashkil etdi.


*Senna tora* 16 aprel 2022 yili birinchi tajriba maydoniga ekildi. 14 iyul 2022 yili kuzatuvlarimiz bo'yicha o'simlik bo'yi 50-60 sm ga yetgan, g'unchalashi endi boshlangan. Barglar ham 5-6 x 3-3,5 sm, xuddi kuzda ekilganga o'xshaydi, lekin faqat gullash fazasi biroz kechikkan. Bir tupda 10-20 tagacha juft barglari birin-ketin joylashib, 1-2 vegetativ yon novdalari mavjud, ularning uzunligi 20 sm. 2021 yili kuzda ekilgani gullab, qo'zoq hosil qilgan. Demak, vegetatsiya bir oy orqaga surilgan. 29.07 da guli ochila boshladi, 27.08 da balandligi 120 sm gacha o'sgan, 15.09 da 7-16 gacha yon novda hosil qilgan, 11.10 da balandligi 145-155 sm ga yetgan. 15 ta yon novdalarida 146 ta qo'zoqlar hosil bo'lgan va urug'lari to'liq pishgan. Bir tupda 40-50 g urug' hosil qildi.

*Senna tora* ikkinchi tajriba maydoniga bahorda, 20 aprel 2022 yilda, ekildi. 15 iyuldagi kuzatishlarimiz bo'yicha, o'simlik bo'yi 50-60 sm ga yetgan. Bu paytda bir tupida 5 ta guli ochildi, 6 ta g'unchasi bor, 2 ta qo'zog'ining uzunligi 14-18 sm. 1m<sup>2</sup> joyda 5 tupi o'sdi. Bitta katta barg o'lchami 5-6 x 3-4 sm, o'rtacha barg o'lchami 4-5 x 2-3 sm, kichik barg o'lchami 3,0-3,5 x 1,5-2,0 sm. G'unchasi, guli tepa qismidan boshlab ochiladi. Bir tupda 4 ta generativ novdasi bor, ularning uzunligi 25-35 sm. Barg qo'ltig'idan g'unchasi, guli paydo bo'lgan. Bargi murakkab, bandli, uzunligi 3-4 sm, bironta bargi qurimagan. Bitta murakkab barg sathining o'lchami 8-9 x 6-7 sm ni tashkil etdi. Avgust oyining o'rtalarida (17.08) 40-61 ta gacha qo'zoq hosil bo'lib, ularning uzunligi 16-23 sm gacha bo'ldi. Sentabr (27.09) oyining oxirlarida pastki yon novdalardan yana gullari ochilib, qo'zoqlar hosil bo'ladi. Ularning uzunligi 11-15 sm ni tashkil etdi. Qo'zoqlari 13.09 dan 10.10 gacha pishib yetildi. Lekin gullashi birin-ketin kam miqdorda ochildi turdi (5-rasm).



**5-rasm. *Senna tora* ning ikkinchi tajriba maydonidagi generativ davri (13.09.2022 y.)**

Senna tora ning introduksiya sharoitida o'sishi va rivojlanishida yillik iqlim omillarining ko'rsatkichlari hamda bevosita ekish muddatlariga bog'liqligi r-Pearson korrelyatsiyasi asosida tahlillar amalga oshirildi (6-rasm).



**6-rasm. Senna tora ning ontogenezida tashqi muhit omillariga korrelyatsiyasi**

Senna tora ning introduksiya sharoitida o'sish va rivojlanishida havo harorati va tuproq yuza qismining harorati musbat korrelyatsiyasi aniqlanib, asosiy musbat korrelyatsiyasi havo harorati yetakchilik qilib, havoning nisbiy namligi manfiy korrelyatsiyada ekanligi aniqlandi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, dorivor o'simlik urug'lari kuzda noyabr oyida, bahorda esa mart va aprel oylarida ekish maqsadga muvofiqdir. O'simlik urug'lari kuzda ekilganda, baxorgi ekilgan urug'larning vegetatsiya davrini tezroq tugallanib, generative davrga o'tganligini kuzatishlarimizda ko'rib amin bo'ldik. Aytish joizki, Senna tora Buxoro iqlim-sharoitiga, tuproqlarida ontogenez davrlarini o'tab, generativ holatga o'tganligi uning shu sharoitga moslashganligidan dalolat beradi.

**Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Фирсова М.К. Методы определения качества семян. - Москва: Сельхозлитература, 1959. - С. 150-155.
2. Работнов Т.А. Вопросы изучения состава популяций для целей фитоценологии // Проблемы ботаники: сборник научных трудов. 19506. Т.1. .С 465-483.
3. Серебряков И.Г. Морфология вегетативных органов высших растений. - Москва: Советская наука, 1952. - .С 14- 135
4. Борисова ИВ. . Сезонная динамика растительного сообщества // Полевая геоботаника. Т. 4.- Ленинград: Наука, 1972. - С. 5-24.
5. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений ирастительных сообществ. - Новосибирск: Наука, 1974, - С. 89-95.
6. Географический атлас Узбекистана. - Ташкент: Госкомгеодезкадастр, 2012. - ,С 144.
7. Тахтаджян А.Л. Жизнь растений. Цветковые растения (Magnoliophyta или Angiospermae). – Т. 5. – Москва: Просвещение, 1981. – С. 192-475.
8. Ботанический атлас. Под ред, чл. корр. БК.. Шишкина. -М.-Л., 1963, -.С 174-175.
9. Лавренов В.К., Лавренова Г.В. Современная энциклопедия лекарственных растений. - Москва: Нева, 2006. - .С
10. Мацку Я., Крейча И. Атлас лекарственных растений. - Братислава: Изд. Словацкой Академии наук, 1970, - .С 214.

## **PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING BO'LAJAK O'QITUVCHI SIFATIDA O'QUVCHILAR O'QISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLIGI XUSUSIDA**

*Iminova Dilnoza Nasirovna  
ADPI mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqola avvalo Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining bo'lajak o'qituvchi sifatida o'zlarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayonlarini ilmiy-tadqiqot asosida tahlil qilish masalasi ko'rilgan. Unda talabalarning kelgusi pedagogik faoliyatida motivatsiyaning pedagogik va psixologik asoslari, ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali o'qitish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Maqolada motivatsiyaning turli shakllari (ichki va tashqi), ularning o'zaro bog'liqligi hamda talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar va motivatsiyani oshirishda milliy qadriyatlarning o'rnini tahlil qilingan. Maqola natijalari pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv jarayonini samarali tashkil etish va ularning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, motivatsiya, oliy ta'lim, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar, milliy qadriyatlar, innovatsion o'quv jarayoni, shaxsiy rivojlanish, kasbiy tayyorgarlik, psixologik yondashuv.*

## **О ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗВИТИЮ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ**

*Иминова Дильноза Насировна  
Независимый исследователь АГПИ*

*Аннотация: В данной статье на основе научных исследований проводится анализ процессов развития мотивации к учебе у студентов-педагогов как будущих учителей. Рассмотрены педагогические и психологические основы мотивации студентов в их будущей педагогической деятельности, эффективные стратегии обучения с учетом индивидуальных потребностей студентов в образовательном процессе. В статье речь идет о различных формах мотивации (внутренней и внешней), их взаимозависимости и влиянии на личностное и профессиональное развитие студентов. Также была проанализирована роль инновационных технологий, интерактивных методов и национальных ценностей в повышении мотивации в учебном процессе. Результаты статьи служат для эффективной организации образовательного процесса студентов педагогического образования и развития их профессиональных навыков.*

*Ключевые слова: педагогическое образование, мотивация, высшее образование, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, образовательные технологии, интерактивные методы, национальные ценности, инновационный образовательный процесс, развитие личности, профессиональная подготовка, психологический подход.*

## ON THE PREPARATION OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL EDUCATION FOR DEVELOPING STUDENTS' MOTIVATION TO STUDY AS FUTURE TEACHERS

*Iminova Dilnoza Nasirovna,  
Independent Researcher of ASPI*

*Annotation: This article first of all deals with the issue of a scientific-research analysis of the processes of developing students' motivation to study as future teachers in the field of Pedagogy. It considers the pedagogical and psychological foundations of motivation in students' future pedagogical activities, effective teaching strategies taking into account the individual needs of students in the educational process. The article pays special attention to various forms of motivation (internal and external), their interdependence and impact on the personal and professional development of students. It also analyzes the role of innovative technologies, interactive methods and national values in increasing motivation in the educational process. The results of the article will serve to effectively organize the educational process for students of pedagogical education and develop their professional skills.*

*Keywords: pedagogical education, motivation, higher education, internal motivation, external motivation, educational technologies, interactive methods, national values, innovative educational process, personal development, professional training, psychological approach.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida oliy o'quv yurtlari talabalarining avvalo o'zlarida o'qishga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari o'qish jarayonida faol, ijodiy va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun samarali motivatsiya jarayoni muhim ahamiyatga ega. Chunki kelajak pedagoglari jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan muhim kadrlar hisoblanadi. Dolzarblik, avvalo, global raqobatbardosh ta'lim talablari – bilimlarning sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash, yoshlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan bog'liq. Mazkur jarayonlarda motivatsiya talabaning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. XXI asrda yoshlar o'rtasida o'zlashtirish darajasining pastligi, o'qishga qiziqishning susayishi va internet, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yuzaga kelayotgan diqqatni chalg'itish muammolari ham ushbu mavzuning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, pedagogik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun o'qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni pedagogika, psixologiya, ta'lim texnologiyalari va zamonaviy axborot vositalarining samarali integratsiyasini talab qiladi. Yangi pedagogik usullar, ilmiy va ijtimoiy yondashuvlar asosida ushbu jarayonni takomillashtirish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, balki kelajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosdagi o'quv-metodik tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish imkonini ham yaratadi. Shunday ekan, ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitish, balki amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda dolzarb ahamiyatga ega.

Maqsad: Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining bo'lajak o'qituvchi sifatida o'quvchilar o'qish motivatsiyasini rivojlantirishga tayyorligini oshirish, innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam berish.

Vazifalar: o'qish motivatsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish; ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantiruvchi omillarni o'rganish; pedagogik jarayonda motivatsiyani rivojlantiruvchi vositalarni aniqlash; mehnat bozori ehtiyojlari va pedagogik amaliyot talablari asosida motivatsiyani oshiruvchi metodlarni belgilash.

Bu vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari avvalo o'zlarida

o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini yaxshilash mumkin.

#### I. O‘qish motivatsiyasining nazariy asoslari.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, faol ishtirok etishini ta’minlash va ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatini ijobiy tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida motivatsiyaning asosiy nazariy jihatlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va amaliy modellar orqali takomillashtirilgan. Motivatsiya – bu shaxsning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini boshqaruvchi ichki turtkilar majmuasi. Pedagogik faoliyatda motivatsiya o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga qiziqishini, o‘zlashtirish samaradorligini va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada rus olimlaridan L.I.Bojovich ta’kidlaganidek, “motivatsiyaning asosiy vazifasi shaxsning ehtiyojlari va ijtimoiy manfaatlari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishdan iborat” [1]. O‘quvchilar o‘rtasida o‘qish motivatsiyasining turli ko‘rinishlari uchraydi, jumladan, ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya shaxsiy qiziqish va o‘qish jarayonidan qoniqish olish bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya mukofot yoki jazo mexanizmlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Nemis olimi F.Xekxaufen ushbu jarayonni chuqur tadqiq qilib, ta’kidlaganidek, “motivatsiyaning samarali rivojlanishi shaxsning o‘quv-tarbiya jarayoniga ijobiy munosabati bilan bog‘liq” [2;124].

Pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalari oliy ta’limda tahsil olayotgan davridanoq o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda quyidagi asosiy jarayonlarni inobatga olishi lozim:

1. Ma’lumotga bo‘lgan qiziqishni oshirish. Bu o‘quvchilarda ma’lumotga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, o‘quv jarayonining faolligini ta’minlashga yordam beradi. Fransuz pedagog J.Bruner ta’kidlaganidek, “o‘quvchida bilishga intilish hissini uyg‘otish o‘quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak” [3;89].

2. O‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish motivatsiya darajasini oshiradi. Amerikalik tadqiqotchi Edvard Desi ta’kidlaganidek, “to‘g‘ri tanlangan o‘quv usullari va materiallar ta’lim oluvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga javob berishi lozim” [4;73].


3. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy pedagogikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish o‘qish motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Rossiyalik olim A.A.Verbitskiyning fikricha, “faol o‘qitish usullari o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi” [4].

4. Baholash jarayonida motivatsiyani rag‘batlantirish. O‘quvchilarning o‘qish jarayoniga yondashuvini yaxshilash uchun samarali baholash tizimini joriy qilish zarur. Bunda ijobiy va rag‘batlantiruvchi fidbek muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonlik pedagog M.Hasanov ta’kidlaganidek, “o‘quvchilarning shaxsiy yutuqlarini doimiy ravishda baholash ularning o‘quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi” [5;65].

O‘quv jarayonida o‘qituvchining shaxsiy roli o‘quvchilar motivatsiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. O‘qituvchining ijobiy munosabati, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi va o‘quv materiallarini qiziqarli tarzda taqdim etishi motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega. Finlandiyalik olim S.Karpenning fikricha, “o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti motivatsiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega” [6;65].

O‘qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni ta’limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish, innovatsion usullarni qo‘llash va pedagogning ijobiy munosabatiga bog‘liq. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va nazariyalar ushbu jarayonning turli jihatlari

chuqur yoritib berishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim tizimini takomillashtirishga ko'maklashadi.



## II. O'quvchilar o'qish motivatsiyasining asosiy xususiyatlari.

O'quvchilarning o'qish motivatsiyasini rivojlantirish – o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-huquqiy va madaniy omillar bilan ham bog'liq. Talabalarning motivatsiyasi ularning o'quv jarayonidagi faolligi, ijodiy yondashuvi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar o'qish motivatsiyasini tushunish uchun motivatsiya nazariyasini tahlil qilish zarur. Motivatsiya shaxsning aniq bir maqsadga yetish uchun o'zidagi ichki kuchlarni ishga solishiga olib keladigan jarayondir. Masalan, Abraxam Maslou o'zining ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida ta'limga bo'lgan ehtiyoj insonning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlaridan biri sifatida e'tirof etgan [7;45-47]. Uning fikricha, ta'lim jarayonida insonning yuqori bosqich ehtiyojlari – o'zini anglash va ijodiy rivojlanish asosiy motivatsiya omillari hisoblanadi. Pedagogik ta'limda esa motivatsiya nazariyalari talabalarning pedagogik tayyorgarligiga moslashtiriladi. Sh.Shafikovaning ta'kidlashicha, "o'quv motivatsiyasi shaxsning ijtimoiy-huquqiy va madaniy ehtiyojlari hamda shaxsiy maqsadlar bilan birlashgan holda shakllanadi" [8;34].

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari kelgusi pedagogik faoliyatda o'quvchilar o'quv motivatsiyasining quyidagi o'ziga xos jihatlariga urg'u qaratishlari lozim:

A. Shaxsiy omillar. O'quvchilar uchun shaxsiy omillar o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular orasida shaxsiy maqsadlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va individual qobiliyatlar bor. M.Vigotskiyning fikricha, shaxsiy qiziqish o'quv motivatsiyasini [9;123] oshirishda eng muhim ichki omildir. Uning ta'kidlashicha, "o'quv motivatsiyasi o'quvchining ta'limiy faoliyatga nisbatan ijtimoiy munosabati bilan bog'liq" [10].

B. Tashqi omillar. Tashqi omillar sifatida o'quv muhiti, o'qituvchining motivatsiyaga ta'sir ko'rsatish strategiyalari va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi keltiriladi. R.Guseynovning ta'kidlashicha, "o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish


o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini va o‘quv motivatsiyasini oshirish imkonini beradi” [11]

Kuzatishlar va manbalar tahliliga ko‘ra o‘quvchilarning o‘qishga motivatsiyasini rivojlantirish usullari quyidagilardan iborat:

A. Ijtimoiy-madaniy yondashuvlar. O‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning ahamiyati katta. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligiga yo‘naltirilgan pedagogik tadbirlar o‘tkazish orqali ularning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirish mumkin. Masalan, A.Bandura ta’kidlaganidek, “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi o‘quvchilarda ijobiy qoidalar va qadriyatlar shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi” [11;89].

B. Zamonaviy texnologiyalar. O‘quvchilar o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlari natijasida yangi bilim olish imkoniyatlarini oshirishadi. P.Fridmanning fikricha, “interaktiv metodlar o‘quvchilarning bilimni faol o‘zlashtirishiga va o‘qish motivatsiyasining oshishiga olib keladi” [12].

V. Pedagogik amaliyot va o‘quv motivatsiyasining ta’siri. O‘quv jarayonida pedagogik amaliyotning joriy qilinishi o‘qish motivatsiyasi uchun asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyot talabalarda o‘z kelajak kasbiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi va ularning o‘quv jarayonida faolligini oshirishga xizmat qiladi. E.R.Islomovning ta’kidlashicha, “pedagogik amaliyot talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotga joriy qilish imkoniyatini berib, o‘quv jarayonini reallashtiradi” [13;89]. Pedagogik ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda ijtimoiy, shaxsiy va tashkiliy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish va pedagogik amaliyotning samarali joriy qilinishi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlarni tushunish va ularni qondirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi.



### III. O‘qish motivatsiyasini rivojlantirishdagi asosiy jarayonlar.

O‘qish motivatsiyasini ta’lim jarayonining eng muhim jihatlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va ixtiyoriylik darajasini aniqlaydi. Motivatsiyaning yuqori bo‘lishi o‘quvchilarni o‘qish jarayoniga faol jalb qilish va ularning muvaffaqiyatga erishishini ta’minlashda asosiy omillardan biridir. Bu jarayonni samarali rivojlantirish uchun turli nazariy va amaliy usullardan foydalanish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar mavjud. Masalan, I.L.Karpova ta’kidlaganidek, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun ularning shaxsiy ehtiyojlari va qadriyatlarini hisobga olish juda muhim. Shuningdek, o‘qituvchining o‘quv jarayonida samarali o‘zaro aloqa o‘rnatishi ham o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. O‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi baholashi va o‘z natijalarini baholash jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. B.F.Lomovning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarga o‘z natijalarini mustaqil ravishda baholash imkoniyati berish ularni mas’uliyat hissini oshirish va motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida musobaqalar tashkil etish ham ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. N.V.Kuznesovning

tadqiqotlariga ko'ra, musobaqa va tanlovlar o'quvchilar o'rtasida ijobiy raqobat muhitini yaratish orqali o'qish motivatsiyasini kuchaytirishning samarali vositasidir.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham o'qish motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. V.G.Afanasev ta'kidlaganidek, interaktiv texnologiyalar va multimedia vositalari o'quvchilarda o'qish jarayoniga nisbatan qiziqish va ijobiy munosabat rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda pedagogning rolini ham aytib o'tish joiz. P.R.Ivanovning fikricha, o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan ijobiy munosabati, ularni qo'llab-quvvatlashi va ularning yutuqlarini tan olishi motivatsiyani oshirishda muhim o'rin tutadi. O'qish motivatsiyasini rivojlantirishda pedagogik metodlardan biri sifatida o'quvchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish muhim sanaladi. Bu haqda A.S.Vigotskiyning ijtimoiy o'quv nazariyasida ham alohida ta'kidlangan. Unga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va hamkorlik muhitini yaratish motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini rivojlantirishda ularga o'quv maqsadlarini aniqlashtirish va ularga erishishga yordam berish juda muhim. M.A.Sidorovning fikriga ko'ra, aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishish yo'lida qo'llab-quvvatlash o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish ham muhim. Pedagogik psixologiya sohasidagi olimlardan biri A.V.Petrov bu haqda ta'kidlab, o'quv jarayonini o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish motivatsiyani oshirishda asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlagan. Yana bir muhim omil sifatida o'quvchilarga ijobiy taassurotlar yaratishni keltirish mumkin. T.L.Nikitina ta'kidlaganidek, o'quv jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qish motivatsiyasini rivojlantirishda individual yondashuvdan foydalanish juda muhim. Bunda har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish orqali ularga mos usullarni qo'llash lozim. Bu haqda YE.A.Smironova o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan. O'qish motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, ijtimoiy muhiti, pedagogning rolini va ta'lim jarayonining turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Samarali pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar orqali o'qish motivatsiyasini rivojlantirish mumkin, bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini va muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, individual yondashuv, ijtimoiy aloqalar, zamonaviy texnologiyalar va ijobiy emotsional muhit o'qish motivatsiyasini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi.

#### IV. Motivatsiyani rivojlantirishda pedagogik muhitning roli.

Motivatsiya – o'quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uni rivojlantirish jarayoni ta'lim oluvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'qishga bo'lgan ixlosini mustahkamlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik muhit esa o'qish motivatsiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Pedagogik muhit o'quvchilar uchun ijtimoiy, emotsional va intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi, motivatsiyalovchi ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'quv muhiti ijobiy bo'lsa, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va bilim olishdagi muvaffaqiyatlari ham oshadi. Psixolog olimi A.Maslou inson ehtiyojlarini ta'riflaganda, motivatsiya jarayonining asosiy jarayonlarini tushunishga yordam beruvchi va pedagogik muhitning vazifalarini aniqlashga xizmat qiluvchi omillarni ta'kidlagan. Shuningdek, pedagogika sohasida muhimi shuki, pedagogik muhit nafaqat ta'lim berish, balki tarbiyalash jarayonida ham o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ulardagi ijtimoiy malaka va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berishi lozim. Olima S.Sholimova ta'kidlaganidek, pedagogik muhit o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik muhitning tarkibiy qismlari sifatida o'qituvchining pedagogik mahorati, darslarga qiziqitira olishi, o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan o'zaro munosabatlar, ularning o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatlari kabi omillarning ahamiyati katta. Aslida, ta'lim oluvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish uchun o'qituvchi o'quv jarayonida individual yondashuvni qo'llash zarur. Har bir o'quvchining ehtiyojlari va qiziqishlari har xil bo'lganligi sababli, o'qituvchi individual yondashuv orqali har biri uchun qulay sharoitlar yaratishi lozim. Tadqiqotchi olimi S.Yuldashev o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirish motivatsiyani rivojlantirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogik muhit, shuningdek, ijobiy psixologik holatni ham yaratishi lozim. Olima M.Yusupova o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, ta'lim oluvchilarda motivatsiya rivojlantirishda o'quv muhitining emotsional va psixologik sharoitlarini yaxshilash juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz va erkin his qiladigan muhitda, ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va jarayonda faol qatnashish istagi ham kuchayadi.

O'qish motivatsiyasini rivojlantirishda pedagogik muhitning ta'sirini o'rganish natijasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ulardan biri V.Solovevning tadqiqotiga ko'ra, pedagogik muhitning ta'siri natijasida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyalari va o'z-o'zini baholashlari yaxshilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilar o'zlarini erkin his qiluvchi va o'qishda qo'llab-quvvatlanuvchi muhitda o'qish motivatsiyasi yaxshiroq rivojlanadi. Shuningdek, YE.Fedorov o'zining tadqiqotida ta'kidlaganidek, o'quv muhitida motivatsiya rivojlanishi uchun ijtimoiy munosabatlar va hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish zarur.

#### V. Taklif va yechimlar.

Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ham katta o'rintutadi. Professor A.Raxmonovning tadqiqotlari asosida aytilishicha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. AKTdan foydalanish ta'lim jarayonini qiziqarliroq va interaktiv qilib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. A.Raxmonov buni o'z tadqiqotlarida ko'rsatgan va AKTdan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'qish motivatsiyasi sezilarli darajada oshganligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, akademik S.Yusupov ta'kidlaydiki, o'quv muhitining ijobiy bo'lishi ham o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirishda muhimdir. Uning fikricha, o'quv muhitidagi psixologik barqarorlik va qo'llab-quvvatlash o'quvchilarning o'qishga nisbatan qiziqishini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Agar o'quv muhiti o'quvchilarni rag'batlantiruvchi, ijobiy ta'sirli bo'lsa, ular o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirishga harakat qiladilar.

Tadqiqotchilardan yana biri J.Norqulov, ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional omillarning ham o'qish motivatsiyasiga katta ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va guruhli ishlarni tashkil etish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Jamoaviy faoliyatda talabalar bir-birlarini qo'llab-quvvatlashadi va bu jarayonda o'zlarini qiyin vaziyatlarda qolganlarida ham yangidan harakat qilishga ilhomlantiriladilar. Shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy maqsadlari va o'quv jarayonidagi shaxsiy manfaatlari ham motivatsiyani rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Psixolog V.Beknazarov ta'kidlaydiki har bir o'quvchining o'quv jarayonida o'z maqsadlarini aniqlab olishi va shu maqsadlarga erishishga intilishi o'qish motivatsiyasini shakllantirishning muhim qismidir. Beknazarovning fikricha, shaxsiy maqsadlarning aniqligi va ularga erishish yo'llarining tushunarligi o'quvchilarni o'quv jarayonida faol bo'lishga undaydi.

Pedagogik ta'limda o'qish motivatsiyasini rivojlantirish uchun zamonaviy ta'lim metodlaridan ham foydalanish mumkin. Professor M.Xolmatovning fikricha, o'quvchilarning mustaqil o'qish va izlanishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish maqsadida interaktiv

usullardan foydalanish juda samaralidir. Bunday usullar o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning o'quv motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, professor N.Komilova ta'kidlaydiki, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtirokini oshirish uchun ularning bilim va ko'nikmalarini baholashning adolatli bo'lishi muhimdir. Uning fikricha, adolatli baholash tizimi o'quvchilarda o'quv jarayoniga bo'lgan ishonchni oshiradi va ularni yanada ko'proq harakat qilishga rag'batlantiradi.

Demak, Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini rivojlantirishda oila muhiti, o'qituvchilarning roli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ijobiy o'quv muhiti va shaxsiy maqsadlar kabi omillarni hisobga olishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchilarning individual yondashuvi va interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida mazkur jarayonda asosiy takliflar va yechimlar keltiriladi:

1. Individual yondashuv. O'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshirish uchun ularning shaxsiy qiziqishlari va maqsadlarini hisobga olish muhim. Individual yondashuv asosida har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, o'qishga bo'lgan munosabati tahlil qilinib, ularga mos motivatsiyaviy metodlar qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiruvchi vazifalar va loyihalar taklif etish orqali ularning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish mumkin.

2. Ijobiy o'quv muhitini yaratish. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish motivatsiyani oshirishning samarali usullaridan biridir. Ijobiy o'quv muhiti o'quvchilarning o'zaro yordamlashishini, jamoaviy ishlarda faol ishtirokini ta'minlaydi, shu bilan birga, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi. Buning uchun o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish, o'zaro fikr almashish va jamoaviy loyihalar ustida ishlash kabi usullardan foydalanish mumkin.

3. Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhimdir. Maqtov, ijobiy fikrlar va rag'batlantiruvchi baho berish o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, ularning muvaffaqiyatlarini tan olish va ularga maqsadlarga erishish yo'lida qo'llab-quvvatlash motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

4. O'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. Interaktiv ta'lim metodlari, jumladan, rol o'yinlari, simulyatsiyalar va diskussiyalar, o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Bu usullar o'quv jarayonini qiziqarli va faol ravishda o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Ma'lumotlarning amaliyot bilan bog'liqligi. Pedagogik ta'lim talabalari uchun o'quv materiallarining kelajakdagi kasbiy faoliyatlari bilan bog'liqligini tushunib yetishlari lozim. Bu esa o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshirishning muhim omilidir. O'quvchilarga o'quv jarayonida o'rganilayotgan bilimlarning amaliyotda qanday qo'llanilishi va ularning kelajakdagi faoliyatlariga qanday ta'sir etishi haqida ma'lumot berish ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

6. Belgilangan maqsadlar va natijalar. O'quvchilarga aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishish jarayonini kuzatish motivatsiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu jarayonda erishilgan natijalarni muntazam baholab borish ularning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini rivojlantirishga tayyorligi individual yondashuv, ijobiy o'quv muhitini yaratish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, interaktiv metodlardan foydalanish, o'quv jarayonining amaliyot bilan bog'liqligi va aniq maqsadlarni belgilash kabi jarayonlar bilan belgilanadi. Mazkur jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini

oshirib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1968. – 84 с.
2. Брунер Ж. The Process of Education, Harvard University Press. – 1960. – 89 p.
3. Бандура А. Social Learning Theory, Englewood Cliffs, 1977. – 89 p.
4. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Просвещение, 1984. – 123 с.
5. Вербицкий А.А. Контекстное обучение: теория и технология. – Логос, 1999. – 46 с.
6. Гусейнов Р. Педагогикада инновацион технологиялар. – Москва, 2018. – 57-б.
7. Деси Э. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior, Springer. – 1985, 73 p.
8. Исломова Э.Р. Педагогик инновациялар ва амалиётга интеграция. – Тошкент, 2019. – 67-б.
9. Карпентер С. Education and Motivation, Oxford University Press, 2017. – 112 p.
10. Маслоу А. Motivation and Personality, Harper & Row Publishers. – 1954. – 45-47 p.
11. Фридман П. Эффективное образование в цифровую эпоху. – Нью-Йорк, 2020. – 213 с.
12. Хекхаузен Ф. Motivation and Action, Springer. – 1991. – 124 p.
13. Ҳасанов М. Педагогик инновация асослари. – Тошкент, 2010. – 65-б.
14. Шафикова Ш. Талабалар ўқув мотивациясини ривожлантириш технологиялари. – Тошкент, 2017. – 34 б.

## **O'QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATIDA MANTIQUIY FIKRLASH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH: INNOVATSION YONDASHUV VA RAQAMLI FORMATDA ISHLASH**

*Ismoilova Nilufarxon Ibroximjon qizi  
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar  
instituti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqola «O'qituvchi pedagogik mahoratida mantiqiy fikrlash imkoniyatlaridan foydalanish: innovatsion yondashuv va raqamli formatda ishlash» mavzusini o'rganadi. Ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o'qituvchilar uchun muhim vazifadir. Mantiqiy fikrlashni rag'batlantirish, o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish va tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Maqola o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda mantiqiy fikrlashning ahamiyatini, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini qanday yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim tizimida o'qituvchilarning sifatini oshirish va o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashda foydali bo'lishi kutilmoqda.*

*Kalit so'zlar: Mantiqiy fikrlash, pedagog, o'qituvchi, innovatsiya, raqamli texnologiya, pedagogik mahorat, raqamli ta'lim, interfaollik, vizual ishtirok.*

## **USE OF LOGICAL THINKING CAPABILITIES IN TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS: INNOVATIVE APPROACH AND WORKING IN DIGITAL FORMAT**

*Ismoilova Nilufarkhon Ibroximjon kizi  
Teacher of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies*

*Annotation: This article examines the topic «Use of logical thinking capabilities in teacher's pedagogical skills: innovative approach and work in digital format». Developing logical thinking skills in the educational process is an important task for teachers. The quality of education can be improved by stimulating logical thinking, increasing students' problem-solving skills, and developing analytical thinking skills. The article shows the importance of logical thinking in developing teachers' pedagogical skills, and how the educational process can be improved through the use of innovative approaches and digital technologies. The results of this study are expected to be useful in improving the quality of teachers in the education system and ensuring student success.*

*Keywords: Logical thinking, educator, teacher, innovation, digital technology, pedagogical skills, digital education, interactivity, visual participation.*

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКАХ ПЕДАГОГА: ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД И РАБОТА В ЦИФРОВОМ ФОРМАТЕ**

*Исмоилова Нилуфархон Иброхимжон қизи  
Андижанское сельское хозяйство и агротехнологии  
преподаватель института*

*Аннотация: В данной статье рассматривается тема «Использование возможностей логического мышления в педагогическом мастерстве учителя: инновационный подход и работа в цифровом формате». Развитие умения логически мыслить в учебном процессе является важной задачей учителя. Качество образования можно улучшить, поощряя логическое мышление, улучшая способности учащихся решать проблемы и развивая*

навыки аналитического мышления. В статье показано значение логического мышления в развитии педагогического мастерства учителей, как можно улучшить учебный процесс, используя инновационные подходы и цифровые технологии. Ожидается, что результаты этого исследования будут полезны для повышения квалификации учителей в системе образования и обеспечения успеха учащихся.

*Ключевые слова.* Логическое мышление, педагог, учитель, инновации, цифровые технологии, педагогическое мастерство, цифровое образование, интерактивность, визуальное участие.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim sohasida o'quvchilarni faqat bilim bilan ta'minlash yetarli emas, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, "Pedagogik mahorat" fanida mantiqiy topshiriqlarni qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni murakkab masalalar ustida mustaqil ishlashga o'rgatish, turli vaziyatlarda optimal yechimlarni izlashga undash imkoniga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391 son qaroriga muvofiq oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim jarayonini o'quv-metodik ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullaridan keng foydalanish asosida o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, ta'lim jarayoni sifatini izchil oshirib borish, o'qitishning samarali shakllari va usullari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha bugungi kunda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlab o'tilganidek, mantiqiy topshiriqlar ta'lim jarayoniga ijodiy va tahliliy yondashishni talab qiladi. Bu jarayon o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham katta e'tibor, chuqur fikrlash va muammolarni turli usullar bilan hal qilishga qodir bo'lishni talab qiladi. Shu boisdan, "Pedagogik mahorat" fanida mantiqiy topshiriqlardan foydalanishning amaliy-metodik mexanizmlarini chuqur o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va mantiqiy topshiriqlar o'rtasidagi uyg'unlik ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan vosita sifatida qaraladi. Bu uyg'unlik o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni hal etish, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvlarini kuchaytiradi, shuningdek, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, degan ma'nolarni bildiradi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish – innovatsiya deyiladi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi [1]. Ta'lim innovatsiyalari "Innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. Innovatsion ta'lim tushunchasi ilk bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Muallifga ko'ra an'anaviy ta'lim faqat tayyor bilimlarni qabul qilishga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy metodologiyalar mustaqil o'rganishga, bilimlarni qidirib topishga va mantiqiy tahlil qilishga undaydi [2;552-b].

O'.Tolipov, D.Ro'ziyevlar, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil

etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagoglardan pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriroq malaka talab etiladi. Ta'limni boshqarishda tizimli yondashuv – bu boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos holda shakllantirish jarayonidir ta'limda boshqarish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin [3] deb hisoblaydilar.

Muhokama. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning ta'limda faol ishtirokini ta'minlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish va amaliy tajriba orqali o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, "Pedagogik mahorat" fanida mantiqiy topshiriqlar innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, ta'lim jarayoni o'quvchilarning kreativ salohiyatini oshirish va ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam berish uchun samarali platforma yaratadi. Tadqiqotchi J.Saltmarsh shuni ta'kidlaydiki, raqamli texnologiyalar darhol ta'lim samaradorligini oshirmaydi. O'qituvchilar texnologiyalardan samarali foydalanishni, ta'lim nazariyasini tushunishni va to'g'ri natijalarga erishish uchun mos texnologiyalarni tanlashni o'rganishlari kerak. [3;331-352-b]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart" [4] degan fikri bugungi kunda g'oyat dolzarbdir. Bu yondashuv, aslida, bizga taraqqiyotning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Raqamli bilimlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida, balki ta'lim tizimini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'quv jarayonlari esa yangicha va innovatsion usullarda tashkil etilishi mumkin bo'ladi. Zotan bu masalada M.Xolmuhammedov o'z tadqiqotida "Tizim o'z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish, o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kryeativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo'yadi" [5;3-4-b] deb yozadi. Biz tahlil qilayotganimiz "Pedagogik mahorat" fani doirasida u ma'lumot texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy etish taktikasi sifatida qaraladi va "ta'lim beruvchi – moddiy muhit – ta'lim oluvchi" tizimining qonuniyatlariga asoslangan bilimlarga tayanadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tuzilmasi uch qismdan iborat: konseptual asos, ta'lim jarayonining mazmuni va texnologik jarayon. Bu jarayonda har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Bu ilmiy konsepsiya ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlovchi falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslarni qamrab oladi. Ta'lim jarayoni mazmuni esa quyidagilardan iborat bo'ladi: ta'limning umumiy va aniq maqsadlari hamda o'quv materialining mazmuni. Shu asosda pedagogik texnologiya ta'lim berish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, bu esa o'quvchilar va talabalarga bilimni chuqurroq va tizimli tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar masalalari va muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, magistrlar, mustaqil tadqiqotchilar va amaliyotchilarning ta'kidlashicha, pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyalari bilan cheklanib qolmaydi. Bu tushuncha o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan IT, kompyuter texnologiyalari, masofaviy ta'lim va turli texnikalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bizningcha, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tamal toshi – o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga kafolatlangan natija bilan hamkorlikda yetib borishlari uchun tanlangan texnologiyalarga asoslanadi. Ya'ni, har bir dars, amaliy mashg'ulot, seminar, mavzu va o'quv fani o'ziga xos xususiyatlar va texnologiyaga ega. Bu jarayonda maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish ham o'qituvchi, ham o'quvchining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'lib, bunda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl va vositalar ya'ni, texnologiya muhim ahamiyatga ega.

S.Miraxmedovaning ta'kidlashicha, ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop,

kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi barchamizga ma'lum. Raqamli ta'limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishgi

kabilar. [6]

Onlayn ta'lim platformalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi va qo'llana boshlanishi, bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida inqilob yasadi desak to'g'ri bo'ladi. Raqamli davrda an'anaviy ta'lim usullari interaktiv ta'lim platformalari bilan boyitilmoqda va hatto ba'zi hollarda ular o'rnini egallamoqda. Elektron ta'lim platformalari – bu murabbiylar, o'quvchilar va ta'lim sohasi vakillariga ta'lim jarayonini boshqarishni soddalashtirish va takomillashtirishda yordam beradigan interaktiv onlayn xizmatlar to'plami. Bu platformalar o'quvchilarga qiziqarli va samarali tarzda bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ular turli xil kontentlarni, jumladan video darsliklar, testlar, o'yinlar, amaliy topshiriqlarni o'z ichiga oladi va o'qitish jarayonini jonlantiradi. Ulardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshira boshladi, o'quvchilarning o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishishiga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonini boyitish va o'zlashtirishni yanada ilhomlantiruvchi shaklda ta'minlashda o'zining muhim o'rnini egallamoqda. Ushbu masala bo'yicha tadqiqotchi F.Karimov fikricha, Interfaol o'quv platformasida multimedia kontentidan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- vizual ishtirokni mavjudligi. Tasvirlar, videolar va animatsiyalar o'quvchilar e'tiborini tortadi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi;
- ma'lumotni yaxshiroq saqlash. Multimedia kontenti o'quvchilarga turli sezgi kanallaridan foydalanish orqali ma'lumotni yaxshiroq eslab qolish va saqlashga yordam beradi;
- interfaollik. Multimedia kontenti interaktiv bo'lishi mumkin va o'quvchilarga o'quv jarayonida faol ishtirok etish, masalalarni yechish, mashqlar va testlarni bajarish imkonini beradi;
- moslashuvchanlik. Multimedia kontentini har bir talabning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirish uchun moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratish imkonini beradi. [7;299-301-b]

Mantiqiy tafakkur va kreativlikni rivojlantirishda esa interaktiv ta'limda viktorinalarni yaratish va boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi, bu uchun esa ko'plab dasturlar va platformalar mavjud. Ulardan ba'zilari:

- Kahoot!. Kahoot – interaktiv viktorinalar va so'rovlar yaratish uchun mashhur platformadir. O'qituvchilar o'zlarining viktorinalarini yaratishlari yoki oldindan tayyorlangan shablonlardan foydalanishlari mumkin, talabalar esa o'z qurilmalari yordamida viktorinalarni topshirishlari mumkin;
- Quizizz. Quizizz – yana bir mashhur viktorina platformasidir. U turli mavzular bo'yicha tayyor viktorinalarning keng tanlovini, shuningdek, o'z viktorinalaringizni yaratish imkoniyatini taqdim etadi;
- Quizlet Live. Quizlet Live – bu o'quvchilarga jamoa bo'lib ishlash va bir-birlari bilan raqobatlashish imkonini beruvchi viktorinaga asoslangan interaktiv o'yin. Bu talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro munosabatlarni rag'batlantirishning ajoyib usuli;
- Socrative. Socrative – bu interaktiv viktorina va so'rovnoma imkoniyatlarini taklif qiluvchi yana bir platforma. Shuningdek, u o'qituvchilarga natijalarni bir zumda kuzatish va

o'quvchilar taraqqiyotini baholash imkonini beradi;

– Google Forms. Google Forms – bu Google tomonidan taqdim etilgan bepul vosita bo'lib, undan so'rovnomalar va testlar, jumladan, viktorina tipidagi savollar yaratish uchun foydalanishingiz mumkin. Bu talabalarning javoblarini yig'ish va interfaol tadbirlarni o'tkazishning qulay usulidir.

Ko'plab ta'lim platformalarida, fikr almashishlar va hamkorlik qilish mumkin bo'lgan munozara forumlari mavjud. Interfaol ta'lim platformalarida muhokama forumlarini tashkil etish talabalar o'rtasida munozara, almashinuv va hamkorlikni rag'batlantirish uchun juda foydali vosita bo'lishi mumkin. Munozara forumlarini yaratish imkoniyatini beruvchi mos interaktiv ta'lim platformasini tanlash zarur bo'ladi. Moodle, Google Classroom, Edmodo, Blackboard va boshqa ba'zi platformalar forumlarini yaratish va boshqarish vositalarini taklif qiladi. Bu esa mantiqiy topshiqnlarni tarqatish va bu asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Mavzular talabalarni fikr almashishga, o'z fikrlarini bahslashishga va yangi g'oyalarni o'rganishga undashiga ishonch hosil qilishi kerak. Forumda ishtirok etish uchun barcha talabalarga kirishga ruxsat berish yoki faqat ma'lum guruhlariga kirishni cheklash mumkin. O'qituvchi talabalarga munozaralardagi ishtiroki haqida fikr bildirishi, kuchli tomonlarini ta'kidlashi va yaxshilash bo'yicha maslahatlar berishi zarur. Mualliflar firicha bu ularga muloqot va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiylashtirilgan ta'lim orqari shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va o'quv maqsadlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini ta'minlovchi innovatsion yondashuvdir. Bunday platformalar o'quvchilar faoliyatini tahlil qiluvchi algoritmlar asosida ularning bilim darajasi, rivojlanish tezligi va individual qobiliyatlarini hisobga olib, mos ta'lim yo'nalishlarini yaratadi. [8;468-471-b]

Shaxsiylashtirilgan ta'lim modeli nafaqat individual yondashuvni ta'minlaydi, balki har bir o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga ham yordam beradi. Shaxsiylashtirilgan ta'limga yo'naltirilgan platformalar:

– Khan Academy. Fanlar bo'yicha chuqur va keng qamrovli darslar taklif etib, o'quvchilar uchun mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu platforma o'quvchilarning yutuqlarini tahlil qilgan holda ularga qayta aloqa berib, ma'lum bir mavzular bo'yicha rivojlanish strategiyalarini belgilaydi.

– Duolingo. O'quvchining til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini hisobga olib, moslashtirilgan dars va mashqlarni taklif etadi. Bu interaktiv yondashuv til o'rganishni yanada osonlashtiradi va qiziqarli qiladi.

– Coursera. Yetakchi universitetlar va tashkilotlardan olingan kurslarni turli yo'nalishlarda taqdim etadi. O'quvchilar qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq kurslarni tanlab, bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

– EdX. Dunyo universitetlari va tashkilotlari tomonidan taklif etiladigan kurslar bilan ta'lim olishda shaxsiy qiziqish va afzalliklarga mos tavsiyalar beradi. Platforma orqali o'quvchilar o'z malaka va bilimlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan materiallarga ega bo'ladilar.

– SMART Learning Suite Online. O'qituvchilarga shaxsiylashtirilgan o'quv materiallari yaratish va o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish imkoniyatini beradi. Bu platforma ta'lim jarayonini nazorat qilish va uni muvofiqlashtirishda pedagoglarga katta yordam beradi.

G.Turdievaning fikriga ko'ra esa, shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari o'zlashtirish jarayonini optimallashtiradi, ularning faolligi va o'quvga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning, o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkoniga ega bo'lishga va ta'lim jarayoni yanada samarali va boy bo'lishini [9] ta'minlaydi.

Interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilar uchun ta'lim jarayoniga yangicha, boyitilgan yondashuv olib keladi. Har bir bo'lajak o'qituvchi o'qitish jarayonida faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, har bir o'quvchini jarayonning faol

ishtirokchisiga aylantiradi. Ushbu yondashuv nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotchilar T.Panina va V.Kukushinlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar o'quvchilar o'rtasida fikr almashish, turli nuqtai nazarlarni tushunish va hurmat qilishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga fikr almashish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuvlar orqali o'z nuqtai nazarlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. O'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki turli xil hayotiy holatlarga moslashish, shaxsiy nuqtai nazarlarini himoya qilish va boshqalarning qarashlarini hurmat qilishni ham o'rganadilar. [10;474-b]

Natija. Fikrimizcha, interfaol o'qitish usullari o'quvchilarni ta'lim jarayoniga chuqurroq jalb qilib, ularning o'z tajribalarini boyitishiga, o'ziga xos va mazmunli faoliyat shakllarini kashf etishiga imkon beradi. Bunday yondashuv yordamida o'quvchilar nafaqat bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki o'zlarida yangi imkoniyatlarni ochib beradilar. Interfaol o'qitish o'quv jarayonini faqatgina o'rgatish jarayonidan iborat emas, balki o'quvchilarning shaxsiy va jamoaviy tajribalarini to'plash, turli qadriyatlarni anglash va qabul qilishga yo'naltirilgan mazmunli faoliyat bilan boyitishga ham xizmat qiladi. Bunda, bilim oluvchilar o'z bilimlarini nafaqat o'zlashtiradilar, balki turli vaziyatlarda yanada moslashuvchan va insonparvarroq tarzda qo'llash imkoniyatini ham oladilar, bilimlarni amaliyotda qo'llash va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun optimal shart-sharoit yaratiladi. [11]

Shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan, interfaol ta'lim o'quvchilarga o'zini anglash, shaxsiy aks ettirish va atrof-muhit bilan chuqur aloqada bo'lish orqali yangi o'quv tajribalarini kashf etish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar bag'rikenglikni rivojlantirish, boshqa fikrlarga ochiq bo'lish va o'z-o'zini anglash orqali o'z shaxsiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatini topadilar. Interaktiv ta'lim usullari o'quvchilarni ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi va ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi va faolligini oshiradi. O'quvchilar muammolarni birgalikda muhokama qilib hal qilganlarida, ular nafaqat mavzuni chuqurroq tushunib olishadi, balki bu jarayon ularda o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojni, qiziqishni kuchaytiradi. Bu esa ularni yanada mustaqil qidiruv faoliyatiga undaydi, amaliy harakatlarga rag'batlantiradi va o'quv jarayonini mazmunan boyitadi. Bu esa kelajak mutaxassislari uchun o'zlarini to'g'ri ifoda etish va omma oldida nutq so'zlash qobiliyati, ishga joylashish jarayonida o'zlarini ishonch bilan namoyish qilish qobiliyati muhimdir.

Bugungi mehnat bozorida shaxsiy brend yaratish, samarali va to'g'ri tarzda o'zini taqdim eta olish malakasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli, pedagog sifatida bizning vazifamiz – o'quvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berish, ularni nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki ularga o'zlarini jamiyatda to'laqonli namoyon qilishlari uchun zarur vositalarni berishdir. Sifatli raqamlashtirilgan ta'lim dasturi, avvalo, umumiy o'quv standartlariga mos bo'lishi, shuningdek, talabalar uchun o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratishi lozim. Bunday ta'lim dasturlari talabaga o'z o'quv jarayonini boshqarish va ularning shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan dars mazmunini shakllantirish imkoniyatini taqdim etishi kerak. [12;75-81-b] Bu esa ta'lim oluvchilar o'quv jarayonida mas'uliyatni his qiladigan, faol ishtirokchi bo'ladigan muhitni yaratadi. Yuqori sifatli raqamli ta'lim tizimlari yordamida talabalarda o'zlarini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qilishga, yangi bilimlarni nafaqat o'rganishga, balki real hayotiy kontekstlarda qo'llashga intilish shakllanadi. Shunday qilib, bunday platformalar yordamida ta'lim jarayoni nafaqat bilim olishga qaratilgan, balki ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga ham imkon beradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, bilimlarni uzatishga asoslangan pedagogika va talabalarga yo'naltirilgan ta'lim bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot barqaror o'zgarishlarga hamda yangi texnologiyalarni qo'llashga yordam bermaydi. Buning sababi shundaki, o'qituvchilar o'z pedagogik uslublarini o'zgartirish uchun raqamli texnologiyalar sohasida bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga ega

bo'lishlari kerak. O'qituvchining professionalizmi sinfda bevosita dars berish va onlayn ta'limni tushunishi bilan o'lchanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarni tushunishda qiyinchilikka duch kelgan o'qituvchilarga ularni o'zlashtirish uchun vaqt beradi va raqamli pedagogikaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Raqamli pedagogikani o'qitishning o'qituvchilar munosabatiga ta'siri ularning ishonch darajasi, qobiliyatlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga bog'liq. Raqamli texnologiyalarni biladigan o'qituvchilar ulardan foydalanib dars berishni osonlik bilan amalga oshirishlari mumkin. [13]

Xulosa. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni o'rganish ta'limdagi pedagogikaga ta'sir qiladi, unga esa o'z navbatida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari ta'sir ko'rsatadi. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish uzluksiz ta'limning asosiy sharti bo'lib, muassasalar va o'qituvchilar o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashgan barqaror o'quv dasturini yaratish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Shaxsiylashtirilgan ta'lim pedagogikasi ochiq ta'lim strategiyalarini qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilib, ochiq ta'lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyatlarini taklif qiladi. Innovatsion pedagogik usullardan foydalangan holda onlayn o'qitish fanni o'quv dasturiga moslab rivojlantirishga, ta'lim maqsadlari, o'quv faoliyati va onlayn baholashni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar. O'quv qo'llanma. Dadabaeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. – T.: “Sano-standart”, 2017. – 552 b.
3. Boltaeva M., Makhmudov N. Forms of the Introduction of innovative technologies in physical training classes and ways of their use. Scientific bulletin of namangan state university, 2019.
4. Tolipov O., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
5. Saltmarsh J. (2010). Changing pedagogies. Handbook of Engaged Scholarship. – 331-352 p.
6. Xolmuxammedov M.M. “Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish”. Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal, 2021. 6-son. – 3-4-b.
7. Miraxmedova S.N. Ta'limda raqamli texnologiyalarning qo'llash ahamiyati. “Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (2023-yil 20-oktabr Chirchiq, O'zbekiston).
8. Karimov F.R. Ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim platformalarning qo'llanishi tahlili. Impact Factor: 9.9 Special Issue: Utilization of Scientific Advancements in Research and Education 299 +62 811 2928008. Miasto Przyszłości Kielce 2024. – S. 299-301.
9. Saidovna, T. G., & Murodjon qizi, O. D. (2023). Talabalarning Mustaqil Ishini Tashkil Qilish Jarayonida Bulutli Platformalardan Foydalanish Talabalarning Kasbiy Konpetensiyalarini Shakllantirish Omili Sifatida. Miasto Przyszłości, 40, 468–471
10. Турдиева Г.С., Шойимов А.С. Основные особенности и функции использования современных облачных служб в системе образования // Вестник науки и образования. 2021. №17-3 (120).
11. Панина Т.С., Кукушкин В.С. Теория и методика обучения. – Ростов н !.: Феникс. 2000. – 474 с.
12. Тарасова И. М. Интерактивные методы обучения профессиональные в преподавании естественных наук-как средство формирования компетентности // Международный журнал экспериментального образования. – 2015.
13. Turdiyeva G.S. Raqamli ta'lim platformalari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida // PEDAGOGIK MAHORAT|| ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 5. 75-81 b.
14. Магазиева З.А., Рашидова З.Д., Магамедова Д.М. Обучение с использованием цифровых технологий и влияние на педагогические изменения // Педагогический журнал. 2021. Т. 11. № 5А. С. 712-720. DOI: 10.34670/AR.2021.29.42.038

## **INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNI BADIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Jabbarova Dilshoda Zokirjon qizi  
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Maqolada respublika maktablarida o‘quvchilarning individual yondashuv asosida badiiy ijodkorligini rivojlantirish, ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralishi, o‘quvchilarning individual yondashuv asosida badiiy ijodkorligini rivojlantirish tamoyillariga yangicha yondashuvlar, ilmiy-pedagogik innovatsiyalar, qitishning “STEAM – ta’lim” dasturi asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqishi, uning samarali ta’lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta’limning pedagogik asosi to‘g‘risida bayon etilgan.*

*Kalit so‘zlar: o‘quvchilar, individual, ijodkor, badiiy, dastur, ta’lim, yondashuvlar, ilmiy – pedagogik.*

## **ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА**

*Джаббарова Дилшода Закиржон кизи  
соискатель Наманганского государственного университета*

*Аннотация: В статье рассматриваются о развитие художественного творчества учащихся на основе индивидуального подхода в школах республики Узбекистан. Рассматривается как научно-педагогическая проблема, новые подходы к принципам развития художественного творчества учащихся на основе индивидуального подхода, научно-педагогические инновации, индивидуализированное обучение развитию научного мировоззрения у обучающихся на основе программы «STEAM – образование» обучения освоению технологий, научных идей, определяющих его эффективную образовательную деятельность, эвристическое воспитание объясняется педагогическая основа.*

*Ключевые слова: учащиеся, личность, творческая, художественная, программа, образование, подходы, научно-педагогические.*

## **TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ ARTISTIC CREATIVITY BASED ON AN INDIVIDUAL APPROACH**

*Dzhabbarova Dilshoda Zakirzhon kizi  
applicant of Namangan State University*

*Abstrakt: The article discusses the development of artistic creativity of students based on an individual approach in schools of the Republic of Uzbekistan. It is considered as a scientific and pedagogical problem, new approaches to the principles of development of artistic creativity of students based on an individual approach, scientific and pedagogical innovations, individualized training in the development of a scientific worldview in students based on the program «STEAM - education» training in the development of technologies, scientific ideas that determine its effective educational activities, heuristic education explains the pedagogical basis.*

*Keywords: students, personality, creative, artistic, program, education, approaches, scientific and pedagogical.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi 158-sonli farmonida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun

munosib sharoitlarni yaratish” to‘g‘risida fikrlarni aytib o‘tilgan. Rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyoti va insonlarning turmush tarzidagi yuksalishlar, ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning faol integrasiyalashuvvisiz amalga oshirishini tasavvur qilib bo‘lmaydi xususan, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda iqtidorli o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasiga integrasion va kreativ yondashuvlarni talab etmoqda, shu bilan bir qatorda mamlakatimiz ilg‘or, rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o‘rin egallashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan [1].

Keyingi yillarda O‘zbekistonning jadal rivojlanishi dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda. Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga 2020 yilgi Murojaatnomasida “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”, deya ta‘kidlab, kelasi besh yil ichida raqamli iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qat‘iy maqsad sifatida belgilab bergandi.

O‘quvchilarni individual yondashuv asosida badiiy ijodkorligini rivojlantirish deganda biz qandaydir bir buyum yoki badiiy asarning yaratilishi emas, balki har bir vazifaga o‘z nuqtai nafari bo‘yicha yondashishi, bir muammo ustida mustaqil fikr yurita olishi, o‘qish jarayonida orttirgan barcha bilimlarini hayotda kechayotgan hodisalarga bog‘lay olishi va ularni tahlil etishi, o‘rganilayotgan soha bo‘yicha o‘zining yangi qarashlarini ifodalashini tushunishimiz lozim.

Ma‘lumki, badiiy g‘oyalar hayotdan olinadi va badiiy ifodalar asosida inson ongi va ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazadi. Aynan shu badiiy g‘oyalar ijodkorlik sanatini asosiy ma‘no va mazmunini tashkil etadi. Bu esa yoshlarning ijobiy xatti-harakati, tashabbuskorligi, badiiy – estetik didi, madaniyatini oshiradi va ularning aniq maqsad sari intiluvchanligini ta‘minlaydi. Badiiy san‘atda inson o‘z g‘oyalarini yaratadi. O‘zi yaratgan g‘oyalardan zavqlanib, kuch – qudrat olgan insonning ongi va shuuri, tafakkuri, e‘tiqodi yuksaladi. Yuksak g‘oyalar esa insonni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi.

Badiiy san‘at xususan ijodkorlik ijtimoiy ongning alohida shakli bo‘lib, kishilarning olamni bilib olishga, haetning murakkab, muhim jihatlarni ongli anglashga erdam beradi. U voqelikning jonli obrazli tasvirini ko‘rsatadi va tasavvurini beradi. Badiiy ijodkorlik kishiga estetik huzur-halovat baxsh etadi. U insondagi go‘zallik hissi, oliy insoniy hislar, g‘oyaviy ishonch, ma‘naviy mustaqillikni, jasorat va aqliy yetuklikni ta‘minlaydi. Abu Nasr Forobiy insonning aqlini rivojlantirish orqali, uni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash masalasini jamiyat qurishning muhim shartlaridan biri sifatida qaragan.

Shunday ekan, xususan individual yondashuv asosida o‘quvchilarni badiiy ijodkorligini rivojlantirish ta‘limda zamonaviy munosabat va yangicha didaktika zarur. Ishimiz mohiyatidan kelib chiqib, ta‘limiy o‘yinlar, interfaol dars vositasida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish asosida ta‘lim sifatini oshirishga e‘tibor qaratdik. Dastlab, ta‘limiy o‘yin tushunchasiga, uning tarixiy taraqqiyoti va davriy o‘zgarishlar mazmuni bo‘yicha keltirilgan tavsiflarni tahlil etish lozim. Amaliy natijalarga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayoni o‘quvchi shaxsiga, o‘quvchi-talabaga mos ravishda takomillashib borishi, bugungi dunyoviy ta‘lim tizimidagi muhim qarashga yoxud ayni dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘quvchilarning har tomonlama universal o‘quv-biluv ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish bosh maqsadimiz ekan, mazkur jarayonda o‘quvchining ehtiyoji, faoliyat moyilligi, qiziqishi, kreativ faolligini oshiruvchi o‘yinli texnologiyalardan dars vositasi sifatida keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa individual yondashuv asosida o‘quvchilarning badiiy ijodkorligini rivojlantirishda, tabiatiga mos tushuvchi turli xildagi ta‘limiy o‘yinlar o‘quv-tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi sifatli natijaga yetaklovchi kuchga aylanishi, imkoniyatlarini, yangi iqtidorlarni ochib yuborishi mumkin. Dars jarayonida ta‘limiy o‘yinlar individual yondashuv asosida o‘quvchini maqsadini aniq qo‘yishga, g‘alabaga erishishda qiziqishini orttiribgina qolmasdan unda kuchli motivasiya hosil qilish imkoniyatini ham beradi. Ko‘zlangan maqsad individual

yondashuv asosida o'quvchini tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlik, topshiriqlarni aniq, tez vaqtida sifatli bajarishga o'rgatadi, unda qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanishiga turtki bo'ladi. Dars o'quvchining har tomonlama faolligini rivojlantirib, yangi bilimga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Uni shaxs sifatida axloqiy fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. Individual yondashuv asosida o'quvchilarda o'zaro hamkorlik, ijodkorlik, do'stona munosabat orqali bir-biriga qayg'urish va o'zaro hurmat kabi insoniy odatlarni shakllanishiga ko'mak beradi.

Ayniqsa, endigina dunyoni rangin nurlarda kashf etishlarida ularga tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, emotsional faollik va o'zaro muloqotga kirishuvchanlik kabi jihatlarni ham vujudga keltiradi.

Bilamizki, o'quvchilar darsda o'zaro bir-birlariga yordam berishga, boshqalarning qiziqishlariga mos yoki hamohang tarzda shaxsiy manfaatlarining ular bilan uyg'un bo'lishiga ba'zida tushunib, ba'zida tushunmay harakat qiladilar. Mazkur ta'limiy o'yinlar davomida o'quvchi olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash hamda ulardan turli vaziyatlarda oqilona foydalanish ko'nikmalari paydo bo'ladi [2]. Ta'limiy o'yin faoliyati o'quvchi yoki o'quvchida yaxshi xislatlarni hosil qilish asosida, jamoaviy hayotiy faoliyatni vujudga keltiradi, ularning mustaqilligini, boshqalarning imkoniyatlarini mehnat sharoitida qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi.

Dars jarayonlarida amalga oshirilgan ta'limiy o'yinlar maqsadi nuqtai nazaridan o'ynovchilarga rohat bag'ishlaydi, undan ishtirokchilar va kuzatuvchilar ya'ni tomoshabin ham zavq-shavq oladi. Shuning uchun ham, u ta'limiy jarayonning samarali va natijali kechishida muhim rol o'ynaydi, bunda o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishida, hayotda ishlash, o'quv-bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishda, ruhiy jihatdan baquvvat bo'lishida ham muhim o'rin tutadi hamda katta hayotga tayyorlashda yordam beradi [3].

Ta'lim jarayonlarida umuman, o'yin yoxud ta'limiy o'yin tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, uni bir ta'rif yoki qoida bilan ifoda etish birmuncha qiyindir. Ko'pincha, bu savolga javob topish uchun «Har bir odam nima uchun o'ynaydi?» degan savol qo'yilgandagina unga kengroq javob olish mumkin, bizning nazarimizda.

Ta'limiy o'yinlar, interfaol dars vositasida o'quvchining ijodiy faoliyatini hamda BKM kompetensiyasini rivojlantirishda muhimmi?

Dars beruvchi aksariyat pedagog o'qituvchilar o'yinni o'quvchi yangi mavzuni o'zlashtirish va bilish qobiliyatlarini faollashtiruvchi ta'limiy vosita deb qaraydilar. Bir qaraganda, u mahsulot emas, xizmat turi ham emas, lekin insonlar aksariyat hollarda o'z umrini doimiy, uzluksiz o'yinlar bilan bog'laydilar. Nima uchun?

Ta'limiy o'yin pedagogik-metodik madaniyat fenomeni bo'lib, u o'quvchi shaxsini inson sifatida hayotda to'laqonli shakllanishida juda ham muhim vosita, u ayniqsa, hal qiluvchi omil sifatida ilmiy izlanuvchilarni domiy ravishda qiziqtirib kelgan. Dars sifatini oshirishda ta'limiy o'yin o'quvchi tanasidagi ortiqcha energiyadan xalos bo'lish, charchash va vaqtida kuchni foydali va maqsadli holda ishlatish, ayrim holarda uni qayta tiklashda ham yordam beradi [4]. O'quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ta'limiy yinlar insonning hayotiy muvozanatini saqlashda, uning faolligini oshirish orqali organizmda ishlaymay turgan a'zolarini ishga, harakatga keltirib yuboradi. Bunday foydali holatlar, ta'limiy o'yinlar orqali organizmdagi yaxshi energiyalarni hosil qiladi va tiklaydi deb baholanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni, o'z-o'zidan bu kabi interfaol dars mashg'ulotlari shaxsni o'yin texnologiyalari orqali doimiy rivojlantirib turuvchi, o'zlikni anglatuvchi ta'limiy jarayondir.

1-rasm. Ta'limiy o'yin turlari

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'lum darsda individual yondashuv asosida o'quvchilarning badiiy ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinga jalb etish orqali uni keyingi mehnat va hayotiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida ijodkor o'quvchilarni ta'limiy o'yindan mahrum etish unga og'ir jazo sifatida salbiy ta'sir etib,

yomon oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar potentsialidan oqilona va adolatli foydalanishi zarur. O'quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatini tizimli rivojlantirishda, interfaol dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda, ta'limiy o'yinlarning ko'rinishlari va klassifikatsiyasini shartli ravishda quyidagicha belgiladik (1-rasm).

Yuqoridagi sanab o'tilgan o'yinlarning har birining o'z komponentlari mavjud. Ular qo'yidagilardir:

- ta'limiy o'yinda qatnashuvchilar;
- ta'limiy o'yin qoidalari;
- ta'limiy o'yinning vaqti;
- ta'limiy o'yinning syujeti;
- ta'limiy o'yinning rekviziti;
- ta'limiy o'yinning yakuni (natijalari, qonun-qoidalariga rioya qilinishi).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғ'рисида. Халқ сўзи газетаси 2019 йил апрел.

2 А.М.Матюшкин. Развитие творческой активности школьников. М., 1991.

3. Шамова Т.И. Управление образовательными системами: учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений // Т.И. Шамова, Т.М. Давыденко, Г.Н. Шибанова: под ред. Т.И. Шамовой. -3-е изд., стер. – М.: Издательский центр “Академия”, 2006. - 384 с.

4. А.Н.Леонтев Потребности, мотивы и эмоции. - М., 1973 С.Л.Рубинштейна «Основы общей психологии» Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/2533/top-sergej-rubinshtejn>.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Kurbonova Nigora Baxtiyor qizi,  
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti 2- kurs magistranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish va moliyaviy ta‘limni yoshlikdan boshlashning ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, maktablarda moliyaviy ta‘limning hozirgi holatini o‘rganish, moliyaviy savodxonlikni o‘rgatish yo‘lidagi to‘siqlarni aniqlash va bir qator o‘rinli bo‘lgan yechimlarni taklif qilish orqali ushbu maqola kichik maktab o‘quvchilari uchun moliyaviy ta‘limni yaxshilash zarurligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan.*

*Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ta‘lim, to‘siqlar, yechimlar.*

*Аннотация: В данной статье освещается проблема формирования финансовой грамотности у учащихся начальных классов и важность начала финансового образования с раннего возраста. Изучая нынешнее состояние финансового образования в начальных школах, выявляя препятствия на пути обучения финансовой грамотности и предлагая потенциальные решения, в данной статье рассматривается необходимость улучшения финансового образования для молодых учащихся, направленного на повышение осведомленности.*

*Ключевые слова: финансовая грамотность, учащиеся начальных классов, образование, барьеры, решения.*

*Abstrakt: This article highlights the problem of creating financial literacy in elementary school students and the importance of starting financial education from a young age. By examining the current state of financial education in elementary schools, identifying barriers to financial literacy instruction, and proposing potential solutions, this paper addresses the need to improve financial education for young students. aimed at raising awareness.*

*Keywords: financial literacy, primary school students, education, barriers, solutions.*

*Kirish. Bugun zamon tobora rivojlanib, ilgari bormoqda. Bora – bora yangi kashfiyotlar, yangi bilimlar, yangi texnikalar kashf qilingani, axborot oqimi tezlashgani bois oddiy tilde olib qarajak, insonlar bir-birlaridan oldinga intilmoqlik yanada talab qilinmoqda. Bu esa o‘z navbatida bilgan narsalarimizga-da boshqacha nazar tashlashga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan pul...*

*Pul bilan muomala qilish ham bir ilm. Uning ahamiyati maktablarda o‘qitilayotgan fizika, matematika kabi fanlardan aslo kam emas. Afsuski, bu ilm maktablarda o‘qitilmaydi. Pul haqida bilmagan kishi, albatta, yutqazadi. Bugungi kunda pul nimaligini o‘rgatadigan maxsus o‘quv yurtlari dunyoning barcha burchaklarida o‘z faoliyatlarini olib bormoqda. Demak, jamiyatimiz ham bu mas‘uliyatli vazifani bajarish uchun bir qator takliflarni ham ilgari surmoqda.*

*O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan bir qancha hukumat qarorlari va dasturlar mavjud. Bu masala davlat tomonidan jiddiy e‘tibor bilan ko‘rib chiqilmoqda, chunki moliyaviy savodxonlikni oshirish jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va aholining iqtisodiy farovonligini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil, 19- iyundagi “Moliyaviy savodxonlikni oshirish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6078- son farmoni O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan asosiy hujjatlardan*

biridir. Farmonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiy va moliyaviy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish, moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirish va moliyaviy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

“Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha yo'l xaritasi” (2020) –

Bu hujjat, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan strategiyani tasdiqlaydi. Unda moliyaviy bilimlarni keng ommaga yetkazish, xususan, yoshlar, pensionerlar va boshqa ijtimoiy guruhlar uchun, banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda turli treninglar va seminarlar tashkil etish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrda qarori

№ PQ-4473 – “Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish va himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” deb nomlangan qaror, moliyaviy xizmatlarning aholi orasida keng tarqalishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qarorda: aholi

va biznes sub'ektlari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida maxsus treninglar va ta'lim dasturlarini tashkil etish, milliy moliyaviy savodxonlik indeksini ishlab chiqish va monitoringini amalga oshirish masalalari ko'tarilgan.

“Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi” (2020) – Bu dastur moliyaviy xizmatlar va texnologiyalarni osonlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda, mobil to'lovlar, onlayn bank xizmatlari va boshqa moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, O'zbekistonning moliyaviy bozorini raqamlashtirish, shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratilgan.

Ushbu dasturlar va hujjatlar, o'z navbatida, aholi va biznesni yanada ilg'or moliyaviy amaliyotlar bilan tanishtirishni maqsad qilingan.

Moliyaviy savodxonlik - bu o'z moliyasini tushunish va samarali boshqarish qobiliyati. hisoblanadi. U byudjet tuzish, tejash, sarmoya kiritish va asosiy iqtisodiy tushunchalarni tushunish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy savodxonlik barcha yoshdagi shaxslar uchun muhim bo'lsa-da, bu ko'nikmalarni ayniqsa, bolalarga yoshligidan o'rgatishni boshlash muhimdir.

Moliyaviy savodxonlik - bu har bir kishi o'z moliyasini samarali boshqarish va pul haqida ongli qarorlar qabul qilish uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim mahoratdir. Bugungi murakkab va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda bolalarni moliyaviy vaziyatda harakat qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash har qachongidan ham muhimroqdir.

Byudjet tuzish - bu bolalar erta o'rganishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma. Bolalarga byudjet tuzish va ularning xarajatlarini kuzatishni o'rgatish orqali ular qarzlardan qochish va o'z mablag'lari doirasida yashashga yordam beradigan yaxshi daromadli pul toppish yo'llari hamda moliyaviy chora-tadbirlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishlari maqsadga muvofiq.

Ayni damda, boshlang'ich maktablarda moliyaviy savodxonlikni samarali o'rgatish uchun ko'pincha yetarli vositalar va o'quv dasturlari yetishmaydi. Ko'pgina o'qituvchilar moliyaviy ta'limni o'z darslariga kiritish uchun zarur tayyorgarlik yoki bilimga ega bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich maktablarda moliyaviy savodxonlikka ustuvor ahamiyat berishda siyosatchilari

va ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi ham mumkin.

Tadqiqot davomida boshlang'ich maktab o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi va ushbu muammoni hal qilish uchun maqsadga muvofiq yechimlarni taklif qiladi.

Moliyaviy savodxonlik - yoshidan qat'i nazar, har bir kishi ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim mahoratdir. Biroq, yosh bolalarni o'qitishda moliyaviy savodxonlikning ahamiyati ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Ko'pgina maktablarda asosiy matematika va o'qish ko'nikmalarini

o'rgatishga e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bolalarga pulning qadr-qimmati va uni samarali boshqarish haqida o'rgatishga e'tibor yetarli emas.

Moliyaviy savodxonlikni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishning muhim jihati – bu ularni kelajakdagi iqtisodiy va moliyaviy qarorlarni qabul qilishga tayyorlashdir. Bunga quyidagilar kiradi:

bolalarga pulni ehtiyotkorlik bilan sarflash, jamg'arma qilish, ortiqcha xaridlar qilishdan qochish kabi sog'lom moliyaviy odatlarni shakllantirish;

o'quvchilarga ularning moliyaviy qarorlari qanday oqibatlariga olib kelishini tushuntirish, masalan, jamg'arma qilish yoki mablag'larni investitsiya qilish orqali kelajakdagi farovonlikni oshirish.

Moliyaviy savodxonlikning yana bir muhim jihati – bu insonparvarlik va adolat. Bolalarga moliyaviy imkoniyatlar va resurslarni teng taqsimlash, jamiyatda moliyaviy adolatni ta'minlash haqida o'rgatish ham muhim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish – bu bolalarni nafaqat moliyaviy muammolarni hal qilishga tayyorlash, balki ularni kelajakda mas'uliyatli, oqilona va adolatli iqtisodiy qarorlar qabul qilishga o'rgatishdir. Bu jarayon orqali o'quvchilar jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri bilib, moliyaviy farovonlikka erishish uchun zarur ko'nikmalarni egallaydilar.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish muammosi hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masaladir. Ushbu sohada tushunarli, nazriy, amaliy ta'limga ega bo'lmagan holda, bolalar keyinchalik hayotida ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur ko'nikmalarsiz o'sishiga sabab bo'ladi. Bu esa, qarz aylanishiga, qoniqarsiz va xato bo'lgan moliyaviy boshqaruvga va umumiy moliyaviy beqarorlikka olib kelishini nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining moliyaviy savodxonligi pastligining asosiy sabablaridan biri ko'pchilik maktab o'quv dasturlarida ushbu fan bo'yicha rasmiy va rejalashtirilgan ta'lim yo'qligidir. Ba'zi maktablar matematika darslarida pulni hisoblash yoki byudjetlashtirish kabi asosiy tushunchalarga murojaat qilishlari mumkin bo'lsa-da, ko'pincha moliyaviy tamoyillarni chuqurroq tushunishga yetarlicha bilim va tushunchalarni kengroq berilishiga e'tibor berilmaydi.

Bundan tashqari, ota-onalar ham muammoga hissa qo'shishda rol o'ynashi mumkin. Ko'pgina ota-onalarning o'zlari moliyaviy savodxonlik bo'yicha kuchli ko'nikmalarga ega bo'lmasligi mumkin va shuning uchun bolalariga pulni boshqarishni o'rgatish uchun ular harakat qiladilar. Uydagi bilim va yo'l-yo'riqning yetishmasligi bu muammoni yanada kuchaytiradi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun maktablarning boshlang'ich ta'lim tizimiga, o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlik ta'limi kiritishlari maqsadga muvofiqdir. Byudjetlashtirish, tejash, investitsiya qilish va foiz stavkalarini tushunish kabi asosiy tushunchalarni joriy qilish orqali bolalar kelajakdagi moliyaviy farovonligi uchun mustahkam poydevor qurishni boshlashadi.

Bundan tashqari, ota-onalar ham farzandlarini pulni boshqarishga o'rgatishda faol ishtirok etishlari kerak. Buni tejash uchun "shaxsiy jamg'arma" ya'ni "tanga quti" sini tashkil etish yoki bolalarni oila byudjetini muhokama qilishda jalb qilish kabi oddiy harakatlar orqali ham amalga oshirishlari lozim.

Shuningdek, onlayn va jamoat tashkilotlari orqali ota-onalar va o'qituvchilarga bolalarni moliyaviy savodxonlikka o'rgatishda yordam beradigan turli xil manbalar mavjud. Ushbu mavzu bo'yicha keng qamrovli ta'lim berish uchun birgalikda ishlash orqali biz o'quvchilarimizga hayoti davomida oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni oshirishimiz zarurdir.

Anglaganimizdek, moliyaviy savodxonlik – pulni boshqarish bo'yicha ongli qarorlar qabul

qilish uchun har bir kishi ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim hayotiy ko'nikma. Bolalarga moliyaviy savodxonlikning ahamiyati haqida o'rgatish hech qachon erta emas, boshlang'ich sinfda mas'uliyatli holda, pulni to'g'ri ishlatishlari uchun poydevor qo'yishni boshlash ajoyib vaqt hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini moliyaviy savodxonlikka o'rgatishning turli yo'llari, jumladan, muammoli vaziyatli keyslarni yechish, hikoyalar o'qish va amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga moliyaviy savodxonlikni o'rgatishning samarali usullaridan biri muammoni hal qilishdir. O'quvchilarga haqiqiy va hayotiy moliyaviy vaziyatlar keltirilgan ssenariylar va qiyinchiliklarni taqdim etish orqali ular vaziyatlarni qanday tahlil qilishni va pul haqida ongli qarorlar qabul qilishni o'rganishlari mumkin. Masalan, o'qituvchilar byudjet tuzish, tejash va pul sarflashni o'z ichiga olgan matematik muammolarni yaratishi mumkin. Talabalar bu muammolarni yechish uchun guruhlarda yoki yakka tartibda ishlashlari mumkin, bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini va moliyaviy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pulni boshqarish haqidagi hikoyalarni o'qish - bu boshlang'ich maktab o'quvchilariga moliyaviy savodxonlikni o'rgatishning yana bir qiziqarli usuli. Tejamkorlik, byudjetlashtirish, sarmoya kiritish va xayriya kabi mavzularga bag'ishlangan ko'plab bolalar kitoblari mavjud. Masalan, (boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsligidagi pul haqida hikoya) Ushbu hikoyalarni o'quv dasturiga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga muhim moliyaviy tushunchalarni qiziqarli va o'zaro bog'liq holda tushunishlariga yordam berishlari mumkin. Moliyaviy hikoyalardagi aqlli moliyaviy tanlovlarni qabul qilgan qahramonlar haqida o'qish va o'rganish o'quvchilarni o'z hayotlarida ham xuddi shunday tanlovlarni qabul qilishga ilhomlantirishi tabiiy.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga moliyaviy savodxonlikni o'rgatishda amaliy mashg'ulotlar ham qimmatlidir. Sinf do'konini tashkil etish, sinf loyihasi uchun byudjet yaratish yoki soxta fond bozori o'yinida qatnashish kabi faoliyat bilan shug'ullanib, o'quvchilar pulni to'g'ri va tejab sarflash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu amaliy mashg'ulotlar nafaqat muhim moliyaviy tushunchalarni mustahkamlash, balki bolalarda to'g'ri va maqsadli qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi qimmatli ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'limga texnologiyani qo'shish ham o'quvchilarning faolligini va o'rganishini kuchaytirishi mumkin. Byudjet tuzish, tejash, investitsiya qilish va kreditni boshqarish kabi mavzular bo'yicha interaktiv darslarni taqdim etadigan ko'plab onlayn manbalar va ilovalar mavjud. O'qituvchilar ushbu vositalardan darslarini to'ldirish uchun foydalanishlari va o'quvchilarga virtual sharoitda moliyaviy ko'nikmalarini mashq qilishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlarni beradi. Moliyaviy savodxonlik ta'limida ta'kidlash kerak bo'lgan yana bir muhim tushuncha - tejash. Bolalar o'yinchoq sotib olish yoki sayohatga chiqish kabi qisqa muddatli maqsadlar uchun, shuningdek, universitet ta'limi uchun kontrakt yoki pensiya kabi uzoq muddatli maqsadlar uchun to'plangan daromadlarini tejash muhimligini bilishlari kerak. Tejamkorlik odatini erta singdirish orqali o'quvchilar kelajakdagi moliyaviy xavfsizligi uchun mustahkam asos yaratishadi.

Moliyaviy savodxonlikning yana bir asosiy jihati, uni boshlang'ich sinf o'quvchilariga kiritilishi kerak. Investitsiya qilish murakkab mavzu bo'lib tuyulishi mumkin bo'lsa-da, o'quvchilar xavf va daromad, diversifikatsiya va yoshga mos keladigan qiziqish kabi asosiy investitsiya tamoyillari haqida bilib olishlari mumkin. Ushbu tushunchalarni erta tushunish orqali talabalar uzoq muddatli o'sish uchun investitsiya qilishning afzalliklarini tushunadilar.

Va nihoyat, o'quvchilarga pulning qiymati va qanday qilib ongli ravishda sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish haqida o'rgatish kerak. Ehtiyojlar va istaklar, taqqoslash xarid qilish va reklama taktikasi kabi tushunchalarni o'rganish orqali talabalar hayoti davomida oqilona moliyaviy tanlov qilishga yordam beradigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish muammoni hal qilish, hikoyalarni o'qish, amaliy ishlar va texnologiya integratsiyasini birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bolalarga

7 yoshdan boshlab pulni boshqarish bo'yicha har tomonlama ta'lim berish orqali o'qituvchilar ularga hayotlari davomida oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini berishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ixtiyorida bo'lgan to'g'ri vositalar va resurslarga ega bo'lsa, moliyaviy jihatdan mas'uliyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishi tabiiy.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish o'qituvchilar, moliya tizimidagi tashkilotchilar va ota-onalarning e'tiborini talab qiladigan muhim masaladir. Bolalarga yoshligidan ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish orqali biz ularga uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini berishimiz zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish ularni kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. O'quv dasturlarini takomillashtirish va ota-onalarning faolligini oshirish orqali ushbu muammoni hal qilish, biz farzandlarimizga murakkab moliyaviy dunyoda ishonch va malaka bilan harakat qilish uchun zarur vositalarga ega bo'lishiga yordam bera olamiz.

Maktablar o'z o'quv dasturlarida moliyaviy ta'limga ustuvor ahamiyat berishlari va o'qituvchilarni ushbu tushunchalarni samarali o'rgatish uchun zarur resurslar va treninglar bilan ta'minlashlari juda muhimdir. Bundan tashqari, ota-onalar uyda moliyaviy saboqlarni kuchaytirish va farzandlariga ijobiy o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich maktablarda moliyaviy savodxonlikni o'rgatish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish va innovatsion yechimlarni tadbiiq etish orqali biz kelajak avlodlar shaxsiy moliyaning murakkabliklaridan muvaffaqiyatli o'tishlari uchun zarur vositalar bilan jihozlanishini ta'minlashimiz kerak.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish mazmuni bolalarni moliyaning murakkab dunyosida harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun juda muhimdir.

Maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida byudjet tuzish, tejash, investitsiya qilish va pul qiymatini tushunish kabi tushunchalarni joriy etish orqali o'quvchilarni hozir va kelajakda ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949;
2. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A'HARF-TOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41);
3. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 429-435;
4. Tajiddinovna, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 469-475;
5. Исомова, Ф. Т. (2024). Виды образования и их влияние на развитие личности. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 461-468;
6. O'ktam qizi Buxoro S.M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486;
7. Oktam's S. M. (2023). *Methods and Tools of Speech Development*

- of Small Group Children in Preschool Education Organization. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 104-108;
8. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 357-360;
9. O'ktam qizi Shukurova M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 96-99;
10. Shukurova M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN'S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. Modern Science and Research, 2(10), 477-480;
11. Madina O'ktamovna Shukurova. (2024). "Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature ". Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 130-135;
12. Shukurova, M. (2024). OILADA FARZAND TARBIYASIDA OTANING ROLI. ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI, 3(2), 162-167;
13. Ситора Икромовна Акбаровна. (2024). РАЗВИТИЕ СОЗНАНИЯ И ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПОНЯТИЯМ БЕССОЗНАТЕЛЬНОГО. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 157-163;
14. Ro'ziyeva M. Y., & Azamova U. B. (2024). BADIY ADABIYOTDA MAKON VA ZAMON TUSHUNCHASI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 2(2), 22-26;
15. Рузиева М. Я., & Эргашева Т. Ш., (2022). МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. Вестник науки и образования, (2-2 (122)), 29-32;
16. Ruzieva M. Y. (2016). EXPRESSION OF ATTITUDE TO COLORS IN TURKIC NATIONAL RITUAL SONGS. Социосфера, (4), 50-55;
17. Рузиева М. Я. (2019). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ. ББК 71.0 И74 Редакционная коллегия Ответственный редактор, 46;
18. Zainagalina L. Z., Petrova L. V., Suleymanov R. I., Petrov V. A., Gaforov A. K., & Khuziakhmetova L. D. (2017). Features of realization of score-rating system. In Актуальные вопросы высшего профессионального образования (pp. 196-198);
19. Зайнагалина Л. З., Габдрахимов М. С., Петрова Л. В., & Сулейманов Р. И. (2016). Организация академической мобильности студентов. In Актуальные вопросы инженерного образования-2016 (pp. 46-50);
20. Suleimanov R. I., Khabibullin M. Y., & Suleimanov R. I. (2021, October). Analysis of causes of failure of the electric centrifugal pump elements by the methods of automated diagnostics. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2061, No. 1, p. 012027). IOP Publishing;
21. Сулейманов Р. И., Хабибуллина Р. Г., Габдрахимов М. С., & Давыдова О. В. (2016). Проверка на оригинальность текста выпускных квалификационных работ. In Актуальные вопросы инженерного образования-2016 (pp. 76-82).

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARNI QOLLASHNING AFZALLIKLARI

Rustamova M.M.,  
Toshkent Kimyo xalqaro univertiteti PhD, dots.

Abdulboriyeva N.

*“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion muhitda olib borilayotga ta’lim jarayonlarini qay darajada ahamiyatli ekanligi, boshlang‘ich sinflarning darslariga interfaol metodlar asosida yondashgan holda, o‘quvchilarning kognitiv sifati samaradorligini oshishi, yangi bilim olishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojning ko‘payishiga sabab bo‘lishi yoritib berilgan. Innovatsion ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan prezident qarorlari keltirilgan. An’anaviy va interfaol dars usullarining bir-biriga nisbatan afzallik va kamchilikari jadval asosida tahlil qilingan. Interfaol ta’lim afzalliklari “B.Blum taksanomiyasi” va “Swot-tahlil” metodi orqali tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: innovatsiya, interfaol metod, an’anaviy ta’lim, B.Blum taksanomiyasi, swot-tahlil.*

*Аннотация. В данной статье подчеркивается важность образовательных процессов, проводимых в инновационной среде, с подходом к урокам начальных классов на основе интерактивных методов, повышает эффективность познавательных качеств учащихся, вызывает повышение интереса и потребности в освоении новых знаний. знания. Представлены решения Президента, направленные на создание инновационной образовательной среды. На основе таблицы проанализированы преимущества и недостатки традиционных и интерактивных методов обучения. Преимущества интерактивного образования были проанализированы с использованием «таксономии Б. Блума» и метода «Swot-анализа».*

*Ключевые слова: инновации, интерактивный метод, традиционное образование, таксономия Б. Блума, SWOT-анализ.*

*Abstrakt. In this article, the importance of educational processes conducted in an innovative environment, with an approach to the lessons of primary classes based on interactive methods, increases the effectiveness of the cognitive quality of students, causes an increase in the interest and need to acquire new knowledge. explained. Presidential decisions aimed at creating an innovative educational environment are presented. Advantages and disadvantages of traditional and interactive teaching methods are analyzed based on the table. The benefits of interactive education were analyzed using «B. Bloom’s taxonomy» and «Swot-analysis» method.*

*Key words: innovation, interactive method, traditional education, B. Bloom’s taxonomy, SWOT analysis.*

Butun dunyo globallashuvida ta’lim jarayoni ilg‘or rivojlanayapti. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda, xususan Amerika Qo‘shma shtatlari, Buyuk Biritaniya, Yaponiya, Finlandiya ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlar o‘tkazilayapti. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchining kompetentligini rivojlantirishga alohida ahamiyat bergan holda va zamon o‘zgarishi, yangi avlod bolalarining ilg‘orligi, tezkorligi, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, yangi innovatsion ta’lim metodlarini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratishgan bir paytda yurtimizda ham bir qator qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tadbir etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2- bandida:

- Maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

- Jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

- O'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi ma'sulyatlarini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish.

Shu kabi asosiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib undan tashqari 6-bandida ham:

- Xalq ta'limi hodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari;

- A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etilishi haqida buyruq berilgan.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar tarbiyasiga muhim poydevor qo'yish uchun eng kerakli vaqt ekanligini hisobga olgan holda, tarbiya darslarini tashkillashtirishga diqqat bilan e'tibor berish zarur. Shunday ekan an'anaviy darslar sekin astalik bilan o'z o'rnini qiziqarli, ko'proq o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvga almashtirmoqda.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.

Darslarni interfaol metodlar asosida tashkillashtirish uchun avval o'qituvchilarni tayyorlashimiz kerak. Bunga misol qilib quyidagi tezisni keltirishimiz mumkin: - "Malakali o'qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo'lib, u o'quv jarayoninig ijodiy, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o'qituvchini juda ham qimmatli insoniy zaxira sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi mavqeyini imkon darajasida ko'tarish mamlakatning uzoq muddatli strategig maqsadlariga aynan mos keladi". Shu boisdan mamlakatimizda o'z ustida tinimsiz ishlaydigan o'qituvchilar uchun oylik maoshlariga ustamalar, turli stipendiyalar va boshqa shart sharoitlar yaratilmoqda.

Interfaol metod o'quvchining shaxsiy fikr bildira olish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bir necha asr ilgari A. Navoiy o'zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idrokklariga ko'ra bahra olg'aylar...". Bunda har kim turlicha fikrlashi, tushinishi, foydalana olishi ya'ni idrok darajasi har xilligi aytib o'tilgan. Interfaol metodlar orqali ham o'quvchilar o'zlari mustaqil fikr yuritadilar va uni erkin bayon qila olishlari mumkin.

Ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida ta'limga turli innovatsiyalar kiritilmoqda. Yaqin yillarda ta'lim sohasidagi innovatsiyalardan biri bu darslarni interfaol metodlar orqali tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda.

"Innovatsiya-yangilik" so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasa-da, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Innovatsiyaga pedagogikada turli ta'riflar keltirilgan. Innovatsiya- (ingl. Innovationas- in - kiritish, novatsiya- yangilik, yangilik kiritish) - ilmiy-texnik resurslar, pedagogika fani yutuqlari, ilg'or tajribalardan unumli foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli ijodiy tashkil etish natijasidir. Ya'ni bor bilimlardan unumli foydalangan holda yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish, tadbiq qilish yoki o'zgartirish kiritishga aytiladi.

Interfaol ("inter" bu o'zaro,- "akt" – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilish, o'zaro kommunikativ aloqa, motivatsiya ( ta'lim motivatsiyasi, tarbiya motivatsiyasi) asosida ta'lim-tarbiya jarayoning tashkil etishning samarali uslubidir. Bu jarayonda o'quvchilar


yoshi, qiziqishi, ehtiyojidan kelib chiqib tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega. U kommunikativlikni, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik aloqasini o'rnatish, jamoa va guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirish, do'stona muhitni yaratish kabi vazifalarni bajaradi. Interfaol metodda kommunikativ hamkorlik quyidagi zanjir asosida bo'ladi:

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:

- norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish;
- o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati;
- ma'ruzalar(nazariy ma'lumotlar) soni kamligi, lekin seminarlar( amaliy ishlar)ning ko'pligi;
- o'quvchi-talabalar tashabbus ko'rsatishiga imkoniyatlar yaratishi;
- kichik guruh, katta guruh, jamoa bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim bolaning asosiy kognitiv, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlari rivojlanadigan jarayon asosidir. An'anaviy, o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar qimmatli ma'lumotlarga boy bo'lsa-da, ko'pincha o'quvchilarning faolligini cheklab qo'yadi va bu ularni passiv bilim oluvchilarga aylantiradi. Interfaol o'qitish usullari esa o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, izlanishga, hamkorlikka va muammolarni hal qilishga undaydi. Undan tashqari, o'quvchilar o'zlarini erkin tutishlarini, fikrlarini qo'rqmasdan bayon qila olishlarini va hissiyotlarini namoyish eta olishlarini ta'minlaydi.

Quyidagi jadvalda an'anaviy va interfaol darsdning ayrim farqlarini ko'rishimiz mumkun:



Quyidagi jadvalda an'anaviy va interfaol darsdning ayrim farqlarini ko'rishimiz mumkun:

№	Asosiy tushuncha	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi.
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha BKMLarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosalarga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalaniladi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modular va algaritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllar: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi- o'quvchi; o'quvchi- o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh- o'qituvchi.	O'qituvchi ham o'quvchi ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorli shakllari: o'qituvchi-o'quvchi;o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh -kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, tahlil va boshqalar
11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, davra suhbat, bahs, munozara, konsultatsiya va boshqalar	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim,ko'nimka, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish. <sup>1</sup>

Interfaol metod B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlarning asosiy toifalariga aynan mos keladi.

№	O'quv maqsadlarning asosiy toifalari	Umumlashtirilgan o'quv maqsadlar turi
I	<i>Bilish</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.	Ishlatiladigan terminlarni biladi, konkret faktorni biladi, uslublar va jarayonlarni biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi
II	<i>Tushunish</i> Uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi (ifodaga), materialni interpretatsiyasi (tushuntirish, qisqa bayoni) yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlarini (natijalarni) bashorat qilish.	Og'zaki materialni interpretatsiya qiladi, sxema, grafik diagrammalarni interpretatsiya qiladi, og'zaki materialni materialni matematik ifodaga o'tkazadi, mavjud materialga asoslanib kelajagini taxminan bashorat qiladi.
III	<i>Qo'llash.</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret sharoitlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarni qo'llash kiradi.	Tushunchalar va tamoyillardan yangi vaziyatda foydalanadi. Qonun va nazariyalarni konkret amaliy vaziyatda ishlatadi, usullar va jarayonlarni to'g'ri qo'llashni namoyish etadi
IV	<i>Tahlil</i> Bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi. Bunga butun qismlarini hisoblash, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash yaxshilik tamoyillarini anglash kiradi.	Yashirin tahminlarni belgilaydi. Mantiqiy xatolar va kamchiliklarni ko'radi, fakt va natija o'rtasida farqni aniqlaydi, olingan natijalar ahamiyatini baholaydi.
V	<i>Sintez.</i> Bu toifa elementlardan, bo'laklardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi. Bunday yangi mahsulot: ma'ruza ish rejasi, umumlashtirilgan majmuasi bo'lishi mumkin. Tegishli o'quv natijalari sxema va tizimlarni tuzishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni taqozo etadi.	Hajmi katta bo'lmagan ijodiy ishlar yozadi. Eksperiment rejasini tuzishni taklif etadi. Bu yoki u muammoni yechish rejasini tuzish uchun turli sohalardagi bilimlarini qo'llaydi.
VI	<i>Baholash.</i> Ushbu toifa bu yoki u o'rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash malakasini anglatadi. Baholash aniq mezonlarga tayanishi lozim.	Yozma matn shaklida tuzilgan materialning mantiqiyiligini baholaydi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, u yoki bu faoliyat natijasining muhimligini baholaydi <sup>1</sup>

Interfaol ta'limni "SWOT-tahlil" metodi asosida tahlil qilamiz:

S	Interfaol ta'limning kuchli tomonlari	O'quvchiningning bilim olishga qiziqishini kuchaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bevosita amaliy faoliyat orqali malaka va tajribaga ega bo'lish....
W	Interfaol ta'limning kuchsiz tomonlari	xonada shovqin ko'tarilishi, .....
O	Interfaol ta'limning imkoniyatlari (ichki)	Mustaqil fikrlash, fikrni ifoda etish va isbotlash, malaka va tajribaga ega bo'lish...
T	To'siqlari (tashqi)	Zamonaviy texnika bilan jihozlangan xona, partalarning noan'anaviy joylashuvi va o'quv qurollarning yetishmasligi <sup>1</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi tez sur'atlarda rivojlanib borayotga zamonda ulg'ayayotgan yoshlarni avvalgidek an'anaviy o'qitish orqali darsga jalb qila olmasligimiz tabiiy hol. Shunday ekan ta'lim jarayonida innovatsion muhit yaratgan holda, har bir darsni interfaol metodlar orqali olib borsak, o'ylaymanki o'quvchilarni faqat o'qitibgina qolmay, hayotga ham tayyorlab borgan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-sonli "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 11-may, b-3-4.
2. J.G'. Yo'ldoshev, F.I. Ochilov, " Zamonaviy dars texnologiyasi", Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute, Toshkent-2020, B-182
3. N. F. Saydalixodjaeva, "Pedagogik texnologiyalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, Toshkent-2021
4. Oynisa Musurmanova, "Pedagogik texnologiyalar- ta'lim samaradorligi omili, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2020
5. R.H. Ayupov, Sh.K. Shayakubov, "Interfaol ta'lim usullari" o'quv va metodik qo'llanma, Tafakkur bo'stoni Toshkent-2012
6. Tal'at G'afforova, Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Tafakkur nashriyoti, Toshkent-2011
7. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

## KURASHCHI QIZLARNING UMUMIY VA MAXSUS CHIDAMLILIGINI UNUMLI TARZDA RIVOJLANTIRISH

*Nuraliyeva O'g'iloy Shomuratovna*  
*Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti*

*Annotatsiya: Maqolada kurashchi qizlarning umumiy va maxsus chidamliligini unumdor tarzda rivojlantirish usullari tadqiq qilingan. Kurashchi qizlarni anaerob chidamlilik sifatini samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: Kurash, kurashchi qizlar, umumiy va maxsus chidamlilik, anaerob chidamlilik sifatini rivojlantirish.*

## ЭФФЕКТИВНО РАЗВИВАТЬ ОБЩУЮ И СПЕЦИАЛЬНУЮ ВЫНОСЛИВОСТЬ ДЕВУШЕК-БОРЦОВ

*Нуралиева Угилой Шомуратовна*  
*доцент кафедры «Спорт фаолияти», Каршинский государственный университет*

*Аннотация: В статье исследуются методы продуктивного развития общей и специальной выносливости девушек-борцов. Разработаны предложения и рекомендации по эффективному развитию у девушек-борцов анаэробной выносливости.*

*Ключевые слова: борьба, девушки-борцы, развитие общей и специальной выносливости, развитие анаэробной выносливости.*

## EFFECTIVELY DEVELOP THE GENERAL AND SPECIAL ENDURANCE OF FEMALE WRESTLERS

*Nuraliyeva Ugiloy Shomuratovna*  
*Associate Professor of the Department of «Sport faoliyati» Karshi State University*

*Abstract: The article examines the methods of productive development of general and special endurance of female wrestlers. Suggestions and recommendations have been developed for the effective development of anaerobic endurance in female wrestlers.*

*Keywords: wrestling, female wrestlers, development of general and special endurance, development of anaerobic endurance.*

Respublikamizda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida jismoniy tarbiya va sportni, jumladan kurashni yanada rivojlantirish uchun juda katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5368-son Qarori (2018 yil 5 mart), "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori (2017 yil 3 iyun), «Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3306-sonli Qarori (Toshkent sh., 2017 yil 2 oktabr) va boshqa bir qancha qator hukumat qarorlari sport harakatini rivojlantirishga keng yo'l ochmoqda.

Ayni vaqtda respublikamizda olimpiya harakatini rivojlantirish yo'lida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan millionlab kishilarni o'ziga rom etgan kurash bugun yurtimizning chekka-chekka qishloqlarida ham ommaviy tarzda rivojlanib bormoqda.

Sport turlari orasida kurashning o'z o'rnini bor. Hozirgi kunda kurashchi qizlarning chidamliligini oshirish uchun bir qator mutaxassislar o'z uslubiyatini tavsiya etishgan. Lekin sportchilarni tayyorlashda anaerob (kislordsiz) chidamlilikka nisbatan kam e'tibor berilmoqda. Kurashchi qizlarning mashg'ulot jarayonida anaerob chidamlilik sifatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozimligi ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Kurashchi qizlarning anaerob chidamliligini umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositasida tarbiyalash uslublarini o'rganish va tadqiq etishni ishimizning maqsadi qilib belgiladik.

□ Kurashchi qizlar tayyorgarligi rejaları va dasturlarida mashg'ulot jarayonini tashkil etish maboynda chidamlilik yuklamalarining bosqichlar va davrlar bo'yicha xususiyatlarini o'rganish;

□ Mashg'ulot tuzilmalarining ba'zi variantlarini tashkil etish davrida mashg'ulot yuklamalarini samaradorligini aniqlash;

□ Kurashchi qizlarning chidamliligini tarbiyalashdabiztavsiya etayotgankomillashtirilgan uslubiyatning samarali ekanligini tajribada asoslashni ishimizning vazifalari sifatida belgiladik.

Mualliflar fikrlarining har xilligi hozirgi kungacha kurashchi qizlar o'rtasida o'tkaziladigan sport mashg'ulotida chidamlilikni tarbiyalash usullari yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ko'rsatdi.

Har bir kurashchi qiz yiliga hoh u chempionat bahslari, hoh kubok bahslari bo'lsin 13-14 martaga yaqin rasmiy uchrashuvlarda qatnashsagina, shundagina ancha tajriba orttirishlari mumkin. Lekin ayrim jamoalar transport masalasida muammolarga duch kelishyapti. Agarda murabbiylar o'z tarbiyalanuvchilarining mahoratini yanada oshirilishini istashsa, unda raqiblar bilan ko'proq uchrashuvchlar o'tkazishlari shart. Shunday qilib hamjihatlikda ishlasa o'ylaymizki, chekka qishloqlardan ham ko'plab kurash yulduzlari yetishib chiqadi. Shunday ekan ota-onalar farzandlarining kelajakdagi taqdirlariga ularning yoshligidan zamin yaratishlari lozim. Harakat qilsak ba'zi muammoni o'zimiz yechimini topa olamiz. Shundagina qilgan ishimizdan mamnun bo'lishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mashqlar, sportchi qizlar bilan shug'ullanishda har bir sport turi xususiyatiga moslashtirilgan umumiy va maxsus chidamlilikni oshirishda, texnik-taktik mahoratini shakllantirishda o'ta muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Amaliyotda ko'pchilik o'qituvchilar (72%) asosiy mashqlarni 1-3 darsda o'tishda mo'ljallangan, bu esa sportchilarda harakat ko'nikmasi va malakalarini ijobiy tashkil topishiga olib kelmaydi.

Biz tomonimizdan, pedagogik tajriba iqlim sharoitiga, umumiy va maxsus chidamliligini tarbiyalash xususiyatiga qarab, mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil qilindi:

a) kurashchi qizlar bilan ochiq havoda o'tilganda 34% tezkorlik va tezkor-kuchlilik, 22% kuch, 24% chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlar berildi va taqsimlandi;

b) sport zalda kurashchi qizlar bilan birga o'tilganda 36% kuch, 24% chidamlilik, 20% tezkor va tezkor-kuchlilik, 10%dan egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uchun mashqlar berildi.

Samarali tashkil qilingan kurash mashg'ulotlari kurashchi qizlarning mustaqil shug'ullanishiga imkoniyat yaratdi. Shuni nazarda tutish lozimki, ularning individual xususiyatlarini, zallari kichikligi, vositalar kamligi, musobaqalarga bormaganligini hisobga olish ijobiy natijalar berdi.

- kurashchi qizlar uchun mashg'ulotlarning yuklama shiddati aniqlandi, u 8-10 daqiqa submaksimal pog'onada davom etishi reja materiallarini egallashda va harakat ko'nikma malakalarini shakllanishida ijobiy natija berdi.

- kurashchi qizlarga oid umumiy va maxsus chidamlilikni tarbiyalashda maksimal imkoniyatdan 70% shiddatda bir marta yigirma daqiqadan ortiq yugurish eng optimal meyorligi aniqlandi.

Kurashchi qizlarning umumiy va maxsus chidamliligini oshirish darajasi pedagogik tajriba ishlab chiqilgan yuklama meyorlari to'g'ri belgilanganligini tasdiqladi, ya'ni kuch-chidamliligi – 19%, maxsus chidamlilik – 12,7% ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kurashchi qizlarning umumiy va maxsus chidamliligini rivojlantirishda olingan natijalar umumta'lim maktablari sport mashg'ulotlarida, BO'SM larda samarali tarzda qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Atayev A.Q. Kurash. T, "O'qituvchi", 1987, 138-b.
2. Nurshin J.M., Taymuradov O., Shokirjonov A. O'zbekcha milliy sport kurash usullari. T., 1987.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Darslik. T., 2001.
4. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik. T., 2004.
5. Kerimov F.A. Kurash tushaman. T., "Ibn Sino", 1990.

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR KITOBXONLIGIDA TAOM DISKURSINING QO'LLANISHI MASALASI

*Nusratova Aziza Cho'liboyevna,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil-izlanuvchisi*

## ПРОБЛЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПИЩЕВОГО ДИСКУРСА В БИБЛИОТЕКЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

*Нусратова Азиза Чўлибоевна,  
научный сотрудник Ташкентского международного университета Киме*

## THE PROBLEM OF USING FOOD DISCOURSE IN THE LIBRARY OF PRESCHOOL CHILDREN

*Nusratova Aziza Cho'liboyevna,  
Independent researcher at Tashkent International University Kimyo*

*Annotatsiya: maqolada o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, shakllanishi, uning jahon bolalar adabiyoti bilan ijodiy ta'siri, glutonimlik hodisasi, bolalar adabiyotida uchraydigan so'zlovchi glutonimlar masalasi, uning taom diskursiga ta'siri, bolalarning sog'lom ovqatlanish ratsionini shakllantirishdagi roli, uning adabiyotshunoslikda o'rganilishi va amalda qo'llanishi she'riy parchalar misolida tahliliy ko'rsatilgani haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, so'zlovchi glutonimlar, taom diskursi, sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish ratsioni.*

*Аннотация: в статье рассмотрены принципы развития и становления узбекской детской литературы, ее творческое влияние на мировую детскую литературу, феномен глутонимии, проблема разговорной глутонимии в детской литературе, ее влияние на пищевой дискурс, ее роль в формировании детского здорового питания, считается, что его изучение и практическое применение в литературоведении аналитически показано на примере поэтических отрывков.*

*Ключевые слова: принципы развития детской литературы, говорение глутонимов, пищевой дискурс, здоровый образ жизни, диетическое питание.*

*Annotation: The article discusses the principles of development and formation of Uzbek children's literature, its creative influence on world children's literature, the phenomenon of glutonymy, the problem of colloquial glutonymy in children's literature, its influence on food discourse, its role in the formation of children's healthy nutrition, it is believed that its study and practical its application in literary criticism is analytically demonstrated using the example of poetic passages.*

*Key words: principles of development of children's literature, speaking glutonims, food discourse, healthy lifestyle, dietary nutrition.*

Bolalar adabiyotida badiiylik bilan bir qatorda ma'rifiylik ham yetakchi o'rin tutadi. Chunki bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Biroq bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, 20-asr boshlarida o'zbek bolalar adabiyotida ko'proq ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilsa, 30-yillar bolalar adabiyotida realistik adabiyot tamoyillari ustuvor, 50-60- yillar bolalar adabiyotida sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi. 80-yillar bolalar adabiyotida psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida

uni yosh bola tarzida emas, hayotga tobora jadal kirib kelayotgan, o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi mavjud.

Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti muammolarini, bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlarda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, zamon, makon va bolalik munosabatlarini tizimli tadqiq etish bo'yicha ko'plab adabiyotlar yaratilgan. Zero, yosh avlodning nafosati va badiiy didini o'stirish, haqqoniylik va badiiylikning mukammal birligini ta'minlash, yuksak ma'rifiy-estetik g'oyalarni ilgari surish borasida bolalar adabiyotining oldiga turgan vazifalar ko'lami "kattalar adabiyoti"nikidan kam emas. Yoshlar kamolotida badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta rol o'ynaydi, chunki kichkintoylar alla, qo'shiq, maqol, topishmoq, tez aytish, ertak eshitib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to'ladi, hayotga intilishlari, qiziqishlari jo'sh uradi. Bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining boy an'analari ruhida yaratilgan asarlar aloxida o'rin tutsada, bolalarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi biroz susayib, uning o'rnini kompyuter va ijtimoiy tarmoqlar egallab borayotgan bugungi kunda uning dolzarbligi yanayam oshdi.

Iqtisodiy sharoit bilan xalqimizning ko'plab asrlik tarixiy, madaniy, diniy, adabiy, me'rosini umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tendensiyasi shakllandi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu jarayonning mantiqiy yakuni o'laroq badiiy tafakkur va talqinlar yangilandi, bolalar adabiyotining mazmun-mohiyati kengaydi, ko'lami oshdi. Shu bilan birga bolalar adabiyoti bo'yicha yaratilayotgan asarlar oldiga, yosh avlod uchun ijod qiluvchi so'z san'atkorlarini izlanishlari va badiiy mahorati oldiga qo'yilayotgan talablar oshdi. "Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellectual saviyasini o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan badiiy, ma'rifiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga bevosita xizmat qiladi...uning ahamiyati ushbu xususiyatlar bilan o'lchanadi".

Bugungi kunda bolalar ta'lim-tarbiyasida qudratli qurol bo'lgan bolalar adabiyotidan foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Bolalar adabiyotining o'ziga xos qonuniyatlari bor: agar bu bo'limlarga ajratib o'rganilmas ekan, pala-partishlik, tushunmovchilik kelib chiqishi tabiiy. Eng avvalo, kitobxonlik – kitob o'qishi, tinglashi, hikoya qilishdek talabga e'tibor berilishi zarur bo'lgan amallar bor.

Ushbu maqolamizda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligida so'zlovchi glyutonimlardan foydalanish mahorati haqida gapiramiz. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ertakchilari-yu tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Bu davrda bolalarga o'qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi zarur. Ularga mexnatsevarlikni o'yinlar orqali o'rgatilsa, yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Sholg'om", "Bo'ri bn qo'zichoq", "Tulki bilan Turna", "Ur to'qmoq" kabi masal va ertaklar bolalarni mexnatsevarlikka, tabiatni sevishga, rostgo'ylikka o'rgatadi, aldanchilik va xudbinlik, baxillik va ochko'zlik yomon illat ekanligini tushuntiradi: "Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer", "Hunar, hunardan unar", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Mehnatning tagi rohat" kabi xalq maqollarini yodlatish va ularning mazmunini yaxshilab tushuntirish bolalar tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi kichkintoylar tevarak-atrofdagi har bir narsaga taqlid qilishdan charchashmaydi. Ular taqlidchilik vositasida hayotni o'zlahstiradilar. Ayni mana shu kichik yoshdan tarbiya bilan bir vaqtda to'g'ri ovqatlanish odoblari, taom iste'mol qilish odatlari, qaysi taom turidan boshlab qaysi bilan tugatishgacha, kattalar ovqatga qo'l uzatishni boshlamasidan kichkinalar boshlamasligi haqida to'g'ri nasixat berishlari lozim. Bundan tashqari dasturxon boshida ovoz chiqarmasdan taomlanish, ko'p va tez iste'mol qilmaslik haqida ham kichkintoylar bilan tez-tez pand-nasihatchilik qilish ota-ona va oila a'zolari

zimmasiga tushadi. Taqlidchilik vositasidan hayotni o'zlashtirar ekanlar, ularga atalgan asarlarning personajlari hayvonlar va qushlar, hasharotlar, o'simliklar va boshqalar bo'lishsada, odamlarga taqlidiy sifatlarga ega: odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi. Bunday intilish zamirida kichikintoy nutqida o'zgacha emotsionallashtiruv jarayoni sezila boshlaydi. Bolalardagi bunday insoniy sezgirlikdan hayratlangan L.Tolstoy ayrim noshud yozuvchilarning tildagi no'noqliklariga ta'na qilib: "Bola so'z yasash qonunlarini sizdan ko'ra yaxshiroq anglaydi, chunki hech kim uningchalik tezlik bilan yangi so'z yasay olmaydi," –degan edi. Bola tilini uzoq kuzatgan K.Chukovskiy ham bu fikrni tasdiqlaydi."Ikki yoshdan boshlab har qanday bola qisqa muddat ichida "daho tilchi" darajasiga ko'tariladi,"-deya e'tirof etgan edi. Bolalar uchun asar yozganda ana shu fazilatlarini inobatga olib, ularga atroflarini o'rab olgan hayotni anglab olishlariga, narsalar haqida o'z tushunchalarining qaror topishiga, shularni imkoniyatlari ko'taradigan darajaga xizmat qiladigan so'z zaxiralarini muttasil boyitish maqsadi ko'zlanmog'i shart. Shundagina asar o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajargan deb hisoblash mumkin. Bu davr bolalari o'zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o'rganadilar.

Jahon va o'zbek bolalar adabiyoti asosan tarbiya vositasining bir turi deb qaralgan. Shu bilan birgalikda har qanday badiiy adabiyotda kattalar va bolalar adabiyoti bo'lsin kichik yoki yirik hajmdagi badiiy adabiyot na'munasida taom va u bilan bog'liq jarayonlar bor. Badiiy adabiyotdagi taom mavzusi tadqiq qilish, jahondagi ilg'or tendensiyalardan xabardorlik, zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikni oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, bolalar adabiyotida so'zlovchi glyutonimlardan foydalanish yosh bolalarga adabiyot o'qishga yanayam qiziqishni orttirishga ular orqali tarbiyali va saviyali bo'lib yetishishlari uchun xizmat qiladi. "Glyuttonik" istilosi qadimgi fransuz va o'rta ingliz tillarida glutonie, lotincha gluttire ("yutish") so'zidan olingan, bu so'z gula, "tomoq" degan ma'noni anglatadi. "Glyuttoniya" istilosi oziq-ovqat jarayonini yaxlit holda, ya'ni uni topishdan tortib, yarim fabrikatlarni qayta ishlash va iste'molga yaroqli mahsulot tayyorlashgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi".

Taom diskursini adabiyotga qo'llanish masalasini o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida o'zbek ingliz adabiyoti badiiy adabiyotning janri sifatida tahlillar ilk bora Gulnoza Odilovanning doktorlik dissertasiyasida keltirildi. Unga ko'ra, Yevropa adabiyotida yozuvchilar gluttonik diskursdan — taomni lazzatli tasvirlash orqali, jinsiy mayl bilan teng kuchga ega rohat baxsh etuvchi vosita yegulik haqidagi g'oyani ilgari surishsa, taom iste'mol qilishni istash, undan lazzatlanish sharq adabiyotida negativ bo'yoqlarda tasvirlanadi. O'zbek xalqining antropotsentrik qarashlari bo'yicha taom—lazzat undan tiyilish esa komillik belgisi. Tadqiqodchi Mohina Hamidovanning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyotdagi taom mavzusi dastlab ertaklar orqali shakllangan. G'arb va Sharq ertaklarida ochko'zlik, yeb tuymaslik mavzulari mushtarak hisoblanadi. Masalan: ochko'zligi sabab ariga talangan boy, (3 dona tarvuz urugi ertagi); ochko'zlik sabab qizil sandiqqa yetolmagan Qimmat, (Zumrad va Qimmat ertagi). G'arb ertaklarida ham ochko'zlik qoralanadi, cheksiz hasham va nozune'matga ruju quyib teshik tog'ora bilan qolib ketgan kampir ("Tilla baliqcha"), Kampirdan so'ng naberisini ham yemoqchi bo'lib ovchilar tomonidan qorni yorilgan bo'ri ("Qizil qalpoqcha"). Bu ertaklardan chiqaradigan xulosa: ochko'zlik—salbiy oqibatga olib keladi; Ochko'z odam--kelajakda boy beradi; Ochko'z odam—jazosini oladi.

Bugungi kunda o'zbek zamonaviy bolalar adabiyoti o'z oldiga axloqiy-tarbiyaviy masalalaridan tashqari, to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga bolani tayyorlash vazifasi ham qo'yilishi kerak. Buning uchun esa jahon adabiyotini o'rganish va uni ma'naviyatimiz axloqiy tarbiyamizga mos ravishda tarjima qilish ularning obraz va personajlaridan ilhomlanib yangi asarlar yaratish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas masalalaridan biridir. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan axbarot texnika asrida bolalarni turli xil yangi asarlar bilan kitob o'qishga qaytarish va ularni zamonaviy interaktiv usullardan foydalanib bolalarni qiziqitira

oladigan adabiyotlar yaratishda qiyosiy o'rganish ham lozim.

Ushbu g'oyat murakkab bo'lgan vazifani badiiy so'z qudrati bilan biroz bo'lsada hissa qo'shib kelayotgan yozuvchi, xalq shoiri, ko'p qirrali adib va dramaturg Anvar Obidjonidir. Uning aksariyat asarlari ramziy, majoziy obrazlar orqali tabiat bilan tanishtiruvchilik ruhida yaratilgan bo'lsa-da, kichkintoylarning ruhiy olami diqqat markazida turadi. Ayniqsa, meva va sabzavotlar haqidagi she'rlari bolajonlar yuragidan tez joy oladi uning asarlarida so'zlovchi glyutonimlar yorqin misolini ko'rish mumkin:

Sabzi  
Yupqagina  
Po'stim bor  
Dalada  
Ko'p do'stim bor.  
Topishmoqda  
Yoziqman:  
O'sha  
"Oltin qoziqman".  
Yotsam  
Yerga qapishib,  
Dumginamdan  
Tortishib,  
Tashladilar  
O'raga...  
Salom  
Palovto'raga!

Tarvuz  
O'g'itlarga  
To'ydim men.  
Rosa qorin  
Qo'ydim men.  
Endi  
Suvdan berishsin,  
Tomirlarim  
Kerishsin.  
Bir chetdan  
Boqmay ola,  
Hoy bola.  
Bir maqtab qo'y  
Meni yeb.  
Tepmasang bas  
Koptok deb .

Bu she'rlarda bolalar tuyg'ularini sofligi, quvnoqligi katta iste'dod bilan ochib beriladi, bolani goh-goh yayrab kulishga, goh jimgina o'ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi. She'rni o'qir ekansiz, endigina so'zlar ma'nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngimizda keladi. Ayniqsa, sabzavotlarni yeyishga injiqlik qilib turgan bola uchun judayam ajoyib misollarni shoir ijodidan topishimiz mumkin. Anvar Obidjonning ijodida shunga o'xshash so'zlovchi glyutonimlarni juda ko'p uchratish mumkin. Aynan bolalarni meva sabzavotlarning foydali ekanligini ularni yeyishga o'rgatish va soglom ovqatlanish ratsionini o'rgatishda adabiyot muhim rol o'ynaydi. Bolalar adabiyotida berilgan so'zlovchi glyutonimlik hodisasi orqali bolalarda meva, sabzavotlardagi boy vitaminlar bilan tanishtirish,

ularni iste'moliga o'rgatish, ularning sog'lom ovqatlanish ratsioniga amal qilishlariga erishish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biridir. Bolalar adabiyotida bunday tipdagi asarlarning yaratilishi, bolalarga o'rgatilishi badiiy asarni hayot bilan chambarchas bog'lashga, uni amalda qo'llanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi"gi Farmoyish xalq so'zi, 2017 yil, 13 yanvar
2. G.Odilova. Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (glutonik diskurs misolida).Filol.fanlar.doktori dis., Toshkent,282-bet
3. G.Adilova, M.Homidova. Bolalar adabiyotida taom tanovvul mavzusi. Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. 1(90)/2024. Samarqand. – B. 19-24.
4. Державецкая И.А Глутоническая лексика и проблемы её перевода/ Ученые записки Таврического национального университета им.В.И.Вернадского. Серия "Филология. Социальные коммуникация". Том 26 (65) №1.-С.466-470.
5. H.Nusratova, B.Pardayev Bolalar adabiyoti darslik. T-2021. 18-bet.
6. Anvar Obidjon. Saylanma Toshkent. 2019, 180 b.

## VIZUALIZATSIYA METODI ORQALI TARIXIY HODISALARNI O'QITISH: “JADIDLAR HARAKATI” MISOLIDA INNOVATSION YONDASHUV

Payg'amov Shoxrux Bahodirjon o'g'li  
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya:* Mazkur maqola Jadidlar harakati tarixini o'qitishda vizualizatsiya metodining samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jadidchilik harakati XX asr boshida O'zbekistonda ta'lim, madaniyat va siyosiy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada vizualizatsiya metodining o'quv jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tarixiy voqealarni chuqurroq anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli o'rganiladi. Shuningdek, Jadidlar harakati bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarni sahnalashtirish, interaktiv grafik vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning tarix fanidan innovatsion usullardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

*Kalit so'zlar:* Jadidlar harakati, vizualizatsiya metodi, tarixni o'qitish, innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, tarixiy voqealarni anglash, interaktiv o'quv materiallari, o'quvchilarning qiziqishi, pedagogik metodika, ta'lim samaradorligi.

## ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ МЕТОДОМ ВИЗУАЛИЗАЦИИ: ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД НА ПРИМЕРЕ «ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ»

Пайгамов Шохрux Баҳодиржон ўғли  
Андижанский государственный педагогический институт  
независимый исследователь

*Аннотация:* Статья посвящена анализу эффективности метода наглядности в преподавании истории движения джадидов. Движение джадидов имеет большое значение как общественно-политическое движение, оказавшее значительное влияние на образование, культуру и политическую жизнь Узбекистана в начале XX века. В данной статье рассматривается роль визуализации в процессе обучения, направленная на повышение интереса учащихся, углубление их понимания исторических событий и развитие навыков самостоятельного мышления. Даны также методические рекомендации по инсценировке исторической информации, связанной с движением джадидов, использованию интерактивных графических средств и современных информационных технологий. Результаты исследования будут способствовать развитию навыков учителей в использовании инновационных методов преподавания истории и повышению эффективности процесса обучения.

*Ключевые слова:* джадидское движение, метод визуализации, преподавание истории, инновационные образовательные технологии, процесс обучения, понимание исторических событий, интерактивные образовательные материалы, интерес учащихся, педагогическая методика, эффективность обучения.

## TEACHING HISTORICAL EVENTS THROUGH THE VISUALIZATION METHOD: AN INNOVATIVE APPROACH ON THE EXAMPLE OF THE “JADID MOVEMENT”

*Paygamov Shoxrux Bahodirjon ugli  
Andijan State Pedagogical Institute  
Independent Researcher*

*Annotation: This article is devoted to analyzing the effectiveness of the visualization method in teaching the history of the Jadid movement. The Jadid movement is of great importance as a socio-political movement that had a significant impact on education, culture and political life in Uzbekistan at the beginning of the 20th century. This article studies the role of the visualization method in increasing students' interest in the educational process, developing a deeper understanding of historical events and the ability to think independently. Also, methodological recommendations are offered on the staging of historical information related to the Jadid movement, the use of interactive graphic tools and modern information technologies. The results of the study will serve to develop teachers' skills in using innovative methods in history and increase the effectiveness of the educational process.*

*Keywords: Jadid movement, visualization method, teaching history, innovative educational technologies, educational process, understanding historical events, interactive educational materials, student interest, pedagogical methodology, educational effectiveness.*

Kirish. Vizualizatsiya metodi (Visualization Method) tarixiy tushunchalarni, voqealar va shaxslarni jonlantirish hamda ularni yanada chuqurroq anglash imkonini beruvchi pedagogik va madaniy yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod asosan tasvirlar, diagrammalar, xaritalar, sahnalashtirish va teatr kostyumlari orqali amalga oshiriladi. [1] Vizualizatsiya metodi ta'lim va madaniyat sohasida keng qo'llanilib, tarixiy ma'lumotlarni esda qolarli va tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi.

Ushbu metod tarixiy tushunchalarni vizual shaklda ifodalash orqali nafaqat ta'limiy jarayonni samarali qiladi, balki auditoriya e'tiborini jalb qilishga va ularning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Teatr kostyumlari va sahna dekoratsiyalari yordamida tarixiy voqealar va shaxslarni aks ettirish o'quvchilarga tarixni real hayotga yaqin ko'rinishda tushunish imkoniyatini beradi. [2;161-166] Bu nafaqat vizual idrokni kuchaytiradi, balki tarixiy shaxslar va voqealarning ijtimoiy, madaniy va siyosiy ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodning qo'llanilishi turli xil shakllarda amalga oshiriladi. Misol uchun, tarixiy xaritalar yordamida hududiy o'zgarishlarni aks ettirish, diagrammalar orqali davrlarning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarini tahlil qilish yoki sahna ko'rinishlari orqali muhim voqealar va shaxslarni jonlantirish mumkin. Teatr orqali tarixiy shaxslarni kostyumlar va dekoratsiyalar bilan aks ettirish esa o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularga o'sha davrning muhitini his qilish imkonini beradi.

Vizualizatsiya metodi shaxsiy ishtirokni rag'batlantirish orqali, ya'ni o'quvchilarni sahna ko'rinishlarida ishtirok etishga jalb qilish orqali, ularda mavzuga bo'lgan qiziqishni va tarixiy hodisalarga nisbatan hissiy munosabatni oshiradi. Bundan tashqari, ushbu metod madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishning samarali vositasi bo'lib, o'quvchilarga nafaqat tarixni o'rganish, balki o'zlarining milliy madaniyatlari va an'analariga hurmatni oshirish imkoniyatini ham [3;737-745] eradi.

Shuningdek, vizualizatsiya metodi yordamida tarixiy jarayonlarning murakkab tomonlari sodda va tushunarli tarzda tasvirlanadi. Bu o'quvchilarga tarixiy ma'lumotlarni mantiqiy zanjirda tushunish va yodlashni osonlashtiradi. Ko'rgazmali tasvirlar va sahna ko'rinishlari yordamida qilingan taqdimotlar hissiy ta'sir kuchini oshiradi, bu esa o'quvchilarning materialni

uzoq vaqt eslab qolishlariga yordam beradi.

Umuman olganda, vizualizatsiya metodi tarixni ta'lim va madaniyat sohasida o'qitishda innovatsion va samarali yondashuv bo'lib, nafaqat o'quvchilarning bilimni kengaytiradi, balki ularda tarixiy hodisalar va shaxslar bilan bog'liq muhim ijtimoiy va madaniy bilimlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, bu metod tarixiy bilimlarni esda qolarli, qiziqarli va chuqur ma'noli qiladi.



### 1-rasm. "Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati" mavzusiga talabalar uchun dastlabki grafik ma'lumotlar.

"Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati" [4;87] mavzusini Vizualizatsiya metodi asosida tahlil qilinishi

Tahlil va natijalar. Vizualizatsiya metodi orqali "Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati" mavzusini tashkil qilish, o'quvchilarni ushbu tarixiy hodisa va uning ta'siri bilan tanishtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Jadidlar harakati Turkistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuz bergan ma'rifiy va milliy uyg'onish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan muhim tarixiy hodisadir. Ushbu mavzuni vizualizatsiya metodi yordamida taqdim etish orqali tarixni yanada jonli va tushunarli shaklda yetkazish mumkin.

Mazkur mavzuni tashkil qilishda quyidagi yo'nalishlar amalga oshirilishi mumkin:

1. Vizual tasvirlar va xaritalar:

- Turkistondagi jadidlar harakatining asosiy markazlari bo'lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarni xaritalarda ko'rsatish;
- Harakatning ma'rifiy markazlari, yangi usul maktablari, matbuot nashrlari va bosmaxonalar joylashgan hududlarni aks ettirish;
- Jadidlar yetakchilari, ularning hayoti va faoliyatiga oid fotosuratlar va rasmiy hujjatlarni

namoyish etish.

## 2. Diagrammalar va statistik ma'lumotlar:

- Jadidlar harakatining ta'lim, matbuot, adabiyot va teatr kabi sohalardagi o'rnini aks ettiruvchi diagrammalar tayyorlash.
- Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidlarning ulushi va ularning islohotchilik tashabbuslarining natijalarini ko'rsatish uchun infografikadan foydalanish.

## 3. Teatr sahnalashtirish:

- Jadidlar hayotidan muhim epizodlarni, masalan, yangi usul maktablarining ochilishi, matbuot nashrlarining yaratilishi yoki ularning milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilish jarayonlarini sahnalashtirish;
- o'quvchilarning teatrda ishtirok etishi, ularning jadidlarning tarixiy rolini chuqurroq his qilishlariga yordam beradi. Teatr kostyumlari va dekoratsiyalari yordamida o'sha davr muhitini jonlantirish mumkin.

## 4. Sahnadagi video dekoratsiyalar:

- orqa fonda Turkistondagi jadidlar harakatiga oid videotasvirlarni aks ettirish. Bunga jadidlar tomonidan chop etilgan gazetalar, eski maktab binolari, o'sha davrda o'tkazilgan yig'ilishlar va muhokamalar, milliy uyg'onish jarayonlarini aks ettiruvchi tasvirlar kiritilishi mumkin;
- Harakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatadigan tarixiy hujjatlar va maqolalar fragmentlarini video formatida taqdim etish.

## 5. Tarixiy belgilar va shaxsiy eksponatlar:

- Jadidlar harakatiga oid kitoblar, gazeta nusxalari, maktab dasturlari va boshqa artefaktlarni namoyish qilish orqali o'quvchilarga materialni his qilish imkoniyatini yaratish;
- Jadidlar harakatining taniqli vakillari, masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Behbudiy kabi shaxslarning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi maxsus stendlar yaratish.

## 6. Ilmiy muzokaralar va rolli o'yinlar:

- o'quvchilarning rolli o'yinlar orqali jadidlarning ta'lim va milliy uyg'onishdagi maqsadlarini muhokama qilishlariga imkon yaratish.
- jadidlarning ijtimoiy-siyosiy islohotlarga oid qarashlarini tahlil qiluvchi ilmiy davra suhbatlari o'tkazish.

## 7. Hissiy uyg'otish:

- o'sha davr musiqasi, milliy kiyimlar va muhitni aks ettiruvchi dekoratsiyalar yordamida o'quvchilarda tarixga nisbatan hissiy munosabat shakllantirish;
- sahna dekoratsiyasini jadidlar davriga xos elementlar bilan bezash, masalan, o'zbekcha arxitektura uslubi va milliy naqshlar qo'shish.


Ushbu metod asosida o'qituvchi talabalarga ushbu mavzu yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni beradi. Ma'lumotlar turli holdagi multimediyaga asosidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak misol uchun (grafik tasvir, video, infografika va boshqalar). Talabalar ushbu ma'lumotlarni ko'rish orqali shu davr bo'yicha o'z taasurotlarini uyg'otadilar hamda shu ma'lumotlar asosida teatr sahnalashtiradilar.

Vizualizatsiya metodi orqali tashkil etilgan mavzular taqdimoti tarixiy hodisalarni tushunishni yengillashtiradi, o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi va ularning tarixga oid bilimlarini boyitadi. Bu usul shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilishga xizmat qiladi.

1-jadval

**Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati” mavzusini sahnalashtirish tartibi**

	<p><b>1-parda.</b>  <b>“Jadidlar harakatining shakllanishi va rivojlanishi sahnasi”.</b>          Jadidchilikning tarixiy ildizlari va sabablari haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>2-parda.</b>  <b>“Jadidlar va ta’lim islohotlari”.</b>          Yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ahamiyati haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>3-parda.</b>  <b>“Turkistondagi jadid matbuoti va nashriyotlari”.</b>          “Tarjimon”, “Sho‘roi Islom” kabi gazeta va jurnallarning roli haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>4-parda.</b>  <b>“Jadidlarning madaniyat va san’atdagi islohotlari”.</b>          Drama, teatr va adabiy asarlar orqali yangicha qarashlarning targ‘ibi haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>

**5-parda.****“Ijtimoiy adolat va milliy uyg‘onish g‘oyalari”.**


Jadidlarning millatni uyg‘otishga qaratilgan faoliyatlari haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.

**6-parda.****“Turkiston iqtisodiyotiga ko‘rsatilgan ta’sir”.**


Savdo-sotiq va hunarmandchilikka e’tibor haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.

**7-parda.****“Islom dini va jadidchilik”.**







Diniy masalalardagi yangicha qarashlar va ulamolar bilan ziddiyatlar haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.

**8-parda.****“Jadidlarning siyosiy islohotlari va tashkilotlari”.**

“Sho‘roi Ulamo”, “Sho‘roi Islomiya” kabi tashkilotlar faoliyati haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.

**9-parda.****“Jadidlarning ayollar huquqlari borasidagi qarashlari”.**

Ayollar ta’limi va ijtimoiy hayotga jalb qilinishi haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.

	<p><b>10-parda.</b>  <b>“Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini anglash jarayoni”.</b>          Milliy g‘urur va o‘zlikni tiklashga oid faoliyatlar haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>11-parda.</b>  <b>“Jadidlar va yoshlar harakati”.</b>          Yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan dasturlar haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>12-parda.</b>  <b>“Jadidlarning o‘zaro xalqaro aloqalari”.</b>          Usmoniylar davlati va boshqa musulmon mamlakatlari bilan aloqalar haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>13-parda.</b>  <b>“Turkiston jadidlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi”.</b>          Matematika, tabiiy fanlar, va dunyoviy bilimlarning targ‘ibi haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>14-parda.</b>  <b>“Jadidlar va ularning merosi”.</b>          Jadidchilik g‘oyalarining hozirgi zamondagi ahamiyati va davomi haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>
	<p><b>15-parda.</b>  <b>“Jadidlarning o‘zaro xalqaro aloqalari”.</b>          Usmoniylar davlati va boshqa musulmon mamlakatlari bilan aloqalar haqida ma’lumotlar sahna ko‘rinishlari orqali beriladi. Sahnada asosiy tarixiy dekoratsiyalar ekran orqali video holatda harakatlanib turadi. Ekran orqali mavzuga oid asosiy ma’lumotlar grafik ko‘rinishlarda har bir sahnalashtirilgan teatr holatida ko‘rsatilib boriladi.</p>

Muhokama. Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyatini Vizualizatsiya metodi asosida tahlil qilishning yakuniy bosqichi ushbu tarixiy hodisaning muhim jihatlarini chuqur anglash va o'quvchilarda tarixiy ongni shakllantirish bilan yakunlanadi. Bu bosqichda asosiy maqsad, harakatning tarixiy ahamiyatini zamonaviy hayot kontekstida tushuntirish va uning bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini namoyish etishdir.

Yakuniy tugallash bosqichida teatr sahnalari va vizual elementlar yordamida jadidlarning asosiy g'oyalari – ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish va islohotchilik g'oyalari jamlangan holda aks ettiriladi. Bu bosqichda tarixiy shaxslarning faoliyati va ulkan merosi haqida umumiy xulosa chiqariladi. Vizualizatsiya metodi yordamida o'quvchilarga ushbu hodisaning nafaqat tarixiy voqelik sifatida, balki madaniyat, ta'lim va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini ko'rsatish orqali uni anglash osonlashadi.

Teatr sahnalari orqali Turkistonning ma'rifiy va madaniy uyg'onish davrini jonlantirish nafaqat tarixni real his qilishga yordam beradi, balki yosh avlodda o'z madaniy merosiga hurmatni shakllantiradi. Sahna ko'rinishlarida jadidlarning yangi usul maktablarini ochishi, matbuot nashrlarini tashkil etishi va teatr orqali jamiyatni ma'rifatga undash kabi qahramonliklari yoritiladi. Ushbu dramatik ifoda orqali o'quvchilarda tarixiy ong va hissiyot uyg'otiladi.

Yakuniy bosqichning asosiy xususiyati shundaki, unda jadidlar harakatining bugungi kundagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ularning ilm-ma'rifat va milliy uyg'onish g'oyalari nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ekanligi tushuntiriladi. Video dekoratsiyalar orqali jadidlar harakati davridan hozirgi mustaqil davlat qurilishigacha bo'lgan jarayonlar aks ettiriladi, bu esa tarixiy jarayonning uzviylikini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Jadidlar harakati Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ma'rifiy va milliy uyg'onish harakati sifatida nafaqat o'quvchilarga tarixiy bilim beradi, balki ularning o'zlikni anglash va jamiyatdagi faol pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Vizualizatsiya metodi orqali ushbu harakatning teatr sahnalari va ko'rgazmali vositalar yordamida taqdim etilishi o'quvchilar uchun tarixni jonlantirishda va uning ahamiyatini anglashda ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu yakuniy bosqich o'quvchilarning tarixni anglash qobiliyatini chuqurlashtirish bilan birga, ularda milliy g'urur va tarixiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vasilenko I.Yu., Sultanova I.V. Vnedreniye metoda vizualizatsii v obrazovatelnyy protsess v vuze // Gumanitarnyye nauki. – 2019. – №. 4 (48). – S. 161-166.
2. Muller, Schumann. Visualization methods for time-dependent data-an overview // Proceedings of the 2003 Winter Simulation Conference, 2003. – IEEE, 2003. – T. 1. – S. 737-745 Vol. 1.
3. Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchiyarmi – XX asr boshlari) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. –T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014. – 87-b.
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Visualization>.

## **O'QUVCHILARDA NOTA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA NAZARIY TAJRIBALAR**

*Raxmonova Dilshoda Nusratovna*

*Termiz davlat universiteti*

*“Musiqi ta’limi” kafedrası katta o’qituvchisi.*

*Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda nota savodxonligini pedagogik yechimlari yoritilib, olimlarning ilmiy farazlari orqali nota savodxonligini o‘rgatish yo‘llari yuzasidan ilmiy nazariyalar ilgari surilgan.*

*Kalit so‘z: nota savodxonligi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilar, nota yrodamida kuylash, notaga ongli munosabat.*

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ЭКСПЕРИМЕНТЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КОНСПЕКТИВНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

*Рахмонова Дилшоода Нусратовна*

*Термезский государственный университет*

*Старший преподаватель кафедры «Музыкальное образование»*

*Аннотация: В статье освещаются педагогические решения нотной грамотности в начальных классах, а также выдвигаются научные теории о способах обучения нотной грамотности через научные гипотезы ученых.*

*Ключевое слово: нотная грамотность, будущие учителя музыки, пение под ноты, осознанное отношение к нотам.*

## **THEORETICAL EXPERIMENTS TO IMPROVE STUDENTS' NOTE- TAKING SKILLS**

*Rakhmonova Dilshoda Nusratovna*

*Termez State University*

*Senior Lecturer of the Department of Music Education*

*Abstrakt: The article highlights pedagogical solutions for musical literacy in elementary grades, and also puts forward scientific theories about the methods of teaching musical literacy through scientific hypotheses of scientists.*

*Keyword: musical literacy, future music teachers, singing to notes, conscious attitude to notes.*

Mamlakatimiz musiqa ta'limi tizimining asosiy va boshlang'ich bo'g'in hisoblangan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari musiqa darslarida nota yozuviga asoslangan holda, musiqa o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalasi nazarimizda dolzarb va o'quvchi-yoshlarni musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan faoliyat turi. Ushbu faoliyat turining afzalliklari shundaki o'quvchilarni qo'shiq kuylashga tayyorgarlik davrini ularni musiqa tinglash va eshitish faoliyat turlari bilan birgalikda olib borish samarali usul sifatida tadqiqot jarayonida o'z isbotini topdi.

Bu borada ayrim olimlar N.Bryanskiyning ilmiy ishlariga nazar solsak, ular tadqiqot ishlarida dastlabki eshitish qo'shiqlarining muhimligini ta'kidlab, bunday qo'shiq musiqa eshitish, ovozi va o'quvchi ritmini rivojlantirishiga musiqa, qo'shiq ijrochiligi bilan birga olib borish o'quvchilarni ham musiqiy ham estetik tuyg'ularini tarbiyalashini ta'kidlab o'tadilar. Shular bilan bir qatorda ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa tinglashi yoki o'zlari xoxlagan va o'z o'rnida yoshlarga mos bo'lgan musiqa asarini eshitish, musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita ekanligini qat'iy tavsiya qiladilar. Darhaqiqat, umumta'lim

tizimining boshlang'ich bo'g'inida ta'limning nazariy jihatdan tushuntirish ko'p jihatdan samarali natija bermaydi. Chunki nazariy ta'lim bolalar tomonidan deyarli uncha qabul qilinmaydi va ularga ta'sir qilmaydi. Bolalar ruhiyatining butun kuchini asosan tinglash, eshitish va ovoz faoliyatiga yo'naltirdilar.

Ushbu faoliyat turlarini rivojlantirib, musiqa nota yozuvlari asosida o'qitish, asarni tinglash, kuylash va badiiy tasvirlarini ko'rinadigan belgilar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish samarali natijalar beradi. O'quvchilar mashg'ulotlarda ham ovoz bilan qo'shiq kuylashda notalarni erkin o'qishni o'rganmaguncha musiqalarni o'zlashtirish uchun notalar yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarga qo'shiq aytishni oqilona, to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish, balki qo'shiqni mazmuni, kuy-ohangini eshitish orqali notalarni o'rgatish samarali natijalar berishini kuzatdik. Shubhasiz, ko'plab musiqa fani o'qituvchilari bolalarni eshitish davri ko'proq nazariy ma'lumotlar asosida rivojlantirishga tayyorgarlik pog'onasi sifatida zarurligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Tayyorgarlik davridan keyingi asosiy kurs musiqiy notani o'zlashtirish jarayonida eshitish tajribasini umumlashtirishni o'z ichiga oladi. Notalar asosida qo'shiq kuylashni o'rgatishning asosiy usullari umumiy musiqiy ta'lim tizimiga xos bo'lgan musiqa fani dasturlarida umumlashtirilgan bo'lib, unda ohang va notalarni o'rganish tamoyillari to'liq aks ettirilgan.

“Dastur” bo'yicha o'qitish ohanglarni ketma-ket qo'shish usuliga asoslangan bo'lib, uning mohiyati avval bitta tovu shni, so'ngra ketma-ket va hokazolarni o'rganish xisoblanadi. Ushbu usulning samaradorligi keyingi paytlarda mazkur fan doirasida dars mashg'ulotlarini olib borgan tajribali o'qituvchilar faoliyatida kuzatildi.

Umumta'lim maktablarida musiqa darslari faoliyat turlari nota savodxonligini o'rganishdan boshlangan bo'lsa, gamma va intervallar o'quvchilar uchun deyarli hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Umumta'lim maktablarida qo'shiq ijrochilikni o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, turli intervallarda (tor va keng) ushbu usuldan foydalanish notalarni o'qish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, o'quvchilariga nota belgilarini tushunish va aniq takrorlashda yordam berishini, notalar orasidagi eng yaqin masofalardan boshlab, ovoz bilan qadamdan qadamga o'tish qobiliyatini shakllantirib borish lozim.

Nota yozuvlari asosida qo'shiq aytishni o'rganishni bunday tashkil etishning samaradorligi haqida gap borar ekan bunday tizim yordamida notalarning nomlari va pozitsiyalari tez orada o'rganiladi, shuningdek, o'lchov haqida birinchi tushunchalar beriladi. Bu jarayonda bir qator nota asarlarini o'qitish usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bular:

Ohanglarni ketma-ket qo'shish usuli: Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida nota yozuvlari asosida qo'shiq aytishni o'rganishning birinchi pog'onalarini egallashlariga hamda notalarni o'qish texnikasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa umuman o'qish mexanizmi asos bo'lgan oldindan o'zlashtirish va yodlash, ko'rish qobiliyatiga asoslanganligini ko'rsatadi. Vizual xotirani rivojlantirish maqsadida o'quvchilarga notalarda tez ko'rinib turgandan so'ng, ohang parchasini ijro etishda mashq qilish;

Notalarni ketma-ket o'rganish usuli: Mazkur usulning afzalligi to'g'risida fikrlarning birligi bilan o'qituvchilar va tadqiqotchilar o'rtasida besh qatorli musiqa nota chizig'ini kiritish usuliga munosabat boshqacha bo'lgan. Biroq, keyinchalik bu tushunchalar o'z-o'zidan barham topdi. Ya'ni bir vaqtning o'zida besh qatorli nota chizig'ining nota musiqasini o'qitishda dastlab soddalashtirilgan uch qatorli nota chizig'idan foydalanadi. Albatta, bu aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nota savodxonligini shakllantirish uchundir. Ayrim hollarda o'quvchilar notalar bilan tanishishni bir qatordan boshlash tavsiya etiladi, ularning sonini asta-sekin beshtaga ko'raytiradi va shu bilan birga o'quvchilarga ma'lum bir notaning doimiy joylashgan joyidan qat'iy nazar, intervallarni o'qishga o'rgatish uchun har qanday tovush pog'onani qayta nomlash bilan turli xil mashqlarni beradi.

Major yoki minor ladi usuli: Dastlabki, nota savodxonligi boshidanoq major yoki minor

ladi haqida qat'iy tasavvurni o'rnatish zarur deb hisoblaymiz. Chunki, asosan zamonaviy musiqa ta'limi tizimi aynan unga asoslangan. Shunga soslanib, beshta qadam yoki oktava qatorining asosiy shaklini aks ettirish kerak. Shuningdek, pastdan yarim ton bilan to'ldirib, bunday yarim ton zamonaviy musiqa tizimiga xos bo'lgan melodic kadansning ustun shakli ekanligini ta'kidlash orqali tushuntirib boorish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi ta'kidlangan usullarni, qadamba-qadam, ketma-ket qo'shish orqali siz tovushlar hajmini to'liq gammagacha oshirish va tovush chizig'i asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bir qator nazariy ma'lumotlarni berish evaziga uni oshirib, takomillashtirib borish mumkin. Shunday qilib, 3-4-sinflarda bosqichma-bosqich intervallarni, akkordlarni va ritmni «bir vaqtning o'zida va ketma - ket» o'rgatish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi davomiyligini ta'minlashda pauzalar, ikki va uch xissali taktlarni, ko'tarilish va pasayish belgilarini o'rganishga e'tibor qaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022 – yil 2-fevralda №PQ-112 sonli “Madaniyat va san’at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori.

2. D.N.Raxmonova “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o'quv qo'llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”

3. G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqa metodikasi” Toshkent 2021-yil

4. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limining “Milliy o'quv dasturi”. “Musiqa” fanining milliy o'quv dasturi.

5. R.Ishmuhamedov “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” Toshkent-2021

6. Aliyev Y.B. Didaktika – praktike (didaktika xudojestvennogo obrazovaniya). M. 1996.

7. Archajnikova L.G. Professiya – uchitel muziki. 1990.

## **O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘ZIGA XOSLIGI**

Safarova Zarina G‘iyosovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

Аннотация. O‘zbekiston Respublikasida Davlat siyosati darajasida “2022-2026-yillarda Yangi o‘zbekistonni rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”da, nogironligi bo‘lgan shaxslarning mamlakat ijtimoiy hayotida faol jalb etilishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va ularga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Respublikamizda tibbiyot, maxsus ta‘lim sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Axborot texnologiyalarini keng qo‘llash asosida oliy ta‘limni texnologik modernizatsiya qilinishi amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: nogiron talabalar, inklyuziv ta‘lim, korreksion yordam, axborot texnologiyalar.

## **ОСОБЕННОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Сафарова Зарина Гиясовна

старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. На уровне государственной политики в Республике Узбекистан “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы « предусмотрено активное вовлечение лиц с инвалидностью в социальную жизнь страны. Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 приоритетным направлением определено дальнейшее совершенствование системы социальной адаптации и оказания коррекционно-педагогической помощи лицам с ограниченными возможностями здоровья. В нашей республике произошли положительные изменения, связанные с научными и практическими достижениями в области медицины, специального образования. На основе широкого применения информационных технологий осуществляется технологическая модернизация высшего образования.

Ключевые слова: студенты с инвалидностью, инклюзивное образование, коррекционная помощь, информационные технологии.

## **THE SPECIFIC FEATURES OF INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN**

Safarova Zarina Ghiyasovna

Senior Lecturer at the Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. At the level of state policy in the Republic of Uzbekistan “On the Development Strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026 « provides for the active involvement of persons with disabilities in the social life of the country. By Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-60 dated January 28, 2022, further improvement of the system of social adaptation and provision of correctional and pedagogical assistance to persons with disabilities has been identified as a priority. There have been positive changes in our republic related to scientific and practical achievements in the field of medicine, special education. Technological modernization of higher education is carried out on the basis of wide application of information technologies.

Keywords: students with disabilities, inclusive education, correctional assistance, information technology.

**KIRISH.** Bugungi kunga kelib, alohida talimga muhtoj va nogironligi mavjud yoshlarning kasb–hunar ta'limi masalalari O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yuqori sifatli kasb–hunar ta'limini olish imkoniyati, mehnat bozorida talab nogironlarga iqtisodiy turmush sharoitlarini yaxshilashga, mehnat va ijtimoiy izolyatsiyani yengishga va jamoat hayotiga iloji boricha faolroq qo'shilishga imkon beradi. Aytish mumkinki, ta'lim ushbu toifadagi odamlarni reabilitatsiya qilishning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. So'nggi yillarda zamonaviy O'zbekiston jamiyati amalga oshirilayotgan ta'lim amaliyoti va ta'lim sohasida o'rnatilgan munosabatlar doirasida nogironlar va imkoniyatlari cheklangan shaxslar bilan munosabatlarning yangi shakllarini amalga oshirishga tayyorligini namoyish etdi. Inklyuziv ta'limning tarqalishi ushbu toifadagi shaxslarning kasbiy tayyorgarligi doirasini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi, ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Nogironlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash mustaqil yashash, kasb–hunar ta'limi va ijtimoiy mehnatga moslashish tamoyillarini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir. Nogironlarni sotsializatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish va ularning jamiyatga integratsiyalashuvining zamonaviy tendentsiyalari ilm–fanga ushbu toifadagi aholini ijtimoiy va ta'lim makoniga kirishining turli bosqichlarida qo'llab–quvvatlashning mazmuni va mohiyatini to'liq aks ettiradigan modellar va algoritmlarni ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqardi. Mavjud rivojlanish muammolarini bartaraf yetishda qo'llab–quvvatlash jarayoni sifatida qo'llab–quvvatlash nogiron talabalarga hayot yo'lining barcha bosqichlarida ongli hayot tanlashlariga yordam berish uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida nogironlarning inklyuziv kasbiy ta'limini amaliy qo'llab–quvvatlash vositasi o'rta maxsus kasb–hunar ta'limi tizimida asosiy kasbiy ta'lim tashkilotlarini (KTT) va shunga muvofiq Oliy ta'lim tizimida inklyuziv Oliy ta'lim resurs markazlarini (OTRM) yaratish tashabbusini amalga oshirish. Loyihalarni amalga oshirish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan modellar va algoritmlarni yaratish jarayonida nogironlar va nogironlar uchun oliy ma'lumotni qo'llab–quvvatlashning asosiy bosqichlari va mutaxassislarining tegishli ish yo'nalishlari aniqlandi:

1. Asosiy umumiy va o'rta umumiy ta'lim bosqichida nogironligi bor bo'lgan shaxslarga kasbga yo'naltirish ishlarini qo'llab–quvvatlash: 4–bo'lim. Nogironligi bor bo'lgan talabalar ta'limini har tomonlama qo'llab–quvvatlash;
2. Bitiruvchi talabalar o'rtasida kasbga yo'naltirish tadbirlarini o'tkazish;
3. Abiturientlar kontingentini tahlil qilish va prognozlash va diagnostika va kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar berish;
4. Qabul komissiyasi kotiblari uchun brifinglar o'tkazish.
5. Qabul qilish qoidalari va tartibi, tanlangan kasb va mutaxassislik bo'yicha nogironlar va nogironlar uchun kollejlarda, texnik maktablarda va universitetlarda o'qish imkoniyati to'g'risida maslahat berish;
6. Tibbiy–ijtimoiy ekspertiza, shahar maktablari, nogiron abiturientlarning ota–onalari bilan o'zaro hamkorlik;
7. Talabgorning maxsus ta'lim yehtiyolarini va u uchun zarur bo'lgan maxsus ta'lim sharoitlarini aniqlash uchun talabgorning maxsus so'rovnomasini to'ldirish.
8. Hujjatlarni taqdim etish bosqichida nogironlar uchun maxsus shart–sharoitlar yaratish va assistent o'qituvchilarni jalb etish;
9. Nogiron talabalarni tanlangan mutaxassisligi bo'yicha tayyorlash va ishga rejalashtirilgan orbital nomzodlar bilan muhokama olib borish;
10. Nogiron abiturientlarga kirish test sinovlaridan o'tishlari uchun maxsus sharoitlar yaratish.
12. O'rta maxsus kasb – hunar va oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilishni qo'llab–quvvatlash: – nogironlar va nogironlarning kiruvchi kontingentini tahlil qilish, individual reabilitatsiya dasturlari va so'rovnomalarini tahlil qilish (o'qituvchilar, o'qituvchilar–kuratorlar

va talabalar–o‘yin texniklari, moslashuv fanlari murabbiylari, bo‘lim jadvallari, o‘quv bo‘limi), o‘quv dasturlari va o‘quv fanlarining ish dasturlarini ishlab chiquvchilar);

13. Nogiron talabalar bilan ishlaydigan tarkibiy bo‘linmalar, o‘qituvchilar va mansabdor shaxslarni maxsus o‘quv sharoitlarini yaratish va nogiron va nogiron talabalarning maxsus ta‘lim ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi to‘g‘risida xabardor qilish;

14. Nogiron talabalar va o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv sharoitlarini (kirish infratuzilmasi, uslubiy va o‘quv materiallari) ta‘minlash;

15. Tanlangan yo‘nalish (mutaxassislik) bo‘yicha o‘qitishni qo‘llab–quvvatlash:

– universitetga moslashishning diagnostikasi va yordami, moslashuv fanlari dasturiga maxsus texnologiyalar, usullar va metodlarni kiritish;

– ta‘limni tiklash, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlarining ish dasturlarini moslashtirish uchun sharoit yaratish; individual ta‘lim yo‘nalishini ishlab chiqish;

– nogiron talabalar uchun moslashuv fanlari va ixtisoslashtirilgan moslashuv modulini joriy yetish;

– kasbiy faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanishga qarshi ko‘rsatmalar va nogironlarning mehnat sharoitlariga gigienik talablarni hisobga olgan holda amaliy mashg‘ulotlarning individual variantlarini aniqlash;

– nogiron va nogiron talabalar uchun o‘quv qiyinchiliklarini bartaraf yetish va akademik xavflarning oldini olish bo‘yicha maslahat berish;

– nogiron o‘quvchilarni madaniy, ijodiy va sinfdan tashqari ishlarni tashkil yetish va ishtirok yetishga jalb qilish;

– adaptiv jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish.

Amaliyotni qo‘llab–quvvatlash:

– ta‘lim (kasb/mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha amaliyot rahbarlariga, ish beruvchilarga nogironlar amaliyotini qo‘llab–quvvatlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlash va tarqatish;

– muqobil amaliyot imkoniyatini yaratish, shu jumladan ta‘lim tashkiloti asosida;

– menejerlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni amalga oshirish, amaliyot asoslari va bitiruv ishini qo‘llab–quvvatlash, malakaviy topshiriq, ishga joylashish, yosh mutaxassisni birlamchi qo‘llab–quvvatlash:

– ish joyida kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va mustahkamlash masalalari bo‘yicha talabalarga maslahat berish;

– talabalarni turli darajadagi kasbiy mahorat tanlovlarida ishtirok yetishga jalb qilish;

– “Karera texnologiyasi” kursini o‘zlashtirish; – kafedralar, nogiron talabalarni va ushbu toifadagi shaxslarni qo‘llab–quvvatlash resurs markazi, bandlikka ko‘maklashish markazi va nogironlar va HIA bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yordam beradigan tashkilotlar, birlashmalar, korxonalarining o‘zaro hamkorligi;

– nogiron bitiruvchilarga ish qidirish va ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish.

Bugungi kunda O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan yoshlarning oliy ta‘lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, chunki har yili mamlakatdagi oliy o‘quv yurtlariga davlat granti asosida qo‘shimcha ikki foizlik kvota asosida mingdan ortiq talaba qabul qilinadi.

#### NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR QISMI

“Oliy o‘quv yurtlarida imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi” loyihasi doirasida mamlakatimizning 3 ta oliy o‘quv yurtida: Toshkent davlat Pedagogika universitetida tadqiqotlar (anketalar, suhbatlar, kuzatishlar) o‘tkazdik. Nizomiy, Chirchiq Davlat Pedagogika instituti, Jizzax davlat Pedagogika instituti iqtidorli va iqtidorli talabalarning oliy ta‘lim olishlari uchun yaratilgan ijtimoiy–psixologik shart–sharoitlarni o‘rganish imkonini berdi.

So‘rovnomada 525 nafar birinchi kurs talabalar ishtirok etib, ulardan 43 nafari eshitish qobiliyatida nuqsoni bor (8,1%), 105 nafari ko‘rish qobiliyatida (20,2%), 248 nafari tayanch–harakat tizimida (47,1%), 129 nafari boshqa kasalliklar (25,1%) nuqsoni bor. Talabalar

kontingenti tarkibiga 43 kishi (8,1%) I-guruh nogironi, 440 kishi (84,2%) II guruh nogironi, 15 kishi (3,0%) III guruh nogironi, 27 kishi (5,4%) bolalik nogironi kiritildi.

Talabalar so'rovida ta'lim muassasalari binolari va binolarining kirish darajasi, jamoada maqbul psixologik sharoitlarning mavjudligi va maxsus o'quv dasturlari, moslashtirilgan o'quv materiallari, o'quv qo'llanmalari va texnologiyalaridan foydalanish, repetitor xizmatlarini ko'rsatish va boshqa shartlar bilan bog'liq savollar kiritilgan. Maxsus ta'lim yehtiyohlari bo'lgan talabalar tomonidan o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilimini nazorat qilish og'zaki amalga oshirilayotgani, yaqin atrofdagi ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilari yozma ishlarni o'qishga jalb yetilayotgani aniqlandi. Yeshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar muloqot va nazorat ishlarida yozma nutqdan foydalanadilar.

Xuddi shu paytni o'zida, talabalar (41,2%) qo'rqinchli yo'qligi ta'kidladi, rampalar, moslashtirilgan liftlar, avtomatik ravishda yeshiklarini ochib, yetarlicha keng yeshik, moslashtirilgan dush, tayanch-harakat buzilishi va visual mahrum bo'lgan talabalar qulay harakat va universitet ta'lim yotoqxonasida qolish uchun qiyin qiladi. Auditoriya va vizual mahrum bo'lgan talabalar (43,4%) katta matnlarni idrok yetish va tushunishdagi qiyinchiliklar tufayli o'qituvchilar tomonidan ma'ruza materiallarini tezis bilan taqdim yetish zarurligini ta'kidladilar, imo-ishora tili va tiflotexnik o'quv qo'llanmalariga yehtiyoj borligini, axborot-resurs markazlari, yashash joylari (yashash joylari) mavjudligini ta'minlash zarurligini ta'kidladilar yotoqxonalar), o'quv materialini moslashtirish, zarurligi mutaxassis-surdotarjimonlarda va boshqalarda.

Tiflopedagoglar, o'quvchilar, yordamchi o'qituvchilar va ularga hamroh bo'lgan mutaxassislar zarurligini ko'rsatadigan kosmosga yo'naltirishning qiyinchiliklari, uzluksiz harakatlanish, ma'ruzalar yozuvlari va o'quv materiallarini tushunish. Nozologiya bo'yicha talabalar kontingentini tahlil qilish chog'ida ko'rish va yeshitish qobiliyati og'ir bo'lgan talabalar maxsus pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgani aniqlandi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, yeshitish va ko'rish nazorati yo'qligi sababli kar va ko'r talabalar nutq terapiyasi bilan to'liq shug'ullana olmaydilar.

- nogiron o'quvchilarni o'quv jarayoniga moslashtirish;
- fanlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha darslar tashkil yetish;
- typhoon tarjimon xizmatlarini ko'rsatish, darsliklarni audio yozib olishda yordam berish, Brayl va katta shriftida bosilgan materiallarni tayyorlash, yordamchi texnologiyalarga yordam berish;

- ko'zi ojiz o'quvchilarni hududda, ta'lim muassasasi binosi va binolarida harakatlanishga o'rgatish, arxitekturaviy qulaylikni ta'minlash, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning shaxsiy avtomobillari uchun to'xtash joylari ajratish, o'quvchilarni tashishni tashkil yetish.

#### XULOSA QISM

Shu sababli, nogiron talabalar uchun oliy kasbiy ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida oliy o'quv yurtlari talabalariga ta'lim olish uchun ijtimoiy va pedagogik sharoitlarni, samarali ta'lim texnologiyalarini joriy etishni ta'minlash shart.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Архипова Е. Ф. Ранняя диагностика и коррекция проблем развития. Первый год жизни ребенка. – Москва: МОЗАИКА–СИНТЕЗ, 2012. – 160 с.

2. Абдуллаева Г.С. Кар болалар мактабида якка тартибдаги машғулотларда эшитиш қобилиятини ривожлантириш ва талаффузга ўргатиш дастури // Ўқув-қўлланма. – Ташкент: “Республика таълим маркази”. 2013. – 38 б.

3. Бабенкова Н. Е. Настольная книга здоровьесбережения. Новые стандарты. – Москва: УЦ “Перспектива”, 2013. – 192 с.

4. Бабич Е. Г., Тактаров В. Г. Социально–психологическая работа по формированию толерантного отношения общества к семьям, воспитывающим детей с ограниченными

возможностями здоровья: от преодоления изолированности к решению вопросов инклюзивного образования: учебно–методическое пособие. – Москва; Берлин: Директ–Медиа, 2015. – 72 с.

5. Банщикова Т. Н., Ветров Ю. П., Клушина Н. П. Профессиональная деятельность психолога в работе с педагогическим коллективом: учебно–методическое пособие / под редакцией Ю. П. Ветрова. – Москва: Книголюб, 2014. – 231 с.

6. Беличева С. А., Белинская А. Б. Социально–педагогическая диагностика и сопровождение социализации несовершеннолетних: учебное пособие. – Ростов–на–Дону: Феникс, 2013. – 383 с.

7. Борисова Н. А., Пепик Л. А. Оценка существующей системы помощи детям с тяжёлыми нарушениями развития с позиции семьи // Особые дети в обществе: сборник научных докладов и тезисов выступлений участников I Всероссийского съезда дефектологов. (Москва, 26–28 октября 2015 г.) – Москва: СУВАГ, 2015. – с. 16–19.

8. Вильшанская А. Д., Прилуцкая М. И., Протченко Е. М. Психолого–медикопедагогический консилиум в школе. Взаимодействие специалистов в решении проблем ребенка. – Москва: Генезис, 2012. – 256 с.

9. Воспитание и обучение детей и подростков с тяжелыми и множественными нарушениями развития / [И. М. Бгажнокова, М. Б. Ульяновцева, С. В. Комарова и др.]; под редакцией И. М. Бгажноковой. – Москва: ВЛАДОС, 2012. – 240 с.

10. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании: учебник для вузов. – 8–е изд., перераб. и доп. – Москва: Академия, 2013. – 204 с.

11. Захарова Т. В. Формирование выразительных средств речи у детей дошкольного возраста с общим недоразвитием речи: монография. – Череповец: ЧГУ, 2010. – 145 с.

12. Иванова Н. В., Денисова О. А., Виноградова М. А., Леханова О. Л. Проектирование современных образовательно–профессиональных программ по направлениям педагогического образования в сфере сохранения социального здоровья детей дошкольного возраста и детей с ОВЗ: учебное пособие. – Череповец: ЧГУ, 2012. – 228 с.

13. Инклюзивное образование в России: Детский фонд ООН (ЮНИСЕФ). – Москва: ЮНИСЕФ, 2012. – 107 с.

14. Ключева Н. В. Технология работы психолога с учителем. – Москва: Сфера, 2012. – 185 с.

15. Митяева А. М. Здоровьесберегающие педагогические технологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Академия, 2012. – 208 с.

## SPECIAL ASPECTS OF THE “CASE-STUDY” USAGE IN TEACHING OF FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS: AN ANALYTICAL REVIEW

Sagindikov Alisher Aleuatdinovich,  
Karakalpak State University. Doctoral student

*Abstrakt. An analytical review of pedagogical and methodological research on the application of the “Case-Study” method in foreign language teaching to students is presented. This review considers the specific stages of implementation identified by the author, such as designing the case study, involving students in case analysis activities, individual extracurricular case analysis, assignments related to the case, and collective/group classroom work. The analysis of theoretical material indicates that certain aspects of university-level foreign language teaching establish specific requirements for the contextual and procedural implementation of the “Case-Study” method.*

*Key words: Case-study, case, foreign text, academic discussion on the foreign language, understanding of the text, denoting structure of the text.*

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА “КЕЙС-СТАДИ” В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР

Сагиндиков Алишер Алеуатдинович,  
Каракалпакский государственный университет. Докторант

*Аннотация. Представлен аналитический обзор педагогических и методических исследований в области применения метода “Кейс-стади” в обучении студентов иностранному языку в логике специфических требований к выделенным автором этапам его реализации: конструирования кейса, включения студентов в деятельность по анализу кейса, индивидуальной внеаудиторной работы студента по анализу кейса, выполнения заданий к кейсу, коллективной/групповой работы студентов в аудитории. На основе анализа литературы показано, что особенности преподавания иностранного языка в вузе определяют специфические требования к содержательной и процессуальной стороне реализации метода “Кейс-стади” как анализа иноязычного дидактизированного аутентичного текста и организации дискуссии на иностранном языке, формулирования студентом устного неподготовленного высказывания на иностранном языке.*

*Ключевые слова: Кейс-стади, кейс, иноязычный текст, учебная дискуссия на иностранном языке, понимание текста, денотатная структура текста.*

## TALABALARGA CHET TILINI O'RGATISHDA “KEYS-STADI” DAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI: TAHLILIIY SHARH

Qoraqalpoq davlat universiteti Doktoranti.  
Sagindikov Alisher Aleuatdinovich

*Annotatsiya. Bu analitik ko'rib chiqish maqolasi pedagogik va metodologik tadqiqotlarning “Keys-stadi” uslubini chet tili o'qitishida talabalarni o'qitishning maqsadlari bo'yicha tuzilgan bosqichlarga mos kelishiga asoslangan tahlilni taqdim etadi: keyslarni yaratish, talabalarni keyslar tahlilini amalga oshirish faoliyati, talaba tomonidan keyslar tahlili uchun individual vaqtdan tashqari ishlash, keysga vazifalar bajarish, talabalar tomonidan auditoriyada jamoa/germoyalashtirish faoliyati. Adabiyotlar tahlili asosida ko'rsatilganidek, chet tili o'qitishining oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning xususiyatlari chet tili didaktik autentik matnlarni tahlil qilish va chet tili bo'yicha munozarani tashkil etish, talaba tomonidan chet tili bo'yicha*

*so'zli no tayyorlanmagan taqrizning formulatsiyasini tashkil etish uslubini amalga oshirishda "Keyss-stadi" uslubi asosiy maqsadlarni aniqlab chiqadi.*

*Kalit so'zlar: Case-study, case, tashqi til matni, chet tili bo'yicha ta'limiy munozara, matn tushunchasi, matnning denotativ struktura.*

Introduction. The success of designing pedagogical models for the development of students' intellectual activity through the use of the "Case Study" (CS) method largely depends on the content of the specific discipline. Let's consider the specifics of using CS in teaching a foreign language.

The foreign language course in a technical university currently occupies a special place among the general humanities disciplines. Changes in socio-economic formations, globalization processes caused by geopolitical, communication, and information transformations enhance interstate integration. "Intensive migration flows, primarily of the workforce, strengthening interconnections and interdependencies in the life activities of all countries, peoples, and individuals" naturally lead "to international rapprochement and interaction" [1, p. 6].

#### LITERATURE ANALYSIS:

Indeed, as A.K.Krupchenko notes, "a foreign language is increasingly turning from a specialty into a language for a specialty, ... therefore, the implementation of the goal of teaching a foreign language is associated not only with the development of the ability for intercultural communication but also with the development of the ability for professional communication in a multicultural space" [2, p. 28].

Considering the possibilities of applying CS in foreign language classes in a technical university, E.A.Agafonova concludes that CS "allows emphasizing the active mental activity of students, which requires mastery of certain linguistic means for its implementation" [3, p. 114].

M.V.Kuimova, D.E.Evdokimov, and K.V.Fedorov notes that CS is aimed at "forming key professional competencies, such as the ability to analyze a large amount of information in a short time and make decisions under stress, developing communication skills, and improving language proficiency in all types of speech activity - listening, speaking, reading, and writing. Students summarize texts, prepare presentations, defend their opinions, and find solutions to problems using a foreign language" [4, p. 89].

Regarding this, E.A.Agafonova writes: "Familiarity with the case involves reading the text on a specific topic in the original or with slight reductions and minimal adaptation, followed by translation, independent problem-solving (internal monologue speech in a foreign language), the process of analyzing the situation during the class (monologue and dialogical speech, prepared and spontaneous) - all these are examples of communicative tasks" [3, p. 115].

#### RESEARCH METHODOLOGY

The process aspect of using CS as a means of developing students' intellectual activity in foreign language classes can be expressed in the stages of the teacher's and students' activities. An analysis of the scientific literature allowed us to identify the following main stages of CS implementation:

1. Stage of case construction.
2. Stage of involving students in case analysis activities (organizational stage).
3. Stage of individual extracurricular work of the student on case analysis, completing tasks related to the case.
4. Stage of collective/group work of students in the classroom, discussion.

#### ANALYSIS AND RESULTS.

The foreign language text is the basis for constructing exercises in speech activities (listening, speaking, reading, writing). V.V.Kuparieva and A.Y.Starkova note that "the text as a system of speech product of native speakers of a foreign language is of particular value as a

systematized model of the functioning of the language and is one of the main educational and methodological units of teaching” [5, p. 16].

The following types of texts in a foreign language are distinguished:

1. Authentic text - an “original text that has not undergone any methodological processing” or some “degree of didactization of original texts is allowed, provided that this does not violate their credibility, authenticity, and if the socio-cultural background of the text is not lost” [6, p. 18].

2. Original text - written “by native speakers for native speakers” [6, p. 19].

3. Didactized text - a text prepared “by native speakers specifically for methodological purposes” [6, p. 18].

4. Semi-authentic text - an authentic text adapted, “as a rule, by shortening and compiling to achieve educational goals” [6, p. 18].

5. Quasi-authentic text - a text in which “some reductions are allowed at the expense of proper names..., historical references, i.e., a text with particularly difficult parts removed” [6, p. 19].

Within this classification, a case study in a foreign language represents a didactized quasi-authentic text. Modern foreign language programs include the following components in the course content:

- Spheres, topics, and situations of communication within the framework of current programs;
- Linguistic (philological) and country-specific knowledge;
- Language skills and speech abilities;
- The nomenclature of speech formulas conveying different communicative intentions;
- Texts for oral and written foreign language activities;
- Educational and compensatory skills.

The foreign language course in non-linguistic universities often precedes special professional disciplines in the curriculum, which brings a forward-looking character to its teaching - the foreign language can and should become “a means of acquiring new professional knowledge”. Therefore, all components of the content of foreign language intercultural education should have a professional orientation, reflecting the social and subject contexts of the student’s future professional activity. Such a task represents a generalized symbolic model of previous situations of foreign language communication, which have a problem and are “woven” into the context of performing a certain professional function; “it contains indications of the goal, means, deadlines, spatial accuracy of actions, and the expected result” [9].

V.V.Kuparieva and A.Y.Starkova, in turn, propose the following tasks of this kind:

- study the denotate map of the text and supplement it with key words from the text; read the text and complete the compilation of its denotate map;

- read the title, skim through the text, and determine how the theme develops: inductively or deductively;

- read the text, compare your sentences with the denotate map provided after the text;

- read the text and fill in its denotate map (empty graphs are provided, only one block is filled in);

- read the text and study its denotate map; determine what information from the text was not reflected in it.

According to these authors, when working on a case study, it is useful to develop skills in compiling a denotate map as follows:

- read the text; - find the denotates; - determine the main theme of the text, highlight the “top of the denotate map (word, phrase, sentence); - build the denotate map, connect the “top with the highlighted objects (denotates), using words (verbs, conjunctions, adverbs) that reveal the objective relationships between the denotates; - check the “logical connection between the denotates”.

The next stage in implementing the case study method is organizing student work in groups,

discussions, and presentations of solutions, which, on the contrary, involves formulating an oral unprepared statement in a foreign language, which represents a message “characterized by semantic integrity..., created directly in the process of speaking without relying on its written implementation”.

It should be noted that the psychological characteristic of unprepared speech in a discussion “is fundamentally identical both for natural conditions of communication and for artificial (i.e., educational) conditions”, “educational discussion has some features:

- it has an element of artificiality associated with the fact that the discussion is conducted in a foreign language, not in the native one...;
- the educational discussion is ‘organized’ by the teacher.

The main means of communication is speech activity - «an active, purposeful process of transmitting and receiving a message mediated by the language system and conditioned by the communication situation, i.e., the process of production and reception” [8, p. 74].

The principle of the speech orientation of the process of teaching a foreign language (communicativeness) requires that the organization of the educational process be similar to the communication process in its purposefulness (sociality of speech), motivation, speech partnership, use of speech means that function in the real communication process.

This means that teaching students using case studies (CS) should involve them in oral (listening, speaking) and written (reading, writing) communication. When designing a discussion in the implementation of CS, it is necessary to consider the following elements of the educational speech situation:

1. Conditions of the situation:

- description of the situation (information about the setting, participants in the dialogue);
- speech stimulus as the reason prompting speech (speakers’ attitudes toward the setting, their specific position);
- task assigned to the student.

2. Student’s speech reaction.

At the same time, the conditions of the described situation should be interesting to the student, presented in a compact form, and take into account their linguistic capabilities. M.D.Ilyazova and A.I.Kurpesheva note that “an educational speech situation is a set of specified speech and non-speech conditions necessary and sufficient for the student to correctly perform a speech action in accordance with the intended communicative task”.

The authors draw our attention to the fact that cases should be designed as a system of educational speech situations determined by a system of speech exercises. Indeed, mastering speech activity is only possible through the performance of exercises. An exercise, an educational speech situation, is “a small script of a communication act, in which the program of actions of the speaker and listener, reader is set”.

In a case, as in an exercise in speech activity, it is important to highlight the following components:

- goal; - content; - real educational and professional actions as the solution to an educational-communicative task; - understanding by the student of the goal and content of the actions; - control and self-control.

It is believed that the structure of a foreign language exercise should include three parts:

- instructive, where the task is formulated, and instructions for its execution are given;
- control, ensuring self-control and self-correction if necessary [19, p. 23].

When designing the stage of classroom work in CS, group discussion, and reflection in a foreign language, it is important to include tasks in the case that actualize interpersonal communication (table).

M.V.Baklaskina believes that “for successful participation in multicultural interpersonal

communication, it is necessary... to form and develop... qualities such as empathy, goodwill, naturalness, concreteness, initiative, spontaneity, self-knowledge” and offers such tasks as:

1) language; 2) communicative-cognitive; 3) communicative-speech, which “form and develop the skills of interpersonal communication based on... skills... of functional, free use of language units in constantly changing speech situations...: for selecting and varying language means in the produced dialogic/polilogic text depending on the social-communicative roles of the interlocutors, their status, personal interests, as well as the communication situation; 4) sociocultural tasks.

At the same time, as the authors note, if «in the process of spontaneous speech in the native language the speaker’s consciousness is focused on the content of the utterance,” then in the case of unprepared speech in a foreign language “the speaker’s voluntary attention is split: it is divided between controlling the formation of thoughts and controlling the process of their expression by means of the foreign language”.

Therefore, a discussion in a foreign language will be more successful:

- the less difficult the intellectual tasks it sets before the speaker...;
- the higher the level of automation of speech skills and the wider the range of language material mastered at the skill level...;

#### CONCLUSIONS

At the same time, the culture of foreign language interpersonal communication is determined by how the linguistic, speech, communicative-stylistic, and ethical norms of behavior are observed, and how the “socio-cultural features, functional factors of communication situations, as well as the level of development of the communicative culture of its participants in their native language” are taken into account.

According to the “Debates” technology, the group is divided into two teams (the “Affirmation” team and the “Negation” team), “speakers” from the teams are appointed, arguments and counterarguments are recorded by rounds. The specific situation described in the case should be “socially sharpened”.

M.A.Ariyan suggests taking into account the following criteria for selecting case content for organizing a discussion: - “correspondence of the speech product expected from the student during role-playing... to the language minimum and educational tasks”; - correspondence of the role to the students’ experience; - the presence of moral potential in the role; - the presence of socio-cultural content in role texts;

#### REFERENCES

1. Агафонова Э.А. К вопросу о применении метода Сасе-студй и использовании Интернет-ресурсов как активнйкх методов обученияа иностранному иазйку в технйческом вузе. Молодой ученый, 2011, но. 6, вол. 2, с. 114-116.
2. Ариян М.А. Ролевое обшчение как фактор сотсиального развитияа личности. Иностранне иазйки в школе, 2011, но. 7, с. 13-18.
3. Баклашкина М. В. Обучение иноиазйчному мезхличностному обшчениюу на занятииакх по иностранному иазйку в школе и в вузе. Иностранне иазйки в школе, 2009, но. 3, с. 9-16.
4. Долгоруков А.М. Практикум по обшчей сотсиологии [Прастисал ресоммендационс он генерал сосиологй]. Под редактсиеи Н.И.Лапина. Моссow, Вйсшаиа школа Публ., 2006. 296 с.
5. Даминова С.О. Сферй, темй и ситуатсии иноиазйчного обшченияа как компонентй содерзханияа обученияа бакалавров и магистров в системе вйсшего образованияа. Иностранне иазйки в школе, 2011, но. 6, с. 88-94.
6. Гальскова Н.Д., Тарева Э.Г. Тсенности современного мира глобализатсии и мезхкультурное образование как тсенность. Иностранне иазйки в школе, 2012, но. 1, с. 3-11.
7. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теорияа обученияа иностраннйим иазйкам. Лингводидактика и методика: учеб: пособие. Моссow, Академияа, 2006. 336 с.
8. Ильязова М.Д., Курпешева А.И. Иноиазйчнаиа коммуникативнаиа компетентность инзженера: сушность, структура, формирование в протсессе самостоиательной работй: Методические указанияа для студентов технйческйкх спетсиальностей. Астракхан, Изд-во АГТУ, 2012. 32 с.

## **EPISTEMOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIM SIFATINI TA'MINLOVCHI OMILLAR VA PEDAGOGIK SHAROT-SHAROITLAR**

Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi

“University of economics and pedagogy”, NOTM katta o‘qituvchisi  
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Аннотация: mazkur maqolada oliy ta'lim sifatini ta'minlash – dolzarb pedagogik muammo ekanligi, oliy ta'limning maqsadli funksiyalari va samaradorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplari, shuningdek, bo'lajak pedagog shaxsini rivojlantirishda malakaga va sifatga yo'naltirilgan tavsiflar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim maqsadi, samaradorlik, ta'lim sifati, boshqaruv, nazorat, kadrlar salohiyati, modernizatsiya, ilmiy-tadqiqot, tajriba.

## **ФАКТОРЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

Сатимбоева Хуршидахон Анваржонова

Старший преподаватель «Университета экономики и педагогики»  
Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье речь пойдет о том, что обеспечение качества высшего образования является актуальной педагогической проблемой, о целевых функциях и принципах высшего образования, направленных на обеспечение эффективности, а также о характеристиках, ориентированных на компетентность и качество в развитии личности будущего педагога.

Ключевые слова: высшее образование, цель образования, эффективность, качество образования, управление, контроль, кадровый потенциал, модернизация, НИОКР, опыт.

## **FACTORS AND PEDAGOGICAL CONDITIONS ENSURING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION BASED ON THE EPISTEMOLOGICAL APPROACH**

Satimboyeva Khurshidakhon Anvarjon qizi

Senior Lecturer at the «University of Economics and Pedagogy»  
Independent Researcher at Andijan State Pedagogical Institute

Annotation: this article will talk about the fact that ensuring the quality of higher education is an urgent pedagogical problem, about the targeted functions of higher education and the principles aimed at ensuring efficiency, as well as about competency and quality – oriented descriptions in the development of the personality of the future educator.

Key words: higher education, educational purpose, efficiency, quality of education, management, control, personnel potential, modernization, research, experience.

KIRISH. Bugun jamiyatimizda oliy ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish, shakllantirish hamda amaliyotga tadbiiq qilish – davlat ta'limi siyosati, malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim sifati ustuvorligi ta'lim siyosatining yadrosi sifatida oliy ta'lim muassasidan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb qilib qo'yadi.

Bo'lajak pedagoglarning har tomonlama rivojlanishi, unda «komil inson» asoslarini

shakllanishi va yuzaga kelish davri – noyob davr deb belgilanganligi tufayli oliy pedagogik ta'lim, ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Sifat darajasini e'tirof etish va uni hayotning barcha sohalariga, jumladan, ayniqsa inson va jamiyat bo'lg'usi hayotiy faoliyatining qiyofasini belgilovchi va shakllantiruvchi ta'lim sohasiga singdirish inson hamjamiyatining zamonaviy taraqqiyotiga xosdir. Shu nuqtai nazardan ta'lim «madaniyatli inson» yoki sivilizatsiya va aynan jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichida ijtimoiy-madaniy me'yorlarga javob beruvchi inson shakllanishini umummadaniy qadriyat sifatida gavdalantiradi. Shu jihatdan ta'limni «kvalitetizatsiya» (lotincha quality - sifati) bo'lg'usi, zamonaning muhim ijtimoiy jarayonlari dinamikasini, shu jumladan, shaxs rivojlanishi ustuvorligiga sabab bo'luvchi zarurat, jamiyatning «barqaror rivojlanishi» modeliga o'tish jarayonini ta'minlashga qodir insonni shakllantirishni yuzaga keltiruvchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta'limning hamda bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanish, uning intellektual salohiyatini oshishi, jamiyatning gullab yashnashi va taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlar ekan, shunday deydi "...Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir". Ingliz pedagog olimi G.Spenser, A.V.Petrovskiy, Ya.A.Komenskiylarning ilmiy meroslaridan ham ko'rishimiz mumkinki, oliy ta'lim sharoitida ta'lim sifati va samaradorligini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning bazaviy komponentlarini boyitish dolzarb masalalardan biridir.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI:** Epistemologik yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalash jarayonida quyidagi vazifalar ustuvor sanaladi:

- Oliy ta'limning ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishishida takomillashgan usul va vositalarini tanlash hamda ularni amalga oshirishning ilmiy-asoslangan mexanizmini yaratish;
- oliy pedagogik ta'limda talabalarining sifatli ta'lim olishiga ehtiyoji va kutilayotgan natijani, talablarni qondirish uchun sharoit yaratish, amaliyotning real holatini aniqlash;
- ta'lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda oliy ta'lim muassasalari rahbarlarining sifatni tizimli boshqara olishini yo'lga qo'yish;
- oliy pedagogik ta'limda ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda oliy ta'lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega bo'lgan potensialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;
- ta'lim sifatini obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarini yetarlicha ishlab chiqish lozim.

Biz talabalar bilan olib borgan pedagogik faoliyatimizda epistemologik yondashuvdan foydalanib, oliy pedagogik ta'limda ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiritiladi degan tavsiyalarni ilgari surish kerak degan xulosaga keldik:

- barcha eng ahamiyatli, ustuvor yo'llar orqali talabalarining to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;
- ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o'ziga xos talabalar faoliyatlarining o'zaro bog'liqligiga, ular dunyoqarashi rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;
- ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganlik prinsipi;
- talabalar tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy «o'zlashtirishni» ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini «ishga solishni» nazarda tutadi;

□ nazariya va amaliyotning birligi prinsipi.

Ta'lim jarayonini sifatli tashkil etilishiga yuqorida sanab o'tilgan prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonining sifati – ta'lim mazmunining, shakl va usullarining, undagi ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi.

Natijalarning sifati esa bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, oliy ta'lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim ta'minlaydigan ta'limning sifat holati doimiy hisoblanmaydi: u yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga qarab o'zgaradi. Tashqi va ichki omillardan kelib chiquvchi tashqi va ichki hamjihatlik ularning paydo bo'lishining manbai hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim sifati jarayon va natijaning, haqiqiy va potensial, ichki va tashqi sifatning birligi sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR oliy ta'lim sifati, albatta natija bilan bog'liq. Pedagog shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan talabalar quyidagi shaxsiy natijalarni qay darajada egallaganligiga, malakaga ega bo'lganlik haqida so'z yuritish mumkin:

□ til malakasi – bo'lajak pedagogning o'z fikrlari, istaklari va niyatlarini nutq vositasida va noverbal erkin ifodalashini nazarda tutadi;

□ ijtimoiy malaka – har bir insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o'ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o'zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o'z ichiga oladi;

□ intellektual malaka – o'z maqsadiga erishish uchun talabalarga yangi bilimlarni o'rganishga va ularni amaliyotga tatbiq etishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;

□ jismoniy malaka – talabalarining bajara olish darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallaganligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim – talabalar ta'limiga davlat va jamiyat talablarini aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma beradigan maqsadlar tizimining markaziy sifat hosil qiluvchi tashqi omili hisoblanadi. Bunday maqsadlar hamisha jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy andozalar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, malakalilik, mustaqillik, erkinlik va mas'uliyat, tabiat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish mahorati, hayotning yangi sifatini yaratish maqsadida madaniy-tarixiy makonni faol, ijodiy o'zlashtirish layoqati uning o'ziga xos tavsiflari hisoblanadi. Bizningcha, sifatga yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma aynan shunday asosiy tavsiflarga ega shaxsni shakllantirishni nazarda tutishi kerak. Bu borada pedagog shaxsida quyidagi sifatga yo'naltirilgan tavsiflar muhim rol o'ynaydi:

1) ixtiyoriylik. talaba tomonidan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'z xatti-harakatini boshqarish ko'nikmasida namoyon bo'ladi;

2) mustaqillik. Kundalik hayotda va ishda paydo bo'ladigan turli vazifalarni talaba tomonidan jamiyatdagi shaxslarning yordamisiz mustaqil kun tartibiga qo'yish va hal qilishni ta'minlaydi;

3) mas'uliyat. “Mumkin” va “mumkin emas”, “yaxshi” va “yomon”, “xohlayman” va “kerak” o'rtasida tanlov vaziyatida paydo bo'ladi;

4) tashabbuskorlik. Bo'lajak pedagoglarning o'z istaklariga javob beruvchi ta'lim jarayonlarini, samarali faoliyat turlarini tashkil etishga urinishda va ularga o'z tengdoshlarini jalb qilish mahoratida ifodalanadi;

5) ijodkorlik. Ish jarayonida paydo bo'ladigan hamda o'z originalligi va variativligi bilan ajralib turuvchi yangi mahsulot yaratishda namoyon bo'ladigan turli muammolarni ijodiy hal qilishga bolaning layoqatini ko'rsatadi;

6) xatti-harakat erkinligi. talabning ijtimoiy qabul qilingan qoidalar va taqiqlarga rioya qilishini taqozo etuvchi harakat va faoliyat yo'nalishi, ular o'rtasida quyidagi to'rttasi eng muhim hisoblanadi: o'zgaga, o'zingga, tabiatga, boshqa odamlar yaratgan ijod mahsulotlariga ziyon yetkazma;

7) xavfsizlik. talabada o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini his qilish va ko'ra bilish layoqati borligi bilan tavsiflanadi, bu unda me'yor, ehtiyotkorlik tuyg'ularining shakllanishi bilan bog'liq;

8) o'z-o'zini anglash va o'zini baholash. Bo'lajak pedagog o'z timsolini shakllantirishda, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda o'z o'rnini anglashda, o'z imkoniyatlarini baholashda, hali ko'p o'qish kerakhgini tushunishda namoyon bo'ladi.

XULOSA Biz yuqorida olib borgan tadqiqotimiz natijasida epistemologik yondashuv asosida oliy ta'lim sifatini ta'minlovchi omillar va pedagogik sharoit-sharoitlarni bugunning dolzarb muammosi ekanligini quyidagi fikrimiz bilan izohlashga harakat qildik.

Oliy ta'lim sifatiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillariga ijtimoiy buyurtma maqsadlaridan kelib chiqib, oliy pedagogik ta'limga davlat me'yori (talablari), shuningdek, oliy ta'limda talabalarga ta'lim berish uchun zarur bo'lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hokozo) ham kiradi.

Pedagogik jamoa tomonidan oliy ta'lim sifatini oshirishda ichki omillar sirasiga kiradi.

Oliy ta'limning sifatini oshirishda bir qator omillar ta'sir ko'rsatib, ulardan eng muhimlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagoglar va rahbarlarning kasbiy malakasi;
- ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish usullari;
- pedagoglarning talabalar bilan o'zaro hamkorligidagi xilma-xillik;
- talabalar o'quv faoliyatini samarali tashkil etish;
- dasturlar, uslublar, moddiy resurslar;
- ta'lim jarayonini ruhiy qo'llab-quvatlash;
- ijtimoiy tuzilmalarning tashkilot pedagogik jamoasi bilan o'zaro aloqasi;
- oliy ta'lim muhitini maqsadli va rejali boshqarish.

Oliy ta'lim sifatini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda pedagogik sharoitlarida, muhit alohida ahamiyatga egadir. Ular quyidagilardan iborat:

- talabalarga o'z qadrini saqlashga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;
- ta'lim sifatiga jamoaning qat'iy qadriyat tarzidagi munosabati;
- jamoadagi ijobiy-ma'naviy muhit;
- pedagogik jamoa va rahbar faoliyatining istiqbolli yo'nalganligi;
- ta'lim dasturlari va texnologiyalarini savodli tanlash erkinligining mavjudligi;
- zarur mehnat sharoitlarining mavjudligi;
- oliy ta'limda innovatsion tizimlar bankini yaratish;
- ta'lim jarayonining holatini muntazam jamoada muhokama qilishni tashkil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Pedagogik sharoitlar va omillar o'rtasida o'zaro uzviylik mavjud. Sharoitlar omillarning imkoniyatlari paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli oliy ta'limning sifatini oshirish omillari va sharoitlarining garmonik uyg'unligini ta'minlash o'ta muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston . Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI

2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 23.09.2020

3. Артикова М.Б. Предпринимательство Как Интеграция Школы И Вуза В Условиях Инновационного Общества Знаний.

---

**WORKS IMPLEMENTED IN THE REFORM OF SCHOOL EDUCATION ON  
THE SUBJECT ORGANIZATION OF THE LEISURE TIMES OF STUDENTS AND  
YOUTHS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS**

*(in the case of Kashkadarya region)*

*Sadikova Yulduzkhon ,  
University of Economics and Pedagogy  
graduate student, Karshi*

---

*Abstrakt: In this article, in the reform of school education in Uzbekistan during the years of independence, the activities carried out in connection with the meaningful organization of free time of students and youth, their orientation to the profession and within the framework of five initiatives and supporting students and youth - the reforms being carried out in the field of support were historically analyzed on the example of Kashkadarya region, and the necessary suggestions and recommendations were given.*

*Key words: school, education, law, decision, five initiatives, profession, students-youth, graduate, reform, qualifications, skills, schools of the next generation.*

**РАБОТЫ, РЕАЛИЗОВАННЫЕ В РЕФОРМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
ПО ПРЕДМЕТУ ОРГАНИЗАЦИЯ ДОСУГА УЧАЩИХСЯ И МОЛОДЕЖИ:  
ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

*(в случае Кашкадарьинской области)*

*Садыкова Юлдузхана Махаматовна.  
Университет экономики и педагогики  
магистрант, Карши*

---

*Аннотация: В данной статье в реформе школьного образования в Узбекистане в годы независимости проводятся мероприятия в связи со значимой организацией свободного времени учащихся и молодежи, их ориентацией на профессию и в рамках пяти инициатив. и поддержка студентов и молодежи – на примере Кашкадарьинской области исторически проанализированы реформы, проводимые в сфере поддержки, и даны необходимые предложения и рекомендации.*

*Ключевые слова: школа, образование, закон, решение, пять инициатив, профессия, учащаяся молодежь, выпускник, реформа, квалификация, навыки, школы следующего поколения.*

**MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHIDA O'QUVCHI-YOSHLARNING  
BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH YUZASIDAN AMALGA  
OSHIRILGAN ISHLAR: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR**

*(Qashqadaryo viloyati misolida)*

*Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
magistranti, Qarshi*

---

*Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda maktab ta'limini isloh qilinishida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, ularni kasbga yo'naltirish va besh tashabbus doirasida hamda o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar Qashqadaryo viloyati misolida tarixiy tahlil etilgan hamda kerakli taklif va tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: maktab, ta'lim, qonun, qaror, besh tashabbus, kasb, o'quvchi-yoshlar,*

*bitiruvchi, islohot, malaka, ko'nikma, barkamol avlod maktablari .*

Kirish. Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxtsaodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda, xususan Qashqadaryo viloyatida maktab ta'limini isloh qilinishida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, ularni kasbga yo'naltirish va besh tashabbus doirasida hamda o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga egadir [1; 91-b].

O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O'quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan ehg muhim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda asosiy vazifalari bo'lmish ilm olishga ishtiyoq uyg'otish, qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir[2; 43-b].

Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo'lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olb kiradi. Yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonajon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash hissini tarkib toptirish vatanparvarlik tarbiyasining mag'zi bo'lmog'i lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bizga o'tmishdan ma'lumki, ota-bobolarimiz yosh avlodni tarbiyalashda kitob o'qish, sport turlarini keng targ'ib etish orqali yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishda xayotiy ehtiyoj sifatida foydalanishgan. Xalqimiz ichida epchillik, aqliy, ijodiy va irodaviy fazilatlarini o'zlarida mujassam etgan kishilar ko'p bo'lganligi buyuk allomalarimiz asarlarida o'z aksini topgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, o'zbek xalqi milliy sport musobaqalari, xususan shaxmat o'yinini insonni jismoniy tarbiyalash vositasi deb qarashgan. Xalq o'zida kuchlilikni, chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning axloqiy softligini mujassamlashtirgan milliy sport o'yinlariga hurmat bilan munosabatda bo'lgan [3; 13-b]. Oilaviy bayramlarda, ishdan bo'sh vaqtlarda, milliy sport musobaqalari o'tkazilgan. Bu musobaqalar ayniqsa Navro'z bayrami kunlari keng avj olgan. Buyuk allomalarimiz, yozuvchi va olimlarimizdan Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarida kuchli milliy musobaqalar, sport bellashuvlari tasvirlangan hamda ba'zi usullarning ta'rifi keltirilgan. Ushbu asarlardan ko'rinib turibdiki, o'zbeklarda usullar tizimi yetarlicha rivojlangan milliy sport musobaqalari mavjud bo'lgan. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida (M.Muhiddinov, R.Evqae, A.Toshxo'jaev, Yu.Ergasheva, N.Sharopova) yoritib berilgan [4; 103-b]. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidaga umumiy o'rta ta'lim maktablari yuzasida tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Nigora Sharopova ayniqsa samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib brogan [5,6,7].

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga doir belgilab bergan besh tashabbuslari ham mamlakatimiz rivojiga kata ta'sir

ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu yig'ilishda ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ta'kidlandi [8; 89-b].

Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala ekanligi Prezidentimiz tomonlaridan mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga vazifa qilib yuklandi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi.

2024 yil 1 sentabr holatida Qashqadaryo viloyatida jami 1230 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib ularda jami 669 439 nafar o'quvchi – yoshlar ta'lim olmoqda. Bugungi kundagi maktablarning sig'imi jami 550338 nafar o'quvchi-yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, hozirda viloyatda maktablarda o'quvchi-yoshlar 1.2 koeffitsientda ta'lim olmoqdalar. Qarshi shahrida 49 ta, Shahrisabz shahrida 25 ta, G'uzor tumanida 84 ta, Dehqonobod tumanida 105 ta, Qamashi tumanida 100 ta, Qarshi tumanida 70 ta, Kasbi tumanida 61 ta, Kitob tumanida 97 ta, Koson tumanida 102 ta, Ko'kdala tumanida 99 ta, Mirishkor tumanida 43 ta, Muborak tumanida 34 ta, Nishon tumani 47 ta, Chiroqchi tumanida 125 ta, Shahrisabz tumanida 86 ta va Yakkabog' tumanida 103 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritmoqda [9; 35].

Qashqadaryo viloyatida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 2024 yil 1 dekabr holatida jami 23686 ta to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ushbu to'garaklarga jalb qilingan jami o'quvchi-yoshlar soni 481932 nafarni tashkil etadi. Tashkil etilgan to'garaklardan 16517 tasi fan to'garaklari bo'lib, unda jami 284805 nafar o'quvchi-yoshlar qamrab olindi. Tashkil etilgan to'garaklardan, 7300 tasi sport to'garaklari bo'lib, unda jami 128308 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etilgan. Jami san'at yo'nalishidagi to'garaklar soni 1267 tani tashkil etib, unda jami 23142 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etilgan.

Qashqadaryo viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi jami 16 ta 1 ta viloyatda, 15 ta tuman (shahar)da "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyat olib bormoqda. Mazkur markazlardagi 11383 nafar o'quvchi-yoshlarga jami 499 nafar pedagog xodimlar turli xil to'garaklardan ta'lim berib kelmoqdalar. "Barkamol avlod" bolalar maktablarida jami 487 ta to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ularda jami 13584 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etilgan.

7-11 sinf o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida "kasbga o'rgatish tizimi" joriy etilmoqda. Qashqadaryo viloyatida 1230 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib ularda jami 669 439 nafar o'quvchi – yoshlar ta'lim olayotga bo'lsa, jami 738 ta maktablarda jami 934 ta kasbga yo'naltirish xonalari tashkil etilgan, shuningdek mazkur maktablarda 967 ta kasbga yo'naltirish burchaklari tashkil etilgan.

Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rni axborot-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnika yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud [10; 8-b].

Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Va har

qaysi inson Oloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasi, millati va xalqi, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'atva samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Shundayekan, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish boshg'oya, shu g'oyaning yetakchi targ'ibotchisi, tarbiyachisi o'qituvchi hisoblanadi. Erkin fuqarolik, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ta'lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil — bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur [11; 102-b]. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil in-sonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasida komil inson taqdiri turibdi. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyatishundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib ji'oslashtiradi [12; 19-b]. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Ma'naviyati yuksak shaxslar yurti tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim-tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Ma'naviy barkamollik, hayot qonuni ilmini idrok etish — demakdir. Ilmning har qanday ko'rinishi esa ta'lim-tarbiya orqali ustoz-muallimlar boshchiligida beriladi. Ushbu ma'noda umumta'lim maktablari mazkur masalani hal qilishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan muhim masala umuminsoniy va milliy qadryatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Xalqimizda shunday naql bor yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir. Misol uchun bir niholni yerga ekib unga vaqtda parvarish berib begana o'tlardan tozalanmasa u nihol nozik va qiyshiq bo'lib rivojlanadi va kutilgan natijani bermaydi. Huddi shunday yoshlarni ham bo'sh vaqtini qanday ishlarga sarflayotganini o'rganib ularni to'g'ri yo'lga solmasak kelajagimizni buyuk qila olmaymiz. Bu yo'lda millatimizning yorqin namoyondalarini o'zimizga o'rnak bilib harakat qimo'g'imiz darkor [13; 89-b].

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Besh tashabbus o'z ichiga sport, musiqa, kitobxonlik, xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu ishlar Qashqadaryo viloyatida ham davom ettirilib, «Ma'rifat karvoni» tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Ota-onalar o'z farzandlarini oilasidan uzoq vaqtda qanday ishlar bilan

bantligini o'rganib borishlari shart [14; 89-b].

Chunki yosh avlodni o'z holicha qarovsiz tashlab bo'lmaydi. Bundan tashqari oila boshliqlari o'z farzandlarini qiziqishlarini to'g'ri baholab o'z yo'llarini tanlashlarida ko'maklashishlari kerak. Bugungi kunda oilada ota ham ona ham o'z yumushlari bilan band bo'lib farzand tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajratishmayapti. Bu esa farzan xaqqiga hiyonat sanaladi. Bunga misol qilib, yoshlarimizning telefon va onlayn o'yinlarga bog'lanib qolishayotganini aytishimiz mumkin. Farzandi bo'sh vaqtida nima ish qilayapti, kimlarga do'st tutunyapti, kimlarni o'ziga idealidagi inson deb qarayotgani kattalarni qiziqitirmayapti. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek telefandan qanday foydalanish kerak, uning vazifasi nima, yoshlarimizning kompyuter savodxonligini oshirish va internet saytlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqad-das.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O'zbekiston, 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqid tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. /Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil yanvar; 11-son.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Hujjatlar to'plami. 2017 yil, 6-son, 76-modda

4. Sharopova Nigora Akbarovna, Measures to incentive teachers in the southern regions during the years of independence. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 4, Issue 4 (2024) P. 211-217

5. Sharopova Nigora Akbarovna, Повышение квалификации учителей южных регионов в годы независимости. ХОРАЗМ МА'МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ –10/3-2024. В.109-111.

6. Sharopova Nigora Akbarovna, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS. Oriental Journal of History, Politics and Law, 4(01), 60–66.

7. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024. // www.stat.uz

8. Mirziyoyev Sh.M “Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” “O'zbekiston”. 2017

9. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova “Pedagogik mahorat” O'quv qo'llanma. T.Fan va texnologiya. 2012 yil

10. S.Nishonova.M.Imomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. Do'stlik T.O'qituvchi 1996 yil.

11. M.Ochilov Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma. T.O'qituvchi. 2004 yil.

12. Pedagogy and Practice. Teaching and Learning in Secondary Scholls.

13. Michael Uljens. School didactics and Learning: A School Didaktik Model Freaning and Analises of Pedagogical impilicftions of Learning Theory. 2008-y.

14. John Dovey. How we think.(1910) Martin Jay. The education of John Dowey (2003) Columbia University Press Gultek Gerald L.(2009) New Perspectives on Philisophy and education Pearson Education Inc.

## MAKTABLAR UCHUN EKOLOGIYAGA OID O'QUV DASTURLARIGA ANIMATSION KONTENTLARNI ISHLAB CHIQISH USULLARI

Sulaymonova Saodat Usubxonovna  
Namangan davlat pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi

*Annotatsiya: Animatsiya maktablarda ekologik ta'limni kuchaytirish, o'quvchilarni ekologik tushunchalarni hayotga tatbiq etuvchi vizual va interaktiv kontent bilan jalb qilishda samarali vosita ekanligini isbotladi. Ushbu maqola maktablarda ekologik ta'lim dasturlari uchun maxsus ishlab chiqilgan animatsion kontentni ishlab chiqishning turli usullarini o'rganadi. U rejalashtirish va tarkibni yaratishning dastlabki bosqichlaridan boshlab hikoyalar, interaktivlik va yoshga mos dizaynlarni o'z ichiga olgan asosiy usullarni muhokama qiladi. Asosiy e'tibor animatsion kontentning nafaqat ta'lim maqsadlariga mos kelishi, balki o'quvchilarning qiziqishlariga ham mos kelishi va ekologik muammolarni chuqurroq anglashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu usullarni qo'llash orqali o'qituvchilar va kontent yaratuvchilari atrof-muhit haqida o'rganishni yoqimli va ta'sirli qiladigan animatsiyalarni loyihalashlari mumkin.*

*Kalit so'zlar: Animatsion kontent, o'quv animatsiyasi, hikoya, vizual dizayn, interfaol ta'lim, ekologik tushunchalar, kontentni rivojlantirish.*

## МЕТОДЫ РАЗРАБОТКИ МУЛЬТИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ШКОЛ

Сулайманова Саодат Усубхановна  
Старший преподаватель Наманганский государственный педагогический институт

*Аннотация: Анимация оказалась эффективным инструментом улучшения экологического образования в школах, привлекая учащихся визуальным и интерактивным контентом, который воплощает в жизнь экологические концепции. В этой статье исследуются различные способы разработки анимированного контента, специально предназначенного для программ экологического образования в школах. Он обсуждает ключевые методы ранних этапов планирования и создания контента, включая рассказывание историй, интерактивность и дизайн, соответствующий возрасту. Основное внимание уделяется обеспечению того, чтобы анимационный контент не только отвечал образовательным целям, но также отвечал интересам учащихся и углублял их понимание экологических проблем. Используя эти методы, преподаватели и создатели контента могут создавать анимацию, которая сделает изучение окружающей среды приятным и увлекательным.*

*Ключевые слова: анимационный контент, образовательная анимация, сюжет, визуальный дизайн, интерактивное обучение, экологические концепции, разработка контента.*

## METHODS OF DEVELOPING ANIMATED CONTENTS FOR ENVIRONMENTAL CURRICULUM FOR SCHOOLS.

Sulaymonova Saodat Usubxonovna  
Senior teacher of Namangan State Pedagogical Institute

*Abstract: Animation has proven to be an effective tool for enhancing environmental education in schools, engaging students with visual and interactive content that brings environmental concepts to life. This article explores different ways to develop animated content specifically*

*designed for environmental education programs in schools. He discusses key techniques from the early stages of planning and content creation, including storytelling, interactivity, and age-appropriate designs. The focus is on ensuring that animated content not only meets educational goals, but also meets students' interests and deepens their understanding of environmental issues. By using these techniques, teachers and content creators can design animations that make learning about the environment enjoyable and engaging.*

*Keywords: Animated content, educational animation, story, visual design, interactive learning, environmental concepts, content development.*

Kirish. Ekologik ta'lim o'quvchilar o'rtasida xabardorlikni oshirish va barqaror amaliyotni targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi raqamli asrda animatsion kontent, ayniqsa, murakkab ekologik tushunchalar bilan shug'ullanganda, ta'lim xabarlarini yetkazib berish uchun kuchli vositaga aylandi. Maktablarda ekologik ta'lim dasturlari uchun samarali animatsion kontentni ishlab chiqish ham ta'lim ahamiyatini, ham o'quvchilarning faolligini ta'minlaydigan tizimli yondashuvni talab qiladi.[1] Ushbu maqolada maktab sharoitida atrof-muhitni o'rganishni qo'llab-quvvatlaydigan animatsion kontent yaratishning asosiy usullari ko'rsatilgan.

1-usul: Ta'lim maqsadlarini rejalashtirish va belgilash. Ekologik ta'lim uchun animatsion kontentni ishlab chiqishning birinchi bosqichi ta'lim maqsadlarini aniq belgilashdir. Animatsiyaning aniq maqsadlarini tushunish kontent yaratish jarayonini boshqarishga yordam beradi va uning o'quv rejasi va o'quv natijalariga mos kelishini ta'minlaydi.

Ta'lim natijalarini aniqlash: O'quvchilar animatsiyadan nimani o'rganishi kerakligini aniq belgilang. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini tushunish, biologik xilma-xillikning ahamiyati yoki barqaror amaliyotlar bo'ladimi, o'quv maqsadlari to'plamiga ega bo'lish kontentni diqqatni jamlashga yordam beradi.

Maqsadli auditoriya tahlili: O'quvchilarning yosh guruhini va ta'lim darajasini hisobga oling. Mazmuni yoshga mos ravishda moslashtirish uning o'quvchilarning bilish qobiliyati va qiziqishlariga mos kelishini ta'minlaydi, o'quv jarayonini samaraliroq qiladi.

2-usul: Senariy yozish va hikoyalar taxtasi. Senariy yozish va syujetlar syujeti animatsiya oqimini tashkil qilish va hikoyaning qiziqarli va ma'lumotli bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.[2] Yaxshi tuzilgan skript va hikoyalar taxtasi butun animatsiya ketma-ketligini tasavvur qilish va ta'kidlash uchun asosiy fikrlarni aniqlashga yordam beradi.

Jozibali skript yaratish: Senariy atrof-muhit faktlarini qiziqarli hikoya elementlari bilan birlashtirishi kerak. O'quvchilar uchun tushunarli va tushunarli tildan foydalaning, shu bilan birga kerak bo'lganda ilmiy atamalarni kiriting.[3]

Vizual hikoyalar taxtasini ishlab chiqish: Storyboard animatsiyaning vizual rejasi sifatida ishlaydi va har bir sahna qanday rivojlanishini ko'rsatadi. U voqealar, dialoglar, personajlar harakati va o'tishlar ketma-ketligini ko'rsatib, vizual hikoyaning ssenariyga mos kelishini ta'minlaydi.

3-usul: Vizual elementlar va belgilarni loyihalash. Vizual dizayn o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ekologik tushunchalarni esda qolarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Dizayn elementlari jonli, jozibali va muhokama qilinadigan atrof-muhit mavzularini aks ettiruvchi bo'lishi kerak.

Belgilar dizayni: O'quvchilarni animatsiya orqali boshqaradigan o'zaro bog'liq va jozibali belgilar yarating. Bu qahramonlar tabiatning, hayvonlarning timsollangan elementlari yoki ekologik jarayonlarni tushuntirishga yordam beradigan va ijobiy ekologik harakatlarni rag'batlantirishga yordam beradigan badiiy qo'llanmalar bo'lishi mumkin.

Rang va tasvirlardan foydalanish: Atrof-muhit mavzusini mustahkamlash uchun tabiat bilan bog'liq ranglar, masalan, yashil, ko'k va tuproq ohanglaridan foydalaning. O'rmonlar,

okeanlar va ifloslanishdan zarar ko'rgan shaharlar kabi ekologik sharoitlarni aniq tasvirlaydigan vizual tasvirlarni qo'shing.

4-usul: Interaktiv elementlarni birlashtirish. Interaktiv elementlar jonlantirilgan tarkibni yanada jozibador qiladi va faol o'rganishni rag'batlantiradi. O'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish orqali animatsiyalar ularning atrof-muhit haqidagi tushunchalarini yaxshilaydigan amaliy tajribani ta'minlaydi.

Interaktiv viktorinalar va topshiriqlar: Animatsiyaga o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'radigan viktorina va testlarni qo'shing. Bu kabi interaktiv elementlar o'quvchilarni ko'rganlarini eslab qolishga va amalda qo'llashga undash orqali o'rganishni kuchaytirishga yordam beradi.[4]

O'zingizning sarguzasht uslubingizni tanlang: O'quvchilarga animatsiya ichida hikoya chizig'iga ta'sir qiladigan qarorlar qabul qilishlariga ruxsat bering. Ushbu yondashuv turli xil atrof-muhit ta'sirining ta'sirini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin, masalan, qayta ishlash va ifloslanish ta'siri.

5-usul: Ilmiy aniqlik va ishonchlilikni ta'minlash. Animatsiyaning tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolish uchun barcha tarkibni to'g'ri va dolzarb ilmiy ma'lumotlarga asoslash zarur.[5] Talabalarga murakkab ekologik masalalarni o'rgatishda ishonchlilik muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhit bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashish: Ekologlar, atrof-muhit bo'yicha olimlar va o'qituvchilar bilan hamkorlik qiling va mazmun haqiqatga mos kelishi va eng so'nggi ilmiy tadqiqotlar bilan mos kelishiga ishonch hosil qiling. To'g'ri tarkib o'quvchilar va o'qituvchilarda ishonchni mustahkamlaydi.

Ishonchli manbalarga murojaat qilish: Animatsiyaga kiritilgan har qanday ma'lumot yoki statistika nufuzli manbalardan keltirilishi kerak. Tadqiqotlar va ilmiy maqolalarga havolalar berish talabalarni ushbu mavzularni yanada chuqurroq o'rganishga undashi mumkin.

6-usul: Sinov va fikr-mulohaza. Animatsion tarkibni yakunlashdan oldin, uning samaradorligi va jozibadorligi haqida fikr-mulohazalarni yig'ish uchun uni o'quvchilar yoki o'qituvchilarning namunaviy guruhi bilan sinab ko'rish juda muhimdir. Bu takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi va kontentning ta'lim standartlariga mos kelishini ta'minlaydi.

O'quvchilar bilan tajriba sinovi: O'quvchilarning kichik guruhi bilan ularning reaksiyalari va faollik darajasini kuzatish uchun animatsiyani sinovdan o'tkazing. Qaysi elementlar ular bilan rezonanslashayotganiga e'tibor bering va qaysi qismlar aniqlik yoki qiziqish uchun sozlanishi kerak.

O'qituvchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish: Animatsiya maktab o'quv dasturi va o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlash uchun o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi mutaxassislardan maslahat so'rang. Tarbiyaviy ta'sirni maksimal darajada oshirish uchun tarkibni takomillashtirishda o'qituvchilarning fikr-mulohazalari bebahodir.[6]

7-usul: Tarkibni baholash va yangilash. Atrof-muhit mavzulari doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, yangi ma'lumotlar va global o'zgarishlar ushbu muammolarni tushunish uslubiga ta'sir qiladi. Muntazam ravishda animatsion tarkibni ko'rib chiqish va yangilash muhim, bu uning dolzarbligini ta'minlaydi.

Doimiy takomillashtirish: O'quvchilar va o'qituvchilarning fikr-mulohazalariga asoslanib, animatsiyani doimiy ravishda eng so'nggi ekologik tendentsiyalar, tadqiqot natijalari va ta'limga oid yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda yangilab turing. Kontentni dolzarb saqlash uning tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolishga yordam beradi.[7]

Yangi texnologiyalarga moslashish: Yangi animatsiya vositalari va platformalari paydo bo'lganda, uning sifati va faolligini oshirish uchun ushbu yutuqlarni tarkibga kiritishni o'ylab ko'ring. Virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqatdagi innovatsiyalar ham chuqur o'rganish tajribasi uchun o'rganilishi mumkin.

Xulosa. Maktablarda ekologik ta'lim dasturlari uchun animatsion kontentni ishlab chiqish

ijodkorlikni ta'lim tamoyillari bilan birlashtirgan strategik yondashuvni talab qiladi. Hikoya, vizual dizayn, interaktivlik, ilmiy aniqlik va uzluksiz fikr-mulohazalarga e'tibor qaratgan holda, kontent yaratuvchilar nafaqat o'qitadigan, balki o'quvchilarni atrof-muhit uchun harakat qilishga ilhomlantiradigan animatsiyalarni yaratishi mumkin.[8] Ushbu usullar animatsiyalarning qiziqarli, ma'lumotli va ta'lim maqsadlariga mos kelishini ta'minlaydi va ularni kelajak avlodning ekologik ongini shakllantirishda kuchli vositaga aylantiradi. Animatsion kontentdan foydalanish orqali o'qituvchilar murakkab ekologik tushunchalarni yosh onglarga mos keladigan tushunarli va o'zaro bog'liq darslarga aylantirishlari mumkin. Barqarorlikka e'tibor kuchaygani sari, bunday animatsiyalar talabalar o'rtasida ekologik mas'uliyat madaniyatini tarbiyalashda, ularni sayyoramizning kelajak boshqaruvchilari bo'lish uchun tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Kaushal R. K., Panda S. N. Effective Teaching Methods and Proposed Web Libraries for Designing Animated Course Content: A Review //International Journal of Advanced Computer Science and Applications. – 2016. – T. 7. – №. 2.
2. Mou T. Y., Jeng T. S., Chen C. H. From storyboard to story: Animation content development //Educational Research and Reviews. – 2013. – T. 8. – №. 13. – C. 1032.
3. Nurani A. S., Mahmudatussa'adah A., Muktiarni M. Developing animated video for maincourse learning //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2021. – T. 1098. – №. 4. – C. 042095.
4. Ali A., Pat S. C. Development of 3D Animated Video Application for Computer Evolution //Research and Innovation in Technical and Vocational Education and Training. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 28-39.
5. Rohendi D. Developing e-learning based on animation content for improving mathematical connection abilities in high school students //International Journal of Computer Science Issues (IJCSI). – 2012. – T. 9. – №. 4. – C. 1.
6. Widiyanto S. R. et al. Developing Learning Material for Animation 2D Instruction in Vocational High Schools //Jurnal Mantik. – 2022. – T. 6. – №. 3. – C. 3446-3452.
7. Angendari M. D., Mayuni P. A. The Development of Learning Media Video Animated Basic Patterns of Practical System Body //IConVET 2021: Proceedings of the 4th International Conference on Vocational Education and Technology, IConVET 2021, 27 November 2021, Singaraja, Bali, Indonesia. – European Alliance for Innovation, 2022. – C. 177.

## KURASHCHILARNI MUSOBAQAOLDI MAXSUS TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

Suvonov Qodir Yuldoshevich  
"Sport faoliyati" kafedrasida o'qituvchisi.  
Qarshi davlat universiteti

*Annotatsiya. Maqolada kurashchilarni musobaqaoldi maxsus tayyorgarligini shakllantirishning yangi va innovatsion uslublar asosida samarali va unumli takomillashtirish uslubiyatiga bag'ishlangan.*

*Kalit so'zlar: Kurash, musobaqaoldi tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, mikrosikl.*

## ФОРМИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БОРЦОВ

Суванов Кадир Юлдашевич  
Преподаватель кафедры «Спорт фаолияти»  
Каршинский государственный университет

*Аннотация. Статья посвящена методике формирования специальной предсоревновательной подготовки борцов на основе новых и инновационных методик эффективного и продуктивного совершенствования.*

*Ключевые слова: борьба, предсоревновательная подготовка, специальная подготовка, микроцикл.*

## FORMATION OF SPECIAL PRE-COMPETITIVE TRAINING OF WRESTLERS

Suvonov Qodir Yuldoshevich  
Teacher of the department of «Sport faoliyati»  
Karshi State University

*Annotation. The article is devoted to the methodology of formation of special pre-competitive training of wrestlers based on new and innovative methods of effective and productive improvement.*

*Keywords: wrestling, pre-competitive training, special training, microcycle.*

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, respublikamizda turli toifadagi aholini jismoniy rivojlantirish va jismoniy tarbiyalash davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sanaladi, ayniqsa, mamlakatimizda aholining sog'ligini saqlash va mustakamlashga ilmiy asoslangan yondoshuv hamda uni amalga oshirish usullarini yanada takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilgan.

Respublikada milliy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni yetishtirish muntazam ravishda raqobatning keskinlashib borishiga, mashg'ulotlar jarayoni shiddatini talab darajasida kuchaytirishga olib kelmoqda. Bu esa malakali sportchilarni tayyorlash uslubini takomillashtirish borasida yangi uslublarni shakllantirish va izlanishlarga chorlamoqda.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda ko'pgina sport turlarida yuklamalarni maqsadli ravishda maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlari mikrosikllari doirasida taqsimlash dolzarb masala hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida mashqlar turlarini, ularning yuklamasini, mashg'ulotdan so'ng dam olish tavsifi, mashg'ulotlar sonini, turli kattalik va yo'nalishdagi yuklamalarni uyg'unlashtirish hamda mikrosikl jarayoni qaytarilishi meyorini, yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatlari mavjud.

Kurash bo'yicha yuqori mahoratli sportchilar tayyorlash amaliyotidagi ko'p yillik tajribada va mamlakatimiz terma jamoalarining xalqaro musobaqalardagi doimiy ishtiroki jarayonlarida ushbu sport turi bo'yicha yuqori sport natijalariga erishish vazifalarini yechishda kurashchilarimizning maxsus jismoniy sifatlarini takomillashtirish uslublarining talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi bugungi kunda sportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra sportning kurash turi bo'yicha mahoratli sportchilar tayyorlash jarayonining samarali uslubini ishlab chiqish va sportchilarning tayyorgarlik tizimiga tatbiq qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masalada kurashchilarning maxsus va jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish borasida bir qancha uslubiy kamchiliklar mavjud. Shu nuqtai nazardan kamchiliklarni bartaraf etishga ilmiy-uslubiy yondashish orqali sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishlari va yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlashda sport tayyorgarligi mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Kurash bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik mikrotsikllari yuklamalari kattaligi va yo'nalishi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan mashg'ulotlarga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda.

Mikrosikllar dasturining tuzilish usullari va imkoniy qonuniyatlari bo'yicha turli fikrlar va uslubiy amallar ishlab chiqilgan. Biroq bu yo'nalishdagi mikrosikllar dasturlari asosida yuklamalarining kattaligi va yo'nalishi har xil bo'lgan mashg'ulotlarining ratsional (maqsadli) uyg'unligi boshqa sport turlaridagi kabi sport kurashi mashg'ulotlarini rejalashtirish borasida ham shu kungacha talab darajasida yo'lga qo'yilmagan.

Maxsus va musobaqaoldi tayyorgarligi bosqichlaridagi mashg'ulotlar jarayonida kurashchilar organizmiga katta yuklamali va miqdoriy yo'nalishdagi mashg'ulotlarning ta'sirini farq qilish zarur. Kurashchilar amaliyotida katta va kichik yuklamali mashg'ulotlar ko'p qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, ko'proq yuklamalarni yo'nalishi bo'yicha maxsus chidamlilikni (uzoq va qisqa muddatli shiddatli ishlarni bajarish imkoniyati), tezkorlik va kuch qobiliyatini oshiruvchi mashg'ulotlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Mashg'ulotlar jarayonida katta yuklamali mashg'ulotlardan samarali foydalanish, ayni vaqtda shu mashg'ulotda mumkin bo'lgan u yoki bu sifatlarning rivojlanishini takomillashtirish mazkur mashg'ulot vazifasiga ortilmagan.

Bunday mashg'ulotlardan keyin organizmning toliqish darajasi, organizmning to'la tizimlari va mexanizmlarining ishtirok etish darajasiga bog'liq bo'lgan har bir mashg'ulot maxsus va musobaqaoldi tayyorgarligi bosqichlarida mashg'ulot vazifalariga mos ish qobiliyatini ta'minlovchi tizim mexanizmlar faoliyati ishlab chiqilib, takomillashtirish guruhlariga kurashchilariga tavsiya qilinmoqda.

Bir kunda o'tkazilgan turli yo'nalishdagi ikkita mashg'ulotning kurashchilar organizmiga ta'sir darajasini inobatga olish va shu bilan birgalikda, o'rtacha yuklamali mashg'ulotlardan organizmning qayta tiklanish jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu katta yuklamali mashg'ulotlardan so'ng organizmning qayta tiklanish jarayonlarini samaradorlik vositasi sifatida o'rtacha va kichik yuklamali mashg'ulotlarning muvaffaqiyat bilan qo'llanilishidan dalolat beradi.

Sutkalik oraliq bilan o'tkazilgan katta yuklamali bir xil yo'nalishdagi ikkita mashg'ulotning doimiy shaklda qo'llanilishi toliqishga olib keladi. Bu ikkinchi mashg'ulotda kurashchilar ish qobiliyatining pasayishi natijasida sodir bo'lib, birinchi mashg'ulot vazifalarini bajarish jarayonida yuzaga keladi. Boshqa yo'nalishdagi katta yuklamali ikkita mashg'ulotni qo'llash birinchi mashg'ulotdan keyingi toliqish darajasini chuqurlashtiradi va oganizmning ikkinchi mashg'ulot dasturini bajarishga mas'ul bo'lgan mexanizm va tizimlariga ta'sir qiladi.

Xulosalar. Malakali kurashchilarning ish qobiliyatini oshirish, pedagogik vositalar va uslublar majmuasida mashg'ulot jarayonini boshqarish sifatini o'zgarishida mikrosikl mashg'ulotlarini oqilona almashlab o'tishning amaliy ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Kurashchilar mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish mikrosikllarda katta yuklamali mashg'ulotlar sonini orttirib borish bilan bog'liq bo'lib, bu mashqlanganlik darajasini oshirishning shartidir. Malakali kurashchilarni tayyorlash jarayonlaridan yana biri ish hajmini oshirib borish, uni bajarish sifatini yaxshilash bo'lib, bunga kurash bilan shug'ullanishning turli bosqichlarida har xil kattalik va yo'nalishdagi mashg'ulotlarni almashlab o'tish asosida erishiladi.

## DIGITALIZED APPROACH IN DEVELOPING CROSS-CULTURAL COMPETENCY OF THE STUDENTS IN THE ENGLISH CLASSES

Tadjibayeva Adila Ergashevna

Senior teacher, Fergana branch of Tashkent university of information technology

**Abstrakt:** The digital revolution has introduced unprecedented opportunities for education, particularly in fostering cross-cultural competency among students. This research delves into how digitalized methodologies, including virtual reality (VR) simulations, interactive multimedia, and international collaboration platforms, can transform English classes into hubs for cultural exploration and intercultural communication. Over a 12-week period, students were immersed in diverse digital environments designed to enhance their cultural awareness, language skills, and ability to engage with global communities. The study measured improvements in cultural sensitivity, linguistic fluency, and interpersonal communication skills, using both qualitative and quantitative approaches. The results highlight substantial growth in cultural empathy, critical thinking, and classroom engagement. Challenges such as the digital divide and technical difficulties are also discussed. This paper advocates for integrating digital tools as a core component of language education to prepare students for a globalized world.

**Keywords:** digital education, cross-cultural competency, immersive technologies, English language teaching, intercultural skills, virtual reality.

## INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASIGA RAQAMLI YONDASHUV

Tadjibayeva Adila Ergashevna

Katta o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali

**Annotatsiya:** Raqamli inqilob ta'lim uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi, ayniqsa talabalar o'rtasida madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirishda. Ushbu tadqiqot raqamlilashirilgan metodologiyalar, jumladan virtual haqiqat (VR) simulyatsiyalari, interaktiv multimediyaga va xalqaro hamkorlik platformalari ingliz tili darslarini madaniy kashfiyotlar va madaniyatlararo muloqot uchun markazlarga aylantirishi mumkinligini o'rganadi. 12 haftalik davr mobaynida talabalar madaniy xabardorlikni, til ko'nikmalarini va global hamjamiyat bilan aloqa qilish qobiliyatini oshirish uchun mo'ljallangan turli xil raqamli muhitlarga botirildi. Tadqiqot madaniy sezgirlik, lingvistik ravonlik va shaxslararo muloqot ko'nikmalaridagi yaxshilanishlarni sifat va miqdoriy yondashuvlardan foydalangan holda o'lchadi. Natijalar madaniy empatiya, tanqidiy fikrlash va sinfdagi faollikning sezilarli o'sishini ta'kidlaydi. Raqamli bo'linish va texnik qiyinchiliklar kabi muammolar ham muhokama qilinadi. Ushbu maqola talabalarni globallashtirgan dunyoga tayyorlash uchun raqamli vositalarni til ta'limining asosiy komponenti sifatida integratsiyalashni targ'ib qiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, madaniyatlararo kompetentsiya, immersiv texnologiyalar, ingliz tilini o'rgatish, madaniyatlararo ko'nikmalar, virtual haqiqat.

## ЦИФРОВОЙ ПОДХОД В РАЗВИТИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Таджибаева Адила Эргашевна

Старший преподаватель, Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий

**Аннотация:** Цифровая революция предоставила беспрецедентные возможности для образования, особенно в плане развития межкультурной компетентности среди студентов. В этом исследовании рассматривается, как цифровые методики, включая

симуляции виртуальной реальности (VR), интерактивные мультимедиа и платформы международного сотрудничества, могут превратить уроки английского языка в центры культурного исследования и межкультурной коммуникации. В течение 12-недельного периода студенты погружались в разнообразные цифровые среды, разработанные для повышения их культурной осведомленности, языковых навыков и способности взаимодействовать с мировыми сообществами. Исследование измеряло улучшения в культурной чувствительности, языковой беглости и навыках межличностного общения с использованием как качественных, так и количественных подходов. Результаты подчеркивают существенный рост культурной эмпатии, критического мышления и вовлеченности в класс. Также обсуждаются такие проблемы, как цифровой разрыв и технические трудности. В этой статье предлагается интегрировать цифровые инструменты в качестве основного компонента языкового образования для подготовки студентов к глобализированному миру.

**Ключевые слова:** цифровое образование, кросс-культурная компетентность, иммерсивные технологии, преподавание английского языка, межкультурные навыки, виртуальная реальность.

**Introduction.** The growing interconnectedness of the world has elevated the importance of cross-cultural competency, particularly for students learning English—a global lingua franca. This competency entails the ability to interact effectively and respectfully with individuals from diverse cultural backgrounds. In today’s globalized economy, possessing cross-cultural skills is not only an academic advantage but also a professional necessity. However, traditional English teaching methods, focused primarily on grammar, vocabulary, and standardized tests, often fail to equip students with the experiential learning necessary to engage meaningfully across cultural boundaries.

Digital tools offer an innovative solution to this gap. These tools—ranging from immersive VR environments to interactive multimedia—can simulate real-world scenarios, connect learners with peers worldwide, and provide dynamic ways to explore cultural diversity. Such tools make learning multidimensional by combining language acquisition with cultural immersion.

English classrooms provide a unique platform for developing cross-cultural awareness, as the language is used globally across varied cultural contexts. By introducing students to the social norms, values, and traditions of English-speaking cultures and beyond, educators can foster an understanding that extends beyond linguistic competence to intercultural fluency. [1]

#### Objectives

To assess how digital tools contribute to the development of cross-cultural skills in English language learners.

To explore strategies for integrating digitalized methodologies in language teaching.

To evaluate the impact of these tools on students’ cultural understanding, engagement, and language proficiency.

#### Research Gap

Existing research predominantly focuses on the role of digital tools in language acquisition, neglecting their potential for enhancing cross-cultural competency. Additionally, few studies examine the specific applications of these tools in structured classroom settings. This research aims to fill these gaps by offering practical strategies and evaluating outcomes. [3]

#### Methods

**Participants:** The study involved 50 students aged 16-22, enrolled in intermediate to advanced English language courses. Participants were drawn from diverse linguistic and socio-cultural backgrounds, providing a rich mix of perspectives and experiences. This diversity was instrumental in fostering meaningful intercultural discussions and interactions throughout the

study.

### Digital Tools and Activities

**Virtual Reality (VR) Simulations:** Students used VR headsets to participate in cultural experiences such as visiting landmarks (e.g., Buckingham Palace or the Great Wall of China), attending traditional ceremonies, or observing cultural practices like Japanese tea preparation or African storytelling traditions. [5]

**Interactive Multimedia:** Multimedia tools included culturally focused videos, infographics, podcasts, and gamified quizzes. Students also engaged with digital storytelling platforms that allowed them to create and share their narratives based on their interpretations of cultural content.

**Global Online Collaboration:** Students worked on joint projects with peers from international partner institutions, using platforms like Padlet and Google Workspace. Activities included writing blogs, producing short videos on cultural themes, and conducting virtual debates on global issues such as climate change and social justice.

### Study Design

The study followed a structured three-phase design:

**Baseline Assessment:** Pre-intervention surveys gauged students' initial cultural knowledge, attitudes, and confidence in intercultural communication.

**Implementation:** Twelve weeks of structured lessons combining theoretical instruction and practical digitalized tasks. Each session incorporated cultural themes, such as festivals, communication styles, and family dynamics, presented through digital tools. [2]

**Evaluation:** Post-intervention assessments, including surveys, interviews, and classroom observations, measured changes in cultural awareness, language proficiency, and engagement levels.

### Data Collection Methods

**Quantitative Data:** Surveys included the Cultural Intelligence Scale (CQS) and Intercultural Communication Competence Inventory (ICCI), both validated instruments for measuring cross-cultural skills.

**Qualitative Data:** Semi-structured interviews and focus group discussions captured students' experiences and perceptions of the digitalized approach.

**Engagement Metrics:** Metrics included attendance rates, participation in discussions, and time spent on digital platforms outside of classroom hours.

Developing cross-cultural competency in students can be significantly enhanced through the use of various digital technologies. Here are some effective tools and strategies[7]:

#### 1. Virtual Exchange Programs

Platforms like eTwinning and Global Virtual Classroom connect students from different countries. Through collaborative projects and discussions, students can gain insights into diverse cultures.

#### 2. Video Conferencing Tools

Tools such as Zoom, Skype, or Google Meet allow real-time interactions between students from different cultural backgrounds. This facilitates live discussions, cultural exchanges, and collaborative learning.

#### 3. Social Media Platforms

Using platforms like Facebook, Instagram, or Twitter for class projects can help students engage with peers globally. They can share cultural experiences, traditions, and perspectives in a more informal setting.

#### 4. Online Collaborative Tools

Applications like Google Workspace (Docs, Sheets, Slides) and Padlet enable students to work together on projects regardless of their geographical location, fostering teamwork and cultural exchange.

## 5. Cultural Simulation Software

Programs that simulate real-world scenarios, such as SimCity or Kahoot!, can be adapted for cross-cultural learning. Students can explore how different cultures respond to various situations.

## 6. Multimedia Resources

Websites like YouTube and TED Talks provide access to documentaries, lectures, and cultural presentations. These resources can enrich students' understanding of different cultures and viewpoints.

## 7. Language Learning Apps

Apps like Duolingo or Babbel not only teach language skills but also introduce cultural contexts, idioms, and practices associated with the language being learned.

## 8. Online Cultural Exchange Platforms

Websites like Couchsurfing or Tandem facilitate language and cultural exchanges, allowing students to connect with native speakers and learn about their cultures directly.

## 9. Digital Storytelling Tools

Tools such as Storybird or Canva allow students to create and share digital narratives about their cultural backgrounds, fostering a deeper understanding and appreciation of diversity.

## 10. Interactive Learning Platforms

Platforms like Nearpod or Flipgrid enable teachers to create interactive lessons that include cultural quizzes, discussions, and reflections, engaging students in active learning about different cultures.

By integrating these digital technologies into lessons, educators can create an enriching learning environment that promotes cross-cultural competency. This not only enhances students' language skills but also prepares them to navigate and appreciate the complexities of a multicultural world [8].

## Results

The study yielded compelling evidence of the effectiveness of digitalized methods in enhancing students' cross-cultural competencies and engagement.

### 1. Quantitative Findings:

**Cultural Awareness:** Students demonstrated a significant improvement in their ability to recognize and interpret cultural norms, with post-intervention survey scores averaging 78% compared to 45% at baseline.

**Language Proficiency:** Students reported increased fluency in culturally appropriate expressions and idioms, with notable progress in their ability to adapt their communication style to different cultural contexts. [4]

**Intercultural Communication Confidence:** Self-reported confidence levels in engaging with people from diverse backgrounds rose by 60%, as students felt more prepared to navigate cultural differences.

### 2. Qualitative Insights:

**Immersive Impact of VR:** Students frequently mentioned the «real-life» feel of VR experiences, which allowed them to practice cultural etiquette and communication without the fear of making mistakes.

**Collaborative Learning Benefits:** Participants highlighted the value of interacting with international peers, noting that it expanded their worldview and challenged pre-existing stereotypes. For instance, a group project on global food culture sparked discussions about sustainability and traditional farming practices. [6]

### 3. Engagement Metrics:

**Increased Participation:** Class attendance rose by 15%, and active participation in

discussions increased by 40%.

**Time on Task:** Students voluntarily spent an average of 3.5 hours per week exploring digital cultural content, exceeding the expected 2 hours.

#### Discussion

The findings confirm that digitalized approaches effectively foster cross-cultural competency while also enhancing language learning.

#### Key Themes:

**Experiential Learning through VR:** VR proved invaluable in enabling students to engage deeply with cultural contexts. Unlike traditional materials, VR allowed them to observe and practice cultural norms in a controlled at authentic environment.

**Collaborative Opportunities:** International projects promoted real-time cultural exchange, encouraging students to reflect on their biases and adapt their perspectives. For example, joint discussions about climate change highlighted how cultural values influence environmental priorities.

**Enhanced Engagement:** The interactive nature of digital tools kept students motivated and invested in their learning. This engagement translated into higher participation rates and better retention of cultural concepts.

#### Challenges and Limitations:

**Access Issues:** Some students faced technical difficulties, such as limited access to high-speed internet or VR devices, which occasionally disrupted activities.

**Teacher Training Needs:** Not all educators were comfortable with integrating advanced digital tools, suggesting a need for targeted professional development.

**Practical Recommendations:** Schools should prioritize investments in affordable, scalable technologies like augmented reality (AR) and interactive multimedia.

Educators should blend technology with reflective activities, ensuring students not only experience but also critically analyze cultural content.

#### Conclusion

This study highlights the transformative potential of digitalized approaches in developing cross-cultural competency among students in English classes. By integrating tools like virtual reality, interactive multimedia, and global collaboration platforms, educators can provide students with immersive, meaningful, and engaging learning experiences. These methods not only improve cultural awareness but also enhance language proficiency, critical thinking, and confidence in navigating intercultural interactions.

The findings underscore the importance of embedding cultural education into language learning, with digital tools serving as powerful facilitators. Despite challenges such as technological limitations and access disparities, the benefits far outweigh the drawbacks. With proper infrastructure, teacher training, and equitable access, digitalized approaches can become a cornerstone of modern education, equipping students to thrive in a globalized, multicultural world.

Future research should focus on expanding the use of these methodologies across diverse educational contexts and measuring their long-term impact on students' intercultural skills and professional growth. By continuing to innovate in this space, educators can ensure that classrooms remain not only places for learning languages but also gateways to understanding and appreciating the richness of global cultures.

#### Bibliography:

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.

2. Deardorff, D. K. (2006). «The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization.» *Journal of Studies in International Education*, 10(3), 241–266.

3. Godwin-Jones, R. (2019). «Emerging Technologies: Virtual and Augmented Reality in Language Learning.» *Language Learning & Technology*, 23(3), 6–11.
4. Kramsch, C. (2013). *The Multilingual Subject: What Foreign Language Learners Say about Their Experience and Why It Matters*. Oxford University Press.
5. Schroeder, R., & Axelsson, A. S. (Eds.). (2006). *Avatars at Work and Play: Collaboration and Interaction in Shared Virtual Environments*. Springer.
6. Yuen, C. Y. M., & Grossman, D. (2009). «The Intercultural Sensitivity of Prospective Teachers: A Comparative Study of Teacher Education Programs in Hong Kong and Singapore.» *Asia Pacific Journal of Education*, 29(4), 437–453.
7. Shonfeld, M., (2021) “Educational Technology Research and Development
8. Ning Li., (2024) *Proceedings of the 3rd International Conference on Educational Innovation and Multimedia Technology (EIMT 2024)*

## **MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING “MEN KONSEPSIYASI” TARKIB TOPISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI**

*Tajiboyev Asqat Alisher o'g'li  
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini-o'zi anglash jarayonida oilaning muhim ahamiyat kasb etishi, oilada bolaning psixologik o'sishi uchun oiladagi ota-ona va oilaviy muhitning bolalar ongiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltrilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: oila, psixologik muhit, sotsial ta'sirlar, psixologik axborot oqimi, Atrof muhitni idrok qilish, destruktiv ta'sirlar, er-xotin, farzand.*

## **THE IMPORTANCE AND RELEVANCE OF FAMILY RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF THE “I CONCEPT” OF A PRESCHOOL CHILD'S PERSONALITY**

*Tajiboyev Askat Alisher o'glu  
2nd year master's student of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

*Annotation: This article presents information about the important role of the family in the process of self-awareness of preschool children, the influence of parents and the family environment on the children's consciousness for the psychological growth of a child in the family.*

*Keywords: family, psychological environment, social influences, psychological information flow, Perception of the environment, destructive influences, spouse, child.*

## **ЗНАЧЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ «Я-КОНЦЕПЦИИ» ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

*Таджибоев Асқат Алишер оғлы  
магистрант 2 курса Джизакского филиала Национального университета  
Узбекистана*

*Аннотация: В статье представлена информация о важной роли семьи в процессе самосознания детей дошкольного возраста, влиянии родителей и семейной среды на психику ребенка, на психологическое развитие ребенка в семье.*

*Ключевые слова: семья, психологическая среда, социальные влияния, психологический информационный поток, восприятие среды, деструктивные влияния, супруг, ребенок.*

Avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor hamda amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q, – dedi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimida ayniqsa, maktabgacha ta'limning rivojlanishiga katta e'tibor bermoqda. Ushbu yo'ldagi sa'y harakatlar kelajakda o'z samarasini albatta ko'rsatadi va mamlakatimizning yanada ravnaq topishida muhim ahamiyat ko'rsatishi haqida so'z yuritadi.

Biz bugunga qadar olib borilgan tadqiqotlar hamda olimlarning ishlarini o'rganib

shuni aytishimiz mumkinki, o'zini-o'zi anglash jarayoni ijtimoiy muhit bilan uyg'un holda shakllanar ekan. Ushbu muhitda eng muhim mikromuhit bu-oila hisoblanadi. Negaki bolaning ilk tarqqiyot davri mobaynida ko'zini ochib idrok qiladigan, ilk yaqinlari bilan hissiy va emotsional yaqinlikda bo'ladigan borliqning kichik bir bo'lagi sifatida oila eng muhim rol o'ynaydigan maskandir. Oksana Kovynevaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy maqolasida ta'kidlanganidek bolalarda uchrayotgan 30-40% surunkali kasalliklarning asosiy ko'rsatlaridan biri sifatida psixogen ta'sirni hozirgi zamonaviy tibbiyot bilimiga asoslanib keltirib o'tadi. U ushbu ishida muammoning ildizini tahlil qilish kerakligini hamda o'rtacha zamonaviy bola normadan qanchalik uzoqda bo'lishini qayd etgan. Olim o'z maqolasida psixik salomatlikning asosiy ko'rsatgichlari sifatida:

- O'z-o'zini har tomonlama qabul qilish, ya'ni o'zini o'zi ijobiy tasavvur qilish;
- Refleksiya kabi o'zini tanib olish sifatiga ega bo'lish;
- O'zini-o'zi o'zgartirishga intilish, o'zini-o'zi rivojlantirish hamda o'zini idrok eta olish deb qayd etadi.

Psixologik buzilishlar maktabgacha yosh davrida tog'ridan-to'g'ri aqliy salomatlik va o'qishdagi buzilishlarga o'z ta'sirini o'tkazishini ko'rsatadi. Bola tug'ilgandan undagi o'zini-o'zi anglash jarayonida oila a'zolarining hissiy emotsional yaqin bo'lgan shaxslari ijtimoiy hayotga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Dastlab ona bolaning asosiy biologik ehtiyojini qondirishi natijasida bola ona bilan bog'lanish munosabatining paydo bo'lishi va bu bog'lanishning hech qachon uzilmasligini H. Anning ilmiy ishida keltirib o'tilgan. Bolada ona bilan bog'liqlik onaning bolani biologik ehtiyojini doimiy qondirib borishi natijasida o'zaro bog'liqlik yuzaga kelishini aytib o'tishgan. Bu bog'liqlik bolada himoya vazifasini bajaruvchi asosga aylanadi. Ya'ni onaning bola bilan ushbu bog'liqligini buzmasa ushbu himoya bosqichi yo'qolmaydi. Chaqaloqning parvarish qiluvchi bilan bog'liq sifati parvarish qiluvchining bola tomonidan uzatilgan signallarning qabul qilinishi hamda javob berishi belgilab berishi qayd etilgan. Bolaning signallarni biladigan, uni tez payqaydigan, to'g'ri javob beradigan sezgir parvarish qiluvchiligi qayd etiladi. Shuningdek go'dakka yaxshi parvarish qiluvchi javobning berilishi bolada xavfsizlik hissini yuzaga keltiradi. Ushbu muallifning ishlarida qayd etilgan xavfsizlik hissi bevosita bolani yangi muhitga va shaxslar bilan muloqatga kirishishiga yordam beradi bu esa bolaning kognitiv hamda ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda o'zlikning shakllanib borishi bilan kechadi. Hissiy jihatdan sog'lom bola shakllanishi bolaning o'zaro har ikkala ota-onaning o'zaro birdek yaqin bog'liqligi bilan kechadi. Ayrim manbaalarda hatto ajrashgan oiladagi farzandlarning hissiy emotsional holati o'zini xavfsiz his qilmaganligi, yetarli e'tiborning mavjud emasligi bilan bog'liqligi aytiladi. Bolalikda ikkisidan birining yo'qligi bola ruhiy holatiga keskin ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari oila qurishda ota-onaning oilaviy hayotga tayyorligi, bo'lajak farzandni dunyoga keltirish hamda u bilan doimiy munosabatda bo'lish uchun ma'naviy ham ruhan ikkala tomonning tayyor bo'lishligi, ikkala oila ustunlarining mas'uliyatni birgalikda olishlari lozimligi qayd etiladi. Demakki biz bola bilan ota-onaning hissiy-emotsional yaqin bo'lishi bu bola kelajakdagi yosh bosqichidagi psixologik rivojlanishining yaxshi o'tishi bilan kechishi oilaviy munosabatlarga bog'liq ekanligini ko'plab tadqiqotchi olimlarning ishlaridan bilsak bo'ladi.

Oilaviy muhit-bu oilaning psixologik iqlimi, oilaviy aloqaning natijasi bo'lgan barqaror hissiy munosabat. Bu bolalar va kattalarning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu oila a'zolari tomonidan yaratilgan va ularning sa'y-harakatlari uning qanday bo'lishiga, qulay yoki noqulay bo'lishiga bog'liq. Issiq oilaviy muhit umuman oilaning va uning har bir a'zosining psixologik farovonligini ta'minlaydi. Shaxsni shakllantirishda ikkala ota - ona ham muhimdir-mehribon ota va ona. Turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar bolaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qarama-qarshi, keskin vaziyat uni asabiylashtirishi, yig'lashi, itoatsiz, tajovuzkor qilishi mumkin. Natijada, ota-onalar o'rtasidagi konfliktli munosabatlar kelajakda

bolaning ruhiyatiga shikast yetkazishi mumkin.

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o'zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ruhiiy salomatlikdan chetga chiqish sabablarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bolalarning 98 foizi oilaviy munosabatlarda kelishmovchilikni boshdan kechirmoqda. Nikoh munosabatlarining patologiyasi turli xil anomaliyalarni keltirib chiqaradi va bundan tashqari, psixikada ham, shaxsning xatti-harakatlarida ham juda jiddiy masaladir. Ko'pincha ota-onalar o'rtasidagi janjallar bola tomonidan tashvishli hodisa, xavfli vaziyat sifatida qabul qilinadi. Bunday mojarolar bolalarda doimiy tashvish, o'ziga ishonchsizlik, hissiy stressni keltirib chiqaradi. Afsuski, bolalarni tarbiyalash uchun universal texnologiya yo'q va hatto bir kishidan oiladagi barcha holatlar haqida to'liq ilmiy bilimga ega bo'lish uchun maslahat ololmaysiz. Masalan, bu uchun ma'lum ota-onalar oilada samarali tarbiya usullariga rioya qilishlari kerak.

Bolalar, bunday ota yoki onaning pozitsiyasini qabul qilishga majbur bo'lgan. Shuning uchun ularning ruhiyati uchun chidab bo'lmaz vaziyat yaratiladi, bu simptomning paydo bo'lishiga olib keladi (tashvish, depressiya, o'ziga zarar etkazish, ijtimoiy buzilish, tajovuz, ijtimoiy xatti-harakatlar va boshqalar), bu bola aniqlangan bemorga aylanadigan oilaviy tizimning buzilishining belgisidir. Va bunday bolaga murojaat qilgan taqdirda, butun oilani ishga jalb qilish kerak.

A distinctive feature of intensive training is the predominant focus on involuntary memorization, which is ensured by creating an atmosphere of emotional uplift in classes, accompanying verbal communication with paralinguistic means. The students do not realize that they are learning, since a strong illusion of real communication is created. But knowledge of the language implies not only oral speech, but also the ability to write correctly. This requirement is imposed today on a modern specialist, a university graduate. Therefore, one cannot underestimate the grammar of the language being studied.

Conclusion. All above points to the following conclusion: when the intensive learning approach is used correctly, it is possible to learn a foreign language in a very short amount of time and with outstanding results in terms of both the amount of material taught and the amount of time spent learning it. Moreover, it should be noted that some of the techniques of the intensive methodology can be used equally in the traditional method of teaching both adults and children.

#### References:

1. Выготский Л. С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1991. - С. 3-120
2. Зимняя И. А. Гуманизация образования - императив XXI века. – Набережные Челны, 1996. – Вып. 1. – С. 20 - 30.
3. Леонтьев А.А. Психологические аспекты личности и деятельности // Иностр. языки в школе. – 1974. – № 1. – С. 80.
4. Лозанов Г. Суггестология. – София: 1971. – С. 15.
5. Смирнова Л.В. Интенсивный курс обучения – интенсивный пути общения // Интенсивное обуч. иностр. яз.: проблемы метод. и лингв.: Сб. науч. ст. Волгоград. центр интенсив. обуч. иностр. яз. – Волгоград: 2001. – С. 8.
6. Intensive language learning today: collection of articles / edited by G.A. Kitaygorodskaya // Scientific and Educational Center "Kitaygorodskaya School". – 1997. Issue 1. – P. 24-34.
7. Spratt M., Pulverness A., Williams M. The Teaching Knowledge Course. Cambridge University press, 2007, - 189p.

## **O'ZBEK TILINI XORIJLIKLARGA O'QITISH JARAYONIDA LINGVOKULTUREMALARNI QO'LLASH TAMOYILI**

Zamira Usmonova

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til ta'limini lingvokulturologik yondashuv asosida tashkil etish, dars o'tish jarayonida til materiallari bilan birga ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarni ham berib borish orqali til o'rganuvchilarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishda lingvokulturemalarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturema, autentik material, didaktika, монологик матн, lingvomadaniy konseptlar, lingvokulturologik kompetensiya, leksik-grammatik minimum.

## **ПРИНЦИП ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАНЦЕВ УЗБЕКИСТАНСКОМУ ЯЗЫКУ**

Замира Усманова

Узбекский государственный университет мировых языков старший преподаватель

**Аннотация:** В данной статье рассматривается организация языкового образования на основе лингвокультурного подхода, значение лингвокультуры в формировании лингвокультурной компетентности изучающих язык путем предоставления социокультурной информации наряду с языковыми материалами.

**Ключевые слова:** лингвокультурема, аутентичный материал, дидактика, монологический текст, лингвокультурные концепты, лингвокультурная компетентность, лексико-грамматический минимум.

## **PRINCIPLES OF USING LINGUOCULTURAL METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING THE UZBEKISTAN LANGUAGE TO FOREIGNERS**

Zamira Usmonova-Senior Lecturer,

Uzbek State University of World Languages

**Abstrakt:** This article examines the organization of language education based on the linguacultural approach, the importance of linguaculture in the formation of linguacultural competence of language learners by providing sociocultural information along with language materials.

**Key words:** linguaculture, authentic material, didactics, monologue text, linguacultural concepts, linguacultural competence, lexical and grammatical minimum.

**KIRISH.** Chet tilini egallash bu yangi madaniyat bilan tanishish, yangi ijtimoiy-madaniy mazmunga ega bo'lish hisoblanib, buni madaniyatlararo muloqot sharoitida chet tillarni o'qitishni ikki madaniyatining o'z turmush tarzi va o'ziga xoslik jihatlarini saqlagan holda teng huquqli madaniy hamkorlikda o'zaro muloqotga kirishuvi deb qabul qilish mumkin. Ushbu jarayonning oxir-oqibatida til o'rganuvchining yangi jamiyat madaniyati olami manzarasini anglay olish, o'zaro muloqotga kirishayotgan madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar va o'xshashliklarni farqlay olish va madaniyatlararo muloqot yuritish ko'nikmalarini egallash, o'zaro murosasozliklarni hal qilishga tayyor turish, lingvomadaniy konseptlar va muloqot yuritish vositalarini amalda qo'llay olish kabi tarkibiy qismlardan iborat lingvokulturologik kompetensiyani egallashi ko'zda tutiladi. Bunga erishish uchun til ta'limini lingvokulturologik yondashuv asosida tashkil etish, dars o'tish jarayonida til materiallari bilan birga ijtimoiy-

madaniy ma'lumotlarni ham berib borish orqali til o'rganuvchilarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirish kerak bo'ladi. Bu, avvalo, beriladigan ma'lumotlarni va autentik materiallarni o'tiladigan dars mavzulariga moslashtirib tanlash, mavzuga va til darajalariga mos leksik-grammatik minimumni ajratish va ularni o'rgatuvchi mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, audio, videomateriallar, multimedia ishlanmalarining salmog'i tobora ortib borayotgani ham xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish jarayonini samarali tashkil etishda audio, videomateriallar va autentik materiallardan ko'proq foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunda audiomateriallar o'zbek tilidagi nutq tovushlarining to'g'ri talaffuzini shakllantirishga, urg'uni to'g'ri qo'yish, so'zlarni talaffuz qilishda nutq tempini to'g'ri tanlash, gap va jumla mazmuniga mos ohang tanlash maqsadiga xizmat qiladi. Videomateriallar esa o'zbek xalqining ijtimoiy-turmush tarzini, qadriyatlarini va madaniyati, mamlakatning bugungi ijtimoiy-siyosiy holati, rivojlanish darajasini ko'rib qabul qilishga, autentik materiallar esa turli muloqot vaziyatlarida nutqni qanday tashkil etish, qanday murojaat qilish muloqotni qanday davom ettirishni amalda qo'rsatish orqali til o'rganuvchilarni tabiiy nutq sharoitiga olib kirishga yordam beradi.

O'zbek tilini xorijliklarga lingvokulturologik yondashuv asosida o'rgatishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

- leksik-grammatik minimumni ajratishda o'zbek tilining aglyutinativ strukturasidan kelib chiqib, oson grammatik shakllar va dastlabki muloqot uchun zarur leksik birliklarni ajratish;
- o'zbek tilining nutq tovushlari tizimini va til o'rganuvchining ona tilidagi nutq tovushlaridan farq qiladigan spesifik nutq tovushlari va ularning harfiy belgilarini o'rgatish jarayonida lug'aviy zahira bilan boyitib borilishiga erishish;
- mashqlar va topshiriqlarni oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab kommunikativ maqsadlarda rivojlantirib borilishini ta'minlash;
- mavzular oralig'ida mazmuniy uzviylikni ta'minlash;
- o'quv materiallarini tanlashda autentiklik va ko'rgazmalilikka urg'u berish va bevosita til ko'nikmalarini (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish) shakllantirishga yo'naltirish;
- har bir mavzuga oid materiallarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib (audio, videovositalar yordamida) kommunikativ yondashuv asosida taqdim etish;
- o'quv materiallarining didaktik jihatdan o'zbek xalqining ijtimoiy-turmush tarzini, qadriyatlarini va madaniyatiga muvofiqligini ta'minlash;
- taqdim etilayotgan matn va topshiriqlar tili o'rganilayotgan mamlakatning bugungi kundagi hayoti bilan ko'proq bog'liq bo'lishini ta'minlash va h.z.

#### METODLAR

Bugungi kunda ta'lim sohasida axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, audio, videomateriallar, multimedia ishlanmalarining salmog'i tobora ortib borayotgani ham xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish jarayonini samarali tashkil etishda audio, videomateriallar va autentik materiallardan ko'proq foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Videomateriallar o'zbek xalqining ijtimoiy-turmush tarzini, qadriyatlarini va madaniyati, mamlakatning bugungi ijtimoiy-siyosiy holati, rivojlanish darajasini ko'rib qabul qilishga, autentik materiallar esa turli muloqot vaziyatlarida nutqni qanday tashkil etish, qanday murojaat qilish muloqotni qanday davom ettirishni amalda qo'rsatish orqali til o'rganuvchilarni tabiiy nutq sharoitiga olib kirishga yordam beradi. O'zbek tilini xorijliklarga lingvokulturologik yondashuv asosida o'rgatishda:

1) o'zbek tili nutq tovushlari talaffuzini eshitib takrorlash uchun tayyorlangan audiomatnlar bilan ishlash;

2) o'rganilgan leksik-grammatik minimum asosida o'zbek tilida ixcham gaplar tuzish va ixcham dialogik va monologik matnlar tuzish xorijliklarni o'zbek tilida bevosita muloqot

yuritishga o'rgatish va ularni darajalar asosida rivojlantirib borish;

3) turli nutqiy vaziyatlarda mavzularga mos qo'llanadigan qoliplashgan nutq etiketi iboralarini o'rgatib borish, ular qamrab olingan audimatlar va videolavhalar bilan ishlash;

4) o'zbek xalqining ijtimoiy-turmush tarzini, qadriyatlari va madaniyati, mamlakatning bugungi ijtimoiy-siyosiy holatini ko'rsatuvchi, yirik sanoat markazlari va qadimiy shaharlari bilan tanishish imkonini beruvchi videomateriallar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tilni lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitish, albatta, tilning lisoniy vositalari bilan tanishib borishni taqozo etadi. Til o'rganuvchilarni o'zbek tilining nutq tovushlari talaffuzi, leksikasi, so'z yasash va gap tuzish bilan bog'liq fonetik, morfologik-sintaktik xususiyatlari bilan tanishtirib borishda va ularni to'g'ri muloqot yuritishga o'rgatish jarayonida ko'proq autentik materiallardan foydalanish, egallangan bilimlarni audio va videovositalar bilan mustahkamlab borilishi ularni sosiolingvistik kompetensiyani ham shakllantirib borishni ta'minlaydi. Ya'ni, ta'lim oluvchilar tilni o'rganish bilan birga tili o'rganilayotgan mamlakat va uning sohiblari hayot tarzi bilan ham tanishib boradilar, turli vaziyatlarda muloqot yuritish qoidalarini tinglash va ko'rish orqali o'sha til muhitiga kirib borishga harakat qiladilar. Bunda, albatta, har bir vaziyatga doir lingvokulturologik aspektni qisqa sharhlash yo'li bilan tushuncha berib ketish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nutqqa o'rgatishning dastlabki bosqichi odatda tayyor qoliplashgan iboralarni o'zlashtirish va ularni turli nutq vaziyatlarida qo'llashni o'rganishdan boshlanadi. Til o'rganishning ilk darslaridayoq ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan tilda salomlashish va xayrlashish iboralarini, tanishish va o'zini tanishtirish shakllari, ularni qo'llanadigan qoliplashgan iboralar o'rgatiladi. Har bir xalqda o'zining salomlashish va xayrlashish so'zlari va ularni qo'llash bilan bog'liq nutq etiketi me'yorlari bor. Masalan, o'zbek tilida salomlashish vaziyatlarida qo'llanadigan "Assalomu alaykum", "Assalom", "Salom" yoki xayrlashishi bilan bog'liq "Xayr", "Ko'rishguncha", "Alvido" kabi so'zlar bor va ularni qo'llashning o'z o'rnini, o'z vaziyati mavjud. Jumladan, "Salom" so'zi faqat tengdoshlar, yoshlar orasida ishlatilishi, "Alvido" so'zi vidolashish onlarida qo'llanadi.

Nutqqa o'rgatishning dastlabki bosqichi odatda tayyor qoliplashgan iboralarni o'zlashtirish va ularni turli nutq vaziyatlarida qo'llashni o'rganishdan boshlanadi. Til o'rganishning ilk darslaridayoq ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan tilda salomlashish va xayrlashish iboralarini, tanishish va o'zini tanishtirish shakllari, ularni qo'llanadigan qoliplashgan iboralar o'rgatiladi. Salomlashish, tanishish jarayonlarida qo'llanadigan murojaat shakllari ham alohida o'rin egallaydi va har bir tilda farqlanuvchi lingvokulturemalar hisoblanadi. Barcha tillardagi kabi o'zbek tilida ham kishilarga qo'yiladigan ismlar, insonlarning shariflanishi, ya'ni familiyalarning qanday yozilishi o'ziga xos bo'lib, qayd etib o'tish kerakki, ular turli davrlarda turli tashqi ta'sirlar ta'sirida o'zgarib kelgan.

Lingvokulturemalar qo'llanishida o'zbek xalqi madaniyatiga xos alohida ayrim jihatlar ham borki, ularni o'zaro muloqot jarayonida o'rnida ishlatmaslik xato qo'llanishga va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilida faqat tengdoshlar bir-biriga va kattalar kichiklarga ismini aytib murojaat qilishi mumkin. Adresantning ismi ma'lum bo'lmaganda, o'zbeklar qarindoshlik ma'nolarini anglatuvchi so'zlardan murojaat shakli sifatida foydalanadilar. Masalan:

Keksalarga nisbatan : otaxon, bobo, onaxon, momo va h.k.

O'rta yoshlilarga nisbatan : amaki, tog'a, amma, xola, kennoyi va h.k.

Yoshlarga nisbatan: aka, uka, opa, singlim va h.k.

Bolalarga nisbatan: o'g'lim, qizim, bolakay va h.k.

G'arbda esa yoshga nisbatan bu kabi darajalanish Sharqdagi kabi kuchli emas. Sharqda tarixan murojaat shakllarining, asosan, qarindosh-urug'chilik munosabatlari va jamiyatdagi nufuziga ko'ra qo'llanilishi kuzatiladi. Masalan: Jinsga, xonadon boshlig'iga va xonadon

bekasiga nisbatan: bek, xo‘jayin, eshon, mirzo, begim, begoyim va h.k.

Nufuzga nisbatan: boy ota, xonim, xonim oyim, sultonim, shaxzoda, xonzoda, malika, kanizak va h.k.

Sharqda qarindosh-urug‘chilik munosabati juda mustahkam va keng doirada bulib, murojaat shakllarida ular turli ijtimoiy omillarga tayangan holda ifodalanadi. Masalan: Erkak jinsidagi keksalarga nisbatan: ota, dada, buva, bobo, opoqdoda, katta dada, amaki, tog‘a va h.k.

Ayol jinsidagi keksalarga nisbatan: buvi, oppoq buvi, kattabuvi, oyi, momo, ena, xola, qaynagachi, opoqi (oppoq oyi) va h.k.

Erkak jinsidagi yoshlarga nisbatan: amaki, tog‘a aka, akaxon, uka, ukajon va h.k.

Ayol jinsidagi yoshlarga nisbatan: opa, opajon, egachi va h.k.

#### XULOSA

Xulosao‘rnidashuni aytish mumkinki, o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda mashg‘ulotlarini lingvokulturologik yondashuv asosida tashkil etish ularda:

- o‘zbek tilini tezroq o‘rganishga qiziqish uyg‘otish;
- o‘zbek xalqi, uning urf-odatlarini, madaniyati va san‘ati bilan chuqurroq tanishish;
- O‘zbekiston haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishga intilishni kuchaytiradi.

Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishning metodik ta‘minotini lingvokulturologik yondashuv asosida tuzish til muhiti bo‘lmagan joylarda ham o‘zbek tilini ham intensiv o‘rganishga, ham talabalarga (til o‘rganuvchilarga) o‘zlari o‘rganayotgan til sohiblari hayoti, turmush tarzini chuqurroq o‘zlashtirishga, shuningdek, o‘zga xalqlarning milliy madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qarashdek umuminsoniy xususiyatlarni tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarga o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia ishlanmalari majmuasi”

2. Adilova S. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish ( oliy ta‘lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... diss. –T., 2004. –160 b.;

3. Asilova G. Oliy ta‘limda bojxona-soliq yo‘nalishida tahsil olayotgan rus guruhlarini talabalarini davlat tilida kasbiy muloqot yuritishga tayyorlash: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2017. – 291 b.;

4. Ahmedova G. O‘zbek tili darslarida talaba nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari (ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped. fan. nom. ... diss. –T., 2006. –164 b.;

## FAOLIYATLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna  
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada faoliyatli yondashuv talabalarning faol bilishini, o'quv ko'nikmalarining maqsadli shakllanishini, kelajakdagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish, uni amalga oshirish, bu yo'lda o'z-o'zini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish va baholashni amalga oshirish jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Faoliyatli yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining riskologik madaniyatini shakllantirishga doir tavsiyalar berilgan. Shuningdek, talabalarda riskologik madaniyatni shakllantirishning kognitiv, hissiy va amaliy komponentlari aniqlashtiriladi.*

*Kalit so'zlar: riskologik madaniyat, faoliyat, faoliyatli yondashuv, kognitiv komponent, hissiy komponent, amaliy komponent.*

## ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ РИСКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТНОГО ПОДХОДА

*Халмуратова Шахноза Бекмурзаевна  
Базовый докторант Нукусского государственного педагогического института*

*Аннотация: В данной статье деятельностный подход рассматривается как процесс активного обучения студентов, целенаправленного формирования учебных умений, планирования будущей профессиональной деятельности, ее реализации, самоконтроля в процессе, анализа и оценки результатов. На основе деятельностного подхода даются рекомендации по формированию рискологической культуры будущих учителей начальных классов. Также, определены когнитивный, эмоциональный и практический компоненты формирования рискологической культуры у студентов.*

*Ключевые слова: рискологическая культура, деятельность, деятельностный подход, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, практический компонент.*

## ISSUES OF DEVELOPING THE RISK CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS BASED ON AN ACTIVE APPROACH

*Khalmuratova Shakhnoza Bekmurzaevna  
Basic doctoral student at Nukus State Pedagogical Institute*

*Abstract: In this article, the activity-based approach is considered as a process of active learning of students, purposeful formation of learning skills, planning of future professional activity, its implementation, self-control in the process, analysis and evaluation of results. Based on the activity-based approach, recommendations are given for the formation of risk culture of future primary school teachers. Also, cognitive, emotional and practical components of the formation of risk culture in students are defined.*

*Key words: risk culture, activity, activity-based approach, cognitive component, emotional component, practical component.*

*Kirish. Dunyoda yuz berayotgan zamonaviy global beqarorlik va o'zgarishlar sharoitida ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki noaniqlik sharoitida ishlash va risklarni boshqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Bu esa risklarni samarali aniqlash, tahlil qilish, minimallashtirish va ularning oldini olish imkonini beruvchi ko'nikma va*

malakalar to'plami – riskologik madaniyatni shakllantirishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da ham oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish vazifalari belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat pedagogik faoliyatga tayyorlash, balki ushbu faoliyat jarayonida uchraydigan risklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga ham tayyorlashga erishiladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida oliy ta'limga faoliyatli yondashuv (activity-based approach) noan'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda faoliyatli yondashuv samaradorligi ta'lim oluvchilarning faol bilishini, o'quv ko'nikmalarining maqsadli shakllanishini, kelajakdagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish, uni amalga oshirish, bu yo'lda o'z-o'zini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish va baholashni ta'minlaydi.

Pedagogik ensiklopediyada "faoliyat" (arab. – harakatchanlik, samaradorlik) so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) biror sohada amalga oshiriladigan ish, mashg'ulot, harakat; 2) ish, harakatni amalga oshirish jarayoni.

Faoliyat kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faoliyat asosida inson mohiyati namoyon bo'lishi, jamiyatning mavjudligi ta'minlanadi. Inson va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, faoliyat turli shakllarda amalga oshiriladi: moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy faoliyat [3].

Faoliyatli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari psixolog olimlar A.N.Leontiev, S.L.Rubinshteyn va L.S.Vigotskiylar tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik faoliyatli yondashuv V.V.Davydov, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin, A.K.Markova, N.F.Talizina, L.V.Zankov singari tadqiqotchilar tomonidan takomillashtirilgan.

S.L.Rubinshteyn o'zining "Принцип творческой самостоятельности" nomli maqolasida ong va faoliyatning birligi tamoyilini shakllantiradi, unga ko'ra shaxs va uning ongining rivojlanishi amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi [4]. Olim tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tamoyil keyinchalik faoliyatli yondashuvning asosiga aylanadi.

A.N.Leontiev psixologiya sohasidagi faoliyatning psixologik nazariyasini ishlab chiqadi. Uning fikricha, faoliyat shaxsiy asos bo'lib, u bilim va ko'nikmalar bilan birga amalga oshiriladi, shuningdek, faoliyat orqali insonning shaxsiyati va individualligi namoyon bo'ladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada faoliyatli yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining riskologik madaniyatini rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, talabalarining riskologik madaniyatini rivojlantirishning mavjud holatini o'rganish maqsadida "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari tahlil qilinadi. Pedagogik, psixologik manbalar va olimlarning fikrlari o'rganilib, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Riskologik madaniyat – bu insonning risklarni tan olish va baholash, noaniqlik sharoitida ongli qarorlar qabul qilish, shuningdek, mumkin bo'lgan tahdidlarni hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyati. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu juda muhimdir, chunki ular ijtimoiy mas'uliyatli sohada ishlaydi: bolalarning xavfsizligi, salomatligi va rivojlanishi ularning qarorlari va harakatlariga bog'liq.

Madaniyatning bu turini shakllantirish psixologiya, pedagogika, menejment va tegishli

sohalardagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. Bu quyidagi tarkibiy qismlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

kognitiv komponent bu riskning tabiati, uning turlari, baholash va boshqarish usullari haqidagi bilimlar majmui;

hissiy komponent – stressga qarshilik, risklarga chidamlilik va qiyin vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash qobiliyati;

amaliy komponent – bu o'quv amaliyotida risklarni aniqlash va boshqarish ko'nikmalari.

Talabalarning riskologik madaniyatini faoliyatli yondashuv asosida rivojlantirishning mavjud holatini o'rganish maqsadida dastlab 60110500 – Boshlang'ich ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga tegishli o'quv-me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi:

1. 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi malaka talablari.

2. 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi.

3. 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlari.

60110500 – Boshlang'ich ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarda pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-boshqaruv singari malaka talablari belgilab berilgan. Ushbu malaka talablarda talabalarning riskologik madaniyatini rivojlantirishga doir kompetensiya elementlari mavjudligi aniqlandi. Ya'ni:

Pedagogik faoliyatiga doir: umumiy o'rta talim maktablarining boshlang'ich sinflarida “Ona tili va o'qish savodxonligi”, “O'qish”, “Matematika”, “Texnologiya”, “Tabiiy fanlar”, “Tarbiya”, (Informatika, tasviriy san'at, musiqa) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida kasbiy fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish; o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash; o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish; tarbiyaviy faoliyatni taqdim etish; xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash; o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish; hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik o'rnatish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga doir: boshlang'ich ta'lim fanlariga doir internet tarmog'idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqida ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirib topish va amaliyotga tadbiiq etish; boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish; boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga doir: o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish; globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga yangi taraqqiyot strategiyasi g'oyasini singdirish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga doir: pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish; jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish; fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish; bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish [2].

Keyingi vazifa 2023-yilda ishlab chiqilgan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasini tahlil qilish bo'lib, mazkur o'quv rejada majburiy fanlar va tanlov fanlari bloklari mavjud. O'quv rejasining majburiy fanlar blokida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mutaxassislikka oid bilimlar berish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetensiyalarini va riskologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan

bog'liq 11 ta o'quv fani mavjudligi aniqlandi. Bu fanlarni o'qitish davomida talabalarning riskologik madaniyatini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda faoliyat yondashuv talabalarning faol harakatlarni o'rganishda asosiy rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning riskologik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki risklarni boshqarish ko'nikmalarini faqat nazariy ta'lim orqali rivojlantirish mumkin emas. Shu sababli, bu jarayonda amaliyot, vaziyatlarni modellashtirish va mulohaza yuritish talab etiladi.

Riskologik madaniyatni shakllantirishda faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillari:

1. Haqiqiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish. Bo'lajak o'qituvchilar malakaviy amaliyot davomida risklarni o'rganish va qarorlar qabul qilishni talab qiladigan holatlarni tahlil qilishlari kerak. Masalan, o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatli holatlar, sinfdagi voqealar yoki ota-onalar bilan muammolar.

2. Mashg'ulotlarni individuallashtirish. Har bir talabaga risklarni boshqarishda kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam berish muhimdir. Buni diagnostik testlar va qayta aloqa orqali amalga oshirish mumkin.

3. Interfaol usullar. Ishbilarmonlik o'yinlari, treninglar va muhokamalardan foydalanish amaliy ko'nikmalar va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Tajribani aks ettirish va tahlil qilish. Amaliyot topshiriqlarini bajargandan so'ng, tanqidiy fikrlash va xatolardan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz yechimlarni tahlil qilish muhimdir.

Biz, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining riskologik madaniyatini shakllantirishga doir quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

“Boshlang'ich ta'lim” bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv dasturiga “O'qituvchilik faoliyatida risklarni boshqarish” yoki “Pedagogik riskologiya” kabi fanlarni joriy etish.

talabalarga murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beruvchi keys metodlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish.

stressga chidamlilik va hissiy o'zini o'zi boshqarish bo'yicha treninglar tashkil etish.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining riskologik madaniyatini shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim shartidir. Faoliyatli yondashuvdan foydalanish nafaqat bilimlarni uzatish, balki noaniqlik sharoitida ishlash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu madaniyatning rivojlanishi zamonaviy voqelikda ayniqsa muhim bo'lgan ta'lim jarayonining xavfsizligi va samaradorligini oshirishga qo'shilgan hissadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-5847-son Farmoni

8. Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 344-sonli buyrug'i. – Toshkent, 2023. – 14 b.

9. Педагогика энциклопедия III жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 424 б.

10. Рубинштейн С. Л. Принцип творческой самодеятельности // Вопросы психологии. 1986. № 4. С. 101–107.

11. Традиции и перспективы деятельностного подхода в психологии. Школа А. Н. Леонтьева. М.: Смысл, 1999.

---

## **BOSHLANG'ICH SINIF “ONA TILI” DARSLARINI TA'LIMY O'YINLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MAZMUNI**

*Xasanova Komila Toxirovna,  
Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri*

---

## **СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ УРОКОВ «РОДНОЙ ЯЗЫК» НА ОСНОВЕ УЧЕБНО-ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*Хасанова Комила Тохировна,  
Бухарский международный университет Асия магистр 2 курса*

---

## **CONTENT OF ORGANIZATION IN THE PRIMARY CLASS OF LESSONS “NATIVE LANGUAGE” BASED ON EDUCATIONAL GAME TECHNOLOGIES**

*Xasanova Komila Tokxirovna,  
Bukhara international university Asia 2nd year master*

---

*Annotatsiya: maqolada respublikamizda boshlang'ich ta'lim tizimida “Ona tili” fanini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish ahamiyati, ta'lim sifat samaradorligidagi o'rni, uning qo'llanishi, hozirgacha o'rganilganligi, uning tahlili va ilmiy nazariy qarashlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Boshlang'ich ta'lim tizimida ta'limiy o'yinlardan maqsadli, o'z o'rnida bajartirilishi, uning turlari, o'rganilishi va amalda qo'llanishi ona tili fani misolida tahliliy ko'rsatilgani haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: ta'limiy o'yin texnologiyalari, o'yinli faoliyatni motivatsiyalash, o'yin xarakteri, musobaqalashish, kichik maktab yoshi, ta'lim samaradorligi.*

*Аннотация: в статье рассматривается значение использования обучающих игр при обучении «Родному языку» в системе начального образования нашей республики, ее роль в качестве образования, ее применение, что изучено к настоящему времени, ее анализ и даются общие сведения о научных теоретических взглядах. В системе начального образования считается, что обучающие игры должны проводиться целенаправленно, их виды, обучение и практическое применение аналитически показаны на примере изучения родного языка.*

*Ключевые слова: образовательные игровые технологии, мотивация игровой деятельности, игровой характер, соревнование, младший школьный возраст, эффективность обучения.*

*Annotation: the article discusses the importance of using educational games in teaching the “Native Language” in the primary education system of our republic, its role in the quality of education, its application, what has been studied to date, its analysis and provides general information about scientific theoretical views. In the primary education system, it is believed that educational games should be carried out purposefully; their types, training and practical application are analytically shown using the example of learning a native language.*

*Key words: educational gaming technologies, motivation for gaming activities, gaming character, competition, primary school age, learning efficiency.*

Mamalakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor diqqatga sazovordir. Buning yaqqol isbotini esa kuni kecha tasdqilangan, “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ko'rishimiz mumkin. Ushbu strategiyada ta'lim sohasiga oid ko'plab vazifalar belgilab berilib, ma'lumbir miqdordagi mablag'lar ajratilishi rejalashtirildi. Bu esa yurtimizda yoshlar ta'lim tarbiyasiga qaratilgan cheksiz

e'tibor, e'tirof belgisidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan da'vatlari ta'limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ijodiy fikrlovchi keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.

Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning innovatsion mexanizmlarini tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlovchi keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash metod va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'limda Milliy o'quv dasturi asosida darsliklar hajmini ixchamlab, bolalarga tushunarli tarzda, zarur bo'lsa qismlarga bo'lib, rangdor rasmlar, bolalarbop qilib chop etish, nazariy asoslangan matnlarning o'rniga turli xil qiziqarli mashq va topshiriqlar asosida o'yinlar vositalari bilan bog'lanishi, didaktik talablarni o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, asosan, tasavvur qilishi orqali fikr yuritadilar. Ya'ni qandaydir holat yoki narsa-hodisaning nomi keltirilganida ular tasavvurlarini ishga solishadi va aytilgan narsani tasavvur qilib ko'rishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham ular ko'pincha o'ynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Shu sababli yangi Milliy o'quv dasturi asosida o'tkaziladigan darslarimizda o'yin mashg'ulotlari tez-tez o'tkazilib turadi. Chunki, yosh bolaga berilayotgan bilimni o'yinlar orqali singdirsak, ular uchun quruq qoida yodlash va uzluksiz mashq ishlataverishdan qiziqroq tuyuladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalaridan endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilarida bu yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunda to'g'ri tanlangan tashkiliy o'yinlar darsda har bir o'quvchining har tomonlama imkoniyatlarini beradi, madaniy hordiq chiqaradi. To'g'ri tanlangan degan tushunchani biz keng ma'noda olishimiz mumkin. Shu o'rinda o'z-o'zidan bizda savol tug'iladi. Xo'sh, o'yinlarimiz to'g'ri tanlangan degan xulosaga kelinishi uchun biz uni qaysi shartlar asosida tanlashimiz kerak? Avvalambor, tashkil qilinadigan o'yinlar bola yosh xususiyatlariga to'laqonli ravishda mos bo'lishi lozim. Bola yosh xususiyatlari deganda uning ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishi jihatidan olamiz. Ikkinchidan, o'yinlarimiz kerakli paytda tashkil qilinishi lozim. Ya'ni bu dars bosqichlari bilan o'zaro aloqador.

O'yin bola hayotida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol va ilmiy insonlar etib tarbiyalashning muhim shakllaridan biri – bu ta'limiy o'yinlardir. Maktab sharoitida o'yinlarni tashkil qilish bolalarni yanada maktabga yaqinlashtiradi, ular o'zlarining sevimli mashg'uloti ya'ni o'yinlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Maktabga majburan emas, balki o'z xohishlari bilan keladigan bo'ladi. Shu bilan birga, o'yin o'ynash orqali o'quvchilarda dars jarayonida hosil bo'lgan zerikish va toliqish holatlarining oldi olinadi. Bizga ma'lumki, ushbu yoshdagi bolalarning diqqati beqaror bo'ladi, tez-tez qaytariladigan o'yinlar ham ularning zerikishiga olib keladi. Shu sababli, turli xildagi qiziqarli o'yinlardan dars davomida foydalanish samarali natija beradi.

O'yin bu ijod, o'yin bu hayot demakdir. Darhaqiqat o'yin bola uchun yashash tarzi, asosiy

faoliyat jarayonidir. O'yinlar jarayonida bolaning dunyoqarashi shakllanadi, u o'zini o'yin jarayonida kashf qilib boradi.

Shunday ekan, respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z fikrini erkin bayon eta olish, milliy ruhni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun dars jarayonida o'yinlardan foydalanib, shu malaka va ko'nikmalarni o'yin yordamida shakllantirish samara beradi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish o'quv tarbiya jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi farqidir. Ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi tafovvt qancha kam bo'lsa ta'lim shuncha samarali sanaladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishning ikki xil ko'rsatkichi mavjud: samaradorlikning sifat ko'rsatkichi ma'lumot mazmuni va faoliyat usullarini egallash shartlariga muvofiq aniqlanadi. Samaradorlikning sifat ko'rsatkichiga quyidagilar kiradi: o'quv-tarbiya ishlarini bolalarga eng yuqori darajadagi taraqqiyotini mo'ljallab tashkil etish: ta'lim jarayoni maqsadi bilan natijasi o'rtasidagi tafovvtu uzluksiz kamaytira boradi: ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga maqsadi bilan natijasi o'rtasidagi tafovvtu uzluksiz kamaytira borish: ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga mosligini ta'minlash o'quv materiallari va taraqqiyoti o'rtasidagi farqlarga ko'ra aniqlanadi.

Samaradorlikning miqdor ko'rsatkichi quyidagilar; ta'lim sifatini yaxshilash; jarayon natijasining kutilgan maqsadga (bilim, malaka, ijodiy qobiliyat tajribasini davlat standarti natijasiga ko'ra va undan yuqori darajada o'zlashtirish, yaqinlashtirish; ta'lim vositalarining o'quv tarbiya jarayoni mohiyatiga mosligini ta'minlash va o'z budjetini ratsional taqsimlash.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning birinchi o'lchovi; ta'limni bolalarning eng yuqori darajasidagi taraqqiyotini mo'ljallab tashkil etishdir. Didaktika qonun qoidalariga ko'ra ta'lim oldinda borishi va u o'ziga bolalar taraqqiyotini ergashtirishi" lozim. Ta'lim jarayonini samarador tashkil etish ma'lumot mazmunini o'zlashtirish va o'quvchilarning taraqqiy ettirishni bir paytda olib borishi va u o'ziga bolalar taraqqiyotini ergashtirishi lozim. Ta'lim jarayonini samarador tashkil etish ma'lumot mazmunini o'zlashtirish va o'quvchilarning taraqqiy ettirishni bir paytda olib borishni taqozo etadi. Demak, ta'limning samaradorligini oshirishning birinchi tomoni yoshlarni ma'lumotli qilish va aqliy rivojlantirishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini oshirishning ikkinchi o'lchovi ta'lim maqsadi bilan uning natijasi o'rtasidagi farqni imkoniyat yetgunicha kamaytirishdir.

Hozirgi paytda ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad bilan erishilgan natija o'rtasidagi faoliyatda formalizmning borligi, mexanik yondashuvning hali – ham mavjudligi, ijodiy ishlarni tashkil etish an'ana tusini olmaganligini izohlaydi. Binobarin, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning navbatdagi tamoyili ta'lim natijasini imkoniyat yetguncha qo'yilgan maqsadga yaqinlashtirishdir.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning navbatdagi o'lchovi ta'lim vositalarining ta'lim jarayoni aktlari zvenolariga mosligidir. Ta'lim vositalari ta'lim jarayoni mohiyatiga, aynan olingan akt yoki zvenoga qancha mos bo'lsa, ta'lim samaradorligi shuncha oshadi.

Ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga mosligi ularning ko'pligi yoki tanqisligi emas, aksincha ularning optimalligidir. Xarajatlarni davlat budjeti va buyurtmasi doirasida eng yuqori natijaga erishish samaradorlikni oshirishning yana bir tamoyilidir. Samaradorlikni oshirishning oxirgi o'lchovi o'quv materiallari va unga oid faoliyat usullarini bir paytda o'zlashtirishdir. Hozirgi pedagogik tajribada oldin o'quv materiallariga oid ma'lumotlarga doir faoliyat usullari o'zlashtiriladi. Ta'limni shu yo'sinda tashkil etish ko'p vaqt talab qiladi. O'quv materialini va unga oid faoliyat usullarini bir paytda o'zlashtirish vaqtini iqtisod qilishga olib keladi. Demak, vaqt budjetidan tejamkorlik bilan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning navbatdagi tamoyilidir.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish

bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir. L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leontyev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar: maftunkorlik, kommunikativlik, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, davolovchilik, tashxis, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A. Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoni"ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;

o'quv faoliyati o'yin qoidalarga bo'ysunadi;

o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;

o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan. Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontyev, P.Y. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitatsion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A. Verbitskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbitskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni o'quvchini bir yetakchi faoliyat tipi (o'quv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi. Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materialini mazmunining izchilligi;

o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;

o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;

o'yinni olib boruvchi o'qituvchining o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan o'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

A.S. Arbenyev va G.F. Arbenyevlar tadqiqotlarida tadbirkorlik o'yini mutaxassisning evristik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi. A. Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'i nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi. O'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;

mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;

o'qitishning muammoliligi;

metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligi.

Tashkiliy o'yin aslida tobora takomillashib boruvchi o'qitishni ta'minlashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to'liq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya'ni qandaydir vaziyat yechimiga bo'lgan yondashuvdan topilgan yechimning umumlashtirilgan bahosi o'tiladi.

A.A. Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

-vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yinning asosiy syujet mavzusi bo'yicha o'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi.

-amaliy guruhlarning ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;

-o'yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish; yechimni tashkil etish bosqichi.

Y.S. Ginzburg va N.M. Koryak o'yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo'lmaslik xarakteri;
- belgisizlik (mavhumlik), tarqaluvchanlik xususiyati
- Tadbirkorlik o'yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:
- ishtirokchilarni tanlash;
- rollarni taqsimlash;
- o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

I.Olloyorov tadbirkorlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan, aniq belgilangan didaktik funksiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda ta'limiy o'yinlar qo'yidagi maqsadlarda o'tkaziladi: Bolalarda didaktik topishmoqlar o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish jamoa o'yinlarini tashkil etish; narsalarni faqat bir rangiga qarab ajratib olish katta-kichikligiga qarab ajratib olish kattalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib topish buyumlar tasvirlangan ikki to'rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlar asosida o'yinlar o'ynash va xokazolardir.

Musiqaviy ta'limiy o'yinlarda esa musiqa ovozlarning ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish qadam va yugurish ritmini ovoz va cholg'u asbobolari, tanburlarini (musiqaviy sonlarni o'ylab top, ovozidan bilib ol) ajrata bilishga o'rgatish vazifasi xam hal etiladi. Yana didaktik o'yin davomida bolalar o'rtaga qo'yilgan masalani hal etishda sabrmatonatli bo'lishga qiziquvchanlikka odatlanib boriladi. Musiqaviy ta'limiy o'yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qilishiga o'rgatib boriladi.

4-sinflarda ta'limiy o'yinlar quyidagi vazifani hal etishni maqsad qilib qo'yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilishi, bir-biriga taqqoslash ularning belgilaridagi kichik farqlarni rangi, shakli, katta-kichikligi, materialni seza bilishi, narsalarning joylashishdagi o'zgarishlarini aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarini tarbiyalash biror xayvon, o'simlik, transportlarni ta'rif-tasnif qilib berishganda ularning nomini topa olish, malakasini o'stirish, bolalarning umumiy tasavvurini buyumlarni umumiy belgilarga qarab guruxlarga bo'lib qobiliyatini rivojlantirish va to'ldirish qismlardan yaxshi narsalardan bilan o'ynash malakasini o'stirishdir. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlar xamma yosh guruxlardagidek ta'lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori. 6-aprel 2017-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". – 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
4. Abdurahmonova N. Qiziqarli dars-faollikdir G'G' Boshlang'ich ta'lim, 2000. - № 3.- 83

b.

5. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. T: O'qituvchi, 1991. 40 bet.
13. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika.-Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
6. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. So'z boyligini oshirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1997. –98 b.
7. Tolipova R.T. O'yin - o'zbek maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari ruscha nutqini o'stirish vositasi sifatida. – Toshkent, 1991. - 225 b.
8. G'afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf,2003.–54 b.
9. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.
10. Saidov T. Ilg'or pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyatini “Aqliy hujum” usuli bilan o'qitish texnologiyasi.- Toshkent, 2003.

## TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARSLARNI IJODIY TASHKIL ETISH

*Xasanova Maftuna Ixtiyor qizi,  
Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri*

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ТВОРЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ

*Xasanova Maftuna Ixtiyorovna,  
Бухарский международный университет Асия магистр 2 курса*

## INCREASING THE EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL PROCESS CREATIVE ORGANIZATION OF LESSONS

*Xasanova Maftuna Ixtiyor kizi,  
Bukhara international university Asia 2nd year master*

*Annotatsiya: maqolada kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlari ijodkorligi, iqtidori, ularning qiziqishi haqida psixolog pedagoglarning ilmiy- nazariy qarashlari, kuzatishlarini o'rganib, tahlil qilib, hozirgi zamon ta'lim samaradorligiga mosligi o'rganilgan. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish, ular orqali o'quvchi dars o'zlashtirishiga ta'sirini boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitiladigan ona tili, o'qish savodxonligi fanlari misolida tahliliy ko'rsatilgani haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: ijodiy faoliyat, kichik maktab yoshi, psixologik tahlil, shaxsning fiziologik, pedagogik-psixologik va jismoniy rivojlanishi, ta'lim samaradorligi.*

*Аннотация: в статье рассматриваются и анализируются научно-теоретические взгляды и наблюдения психологов и педагогов о творчестве, таланте и интересе детей младшего школьного возраста, а также исследуется их совместимость с эффективностью современного образования. При этом будет проанализирована организация творческой деятельности учащихся младших классов, влияние ее на усвоение учеником урока на примере предметов родного языка и грамотности чтения, преподаваемых в системе начального образования.*

*Ключевые слова: творческая деятельность, младший школьный возраст, психологический анализ, физиологическое, педагогико-психологическое и физическое развитие личности, эффективность обучения.*

*Annotation. the article examines and analyzes the scientific and theoretical views and observations of psychologists and teachers about the creativity, talent and interest of children of primary school age, and also examines their compatibility with the effectiveness of modern education. At the same time, the organization of creative activity of primary school students and its impact on the student's learning of a lesson will be analyzed using the example of native language subjects and reading literacy taught in the primary education system.*

*Key words: creative activity, primary school age, psychological analysis, physiological, pedagogical-psychological and physical development of the individual, teaching effectiveness.*

*Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish, kichik maktab yoshidan o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini tarbiyalash, o'qishga qiziqishi, hohish va istagini, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv tuzilmalarini ishlab chiqish, o'quvchining intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi pedagogik texnologiyalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi davr*

metodikasining ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlar predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqda.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolliqi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maksadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofidagilar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayoti tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllardagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Muayyan jamiyatda asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda shaxsning fiziologik, pedagogik-psixologik va jismoniy rivojlanishiga ko'ra yondashish tajribasi shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatlilik darajasi, qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishildi. N.S.Leytes, M.Karne, V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, A.Sh.Shvedel, R.S.Stounberner, L.Termen kabilar tomonidan qobiliyatlilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, qobiliyatli shaxslarning o'ziga xos pedagogik-psixologik sifatlarining tadqiq etilishi hamda ular bilan munosabatni to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta'minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning "cheksiz imkoniyatlari"dan

samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi. J.Uitmor quyidagi omillar bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratishini asoslab berdi:

1. Mukammallikka intilish (perfeksionizm). Qobiliyatli bolalar uchun kamolotga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlaricha tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshlikdan ko'zga tashlanadi.

2. Qoniqmaslik tuyg'usiga egalik. O'z-o'ziga bunday munosabatda bo'lish qobiliyatli nima bilan shug'ullansa ularning barchasida mukammal bo'lishga intiluvchi bolalarga xos xususiyat sanaladi. Ular shaxsiy yutuqlariga tanqidiy yondashadilar, ko'p holatlarda ulardan qoniqmaydilar, bundan o'z-o'zini noto'g'ri va past baholash hissi yuzaga keladi.

3. Noreal (amalga oshish imkoniyati kam bo'lgan) maqsadlarga egalik. Qobiliyatli bolalar odatda o'z oldilariga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ular tashvishlana boshlaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, mukammallikka intilish yuksak yutuqlarga erishish imkonini beruvchi kuchdir.

4. O'ta sezgirlik. Qobiliyatli bolalar eshitish imkoniyatining yuqoriligi tufayli ular munosabat va aloqalarni yaxshi tushunadilar, ular nafaqat o'zlariga, shu bilan birga atrofdagilarga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Qobiliyatli bolalar juda ta'sirchan bo'lib, ular atrofdagilardan o'zlariga nisbatan bildirilayotgan yoqimsiz so'z yoki so'zsiz harakatlarning paydo bo'lishi bilanoq qabul qiladilar. Doimiy ravishda turli ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarga javob beraverish oqibatida bunday bolalar ko'p hollarda giperfaol va tez chalg'iydigan bo'lib qoladilar.

5. Kattalarning e'tiborlariga ehtiyoj sezish. Tabiatan qiziquvchanliklari va bilishga bo'lgan intilish ko'p hollarda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli kishilarning e'tiborlari o'zlarigagina qaratilishini xohlaydilar. Bu boshqa bolalar bilan munosabatlarda bunday istakni keskinlashtiruvchi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

6. Sabrsizlik. Qobiliyatli bolalar ko'p holatlarda aqliy jihatdan o'zlariga nisbatan past salohiyatga ega bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shu sababli ular toqatsizlik va sabrsizlikni ifodalovchi tashqi tanbehlariga duch keladilar.

O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar: [9,65]

1. Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan "Men" obraziga egaliklari bilan ajralib turadilar.

2. Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.

Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.

3. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.

4. Qobiliyatli bolalar "bilimlarni o'rtacha o'zlashtiruvchi" o'quvchilar bilan bir guruh (sinf) da o'qitilganda xuddi o'zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.

5. Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

6. Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar o'quvchilarni bir ta'lim muassasasida uzluksiz o'qitishni talab etadi.

7. Ota-onalar va mutaxassislar uchun bola oldiga qo'yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo'llarini aniqlashga bo'lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

8. Dasturning ajralmas qismi bola muvaffaqiyatlarini baholovchi tizim bo'lishi lozim.

9. Dastur o'zida ota-onalar ham muhim rol o'ynaydigan qobiliyatlilikning namoyon bo'lishini ta'minlovchi yaxshi tashkillashtirilgan, samarali va doimiy harakatdagi tizimni qamrab olishi lozim.

10. Dastur bolaning rivojlanishini ta'minlovchi hamda bir darajadan ikkinchi darajaga samarali va izchil o'tishi uchun zarur imkoniyatga ega bo'lishi zarur.

11. Dastur maqsadlariga erishishga bo'lgan intilishni rivojlantira olishi kerak.

12. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – dasturning muhim maqsadlaridan biri sanaladi.

13. Qobiliyatli rahbarlarni iqtidorli bolalarga ta'lim berishga jalb etishning zaruriy yo'llarini topish maqsadga muvofiqdir.

Manbalarda “qobiliyat”, “iqtidor”, “iste'dod” va “salohiyat” tushunchalarining garchi yagona negizga ega bo'lsa-da, biroq turli darajadagi xususiyatlarni ifodalashi alohida ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, qobiliyat “shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ishni muvaffaqiyatli bajarishidagi o'ziga xos imkoniyatlarni ifodalovchi ruhiy xususiyatlar”, “shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual pedagogik-psixologik xususiyatlar” sifatida e'tirof etilsa, “insonning o'z xatti-harakatlariga nisbatan sub'ektiv munosabati” esa iqtidor deya talqin etiladi. Mavjud manbalarda shaxsning o'zgalardan farqli xususiyatlarini anglatishga xizmat qiluvchi individual xususiyatlarga egalik turli darajada bo'lishiga va darajasiga ko'ra shaxsga muayyan nisbatlar berilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilar unga yosh boladek emas. Balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatgaaazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'zo'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning «Men shuni xoxlayman» motividan «Men shuni bajarishim kerak» motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-harakatida ham ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikningsusayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek u o'zini–o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab «Men yaxshi bolaman» emas, balki bu xatti–harakatlari o'zgalari ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanyotganida tayyorlanadi.

Psixolog Pijaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar asosan real borliqni tasavvur etsalar boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga bog'liq kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum obrazlar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qo'rquvni yengish, do'st topish, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanyotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar

kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. Tasavvur bolani vaqtinchalik bo‘shashiga va bu bo‘shashish vaqtida ota-onasiz yashashini davom ettirish uchun kuch to‘plashga imkoniyat yaratadi. O‘z bolasiga doimiy baqiradigan asabiy ona o‘z farzandining tasavvurida mehribon farishta, o‘z onasini katta, qo‘rqinchli xavfdan qutqarayotgan qahramonlik yoki bolaga doimiy ravishda ozor berganligi uchun ham o‘lib yotgan ona sifatida tasavvur etishi mumkin. O‘z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o‘zining kelgusi xatti-harakatlar motivatsiyasini tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o‘z-o‘zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bola o‘qituvchisi bilan mustahkam emotsional bog‘liq bo‘ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xoxish irodasi bilan zarur mahlumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanishini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta‘lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Shu yoshdagi bola boshqa davrlarga qaraganda ko‘proq narsani o‘zlashtiradi. Maktab ta‘limi o‘quvchining turmush tarzini ijtimoiy mavqeiini sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolni o‘zgartiradi, uning vazifasi o‘qishdan, bilim olish, ko‘nikma va malakalarini egallash, o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyati bilan muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o‘quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o‘z portfeliga, shaxsiy o‘quv qurollariga dars tayyorlash burchagiga, kitob qo‘yish javoniga ega bo‘lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Kichik maktab yoshidagi bola o‘zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Ammo u kattalarning ko‘rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg‘ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgach shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi va bola o‘qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini angalaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa uning o‘qishdankonngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O‘qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta‘limning o‘yindan farqi, qiziqarliligi haqida mah‘lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta‘limning mazmuni o‘quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu his o‘qituvchining rag‘batlantirish bilan amalga oshiriladi va o‘quvchida samaraliroq ishlash moyili, istagi va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo‘lgan faxrlanish o‘z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish jarayoni o‘quv faoliyatining asosiy komponentlari o‘quv vaziyatlari, o‘quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V.V. Davidov bo‘yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo‘lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o‘quv harakatlarini noto‘g‘ri bajarsa bu uning o‘quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog‘liq harakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo‘lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajarilgan harakatlar natijalarini o‘z xatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o‘z o‘zini nazorat etish xususiyatlarini ma‘lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O‘quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo‘llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlang‘ich sinf ta‘limi dasturlaridagi ko‘pgina mavzu va bo‘limlarni o‘rgatish bolalarni ma‘lum bir sinfga taalluqli namunalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish orqali tashkil etilishi kerak deb ta‘kidlanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining masalalarni yechishdagi

ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligi natijasidir. O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti - harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktablar dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari bu aqliy rivojlanganlik va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi kattalashgan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi[9,87]. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quvchanligi albatta o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti – harakatigata'sir ko'rsatadi. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. «Bola-katta» munosabati bola-ota-ona» munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-ona nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liqlanglashi va o'zi xatti– harakatlarini aniq bilishi qiyin.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish murakkab tizim bo'lib, loyihalash maqsadga muvofiq faoliyat, faoliyat vositasi, faoliyat predmetidan iborat. O'quv materialiga metodik ishlov berish u yoki bu mavzuni o'qitishga oid maqsadlar tizimini belgilash va shu maqsadlarga mos vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan ishlarni hisobga olib ta'limni loyihalashtirish jarayonini aniqlashtirish zarur omillardan biridir.

O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofidagilar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllaridagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgartirganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslahatlashishadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni
2. Sh.M.Mirziyoyev “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son Farmoni
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. 132 bet
4. Markova A.K. O'qituvchi faoliyatini psixologik tahlil qilish. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi. .:M, 1993, 235 bet 6-11
5. Matchonov S. va b. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T., Yangiyo'l poligraf serfis. 2008.
6. Mamatova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. –T.: Istiqloq. 2010.
7. Pulatova D., Boshlang'ich ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish usullari, T.: 2011.

## ZAMONAVIY TA'LIMDA KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH: PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Xaydarov Xolbek Xaydar o'g'li  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

*Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida yosh avlodning ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Kreativlik tushunchasining mohiyati, uning shaxsiy va kognitiv komponentlari, zamonaviy tadqiqotlar asosidagi yondashuvlar, shuningdek, ijodkor shaxsni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek kreativlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va ijodiy yondashuvlarni qo'llashning ahamiyati, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ko'maklashuvchi sharoitlar, pedagogik jarayonda evristik metodlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari muhokama qilingan. Shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim mazmuni va metodlarining uzluksiz takomillashtirilishi jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Kreativlik, kreativ qobiliyat, ijodkorlik, produktiv, intellektual yondashuv, shaxsiy yondashuv, sintetik yondashuv, kreativ shaxs, kreativ shaxs xislatlari, kreativlikni rivojlantiruvchi omillar.*

## РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Х.Х.Хайдаров  
Преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук»  
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

*Аннотация: В данной статье проведен анализ теоретических и практических аспектов формирования и развития творческих и креативных способностей молодого поколения в образовательных учреждениях. Раскрывается сущность понятия «креативность», его личностные и когнитивные компоненты, современные исследовательские подходы, а также психологические и педагогические основы формирования творческой личности. Кроме того, обсуждается важность применения инновационных технологий и творческих подходов в учебном процессе для развития креативности, условия, способствующие развитию творческих способностей, перспективы использования эвристических методов и игровых технологий в педагогическом процессе. Развитие творческих способностей личности, постоянное совершенствование содержания и методов обучения представлены как важный фактор удовлетворения потребностей общества.*

*Ключевые слова: креативность, креативные способности, творческое мышление, продуктивность, интеллектуальный подход, личностный подход, синтетический подход, креативная личность, черты креативной личности, факторы развития креативности.*

## DEVELOPING OF CREATIVE ABILITIES IN MODERN EDUCATION: PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL APPROACHES

*X.X.Xaydarov, teacher,  
Department of Social and Humanitarian Sciences,  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture*

*Abstrakt: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation and development of creative and innovative abilities among the younger generation in educational institutions. The essence of the concept of «creativity» is revealed, including its personal and cognitive components, modern research approaches, as well as the psychological and pedagogical foundations for developing a creative personality. Additionally, the importance of applying innovative technologies and creative approaches in the educational process to foster creativity is discussed. The article highlights the conditions that facilitate the development of creative abilities, the prospects of using heuristic methods, and game-based technologies in the pedagogical process. The development of individual creative abilities and the continuous improvement of the content and methods of teaching are presented as key factors in meeting societal needs.*

*Keywords: creativity, creative abilities, creative thinking, productivity, intellectual approach, personal approach, synthetic approach, creative personality, traits of a creative personality, factors for the development of creativity.*

Kirish. Ta'lim muassasalarida yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni tarkib toptiradigan, tez sur'atlarda rivojlanib, o'zgarib borayotgan hayotiy sharoitlarga moslashuvchan, ijodiy faol va tadbirkor, o'zining kasbiy faoliyat yo'nalishini o'zi belgilay oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda o'z xatti-harakatlariga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadlaridan biridir. Bu jarayon yoshlarning ilmiy, ijodiy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularda jamiyatga foyda keltiradigan faol va mas'uliyatli shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Bugungi kunda jamiyatning zamonaviy talab va ehtiyojlaridan, hamda ta'lim muassasalarida har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tayyorlash borasidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda kreativ va ijodkor shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz ta'lim sharoitida o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish muammosining nazariyasi va amaliyotini, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish uchun "kreativlik" tushunchasining tavsifini aniqlab olish lozim.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijodkorlik, kreativlik (lotincha creatio – vujudga keltirish, yaratish) intellektual va boshqa omillarga bog'liq ko'p o'lchovli (shaxsiy, ijtimoiy) hodisa sifatida baholanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Hozirgi davrda kreativlik muammosiga oid pedagogik va psixologik tadqiqotlarda turli yondashuvlar tadqiq etilmoqda. Xususan D.B.Bogoyavlenskayaning intellektual tashabbuslarni namoyon bo'lishi [1,138]; I.P.Koloshinaning faoliyatning o'ziga xos bo'lgan alohida strukturasi [2,64]; A.M.Matyushkinning ijodiy jarayonning yaxlit strukturasi [3,43]; A.Y.Ponamaryovning harakatning ichki rejalarini rivojlantirish konsepsiyasi[4,21] kabi yondashuvlar shular jumlasidandir. Bu yondashuvlar mazkur muammoga g'oyalarni aniq bir texnologiyaga integratsiyalashuvi uchun qulay sharoit yaratadi.

Keyingi o'n yillikda mazkur muammo bo'yicha bir qator pedagogik va psixologik tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ayrimlari pedagogning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti, kreativlik va xavotirlik kayfiyatining o'zaro aloqadorligi, innovatsion

ta'lim muassasasi boshqaruv xodimlarining kasbiy kreativligi, shaxsning ijodkor sifatida rivojlanishining pedagogik jihatlariga bag'ishlangan.

Kreativlik mohiyatini belgilashga turlicha yondashuvlar mavjud.

1. A.Tannenbaum, A.Olox, D.B.Bogoyavlenskaya, A.Maslou - alohida ijodkorlik qobiliyatlari mavjud emas. Intellektual qobiliyat zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi, biroq shaxsning ijodiy faolligi sharoiti yetarli bo'lmaydi. Ijodiy xatti-harakatlarning determinatsiyasida motivlar, qadriyatlar, alohida xususiyatlar asosiy rol o'ynaydi.

2. D.Gilford, K.Taylor, G.Grubber, Y.A.Ponamarev - ijodiy qobiliyat (kreativlilik) intellektga bog'liq bo'lmagan mustaqil omil hisoblanadi. Intellektuallik darajasi bilan kreativlik darajasi o'rtasida biroz farqlar bo'ladi.

3. D.Veksler, R.Uayzberg, G.Ayzenk, L.Termen, R.Shternberg - Intellektni yuqori darajada rivojlanganligi yuqori darajadagi ijodkorlikni anglatadi, va aksincha. Psixologik faollikning o'ziga xos shakli sifatida ijodiy jarayon mavjud bo'lmaydi.

E.Fromming ta'kidlashicha, "kreativlik – xayratlanish, nostandart vaziyatlarda yechim topa bilish, yangilikka intilish va shaxsiy tajribani teran anglashdir".[5,204]

F.Berron tasavvur va simvolizatsiya jarayonini kreativlik mezonining asosiy omili, "shaxsning faoliyati davomida to'satdan vujudga keluvchi va davom etuvchi ichki faoliyat"ni kreativlikning belgisi deb hisoblaydi, natijani namoyon bo'lmasligi kreativlik mavjud emasligini anglatmasligini uqtiradi.[6,87]

Kreativlik konsepsiyasini yuzaga kelishini asoslaridan biri R.Shternberg tomonidan taklif etilgan "investitsiyalar kiritish nazariyasi" bo'lgan. U "g'oyani arzonga olib, qimmatga sotuvchilarni" kreativ odamlar deb bilgan.[7,16]

Muhokama.

Hozirgi davrda kreativlikni kognitiv yoki shaxsiy komponentlarga ko'ra o'rganishga doir yondashuvlarni quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. Produktiv, intellektual yondashuv (G.Y.Ayzenk, D.Veksler, L.S.Leytes, L.Terman, J.Piaje, R.Shternberg, M.A.Xolodnaya). Kreativlik subyektning nisbatan umumiy faolligining xususiy tasodifiy holati, zaruriyat bo'lganda noma'lum vaziyatdan chiqish uchun belgilangan chegeralardan chiqishga tayyorlik, noma'lum vaziyatlarga moslashish yo'llarini modifikatsiyalash (moslashtirish) qobiliyati sifatida baholanadi.

2. Shaxsiy yondashuv (F.Berron, D.B.Yermolayeva-Tomina, V.N.Kozlenke, A.Maslou, K.Rodgers, E.Fromm). Ijodkorlik – shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi, bundan kelib chiqadiki, kreativlik – shaxsiy unumli fazilatdir. Bu yondashuv vakillari shaxs intellektual rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar kreativlikni keltirib chiqaruvchi muayyan xususiyatlariga ega, deb hisoblaydilar. Ular kreativ shaxslarni o'rganishni quyidagi yo'nalishlarini alohida ko'rsatadilar: shaxsiy sifatlar va motivlarni tadqiq etish, kreativlik bilan aloqador bo'lgan shaxsning "Men"ini o'rganish, shaxsning kreativligini psixologik xususiyatlarini o'rganish. [8,103]

3. Sintetik yondashuv (D.B.Bogoyavlenskaya, V.N.Drujinin, S.Kaplin, A.M.Matyushkin, Y.L.Ponamarev, D. Renzulli, A.Tannenbaum, D. Feldxyuzen, K.Xeller). Kreativlik – bu ikki xil tabiatga ega bo'lgan shaxsiy-kognitiv uslub hisoblanadi. Dastlab sof kognitiv ta'lim tariqasida rivojlanib, kreativlik bilishga oid intilish va maqsadlarni shakllantirish orqali motivatsion muhitda mustahkamlanadi. Motivatsion omillar ta'sirida kreativlikni kognitiv darajada qo'llanishini ta'minlovchi kreativlik sifatleri shakllanadi.

Shvetsariyalik psixolog K.Yungning ta'kidlashicha, oddiy odamlar o'z hissiyotlariga ehtiyotkorlik bilan yondashib, ularni tiyishga moyil bo'lgan bir holatda, ijodkor shaxs aksincha, o'z tabiatidagi qarama-qarshi xususiyatlarni ochiqchasiga namoyon etishdan qo'rqmaydi.[9,102]

G.S.Altshuller, F.Berron, L.B.Yermolayeva-Tomina, V.N.Kozlenko, M.R.Ginzburg,

K.Rodjerslarning tadqiqotlariga ko'ra kreativ shaxsning quyidagi xislatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tajribalar uchun ochiqlik. Bu kimlardir yoki jamoatchilik tomonidan yuzaga keltirilgan vaziyatlarda stereotiplardan voz kechishni anglatadi.

2. Anglanmaganlikka ishonch. Aynan anglanmaganlik noan'anaviy g'oyalarni yuzaga keltiradi, ong ongsizlikdan kelib chiqadigan g'oyalarni qanchalik muvaffaqiyatli idrok etishi va tahrir qila olishi (mantiqiy tafakkur tiliga o'girishi) iste'dod me'yori hisoblanadi.

3. Faoliyat jarayonining uning natijasidan ustuvorligi. Faoliyat jarayonidan zavqlanish natija olishni mo'ljal qilishdan ko'ra zavqliroq kechadi. Natija olishni ko'zlash muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda depressiyaga sabab bo'ladi. Jarayondan zavqlanish esa qimmatliroq hodisa bo'lib, bevosita natijalarga sabab bo'lishi ham mumkin.

4. Maksimal intensivlikdagi hissiyotlarni boshdan kechirish. Ijod qilish jarayoni yorqin va mutloqo qarama-qarshi hissiyotlar sharoitida kechadi: ixtiro zavqidan – chorasizlik depressiyasigacha, ko'tarinki ilhomlanishdan – ma'naviy tushkunlikkacha.

5. O'z-o'zi namoyon etishining noyobligi. Shaxsning bu sifati o'zini individualligini namoyon qilish (zukkoligi, gapga chechanligi, o'zini o'ziga xos tarzda namoyon etish manerasi, individual odatlari va h.k.) yoki o'zini ijtimoiy muvaffaqiyatga erishgan shaxs sifatida ko'rsatishda ko'rinishi mumkin.

6. O'zini dolzarb faoliyatga yo'naltirishga intilish. Kreativ shaxs o'z iqtidorini to'lato'kis ro'yobga chiqarishga intiladi, shuningdek, jamiyatda o'ziga hamkorlar bo'lishi uchun atrofdagilarni iqtidorlarini rivojlantirish borasida o'ziga taalluqli bo'lgan barcha ishlarni bajaradi.

7. Kreativlikni maqsadli tarzda yaratish. Kreativ odamlarning ko'pchiligi u yoki bu xususiy vazifalarni hal qilishda qandaydir umumiy masalalarni yechishga intiladi.

Natijalar.

Ta'kidlash joizki, kreativlikni o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina xorijiy tadqiqotlar ijod psixologiyasi hamda shaxsning ijodiy imkoniyatlarini baholash bilan bog'liq holda olib borilgan. Bu sohada olingan natijalar hozirgi kunda ham qo'llanib kelinmoqda.

Kreativlik so'zi etimologik jihatdan lotincha create – yaratish ma'nosini anglatadi. Ingliz tilida kreativlikning ikki xil ma'nodagi shakli qo'llaniladi:

- creativity – mohiyat jihatidan ijod ma'nosini anglatadi;
- creative activity yoki creative work – mohiyatan ijodiy jarayon.

O'zbek tilida har ikki talqin ijodkorlikni anglatadi. Ularni differentsiatsiyasi qo'shimcha tushunchalar lozim bo'lgan taqdirda qo'llaniladi – faollik, faoliyat, jarayon va h.k.

Kreativlik bilan ijodkorlikni bir-birini o'rnini bosuvchi to'liq sinonimlar deb atash noto'g'ri bo'ladi. Kreativlikni ijodkorlik iqtidorining ayrim belgilari yoki shunga o'xshash jihatlar tarzida emas, aynan ijodkorlik iqtidori sifatida talqin qilinishi lozim.

M.A.Xolodnayaning ta'rifiga ko'ra kreativlik – cheklanmagan sharoitda amalga oshiriladigan faoliyat natijasida ko'plab turli-tuman va original g'oyalarni yaratishdir[10,33].

Kreativlik umumiy qobiliyatning muhim komponentidir. Kreativlik yangilikni tajribada amalga oshirish, muammo va ziddiyatlarni anglash, stereotip fikrlardan voz kechish demakdir. Kreativlik yangi g'oyalarni umumiy holatga birlashtirish jarayonlarining sur'ati, favqulotda noyob mazmundagi g'oyalarni yaratish, sodda narsalarda murakkab jihatlarni ko'ra olishda namoyon bo'ladi.

Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirish muammosi, uning faolligi juda boy tarixga ega. XX asrning 20-30-yillarida P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, B.L.Yavorskiy, B.V.Asafyev, N.Y.Biryusova kabi pedagoglar ijodkor shaxsini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi pedagogik muammoning yechimlarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdilar.

Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini maqsadli shug'ullantirish orqali rivojlantirish mumkinligi borasida taniqli psixolog L.S. Rubinshteyn quyidagicha fikr bildiradi: "odamlarning iqtidorlari

nafaqat namoyon bo‘ladi, balki ularning faoliyati davomida shakllanadi” . [11,25]

Ijodkorlikni tarbiyalashda irsiy omillar ham, shaxsning ijodkorlik darajalarini belgilaydi. Biroq, iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun qulay muhit ham bo‘lishi zarur.

Shuningdek ijodiy faoliyatni, shaxsiy motivlar va hissiyotlar, egallangan bilimlarning ahamiyatini tushunish, ularni biror-bir yangilik yaratishda qo‘llay olish kabi jamiyat ehtiyojlari ham belgilab beradi. Ular takrorlanmasligi, originalligi, ijtimoiy-tarixiy noyobligi bilan ajralib turadi.

Ijodiy faoliyat, shaxsni rivojlantirish asosi sifatida muayyan struktura va mazmunga ega. Ijodiy faoliyat strukturasi asosiy elementi faoliyatning maqsadi bo‘lsa-da, ta’lim jarayonida o‘quvchida yuzaga kelayotgan qiziqishlar, ichki motivlarga ko‘ra, albatta, transformatsiyaga uchraydi. Ularni faoliyat maqsadlariga muvofiq kelishi, o‘quvchi shaxsini ijodiy rivojlanishining debochasidir. O‘quvchining bilimlarini boyitish, tajribalarni o‘zlashtirish ijodiy faoliyatni mazmunini mukammallashtiradi. Psixologik nuqtai nazardan, shaxsning ijodiy faoliyati xotira, idrok etish, sezgi, diqqat, fikrlash va tafakkurni hamohanglikda ishlashini taqozo etadi.

Bizningcha, ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-pedagogik sharoitlaridan biri ularning o‘quv faoliyatini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar, metodlar qo‘llanishi bilan bog‘liq. Mazkur muammoni hal etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda olib borilmoqda, ulardan biri pedagogik jarayonda faol va evristik usullarni qo‘llashdir. Shuningdek, ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishda istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida o‘yin metodlari, ijodiy va evristik masalalarni yechish metodlarini e’tirof etish mumkin.

Xulosa.

Shunday qilib, bir qator tadqiqotchilar ta’kidlaganlaridek, kreativlikni rivojlantirish va ijodiy imkoniyatlarni faollashtirishni quyidagi omillar belgilaydi:

- shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va faollashtirishga yo‘naltirilgan yangi samarali yo‘l va usullarni izlashni nazarda tutish;

- ta’lim oluvchining huquqlari, erkinligini tan olish, uning professional qiziqishlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, ummuminsoniy va professional madaniyatni o‘zlashtirish bilan bog‘liq holda ta’lim muassasalarini insonparvarlashtirish;

- ijodkor shaxs ta’lim muassasasida qulay psixologik muhit, o‘quv mashg‘ulotlari kasbiy-ijodiy faoliyatga mo‘ljallangan, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatida namoyon bo‘ladi va rivojlanib boradi;

- ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ta’lim mazmuni, shakl va metodlarini muttasil rivojlantirib borish, kreativlik muhitini yaratish, ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik faoliyatini o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini mustaqil tarzda rivojlantirishga yo‘naltirishni talab etadi.

Shaxsning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish – jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonlarida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlarning asosiy talablaridan biri, ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyatga oid qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: учебное пособие. М.: Академия, 2002. 320 с.

2. Калошина И.П. Психология творческой деятельности: учебное пособие для студентов вузов / . - М.: ЮНИТИ, 2003. 430 с.

3. Матюшкин А.М. Развитие творческой активности школьников. М.: Педагогика, 1991. 155 с.

4. Пономарев Й.А. Исследование проблем психологии творчества. Сборник статей.

М., Наука, 1983. 132 с.

5. Психология: Словарь/Под общ. ред. А.В Петровского, М.Г.Ярошевского. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Политиздан, 1990. – С.393.

6. Barron F. Puttins creativity to work // Sternberg R.,Tardif T. (eds). The nature of creativity. – Cambridge Cambr. Press, 1988/ - P/ 76-98

7. Sternberg R. General intellectual ability //Human abilities by R. Sternberg. 1985. P. 5-31.

8. Дорфман Л.Я., Ковалева Г.В. //Основные направления исследований креативности в науке и искусстве Вопросы психологии. – 1999. - №2. – С.101 – 105.

9. Г.В.Ковалева //Вопросы психологии. – 1999. - №2. – С.101 – 105.

10. Холодная М. А. Перспективы исследований в области психологии способностей // Психологический журнал. 2007. № 1. С. 28–37.

11. Рубинштейн Л.С. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1973. – С. 43.

## AYLANMA MASHG‘ULOTNING EKSTENSIV-ORALIQLI USLUBIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Xurramov Jasur Kuylievich*

*Qarshi davlat universiteti, “Sport faoliyati” kafedrasi mudiri, PhD, professor.*

*Annotatsiya. Maqolada jismoniy qobiliyat va sifatlarni aylanma mashg‘ulot ekstensiv-oraliqli uslubining turli variantlari bo‘yicha jadal sur‘atlarda rivojlantirish xususiyatlari bayon qilingan.*

*Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya darslari, aylanma mashg‘ulot, ekstensiv oraliqli uslub, jismoniy qobiliyatlar, yuklamalar.*

## ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКСТЕНСИВНО-ИНТЕРВАЛЬНОГО МЕТОДА КРУГОВОЙ ТРЕНИРОВКИ

*Хуррамов Жасур Куйлиевич*

*Заведующий кафедрой «Спорт фаоляти», PhD, доцент.*

*Каршинский государственный университет*

*Аннотация. В статье описаны особенности интенсивного развития физических способностей и качеств в различных вариантах экстенсивно-интервальной методики круговой тренировки.*

*Ключевые слова: уроки физической культуры, круговая тренировка, экстенсивно-интервальный метод, физические способности, нагрузки.*

## EFFECTIVE USE OF THE EXTENSIVE INTERVAL METHOD OF CIRCULAR TRAINING

*Khurramov Jasur Kuylievich*

*Head of the department of «Sports faoliyati», PhD, professor.*

*Karshi State University*

*Annotation. The article describes the features of intensive development of physical abilities and qualities in various variants of the extensive interval training method.*

*Keywords: physical education lessons, circular training, extensive interval method, physical abilities, loads.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishiga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim tizimiga davlat ahamiyati darajasida berilayotgan yuqori e‘tiborga qaramasdan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish ta‘lim sohasining eng e‘tiborli masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. An‘anaviy jismoniy tarbiya tizimida joriy etilgan dars jarayoni yetarlicha mukammal emas, ya‘ni o‘suvschi organizmning harakat talablarini to‘laligicha qoplamaydi. Ushbu bo‘shliqning o‘rnini to‘ldirish uchun aylanma mashg‘ulot uslubi singari ilg‘or pedagogik uslublardan samarali tarzda foydalanish organizmning ko‘p sonli imkoniyatlarini to‘lig‘icha amalga oshirish va aniq bir jismoniy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Aylanma mashg‘ulot – bu harakat xususiyatlarini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot turi hisoblanadi. Vazifalar ma‘lum miqdordagi «bekatlar»dan iborat bo‘lgan aylanmada bajarilganligi sababli u shunday nom olgan. «Bekatlari» o‘qituvchi tomonidan belgilangan ketma-ketlikda bir-birining ortidan joylashtiriladi va har bir bekatda kerakli sport anjomlari joylashtiriladi. O‘quvchilar «bekatlar»soniga mos keladigan guruhlar

soniga bo'linadi. Har bir bekatda talabalar soni teng bo'lishi kerak, shunda mashqlarni juftlikda bajarish ham mumkin bo'ladi. Shug'ullanuvchilar oxirgi vazifani tugatgandan so'ng, ular yana birinchi «bekat» ga o'tadilar va aylanmani yopadilar. Mashqlar oddiy va tushunarli bo'lishi kerak, bu ularni qayta-qayta bajarishga imkon beradi.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy qobiliyat va sifatlarni aylanma mashg'ulot ekstensiv-oraliqli uslubining turli variantlari bo'yicha jadal sur'atlarda rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Aylanma mashg'ulotning ekstensiv-oraliqli ish uslubida «bekat» dan «bekat» ga o'tishda mashq qisqa (to'liq bo'lmagan) to'xtamlar bilan bo'linadi. Ushbu to'xtamlar taxminan «amaliy foydali» ga to'g'ri keladi, chunki ular 45-30 s oraliqida bo'ladi. Aylanma 1, 2 yoki 3 marta takrorlanadi. Har bir aylanmadan so'ng turli xil davomiylikdagi tanaffus (3-5 daqiqa) ham qo'shiladi.

Variantlar:

1. Har bir «bekat» da mashq 15 s, so'ngra 45 s tanaffus bilan davom etadi.
2. Har bir «bekat» da mashq 15 soniya davom etadi, so'ngra tanaffus 30 soniya davom etadi.
3. Har bir «bekat» da mashq 30 soniya davom etadi, so'ngra tanaffus 30 soniya davom etadi.

1- va 2-variantlar:

Mashqlar o'rganilgandan va «30 s –mashq, 30 s – to'xtam» formulasi bo'yicha maksimal takrorlashlar soni aniqlangandan so'ng, mashg'ulot alohida variantlar bo'yicha yuklamaning individual miqdori bilan boshlanadi. 1-va 2-variantlarga ko'ra, bu har 15 soniyada 30 soniyali ( MTS – maksimal takrorlashlar soni) maksimal testga teng ish bajarilishini anglatadi. Vazifa shundan iboratki, jonli mashg'ulot sur'atida aynan 15 soniyada bajarilishi kerak. Dam olish oraliq'i tanlangan mashqlar: qo'shimcha (o'z vazniga nisbatan) og'irlik, mashqdagi yuklama darajasi, shuningdek istalgan mashg'ulot samarasiga qarab 30 yoki 45 s davomiylikda o'rnatilishi mumkin. 15 soniyali ish davomida kuchning jadalliligi qanchalik yuqori va tanaffus ham qanchalik uzoq bo'lsa, tezlik kuchi va tezlik chidamliligi kabi majmuaviy sifatlarda shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanishi va yangi boshlovchilar ma'lum darajada maksimal kuchga ham ega bo'lishlari mumkin. Agar Shtanga bilan bajariladigan mashqlar qo'llansa, ta'sir kuchi maksimal quvvatning 50-60% oraliqida bo'lishi kerak. Bunday quvvat maksimal testni o'tkazishda 30 sekundda kamida 15-20 marta bajarishga imkon beradi. Ushbu takroriy sonning yarim miqdori (agar harakatlar maksimal tezlikda 15 soniya davomida amalga oshirilsa va bunday 15 soniyali yuklamalar orasidagi dam olish oraliq'i taxminan 45 soniya bo'lsa) mashg'ulot samarasi sifatida tezlik kuchini beradi.

Dam olish paytida kislotali moddalarni mushaklardagi almashinuvining zararsizlantirilishi yuz beradi, ammo qisman. Shuning uchun, keyingi mashqning boshida ba'zi qoldiq charchoq yuz beradi. Ammo mashqlar aylanma mashg'ulotlarning rasmi chizmasiga (ramziga) muvofiq tanlangan va joylashtirilganligi sababli, ya'ni har bir yangi mashq boshqa mushak guruhini o'z ichiga olishi uchun, ilgari charchagan mushaklar parchalanish moddalaridan xalos bo'lishda davom etadi va faol dam oladi. Shunga qaramay, tanadagi qoldiq charchoq doimiy ravishda o'sib boradi va asta-sekin umumlashtiriladi; shu munosabat bilan qonning kislotaligi oshishi yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining kuchli qo'zg'atuvchisi bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, to'xtam paytida ortib borayotgan funksiyaga moslashish natijasida yurakning kattalashishiga olib keladi. To'xtamlar paytida yurakning qon-tomir hajmi oshadi va yurak urish tezligi pasayadi, bu 15 soniya davomida nisbatan yuqori qiymatlarga (180-200 zarba/min) yetadi. Kislotali moddalarni zararsizlantirish uchun asosan ishqoriy zaxiralar qo'llaniladi. Ushbu jarayonlarning barchasi moslashish natijasida yaxshilanadi va tezlik chidamliligi shaklida maxsus chidamlilikning rivojlanishini rag'batlantiradi, ya'ni anaerob sharoitda mushaklarning ishlashi paytida charchoqqa qarshi turish qobiliyatini oshiradi.

Belgilangan yuklamani individual ravishda miqdorlash bilan (15 s uchun) kichik va o'rta yoshli maktab o'quvchilaridan mashqlarning eng tez sur'atlarini talab qilish tavsiya etilmaydi. Ushbu individual mashg'ulot meyorini yaxshisi tinch, cheklangan mashg'ulot sur'atida amalga oshiriladi. Maktabdagi majburiy jismoniy tarbiya darslarida mashqlarning aniqligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu sur'atni jadallashtirishdan ko'ra muhimroqdir.

Xulosalar. Aylanma mashg'ulotning ekstensiv oraliqli ish uslubi bo'yicha variantlari maktabda jismoniy tarbiya darslari uchun juda mos keladi, chunki standart mashg'ulotlar vaqti va «bekatlar» da mashq paytida va «bekatlar» ni o'zgartirganda tanaffuslarning standart davomiyligi tufayli qat'iy tartib ta'minlanishi mumkin. Bu o'qituvchiga sinfni yaxshiroq kuzatish imkoniyatini beradi. Tanaffuslar o'smirning tanasida umumiy yuklamani yaxshi tartibga solishni kafolatlaydi. Haddan tashqari yuklanish maksimal test paytida yoki x3 miqdorda ham mustasno qilinadi. Qisqa tanaffuslar bilan mashq qilish harakat sifatlarini majmuaviy takomillashuviga yordam beradi. Nafaqat umumiy va maxsus chidamlilik, balki tezlik kuchi, maksimal kuch va ayniqsa kuch chidamliligi ham rivojlanadi. Shu bilan birga, belgilangan dam olish vaqtlarini qisqartirish orqali yuklamani oshirish mumkin emas. Bu ekstensiv oraliqli ish uslubi bo'yicha aylanma mashg'ulotning xususiyatini va u bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulot samarasini buzadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

. M. Sholix. Krugovaya trenirovka. obsh. red. i predisloviye L. P. Matveyeva; per. s nemetskogo L. M. Mirskogo. – 2-ye izd., stereotip. – M.: Sport, 2021. – 216 s.

Gurevich I. A. 1500 uprajneniy dlya krugovoy trenirovki. Pod redaksiyey A. G. Gujalovskogo. Minsk, «Visheysh. shkola», 1976. 304 s. s il.

## MEANS AND METHODS USED IN EQUESTRIAN SPORTS

*Yoldashov Shavkat Sabirboyevich,*  
Associate Professor of the Uzbek State University of Physical Education and Sports,  
(PhD)

*Abstrakt. This article is dedicated to the means and methods used in equestrian sports training, physical qualities and their development, and the training loads aimed at improving physical fitness. It covers general preparatory, auxiliary, special preparatory, and competition exercises, as well as the individual characteristics of both riders and sport horses.*

*Key words: training, means, method, load, volume, intensity, exercise.*

## СРЕДСТВА И МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В КОННОМ СПОРТЕ

*Юлдашов Шавкат Сабирбоевич,*  
Доцент, и.о. (PhD) Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

*Аннотация. В данной статье рассматриваются средства и методы, применяемые в тренировках по конному спорту, физические качества и их развитие, тренировочные нагрузки, направленные на повышение физической подготовки. Освещены общеподготовительные, вспомогательные, специальные подготовительные и соревновательные упражнения, а также индивидуальные особенности всадника и спортивной лошади.*

*Ключевые слова: тренировка, средство, метод, нагрузка, объем, интенсивность, упражнение.*

## OT SPORTIDA QO‘LLANILADIGAN VOSITA VA USLUBLAR

*Yoldashov Shavkat Sabirboyevich,*  
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti v.b., p.f.b.f.d (PhD)

*Annotatsiya. Mazkur maqola ot sporti mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan vosita va uslublar, jismoniy sifatlar va ularni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlikni oshrishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot yuklamalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda umumtayyorlovchi, yordamchi, maxsus tayyorlovchi va musobaqa mashqlari, shuningdek, chavandoz va sport otining individual xususiyatlari yoritib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, vosita, usul, yuklama, hajm, shiddat, mashq.*

*Kirish. Bugungi kunda ot sporti sohasida yetakchilik qilayotgan Germaniya, Shvetsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi rivojlangan davlatlar aynan ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etish orqali yuksak natijalarga erishganligi hech kimga sir emas. Shu ma‘noda, xalqaro turnirlar, Osiyo va jahon chempionatlari, xususan, Olimpiya o‘yinlarida ot sportining klassik turlari bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoa a‘zolarining muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillardagi islohotlar natijasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Xususan, yurtimizda ot sporti turlarini yanada rivojlantirish, chavandozlarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida ot sportini faol targ‘ib qilish va ommalashtirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Ushbu sohani yanada rivojlantirish va uni takomillashtirish bo‘yicha o‘nlab qarorlar qabul qilindi. 2017-yildan keyingi davrda qo‘lga kiritilgan sport yutuqlari va erishilgan natijalarni mazkur islohotlarning amaliy natijasi deyish mumkin.*

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yosh chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va ularning salomatligini mustahkamlash masalalari M.V.Boykova, M.M.Vlasova, E.A.Kostyukev kabi chet el olimlarining ilmiy-uslubiy ishlarida keltirilgan. Ot sporti mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi va maxsus tayyorgarlik mashqlaridan foydalanish uslublari V.S.Martinixin, Ye.V.Demchenko, M.E.Agafonovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Ot ustida o'tirish va o'tni samarali boshqarish masalalari S.J.Schils, N.L.Greer, L.J.Stoner, C.N.Kobluk, G.Pretty, D.Bridgeman, J.M.Sallinen, W.J.Kraemer, M.J.Alen, K.K.Häkkinen, K.Kang, T.L.Bye va R.Martinlar tomonidan o'rganilgan va bu bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Sohaga oid adabiyotlarni o'rganish davomida shunga amin bo'ldikki, mavjud o'quv-uslubiy adabiyotlar asosan rus, ingliz va boshqa tillarda nashr etilgan. Ammo, shu davrgacha ot sport bo'yicha o'zbek olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu esa albatta mamlakatimizda ot sportini rivojlantirish, kelajakda yangi avlod chavandozlarni ilmiy asosda tayyorlash va yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mashg'ulot jarayonini jadallashtirishda mashg'ulotlarning turli bosqichlarda qo'llaniladigan vosita va uslublarning yuklamalar hajmi va shiddati darajalarini bilish bilan cheklanib qolmasdan, yosh chavandozlar harakat qobiliyatlarining turli nisbatlarini inobatga olgan holda asosiy mashg'ulot o'lchovlarini qo'llash usulini bilish muhim ahamiyatga ega. Chavandozning ish qobiliyatidagi o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash ularning jismoniy tayyorgarligini kompleks korreksiya qilish hamda UJT va MJTga yo'naltirilgan mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu dolzarb masalalarni jiddiy tarzda o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish yangi avlod chavandozlarini tayyorlashda o'zining ijobiy samarasini berishi o'z tasdig'ini topdi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirga qadar ot sporti mashg'ulotlarida qo'llaniladigan vosita va uslublarga oid o'zbek tilidagi o'quv-uslubiy adabiyotlar yetarli darajada ta'minlanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlarning e'tirof etishicha, sport mashg'uloti vositalari – bu tanlangan sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanadigan har xil jismoniy mashqlar bo'lib, ular to'rt asosiy guruhga, ya'ni umumtayyorlovchi, yordamchi, maxsus tayyorlovchi va musobaqa mashqlariga bo'linadi. Aynan ular yordamida chavandozlarning sport mahorati darajasini ko'tarish mumkin.

Ot sportida chavandozlarning egiluvchanlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va tezkorlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlanganlik darajasi bilan bir qatorda, vestibulyar apparatining barqarorligi, koordinatsion qobiliyat va tana tuzilishi ham yuqori sport natijalariga ta'sir etuvchi ustuvor omillardan hisoblanadi.

Ot sportining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bugungi kunda sport mashg'ulotlari orqali yosh chavandozlarning chidamlilik, tezkorlik va chaqqonlik, kuch, tezkor-kuch, egiluvchanlik, harakat koordinatsiyasini tarbiyalashga qaratilgan uslublardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur yo'nalishda faoliyat olib borgan bir qator mutaxassislarning ilmiy-uslubiy ishlarida yosh chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot vositalardan foydalanish tavsiya etilgan.

Jumladan chidamlilik yurak urish tezligi 130-140 zarba/daq. bilan 1-3 km bir xil tezlikda uzoq (vaqt) yugurish (kross, velosport, chang'i, poyga, konkida uchish, sport o'yinlari (futbol, basketbol, qo'l to'pi) yoki yosh chavandozlarning maxsus chidamkorligini rivojlantirish uchun uzangisiz ot minish, dalada ot yo'rttirish mashqlaridan foydalanish mumkin.

Tezkorlik va chaqqonlik imkon qadar tez bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, harakatda va startdan 20-50 metrga yugurish, estafeta, harakatli sport o'yinlari, "tez javob qilish (reaksiya)" mashqlarni takroriy amalga oshirish tavsiya etiladi.

Kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda tashqi og'irliklar bilan mashqlar bajarish, shuningdek,

o'z tanasining og'irligi bilan ishlash mashqlaridan keng foydalanish zarur.

Tezkor-kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda sakrash (engil atletika, akrobatika va boshqalar), snaryadlar bilan bajariladigan mashqlar, itqitish, uloqtirish va tez ko'tarish, sport o'yinlarida sakrash va tezlikni oshirish kabi mashqlarni bajarish ijobiy samara beradi.

Egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda snaryadlar bilan va ularsiz barcha bo'g'inlarda hamda barcha yo'nalishlarda katta amplitudali mashqlar (burilishlar, aylanishlar, egilishlar, tebranishlar va boshqalar) mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Harakat koordinatsiya qobiliyatlarini tarbiyalash akrobatik mashqlar (salto), trampolin (batut)da bajariladigan mashqlar, "muvozanatdagi mashqlar" ya'ni: gimnastika to'sinida yurish (oldinga, orqaga (qo'llarni turli holatlarga qo'ygan holda), yugurgan holda, qo'lda turli xil narsalar bilan), odimlab qadam tashlash, turli jihozlarni qo'l uzunligida ushlab turgan holda muvozanatni saqlash mashqlari orqali amalga oshiriladi.

Yosh chavandozlarning jismoniy tayyorgarligidagi o'zgarishlarni aniqlash va shu asosda nisbatlar optimalligini belgilash uchun tajribada tezkorlik sifatini o'lchash maqsadida 30 metrga yugurish mashqi tanlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu test aniq, ishonarli va mustahkam mezon hisoblanadi. Shuningdek, chidamlilikni aniqlashda 1000 metrga yugurish, kuch sifatlarini o'rganish uchun esa turgan joydan uzunlikka sakrash va yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish yoki turnikda tortilish mashqlaridan foydalanish mumkin. Mazkur testlar ham yosh chavandozlarning sport natijalari bilan uzviy bog'liqdir.

Ot sportida, ayniqsa boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh chavandozlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlarni rivojlanganligini o'lchash maqsadida muvozanatni saqlash va moksimon yugurish (3x10) tanlab olish tavsiya etiladi.

Sportmahoratini takomillashtirish jarayonini baholash sport natijalarining o'sish miqdorigina bilan emas, balki o'sish ehtimolliligi bilan ham baholanadi. Bunda tekshiriluvchilarning umumiy soniga, dastlabki natijalarini oshirgan tekshiruvchilar soni nisbatlariga qarab foizlarda ifodalaniladi. Sport natijalarining o'sishi va boshqa maxsus ko'rsatkichlarni samaradorligi va farqining ishonchliligini aniqlash uchun o'rtacha kvadratik og'ish qiymatlari va variatsiya koeffitsiyenti orqali hisoblandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar va ilmiy tadqiqot ishlari natijasida shu narsa isbotlanganki, sport mashg'ulotlarida yoki bo'sh vaqtlarda harakatli o'yinlardan foydalanish inson organizmining funksional organlar faoliyatini boshqaruvchi markaziy nerv tizimiga har tomonlama ijobiy ta'sir etadi. Darhaqiqat, harakatli sport o'yinlarining turi, mazmuni va shakllari xilma-xil bo'lib, ular xotira, diqqat, idrok, ong, tafakkur, iroda kabi sifatlar, shuningdek, talaffuz, nutq, intonatsiya kabi hislar, hamjihatlik, haqgo'ylik, vatanparvarlik, o'zaro yordam berish, odo-axloq, mardlik, botirlik, jasurlik kabi fazilatlarini shakllantirish va ularni rivojlantirishga yordam beradi. Ot sporti turining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mashg'ulotlar jarayonida xo'roz jangi, eshak mindi, bo'ri zovur ichida harakatli o'yinlaridan keng foydalanish yosh chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali vositalardan hisoblanadi.

Ot sporti tayyorgarligida yosh chavandozning maqsadli rivojlanishiga ta'sir qilish va uning sport yutuqlariga erishishga tayyorligi darajasini ta'minlash imkonini beradigan bilim, vosita, usul va shartlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish hamda uning asosiy vositasi hisoblangan jismoniy mashqlarni o'rganish, harakat ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ot sportida bu maqsad ikki tirik organizm - chavandoz va otning doimo o'zaro ta'siri, ularning har biri sezilarli o'zgarishlari bilan murakkablashib borishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun harakatlarni o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash o'rtasidagi chegara faqat qandaydir me'yor bilan belgilanishi mumkin. Ammo, bu jiddiy farq o'ziga xos uslubiy xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ot sporti amaliyotida

chavandoz va sport oti tayyorgarligi asosida umumiy sport mashg'ulotlari tizimi va uning vosita va uslublari yotadi.

Bir guruh mualliflar murabbiy uchun chavandozlarni tayyorlashda ijodiy yondashish va turli usullardan keng foydalanish, shuningdek, sport mashg'ulot uslubiy tamoyillariga rioya qilish muhim deb hisoblashgan. Albatta, mashg'ulotlarni tashkil etishda turli usul va uslublarni tanlash va ularni qo'llashda murabbiylar uchun ushbu tamoyillarga rioya qilish shart. Ko'plab soha mutaxassislari keng qamrovlilik tamoyili o'quv-mashg'ulot jarayonida xilma-xil usul va vositalar (jismoniy mashqlar)dan parallel ravishda foydalanishni taqozo etishini ta'kidlagan.

Yosh chavandozlar o'rtasida o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil etishda, shu jumladan katta sportchilar toifasiga o'tishda yuqori natijalarga erishishi uchun bu tamoyilni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ko'p vaziyatlarda ba'zi murabbiy va eng yaxshi chavandozlar bu mashg'ulot tamoyiliga yetarlicha ahamiyat qaratmaydilar va bir nechta mashg'ulot bilan cheklanadilar. Bu holat esa chavandozlarning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham chavandoz mashg'ulotlarning barcha masalalariga ongli ravishda munosabatda bo'lishi nihoyatda muhim sanaladi. O'z navbatida mashg'ulot vazifasi, usul va vositalarini, mashg'ulotning tuzilishi hamda mazmunini murabbiy va har bir chavandozning aniq tushunishiga imkon beradi. Bu jarayonda nafaqat sport texnikasi va taktikasiga oid samarali mashg'ulotlarni, balki chavandozlarning jismoniy sifatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlarini yanada samarali rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Mashg'ulotlarga ongli ravishda yondashish, sport nazariyasi va metodologiyasini chuqur o'rganish orqali chavandozlar yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega bo'lib, samarali mashg'ulotlar o'tkazish, musobaqalarda qatnashish, o'rgatish va murabbiylikni davom ettirish, o'z malakalarini yosh avlodga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mashg'ulot maqsadiga erishish uchun sport mahoratini oshirishda qat'iyat va tirishqoqlikni talab qiladi. Murabbiy chavandozlarning ongiga ta'sir qilishi, ularni mashg'ulotlarda faol bo'lishga hamda ijodkorlikka undashi, shu bilan irodali, ishda mustaqil va mas'uliyat bilan yondashish sifatini rivojlantirishi kerak. Agar murabbiy tomonidan yosh chavandozlarga bu bosqichda ba'zi qiyinchiliklarni yengib o'tish, mustaqil yechimlarni qidirishni talab qiladigan qulay vazifalar tashkil qilib berilsa, mashg'ulotlar jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanadi. Umumiy jismoniy tarbiya sohasida darsdan tashqari mustaqil mashg'ulotlar ertalabki yoki boshqa gigiyenik hamda umumiy rivojlantiruvchi gimnastika, sog'lig'i va jismoniy holatini muntazam nazorat qilish, o'zini nazorat qila bilish, sport adabiyotlarini o'qish katta ahamiyatga ega. Ot sportida chavandozlarning e'tibori va kuchini mashqni to'g'ri bajarishga safarbar qilish orqali faollik namoyon bo'ladi.

Masalan, to'siqlarni yengib o'tayotganda ba'zi sport otlariga oyoq bilan yetarlicha buyruq yoki individual ot minishda otlarni bo'ysunishi va yaxshi boshqarilishi talab qilinadi. Otni berilgan mashqlarni to'g'ri bajarishida chavandoz nafaqat mashg'ulot paytida faol bo'lishi kerak, balki kerakli ko'nikmalarni yaxshiroq mustahkamlash uchun otga ta'sir qilish usullarini ijodiy tanlab olishi va qo'llashi zarur.

Yetakchi olimlarning ta'kidlashicha, texnikani o'rgatish va uni takomillashtirishda ot sportidagi ko'rgazmalilik uslubi muhim ahamiyatga ega. Mazkur uslub hikoya qilish va tushuntirishning og'zaki usuli bilan birgalikda qo'llaniladi, bu esa o'rganilgan texnikani chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bunda eng yaxshi yetakchi chavandozlar texnikasi model sifatida namoyish qilinadi. Shug'ullanuvchilar eng yaxshi chavandozning mashqlarni bajarish, nazorat qilish va texnikasini kuzatib, vazifani to'g'ri bajarish haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ot sporti texnikasiga oid kamchiliklar kino-foto kadrlarni tahlil qilish yordamida tuzatiladi. Ularga qarab, yosh chavandozlar mashg'ulotlar yoki musobaqalarda individual mashqlarni bajarib ko'radi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi mashg'ulotlarda yosh chavandozlarni harakatlarga o'rgatishda takrorlash eng muhim fiziologik holat hisoblanadi va

shartli reflekslilarni shakllantirish uchun bu katta ahamiyatga ega, bu tegishli o'zgarishlarni, organ va tizimlarni qayta qurish hamda takomillashtirishni, mashg'ulotlar ta'sirida ularning funksiyasini to'g'ri bajarishga olib keladi.

Ammo, biz o'zimizni faqat takrorlash bilan cheklasak (bu o'tilgan vazifani stereotipik takrorlanishi), ertami-kechmi bu ko'nikmalarning inersiyasi, ya'ni harakatsizligiga olib keladi va jismoniy sifatlarning rivojlanishini to'xtatadi. Ayrim olimlarning ta'kidlashicha takrorlash - bu jarayonni oqilona loyihalashtirish xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu optimallik ish va dam olishning to'g'ri kombinatsiyasi bo'lishi kerak. Qarama-qarshilik xususiyati muhim ahamiyatga ega, ya'ni mashqlarni o'zgartirish va ulardan foydalanish shartlari, o'quv mashg'ulotlarning shakllari va mazmunini yangilash hisoblanadi.

Amaliyotda yuqori mahoratli chavandozlar har kuni ikkita otda (yosh va asosiy) barqaror jadvali asosida mashg'ulot o'tkazadilar. Bunday holda, optimal ta'sir mashg'ulot yuklamasi bilan belgilanadi. Haftalik yoki boshqa mashg'ulot sikli boshida chavandoz va uning oti oldingi stress (ruhiy zarba)dan to'liq holis bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida yangi harakatlarga o'rgatishda tushuntirish chavandozni individual xususiyatlarining o'quv yuklamalari bilan mos kelishi ochib beriladi. Ushbu tamoyildan foydalanish imkoniyati yosh chavandozlar uchun muayyan qiyinchiliklarni doimiy ravishda yengib o'tishni nazarda tutadi, ammo bu sog'liqqa putur yetkazishi va zo'riqish hosil qilmasligi zarur. Aqliy va jismoniy kuchning oshishiga oid qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayoni diqqat-e'tibor, jur'at, qat'iyat, sabr-toqat va boshqa irodaviy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quv mashg'ulotlarida qat'iy va tizimli ketma-ketlik hamda bosqichma-bosqich uslubiy qoidalarga rioya qilish kerak. Shu bilan birga oddiydan - murakkabga, ma'lumdan - noma'lumga, umumiydan - individualga, osondan - murakkabga o'tish tavsiya etiladi.

L.P.Matveyevning fikriga ko'ra harakatlarga o'rgatishda uyg'unlik, izchillik, nazariya va amaliyotning to'g'ri kombinatsiyasi, shuningdek, butun o'quv mashg'ulot jarayonini aniq rejalashtirish va foydalanilgan vositalarni tanlash bilan bog'liq. Hatti-harakatni to'g'ri amalga oshirish uchun quyidagilar zarur: o'quv dasturlarini aniq ishlab chiqish; to'g'ri o'qitish usullarini tanlash, o'quv materiallarini tizimli va qat'iy ravishda sportchilarga o'qitish; ta'lim va tarbiya faoliyatini baholashda izchil bo'lish; rejada ko'rsatilgan o'quv jarayonini bajarish uchun barcha shartlarni diqqat bilan hisobga olish; bo'shliqlarni o'z vaqtida to'ldirish; sportchilarning mashg'ulotlardan tashqari zarur mustaqil ishlarini tashkil etish.

Ot sportidagi mashg'ulot yuklamasini bosqichma-bosqich va muttasil ko'tarib borish, o'quv mashg'ulotlar hajmi va shiddatini oshirish, harakat vazifalarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish zarur. Yosh chavandoz va sport otining kuchi hamda imkoniyatiga mos kelishi, yillar davomida jismoniy tayyorgarlik va sport ko'rsatkichlarining doimiy yaxshilanishini ta'minlashi kerak. Yosh chavandozlar va sport otlarini tayyorlashda bunga amal qilmaslik, xatto yuqori malakali chavandozlarda (birinchi razryadli, sport ustaligiga nomzod va sport ustasi) ham jismoniy rivojlanishi, funksional holati va jismoniy tayyorgarligida, shuningdek, texnik mahoratda bir qator jiddiy kamchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu dastlabki mashg'ulotlar tez-tez o'tilganligi va to'g'ri texnik ko'nikmalarni mustahkamlash chavandozlarda yetarlicha vaqt bo'lmaganligini anglatadi. Bosqichma-bosqich tamoyiliga e'tibor bermaslik, qisqa vaqt ichida jismoniy tayyorgarlikni tezroq oshirishga intilish, ya'ni natija uchun shug'ullanish hech qachon haqiqiy mahoratga olib kelmaydi, faqat bu yosh chavandoz va sport otining sog'lig'iga zarar yetkazadi.

Yosh chavandozlarning individual xususiyatlari (yoshi, jismoniy rivojlanishi, funksional holati, ularning salomatligi, jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasi va boshqa jihatlar)ni inobatga olgan holda uni tayyorlash va mashg'ulotlar o'tkazishni talab qiladi. Individuallashtirish asosan o'qitish va tarbiyalash usullari hamda qo'shimcha vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu yerda nafaqat uslublar, balki mashg'ulotlarning mazmuni ham individual moyillik, iqtidorga qarab belgilanadi.

O'quv mashg'ulot jarayonida individual yondashuv har qanday o'ziga xos vazifani yechishda, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish yoki jismoniy sifatlar va irodaviy fazilatlarini tarbiyalash uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda bu tamoyil uzoq muddatli, yillik, oylik o'quv rejalari yordamida amalga oshiriladi. Ot sporti bo'yicha mashg'ulotlarning uslubiy tamoyillari haqida yuqorida qayd etilganlarning barchasi mazmuni bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning barchasi bir xil jarayonning alohida jihatlari va qonuniyatlarini aks ettiradi, bu asosan bitta va faqat alohida tamoyillar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Chavandoz va sport otining individul xususiyatlariga bog'liq ravishda tayyorgarlik jarayonining davomiyligi oshishi yoki aksincha qisqarishi mumkin. Ot sportida asosiy harakatlarni bajarishda chavandoz va sport oti juftligi ishtirok etadi. Shuning uchun ham tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan muammo va kamchiliklar sababini faqat sport otidagina qidirish noto'g'ri hisoblanadi. Mutaxassislar sport otini tayyorlashda takrorlash, o'zgaruvchan, intervalli va musobaqalashuv usullaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Yuqoridagi barcha sport mashg'ulot usullari turli xil kombinatsiyalar (tuzilish)da qo'llaniladi. Ularning har biri standart usulda qo'llanilmaydi, lekin ot sporti amaliyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, doimiy ravishda muayyan talablarga moslashtiriladi.

Sportda eng ko'p qo'llaniladigan takrorlash usuli optimal dam olish oraliqlari va takrorlashlar sonining o'zgarishi bilan tavsiflanadi, u otga zarur motor xususiyatlar – kuch, tezlik va chidamlilikni rivojlantirganda qo'llaniladi.

O'zgaruvchan usul o'zgaruvchan intensivlik va davomiylikdan foydalangan holda takrorlash yoki harakatlarning bajarilishi bilan tavsiflanadi. Eng qiyin va shiddatli usul - bu intervalgacha mashq qilish hisoblanadi. Mashqlar orasidagi dam olish oralig'i asta-sekin kamayadi yoki har dam olishdan so'ng yuklamalar oshadi, bunda doimiy yuklamalarni oshirish oraliqlari davomiyligini aniqlash juda muhimdir, chunki bunda otning haddan tashqari kuch sarflashi mumkin.

Musobaqa usuli maksimal yuklamalarni to'liq aks ettiradi, chunki ayni vaqtda sport oti imkoniyati ko'rsatadigan yuqori natijalarga erishish bilan bog'liq.

Usullarni tanlashda ular qo'yilgan vazifalarga, sport otining yoshi va jinsi xususiyatlariga, ularning malakasi va tayyorgarligiga qat'iy mos kelishini ta'minlashi kerak. Yuqoridagi tamoyillar va usullarga asoslanib, yillik siklning davri va bosqichiga qarab, sport otini tayyorlash usuliga turli yondashuvlardan foydalaniladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, zamonaviy sport otini tayyorlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi: mushaklar ishining ko'plab takrorlanishi, asta-sekin yuklamalarining o'sib borishi, maksimal yuklama tamoyili, muntazamlilik va ko'p qirrali, shuningdek, quyidagi 4 ta usulni o'z ichiga oladi. Bular: turli kombinatsiyalarda ishlatiladigan va murakkab bir butun sifatida ishlaydigan takroriy, o'zgaruvchan, intervalli va raqobatbardoshlik hisoblanadi. Mualliflar yaxlit o'rganish, qismlarga bo'lib o'rganish, og'zaki tushuntirish, demonstratsiya (ko'rsatish, namoyish qilish), bevosita yordam berish, mashqlarni takrorlash, bajarilgan harakat yoki faoliyatni tahlil qilishni otda yurish texnikasini o'rgatish va uni takomillashtirish usullari sirasiga kiritgan. Ayrim nazariyachi olimlar taktik element va harakatlarni o'rganish, og'zaki tushuntirish, harakatlarni (o'zining va raqiblarini) tahlil qilish, taktik harakatlar variantlarini ishlab chiqish, mashg'ulot va musobaqa jarayonida ijodiy topshiriq berishni taktikani o'rgatish va uni takomillashtirish usullaridan deb hisoblagan. Takroriy, o'zgaruvchan, intervalli, nazorat, yuqori shiddatli, standart-takroriy, doiraviy, standart-o'zgaruvchan, musobaqalashuv usublari yosh chavandozning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun muhimligi qator mualliflar tomonidan aytib o'tilgan.

Chavandozning psixologik tayyorgarligi va irodaga oid fazilatlarini tarbiyalash foydalaniladigan usulblar bir-birini to'ldirishi, takrorlanishi va navbatlanishi bilan o'zga

xususiyatga ega bo'lib, bular ishontirish, tushuntirish, namuna bo'lish, guruhga ta'sir qilish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, mashqlar qiyinchiligini bosqichma-bosqich oshirish va ularni bajarishni murakkablashtirish, "musobaqa maydoni"ga o'rgatish, musobaqa sharoitlariga ko'niktirishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi asosiy usullar guruhiga qo'shimcha ravishda, turli xil o'quv muammolarini hal qilishning boshqa usullari ham mavjud. Har bir alohida holatda usulni tanlash hal qilinayotgan muammo, ishtirokchilarning yoshi va tayyorgarligi, foydalanilgan vositalar, shartlar va boshqa omillar bilan belgilanadi.

#### Adabiyotlar (References)

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры // учебник для институтов физической культуры и спорта. - М.: 1991. - 122 с.
2. Matkarimov R.M., Yoldashov Sh.S. Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish (ot sporti) Darslik – Chirchiq: O'zDJTSU, 2023. - 199 b.
3. Ёлдашов Ш.С. Средства и методы общей и специальной физической подготовки спортсменов конников // Fan – sportga №7. Chirchiq, 2021. - В.24-28.
4. Yoldashov Sh. Chavandozlarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik nisbatlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. Toshkent, 2024. – В. 272-274.
5. Петухова Н.А. Анализ соревновательной деятельности спортсменов юниорской сборной команды Республики Беларусь по выездке в сезоне 2016 года. БГУФК. Минск, 2017. - С. 201-204.
6. Yoldashov Sh.S. Ot sportida boshqaruv vositalari yordamida asosiy mashqlarni bajarish metodlari // "Jismoniy tarbiya, sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar" Respublika ilmiy–amaliy anjumani to'plami. Chirchiq, 2022. – В. 304-307.
7. Ёлдашов Ш.С. Бошланғич тайёргарлик босқичида ёш чавандоз-спортчиларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишдаги асосий мезонлар // "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Chirchiq, 2023. – В. 300-302.
8. Ёлдашов Ш.С. Ёш чавандоз-спортчиларнинг бошланғич тайёргарлик босқичида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш методлари // "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. Chirchiq, 2023. – В. 302-304.
9. Ёлдашов Ш.С. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги ёш чавандозларга оёқ билан бошқариш воситаларидан фойдаланишни ўргатиш методлари // "Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar" III Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami. Toshkent, 2023. – В. 99-102.

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA CHET EL ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘RGANISHNING TARIXIY BOSQICHLARI**

*Zaripova Maftuna Bahrom qizi  
Jizzax Davlat pedagogika Universiteti katta o‘qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda chet el adabiyoti namunalarini o‘rganishning tarixiy bosqichlari mavzusida yoritilgan bo‘lib, hozirgi maktab darsliklarida chet el adabiyoti namunalarining qay darajada yoritilganlik masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.*

*Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinflar, chet el adabiyoti, adabiy ta‘lim, tarixiy bosqichlar, adabiy o‘rganish, didaktik yondashuv, adabiy meros, bolalar adabiyoti, metodika, ta‘lim mazmuni.*

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

*Zaripova Maftuna Bahromovna  
старший преподаватель Джизакского государственного педагогического университета*

*Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется историческим этапам изучения образцов иностранной литературы в начальных классах, а также затрагивается вопрос о том, насколько примеры зарубежной литературы освещены в современных школьных учебниках.*

*Ключевые слова: начальные классы, зарубежная литература, литературное образование, исторические этапы, литературное изучение, дидактический подход, литературное наследие, детская литература, методика, содержание обучения.*

## **HISTORICAL STAGES OF STUDYING FOREIGN LITERATURE IN PRIMARY GRADES**

*Zaripova Maftuna Bahromovna,  
Senior Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University*

*Annotation. This article focuses on the historical stages of studying examples of foreign literature in elementary grades, and also touches upon the question of how examples of foreign literature are covered in modern school textbooks.*

*Keywords: primary grades, foreign literature, literary education, historical stages, literary analysis, didactic approach, literary heritage, children’s literature, methodology, educational content.*

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mo‘jizaviy ne‘matlarni kashf qilganlar. Bular moddiy va ma‘naviy ashyo bilan bog‘liq bo‘lib, birinchidan tabiiy rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan ovoz, ikkinchidan fikrni ifodalash vositasi sifatida nutq, uchinchidan nutqni shakllantirish uchun lozim bo‘ladigan yozuv va kitobdir.

Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv, yordamida o‘zaro munosabatlarni hosil qilish, xohish istaklarini, intilishlarini bir-biriga bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kitob vositasida o‘z ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lgan.

Agarda insoniyat tarixiga nazar solinsa, ma‘lum dinlarning vujudga kelishida ham kitob asosiy vosita bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Xususan, Muso alayhissalom "Tavrot", payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) "Quron" kabi muqaddas kitoblar orqali kishilar o'rtasida o'zlari mansub bo'lgan din asoslarini targ'ib qilganlar.

Zero, og'zaki bayon etilgan fikrlarni avlod-dan-avlodga uzatishda, ularda ifoda etilgan asl maqsad, g'oya, qarashga ziyon yetadi, ba'zan shaklan ko'p hollarda mazmunan o'zgaradi. Mazkur shaklan va mazmunan o'zgarishi mumkin bo'lgan holatni teran anglagan avlod-ajdodlarimiz yozuvni kashf etib, yuqorida tilga olingan muqaddas kitoblarni yozma shaklini targ'ib qilish masalasini anglaganlar. Natijada, arab mamlakatlari bilan bir qatorda XIII asrdan boshlab Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingach, Arab xalifalari hamma masjidlar qoshida maktablar ochish haqida buyruq beradi. Bu maktablarning asosan maqsadi bolalarga arab harflarini o'rgatish shu asosda, arab tilidagi "Quron" suralarini o'qish va yod olishga qaratilgan. Arab tilidagi matnni o'qish, imkon darajasida sharhlash bolalar uchun bir muncha murakkab bo'lib, aytish mumkinki, bu turkiy xalqlar uchun arab tili, madaniyatini, ularning turmush tarzini o'rganish bilan bog'liq ilk tarixiy ma'lumotdir.

Ma'lumki, chet el adabiyoti namunalari orasida boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun lozim bo'lgan bolalar adabiyotiga oid asarlar ham o'z ko'lamini bilan anchagina salmoqni tashkil etadi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan o'quv dasturlarida bu masalaga ham diqqat qilinganligi 60-70-yillarda ko'zga tashlanadi. Masalan, Viktor Gyugoning "Xo'rlanganlar" romanidan olingan "Gavrosh", Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asaridan olingan parcha, Xans Xristian Andersenning ertaklari, D.Defoning "Robinson Kruzo", Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" (1937-yilda F.Abdullayev tarjima qilgan), J.Vernning "O'n besh yoshlik kapitan" kabi asarlari va ulardan olingan parcha namunalari sinfda hamda sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan[1].

Ayniqsa, sinfdan tashqari mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan chet el adabiyoti namunalari o'quvchilarning yoshi, qaysi sinfda o'qiyotgani, jahon adabiyoti haqida qanchalik mustaqil bilimiga egaligi inobatga olingan va olinmagan hollar ham ko'zga tashlanadi.

Muhimi, mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan jahon adabiyotini mustaqil o'qigan o'quvchining birinchidan dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati ijobiy tomonga o'zgaradi. Qolaversa, o'zbek va jahon adabiyotiga mansub bo'lgan mashhur asarlar o'quvchilarda chuqur taasurot qoldirgan o'rinlarida asarlarni o'zaro qiyoslash qobiliyatini shakllantiradi va kitobxonlik ko'nikmasini tarbiyalaydi. U yoki bu yozuvchining asarlaridan olingan parcha tarjimasini bilan o'qituvchi o'quvchilarni tanishtirar ekan, mazkur parcha bolalar mustaqil sevib o'qishiga sababchi bo'lishi lozim bo'lgan maqsadni ko'zlashi kerak. Shuningdek, mashg'ulotda o'rganilayotgan parcha, katta bir asarning tarkibiy qismini tashkil etishni o'quvchilarga aytish va muhim masalalardan biridir. Ayrim tajribali o'qituvchilar parcha olingan asarning to'liq mazmuni bilan tanishtirishga, qisqa bo'lsada tushuncha berishga harakat qiladilar. O'quv rejasida o'rganilayotgan chet el adabiyotini yanada chuqurroq o'zlashtirishlari uchun sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya qilingan bolalar adabiyoti namunalari va ularning o'qish darajalarini aniqlash orqali sinfda o'qitiladigan asosiy mavzularni chuqur o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quv dasturi va darsliklarida o'quvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirishdan asosiy maqsad, o'quvchilar qalbiga, qabul qilish yoshiga mos bo'lganligi sababli keng miqyosda o'rin berilgan.

Aksariyat qaysi davrda yashamasin o'quvchilar bolalik chog'larida ota-onasi buvisi, bobosi tomonidan so'zlab bergan ertak, afsona, rivoyat, bolalar qo'shiqlari eshitganligi tufayli, darsliklarga kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalari yengil qabul qiladilar.

Shu bois, dastlabki ertaklarning boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilishi 1939-yilning fevral oyining A.S.Pushkinning 100 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar qarori bilan shoirning qator ertaklari o'zbek tiliga tarjima qilinishi sababli maktablarda o'rganish rejasiga kiritildi.

Keyinchalik, 1940-yillarda xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida o‘zbek xalq ertaklaridan namunalar boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritildi.

Darsliklarni tuzuvchi mualliflar ertaklar bolalarni go‘zallikni his qilish tuyg‘usini to‘g‘ri tarbiyalashini anglaydilar va keyinchalik 1948-1950-yillarda tuzilgan maktab dasturi va darsliklariga kiritilgan “Ur to‘qmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Malikai Xusnobod”, “Uch og‘a-ini botirlar” kabi o‘quvchilar uchun tanish bo‘lgan ertaklar kiritildi. Ayrim sinflarda jahon xalqlari ertaklaridan namunalar kiritilgan. Ertaklar qaysi millatga mansub bo‘lmasin, o‘quvchilarda kuchli his-tuyg‘u uyg‘otuvchi, hayajonlantiruvchi, qolaversa muhim ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shuningdek, ertaklar bolalar uchun qayta hikoya qilish, hayolan ertakni davom ettirish kabi qiziqishlarni vujudga keltiradi. Ma‘lumki, ertaklarda an‘anaviy boshlanish, ya‘ni “Bir bor ekan”, “Bir yo‘q ekan”, “Qadim zamonlarda” yakunida esa “Murod maqsadlariga yetibdi.”, “Shod – xurramlikda umr kechiribdilar” kabi xulosalar berilishi ertaklarga xos uslubdir. Ertaklar xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan turi bo‘lib, to‘qima voqealarni tasvirlaydi. Shuning uchun ham fantastik asarlar sirasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinflarda ertak janrini o‘rganish natijasida bir necha yillardan buyon tajribali o‘qituvchilar sinflardagi qobiliyatli o‘quvchilarni aniqlash, ular vositasida o‘zlari bilgan ertaklarni aytirish, mashg‘ulotda o‘rganilayotgan ertakni tugatmasdan davom ettirish, “Ertaklar kechasi”ni tashkil qilish kabi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etganlar.

Ayniqsa, 1960-yillarda tuzilgan boshlang‘ich sinflarning darsliklarida o‘quvchilarning ertak janrini o‘rganishga jalb etish, muhim didaktik tarbiyaviy manba sifatida foydalanilgan. Chunki, ertaklar ibrat vositalarini o‘zida mujassamlantirgan badiiy xazinadir. Eng muhimi, ertaklarda uydirma bo‘lsada, oldindan voqealarni ko‘ra bilish, o‘quvchilarni tafakkur dunyosini, xayolot dunyosini boyitishga xizmat qilishi bilan ibratlidir. Shu o‘rinda, ertak janrini o‘rganish xususida so‘z borar ekan, yuqorida nomlari keltirilgan ertaklarning jahonning turli joylarida istiqomat qiluvchi xalqlar og‘zaki badiiy ijodida ko‘plab o‘xshash mazmunli ko‘rinishdagi ertaklar mavjudligini folklorshunos olimlar o‘rganib tadqiqot olib borganlar. Chunki, bu o‘xshashlik mavjudligi aniqlangan xalqlar bir-biridan geografik o‘rni, diniy-e‘tiqodiy qarashlari

va turmush tarziga ko‘ra jiddiy, ayrim xususiyatlari bilan farqlanib turgan.

Folklorshunos olim G‘.Jalolov o‘zining “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” risolasida “ertaklardagi ayrim mashhur syujetlarning bir xalqdan ikkinchisiga, bir o‘lkadan boshqasiga ko‘chib yurishi, o‘tib turishi hollari ham mavjud bo‘lib, bu xalqlar orasidagi...iqtisodiy savdo, madaniy va turli-tuman o‘zaro aloqalar bilan bog‘liqdir.”[2] deb yozadi.

Shu o‘rinda o‘zining mazmun mohiyati bilan o‘xshash, boshlang‘ich sinflariga kiritilgan va o‘rganilgan Aka-uka Grimlarning dunyoga mashhur bo‘lgan ertaklari orasida “Zolushka”, “Qorqiz” ertaklarining qahramonlari hammadan turki yeydigan, haqorat va so‘kish eshitadigan va eng past, qiyin ishlarni bajaradigan qizlar bo‘lib, ertak davomida o‘zlarining halol mehnatlari, yoqimli so‘z va tabassumlari bilan baxtiyor bo‘ladilar.

Aynan ana shunday taqdir sohibasi bo‘lgan “Zumrad va Qimmat” ertagi ham boshlang‘ich sinflarda o‘rganilgan va o‘quvchilarning sevimli ertagiga aylangan.

Ertak mazmunida o‘quvchilarni hayajonga soladigan lavhalar anchagina. Bu ertakdagi qahri qattiq o‘gay ona, uning erka tantiq qizi Qimmat bilan Zumradni solishtirish orqali yaxshilik va ezgulik g‘alaba qilganligini bilgan o‘quvchilar Zumradga nisbatan ijobiy xulosa chiqarsa, Qimmatga nisbatan salbiy qarashga ega bo‘ladilar. Boshlang‘ich sinflarning O‘qish kitoblarida ko‘p yillar “Zangori gilam”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Ochil dasturxon”, “Ur to‘qmoq” ertaklari kiritilgan. Bu ertaklar ba‘zan sinflar kesimida o‘rni bilan almashtirilgan.

Ayniqsa, “Uch og‘ayni botirlar” ertagining g‘oyaviy-tarbiyaviy, badiiy qiymati yuksak bo‘lgan ertaklar sirasiga kiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganilayotgan qaysi millat ertaklari bo‘lishidan qat‘iy nazar, har bir xalqning pedagogik, ahloqiy-ta‘limiy vositasi bo‘lib, xizmat qilib kelgan. Eng muhimi, ertaklarning tarbiyaviy qudrati, inson hayotini go‘zallashtirishi, ma‘naviy boyitishi, ularni kamolotining eng yuksak pog‘onalarga yetkazishi bilan nihovatda

katta ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari dunyoga endigina qadam bosib kirib kelayotgan, hali aqli ham xotirasi ham to'lmagan kichik bolalarga mashg'ulot jarayonida ertaklardan namunalarni o'rgatish, qiziqarli qilib aytib berish ularni zavqlantiradi. Ularni to'g'ri fikrlashga, adabiy tilda so'zlashishga o'rgatadi.

Shu o'rinda bolalarga bolaligida eshitgan ertaklari tufayli mashhur bo'lgan Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Hamid Olimjon, Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek, Mirtemir va boshqa mashhur kishilarni eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. Aslida, qaysi bir yozuvchi yoki shoirni olmang, ularning bolalikdan badiiyatga boshlagan ilk tarbiyasi, ilhomlantiruvchi manbai bu ertaklar bo'lgan. Boshlang'ich sinflarda jahon adabiyotini o'rganishda, unga kiritilgan masal janri ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, 70-80-yillarida chop etilgan o'quv dasturlariga Ivan Andreyevich Krilovning "Bo'ri bilan qo'zichoq" (Abdulla Avloniy tarjima qilgan), III-IV asrlarda Hindistonda yaratilgan Kaykovusning "Kalila va Dimna" (birinchi fors-tojik tilidan tarjima qilingan) asarlaridan olingan "Maymun va Ayiqlar", "Sichqon", "Qurbaqa va Qarg'a" kabi masallari kiritilgan. Ayniqsa, "Kalila va Dimna" jahon adabiyotining nodir durdonasi hisoblangan. Masallarda asosan hayvonlar ishtirok etsada, ularda insonlar hayoti, ularning o'zaro munosabatlari nazarda tutilgan. Bu masallarda aql, adolat, odamgarchilik, insof, rahm-shavqat maqtaladi, makkorlik, jabr-zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, aqlsizlik tanqid qilinadi. Masallar janri o'ziga xosligi bilan ertakdan ajralib turadi. Masalda ishtirok etgan har bir qahramon ma'lum sifatni jonlantiradi

va undagi mazmunda hamisha ahloqiy-ma'naviy yakunlanadi.

Odatda masal janri qaysi millat adabiyotiga, xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lmasin, ular she'riy yoki nasrda yozilgan yoki aytilgan bo'ladi.

Chet el adabiyoti namunalarini boshlang'ich sinflarda o'rganishga bo'lgan e'tibor mustaqillikdan so'ng ahamiyat kasb eta boshladi. Ma'lumki, har bir xalq adabiyotida o'sha xalqni tanitgan, ulkan iste'dodlari ular tomonidan yaratilgan bebaho asarlari sabab bo'ladi. Tabiiyki, bugungi kun o'quvchilari oldingilaridan farqli o'laroq, zamonaviy axborot texnologiyalari, internet, televideniya va boshqa vositalar orqali dunyo voqealaridan xabardor bo'lmoqda. Dunyo adabiyoti namunalari asosida yaratilgan badiiy, ijtimoiy, madaniy filmlarni, bolalarga mo'ljallangan multfilmlarni tomosha qilmoqda va xabardor bo'lmoqdalar.

Eng muhimi, ularda ifodalangan voqea-hodisalarni, o'y va mulohazalarni, o'zlarini o'rab turgan shaxsiy muhitga qiyoslash qobiliyatlari shakllanib bormoqda. Shu bois, bugungi o'quvchini hayratga solish, ajablantirish o'qituvchi uchun oson kechmayotir.

ko‘rish, harakat) rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bolaning atrofdagi subektlar va obektlar bilan bevosita aloqaga kirishishi predmetni his qilish, uning alohida belgilarini farqlash, ularning xususiyatlariga moslashish, predmetlarni tanib olishga imkon beradi hamda buning asosida vaziyat obrazi, keyinchalik esa predmetlarning obrazi hosil bo‘ladi. Ota-onalar bolani silash, yelkasini qoqib qoyish, qo‘liga turli sathga ega bo‘lgan predmetlarni berish orqali taktik funksiyani rivojlantirishga hissa qo‘shishadi, bu esa ko‘rish va eshitish idrokini faollashtiradi. Ko‘rish va eshitish orqali masofadan turib idrok qilish predmetlarning fazodagi o‘rnini aniqlash va harakatlanishga imkon beradi, ma’lumotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash uchun mo‘ljallanish faoliyatini shakllantiradi. Bolaning o‘z diqqatini shartli qo‘zg‘atuvchiga qaratib tura olish davomiyligi diqqat jarayonini aks ettiradi, moslashuvchanlik qobiliyati esa mnestic jarayonlar faoliyatining qay tartibda kechayotganligidan darak beradi.

2,5 oylikka kelib muloqotga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi, bu paytda bolaning o‘zi kattalar bilan muloqot qilishga tashabbus bildira boshlaydi. Vizual kontakt muloqotning dastlabki nuqtasi hisoblanadi, u keyinchalik ekspressiv-mimik, so‘ngra emotsional-harakat shakllariga o‘tadi.

Ekspressiv-mimik muloqot mobaynida kommunikativ ta’sirni idrok etish faoliyati va qoniqishni bildiruvchi tabassum shaklidagi emotsional reaksiyalarni ifodalash qobiliyati hosil bo‘ladi. Emotsional-harakat muloqotining shakllanganligi quyidagi mezonlar bilan aniqlanadi: bolaning harakat jonlanishi va ixtiyoriy tabassum ko‘rinishidagi faol javob harakatlariga tayyorligi hamda ushbu harakatlarning vokalizlar bilan birga ifodalanishi; bolaning kattalar bilan bo‘lgan emotsional muloqotni cho‘zishga urinishi va buning uchun o‘z xulq-atvorini o‘zgartirishga ham tayyor ekanligi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligidan boshlab unda muloqotning vaziyatli-ish shakli yuzaga kela boshlaydi. “Bola – kattalar” muloqot sxemasi “bola – kattalar – predmet” sxemasi bilan qo‘shimcha tarzda to‘ldiriladi. Manipulyativ faoliyat muloqot xususiyatini o‘zgartiradi va unga hamkorlik (amaliy o‘zaro munosabatlar) elementini kiritadi. Bola kattalardan obekt bilan lokomotor va predmetli harakatlarni qanday amalga oshirishni ko‘rsatishni hamda oyinda ishtirok etish va baholashni talab qiladi.

Go‘dakning kattalar bilan muloqotga kirishishi ovoz reaksiyalari – vokalizlarning faollashishi va ifoda etilishiga imkon beradi. Hayotning dastlabki yili mobaynida vokalizatsiya jarayoni bir qancha bosqichlardan o‘tadi. Avvaliga ovoz reaksiyalari kattalarning bola bilan amalga oshiradigan emotsional-taktik (murakkab) munosabatlariga javoban, keyinchalik esa emotsional ta’sirga (subektni ko‘rish va eshitish orqali idrok etish) nisbatan yuzaga keladi. Asta-sekinlik bilan subekt obektga almashtiriladi. 1 yoshning oxiriga kelib manipulyativ-predmetli faoliyat mobaynida vokalizatsiyalarni ixtiyoriy tarzda amalga oshirish va vizual – imo-ishora nutqida undovni ifodalash kabi xususiyatlarning shakllanganligi ijobiy natijadan darak beradi.

Ko‘ruv va artikulyatsion-harakat analizatorlarining muvofiqlashtirilganligi va muloqotga bo‘lgan ehtiyojning shakllantirilganligi kattalarning artikulyatsion-mimik harakatlariga taqlid qilish uchun poydevor yaratadi hamda ushbu poydevor bosqichma-bosqich tarzda harakat kinesteziyalari va kinebelgilariga aylanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shokirova Sh.D. Kompleks yondashuv asosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemptiklarida korreksion-logopedik ishni takomillashtirish: Monografiya. – T.: “UMID DESIGN” nashriyoti, 2024. – 330 b.

2. Shokirova Sh.D. Kompleks reabilitatsiya jarayonida rinolaliyali bolalar bilan logopedik ishni tashkil etish bosqichlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent. 2022. – № 2. – B. 67-73.

3. Shokirova Sh.D. Rinolaliyali (0-1 yosh) bolalarga logopedik yordam ko‘rsatish

mexanizmi // “Bola va zamon” ilmiy-ommabop jurnali. – Toshkent. 2024. – № 1. – B. 56-59.

4. Shokirova Sh.D. Formation of speech sound of children with rhinolalia after uranoplasty // Current research journal of pedagogics. – 2022. Vol. 3 No. 2. – P. 34-41

5. Shokirova Sh.D. The current status of the problem of rehabilitation of children with congenital deformities of the upper lip and palate // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). – 2023. Vol. 4 No. 6. – P. 21-23.

6. Shokirova. Sh.D. Ijodkorlik pedagogikasi asosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemptigi bo‘lgan bolalarda nutq buzilishlarini oldini olish // Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2024. 20 fevral . – B. 534-536.

## РОЛЬ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Наркабилова Гульноза Пулатовна  
преподаватель Ферганского государственного университета

*Аннотация.* Статья посвящена роли непрерывного образования в формировании цифровой культуры будущих педагогов в условиях смешанного обучения. Рассматриваются концепции *lifelong learning* и *life-wide learning*, а также их влияние на развитие цифровых компетенций через интеграцию формального, неформального и информального образования. Анализируется важность создания модульных образовательных программ, внедрения цифровой среды и методик, способствующих повышению профессионального уровня педагогов. Представлены практические рекомендации для интеграции непрерывного обучения в процесс подготовки педагогов.

*Ключевые слова:* цифровая культура, непрерывное образование, *lifelong learning*, *life-wide learning*, формальное образование, неформальное образование, информальное образование, смешанное обучение, модульные программы, наставничество, цифровые компетенции, критическое мышление, образовательные технологии.

## THE ROLE OF LIFELONG EDUCATION IN THE FORMATION OF DIGITAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS

Narkabilova Gulnoza Pulatovna  
Lecturer at Fergana State University

*Abstrakt.* This article examines the role of lifelong education in forming the digital culture of future teachers within the framework of blended learning. The concepts of lifelong learning and life-wide learning and their impact on the development of digital competencies through the integration of formal, non-formal, and informal education are discussed. The importance of creating modular educational programs, implementing a digital environment, and methodologies to enhance the professional level of teachers is analyzed. Practical recommendations for integrating lifelong education into the process of teacher training are presented.

*Keywords:* digital culture, lifelong education, lifelong learning, life-wide learning, formal education, non-formal education, informal education, blended learning, modular programs, mentoring, digital competencies, critical thinking, educational technologies.

## UMRBORIY TA'LIMNING KELAJAKDAGI O'QITUVCHILARNING RAQAMLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Narkabilova Gulnoza Pulatovna  
Farg'ona Davlat Universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada umrbiy ta'limning kelajakdagi o'qituvchilarning raqamli madaniyatini shakllantirishdagi roli, xususan, aralash ta'lim tizimi doirasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Umrbiy o'qish va umrumiy ta'lim tushunchalari hamda rasmiy, norasmiy va noan'anaviy ta'limni integratsiyalash orqali raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'siri muhokama qilingan. O'qituvchilarning kasbiy darajasini oshirish uchun modulli ta'lim dasturlarini yaratish, raqamli muhitni joriy etish va metodikalardan foydalanish zarurati tahlil qilingan. O'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayoniga umrbiy ta'limni integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

*Kalit so'zlar:* raqamli madaniyat, umrbiy ta'lim, umrbiy o'qish, umrumiy ta'lim, rasmiy

*ta'lim, norasmiy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, aralash ta'lim, modulli dasturlar, murabbiylik, raqamli kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyalari.*

Введение. Современные реалии требуют от педагогов умения эффективно адаптироваться к стремительным изменениям в образовательной среде. В условиях цифровой трансформации образование будущих педагогов должно обеспечивать не только профессиональные знания, но и навыки работы с цифровыми технологиями. Концепция непрерывного образования, охватывающая такие аспекты как lifelong learning (обучение на протяжении всей жизни) и life-wide learning (обучение во всех аспектах жизни), становится ключевой для успешного формирования цифровой культуры. Эти подходы предполагают постоянное развитие компетенций и интеграцию различных форм образовательной деятельности: формальной, неформальной и информальной. Целью статьи является определение значимости непрерывного образования в формировании цифровой культуры будущих педагогов и разработка практических рекомендаций для повышения эффективности профессиональной подготовки.

Методы.

Теоретический анализ включал исследование концепций lifelong learning и life-wide learning на основе международных деклараций (Лиссабонский саммит 2000 года [8], Инчхонская декларация ЮНЕСКО 2015 года [7]), а также обзор формального, неформального и информального образования. Практическая часть исследования включала разработку модульных образовательных программ с акцентом на цифровую грамотность, применение цифровых инструментов в образовательной практике и цифровую аналитику. Внедрение программ сопровождалось использованием наставничества, тьюторства, семинаров и интерактивных образовательных проектов.

Результаты.

Исследование подтвердило значимость интеграции всех форм образования (формального, неформального и информального) для формирования цифровой культуры будущих педагогов. Формальное образование создает структурированную основу: студенты осваивают базовые знания и навыки в рамках стандартизированных программ. Например, внедрение цифровых платформ для управления учебным процессом и использования систем диагностики знаний позволило будущим педагогам освоить как педагогические, так и цифровые компетенции. Как указывает Л.П. Владимирова [3], такая систематизация помогает развивать ценностные ориентиры и способность решать нестандартные задачи.

Неформальное образование, включающее тренинги, вебинары, мастер-классы и курсы повышения квалификации, показало свою эффективность в расширении профессиональных горизонтов педагогов. Например, участие студентов в образовательных проектах и онлайн-курсах, таких как Coursera и EdX, способствовало освоению современных методов blended learning. Э.С. Бабаева [2] подчеркивает, что такие инициативы стимулируют учебную мотивацию и обеспечивают гибкость образовательного процесса.

Информальное образование оказалось ключевым элементом в развитии самостоятельности и инициативности. Взаимодействие студентов с цифровыми технологиями, участие в профессиональных сообществах и использование социальных сетей способствовало интеграции полученных знаний в профессиональную практику. Как отмечает М. Тайт [6], такие виды обучения помогают формировать навыки взаимодействия с окружающей средой и решать задачи в реальном времени.

Модульные образовательные программы, созданные для исследования, включали три ключевых компонента: основы цифровой грамотности, применение цифровых

инструментов и цифровую аналитику. В результате реализации данных программ у студентов значительно улучшились навыки работы с текстовыми и табличными редакторами, цифровыми платформами и интерактивными приложениями. Наставничество и портфолио цифровых достижений, о которых писал П. Джарвис [4], стимулировали рефлексию и мотивацию обучающихся.

Программы наставничества показали высокую эффективность в адаптации студентов к цифровой образовательной среде. Опытные педагоги оказывали поддержку в освоении новых технологий, помогали в создании цифровых материалов и индивидуальных образовательных маршрутов. Взаимодействие в рамках тьюторских сессий способствовало снижению тревожности студентов и укреплению их уверенности в своих силах.

Обсуждение.

Результаты исследования показывают, что непрерывное образование необходимо рассматривать как системный процесс, объединяющий формальные, неформальные и информальные подходы. Формальное образование предоставляет основу для формирования базовых цифровых навыков, но его эффективность значительно возрастает при дополнении неформальными форматами, такими как курсы повышения квалификации и профессиональные тренинги. Например, семинары и мастер-классы, организованные в рамках исследования, позволили будущим педагогам не только изучить теоретические аспекты, но и применять их на практике. Как отмечает О.В. Ройтблат [5], такие мероприятия стимулируют развитие профессиональной идентичности и креативного подхода к преподаванию.

Наставничество, описанное Е.А. Александровой [1], играет критическую роль в индивидуализации образовательного процесса. Важно, что наставники не только делятся знаниями, но и побуждают студентов к самостоятельному решению задач. Такой подход создает условия для формирования у педагогов уверенности в своих навыках и готовности использовать цифровые инструменты в своей работе.

Цифровые лаборатории и интерактивные проекты, внедренные в рамках исследования, продемонстрировали высокий потенциал для развития критического мышления и креативности. Например, создание студентами интерактивных уроков с использованием дополненной реальности и образовательных игр способствовало не только освоению технологий, но и развитию навыков командной работы. Как подчеркивает М. Тайт [6], такие проекты создают условия для обучения через практическую деятельность, что является важным элементом подготовки педагогов.

Информальное обучение, происходящее через повседневное взаимодействие с цифровыми технологиями, создает естественные условия для формирования цифровой культуры. Использование социальных сетей, профессиональных сообществ и онлайн-ресурсов позволяет студентам самостоятельно интегрировать новые знания в профессиональную деятельность. П. Джарвис отмечает, что это обучение помогает студентам развивать способность к самоанализу и рефлексии, что особенно важно в контексте формирования цифровой грамотности [4].

Для дальнейшего повышения эффективности предложенных подходов рекомендуется:

1. Развивать систему цифровой сертификации, которая позволит объективно оценивать уровень цифровых компетенций студентов.
2. Создавать цифровые лаборатории, оснащенные интерактивными панелями, устройствами виртуальной реальности и аналитическим программным обеспечением.
3. Организовывать конкурсы и фестивали, такие как «Цифровой педагог», для стимулирования интереса к цифровой культуре и профессионального роста.
4. Продолжать внедрение модульных программ, фокусирующихся на актуальных

цифровых навыках, таких как анализ данных, использование искусственного интеллекта и разработка интерактивных материалов.

Таким образом, исследование подчеркивает, что формирование цифровой культуры невозможно без интеграции всех форм образования и использования современных педагогических подходов. Это позволит подготовить педагогов, способных эффективно адаптироваться к требованиям цифрового образовательного пространства.

Заключение.

Формирование цифровой культуры будущих педагогов требует комплексного подхода, включающего непрерывное образование и педагогическое сопровождение. Использование модульных программ, цифровых инструментов и наставничества способствует адаптации педагогов к современным требованиям. Рекомендуется продолжить разработку методик, обеспечивающих интеграцию различных форм обучения для повышения профессионального уровня педагогов.

Список использованной литературы

1. Александрова, Е. А. Разработка индивидуальной траектории саморазвития / Е. А. Александрова // Практика административной работы в школе. — 2010. — № 5. — С. 46–49.
2. Бабаева, Э. С. Теория проектирования интегрированных программ обучения: монография / Э. С. Бабаева. — М.; Берлин: Директ-Медиа, 2017. — 173 с.
3. Владимирова, Л. П. Проблемы интеграции формального и неформального образования в условиях единой информационно-образовательной среды / Л. П. Владимирова // Открытое образование. — № 5 (100). — 2013. — С. 140–142.
4. Jarvis, P. Adult and Continuing Education. Theory and Practice / P. Jarvis. — London: Routledge, 1995.
5. Ройтблат, О. В. Развитие теории неформального образования в системе повышения квалификации педагогических работников: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01 / Ройтблат Ольга Владимировна. — СПб., 2015. — 49 с.
6. Tight, M. Key Concepts in Adult Education and Training / M. Tight. — London and New York: Routledge, 1998.
7. <https://esdcc.bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files.pdf>
8. [https://unesdoc.unesco.org/ark%3A/48223/pf0000233137\\_rus](https://unesdoc.unesco.org/ark%3A/48223/pf0000233137_rus)

## ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЛИНГВИСТИК ТУШУНЧАЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯ АСОСИДА ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

Ризаева Мафтуна Холмурод қизи,  
Навоий давлат педагогика университети тадқиқотчиси  
orcid.org/0009-0005-4255-8672

*Аннотация: Мақолада она тили таълим моделлари ва дарс жараёнини лойиҳалашга доир таклиф-тавсия ва ёндашувлар баён қилинган, шунингдек, она тилида нутқий компетенцияни ривожлантириш методлари, ечимлари ҳақида фикр юритилган.*

*Калит сўзлар: лингвистик тушунча лойиҳалаш, кўникма ва малака, метод, усул, технология, компетенция, баҳолаш, аниқлаш, қўллаш*

## ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИМ ПОНЯТИЯМ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Ризаева Мафтуна Холмурод кизи,  
Навоийского государственного педагогического университета  
Научный сотрудник

*Аннотация: в статье описываются предложения-рекомендации и подходы к проектированию образовательных моделей родного языка и процесса dar, а также размышляются о методах, решениях для развития речевой компетенции на родном языке.*

*Ключевые слова: проектирование лингвистической концепции, навыки и компетенции, методика, метод, технология, компетентность, оценка, идентификация, применение*

## DESIGNING THE PROCESS OF TEACHING LINGUISTIC CONCEPTS BASED ON INTEGRATION IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Rizaeva Maftuna Kholmurod kizi,  
Navoi state pedagogy University researcher

*Annotation: the article describes the proposal-recommendations and approaches to the design of the educational models of the native language and the dar process, and also reflects on the methods, solutions for the development of speech competency in the native language.*

*Keywords: linguistic concept design, skills and competencies, method, method, technology, competence, assessment, identification, application*

Кириш. “Педагогикадаги интеграция муаммосининг турли жихатлари кўплаб таниқли олимлар (В.С.Безрукова, Л.В.Тарасов, Н.К.Чапаев) томонидан ўрганилган. Сўнгги бир қатор тадқиқотларда куйидагилар кўриб чиқилади: интеграциянинг моҳияти педагогик ҳодиса сифатида интеграцион муаммоларни ишлаб чиқишга таълим назарияси ва амалиёти соҳасидаги интеграция жараёнларини таҳлил қилишга бағишланган ихтисослаштирилган илмий тўпламлар жиддий ҳисса қўшди”. Таълимда интеграция, энг аввало, фанлараро алоқани кескин ривожлантиришни, турли фанларни ўзаро ҳамкорликда ўқитишдан, уларни ўзаро чуқур таъсирлашишига ўтишини тақозо қилади”, деб уқтирилади.

Адабиетлар таҳлили ва методологияси

Тажрибадан маълумки, фанларни интеграциялаш муаммоси педагогнинг ўқувчиларга таъсир этишининг самарали ечимини фаол излашга қаратилган йўналишлардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Бу борада А.Ғуломов ўринли қайд этганидек, “бошқа фанлардан олинган маълумотлар тил ҳодисаларининг амалда қўлланилишини кўрсатиш учун ниҳоятда муҳимдир. Бошқа фанлардан олинган маълумотлардан фойдаланиб, ўқувчиларни ҳар томонлама билимли қилиш имкониятига

эга бўлишдир. Бунда ўқувчилар бадиий услубни адабиёт орқали, илмий услубни биология, кимё, физика, математика орқали, иш қоғозлари услубини ҳуқуқ асослари фанларидан олинган материаллар асосида ўрганадилар. Она тили машғулотларида ўқувчилар шу фанлардан олинган илмий матнларни бадиий тасвирлашлари, бу матнларни нутқ услублари нуктаи назаридан таҳлил қилиш ишлари назарда тутилади”.

Интеграциянинг мазмун-моҳияти бир неча асрлар муқаддам тасаввуф тариқати намояндalarидан бўлган Фаридиддин Аттор томонидан билдирилган қуйидаги фикрларда ҳам мужассам: “Бу рўйи заминда майда нарсанинг ўзи йўқ, ҳамма нарса бир-бирига боғлиқ ва бир-бирини тўлдиради”. Дарҳақиқат, мазкур фикрлар замирида бу оламдаги жамики нарсалар бир-бирини тақозо этиши, чамбарчаслиги масаласи кўзда тутилган.

Фанлараро алоқани дарсларда ташкил қилиш натижасида ўқув фанларининг сони камайиб, самараси пухта бўлади, таҳсил олувчиларни мустақил ишлашга жалб этиш осон кечади. Лексика бирлиги, грамматика бирлиги ва талаффуз бирлиги гапириш, тинглаб тушуниш, ўқиш ва ёзувда ўргатиш-ўрганиш birlikлари деб қаралади. Уларнинг функционал, семантик ва формал жиҳатларини ўзлаштириш учун махсус машқлар бажаришни талаб қилади.

Масалан, “Она тили”ни ўрганиш чоғида амалий, умумтаълимий, тарбиявий, касбий ва ривожлантирувчи мақсадлар бир хилда рўёбга чиқади. Она тилини ўқувчи қийинчиликларсиз тушунади ва амалий тарзда эгаллайди. Иккинчи тилда амалий малакалар, аввал, қисман ҳосил қилинган, назарий билимлар она тилидагидан камроқ ҳажмда баён этилади, албатта. Тил таълимида қоида (оддий назарий билим)лар амалий кўникма ва малакаларни эгаллашни тезлаштириш (интенсификация) ва енгиллаштириш (оптимизация) мақсадларига бўйсундирилади, ўқув жараёнида нутқий амалиёт (коммуникация) бирламчи вазифага айланади.

Интеграция гап ва гапдан йирикроқ бўлган тил birlikлари англаган маъноларнинг нисбий мустақиллигини бартараф этиб, уларни матн мазмунининг мустақиллигини таъминлашга жалб этади. Демак, интеграция категорияси матннинг якунланиши билан боғлиқ категория сифатида намоён бўлади.

Хориж олимларидан И.В.Песталоци ўзининг дидактик мақоласида ўқув дарсликларидagi боғлиқлик масаласига кенг тўхталиб ўтар экан: “Бир-бири билан боғлиқ фанларни онгинга келтир, уларни табиатдаги узвий боғлиқлик ҳолатида эканини англа”, – дейди. Песталоци бир фаннинг бошқа бир фандан узоқлашувининг ҳатто хавфлилигини таъкидлайди.

Предметлараро боғланиш ҳозирда дидактика ва ўқитиш методикасида билимлар мазмуни билан илмий билиш методларининг мутаносиблигига асосланган яхлит система сифатида тушунилади (М.Н.Скаткин, И.Д.Зверев, И.Я.Лернер ва б.). Предметлараро боғланишга системали ёндашиш, унинг таркиби, тузилиши ҳамда вазифаларини, унинг бошқа тизим объектлари (ўқув жараёни, ўқув-тарбиявий фаолият ва ҳ.к.) билан муносабатини биргаликда очиб беришни тақозо этмоқда. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда таълим ўқувчилар нутқини соҳага оид сўз ва атамалар билан бойитиш, коммуникатив фаолиятга тайёрлаш, ихтисосий эҳтиёждан келиб чиқадиган нутқ услубларини ўргатиш, нутқнинг тўғрилиги, аниқлиги, мантиқийлиги, кўзланган мақсадга бўйсундирилганлиги каби омиллар танланган ихтисосликка оид нутқий фаолиятга тайёрлашда муҳим ўрин тутади.

Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда айтиш мумкинки, она тили дарсларида ўқувчилар тилдаги зарурий атамаларнинг маъносини тушуниши, бир сўзни бошқаси билан қийналмай алмаштира олиши, ўз фикрини оғзаки ва ёзма шаклда тўғри ифодалай олиши, нутқий синонимиядан фойдалана билиш имкониятларининг ривожланиши орқали уларда мустақил фикрлаш кўникмалари шаклланади. Ишнинг педагогик жараёни ташкил этишдаги мақсади ўрта мактабда она тилини интеграциялаб ўқитиш методикасини ишлаб чиқиш, асослаш ва синовдан ўтказиш, тил таълимида интеграциядан фойдаланиш усулларига доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат. Шу орқали ўқувчиларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришга ҳисса қўшиш. Мазкур мақсадларни амалга оширишда қуйидаги вазифаларни бажаришни тақозо

этади:

-фанлараро интеграциянинг турлари ва уларни дарс давомида қўллашнинг афзалликларини кўрсатиб бериш;

-тил таълимига фанлараро интеграциядан фойдаланиш усул ва услубларини яратиш;

-ўқувчиларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда интеграциянинг ўрни ва аҳамиятини аниқлаш;

-фанлараро интеграциялар билан боғлиқ назарий маълумотларни ўқитувчилар эътиборига ҳавола қилиш усуллари бўйича тавсиялар бериш;

Таълимдаги ўзаро боғлиқлик масаласи Б.Зиёмухаммедовнинг қарашларида ҳам ўз ифодасини топган. Олим ўқув жараёни технологияси алоҳида олинган битта дарс, битта мавзу ёки ўқув предметининг бир қисмига, бутун ўқув предметига тузиб чиқилиши лозимлигини таъкидлаб, унинг қуйидаги беш тамойили борлигини кўрсатади: “Муайян дарс, мавзу, қисм, ўқув предметидан кутилган асосий мақсадни шакллантириш; дарс ёки ўқув предметини модулларга ажратиш, улардан кутилган мақсад ва ҳал қилиниши лозим бўлган масалалар тизимини белгилаш; модул ичида тест саволларини тузиб чиқиш; мақсадга етиш усуллари аниқлаш; бир бутунлик тамойилига асосланиб, дарс қисмлари орасидаги зарурий боғлиқликлар ва фанлараро алоқаларга алоҳида эътибор қаратиш”.

Хулоса. Хулоса сифатида таъкидлаш керакки, дарсларда фанлараро алоқани ташкил қилиш натижасида ўқув фанларининг сони камайиб, таҳсил олувчиларни мустақил ишлашга жалб этиш осон кечади. Интегратив дарсларни ташкил қилиш орқали мунозара уюштириш, ижодий фикрлашга ўргатиш, гуруҳлараро мусобақа, савол-жавоблар ташкил қилиш мумкин. Бундай замонавий дарс турларини қўллашдан асосий мақсад ўқув жараёнида таълим олувчиларни фаоллаштириш, ўқув материални ўзлаштиришнинг юқори даражасига эришишдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шевчук С. В. Развитие идей православной педагогики в наследии К.Д. Ушинского. автореф. дисс. канд. пед. наук. – Петербург: ЯГПУ, 2005. – 19 с.

2. Иванов В.Г. Междисциплинарная интеграция общего и специально-технического образования в средней профессиональной школе: На примере изучения физики и специально-технических дисциплин. дисс.... док. пед. наук. – Москва, 1999. – 216 с.

3. Гуломов А., Нематов Х. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 38- б.

4. Ro‘zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi // Ma‘rifat. – Тошкент, 2002. – № 26. – В. 6.

5. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 10- б.

6. Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 152 -б.

7. Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2001. – 24- б.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI UZVIYLIKNI TA'MINLASH

Eshqobilova Guldon,

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va uzviylikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning mantiqiy tahlil qilish, dalillarni baholash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uzviylik esa o'quv materiallarini izchil va bog'liq ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Maqolada tanqidiy fikrlash va uzviylikni ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va usullar tavsiya etiladi hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy fikrlash, uzviylik, boshlang'ich sinflar, matematika, pedagogik yondashuv, mantiqiy fikrlash, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития критического мышления и обеспечения преемственности на уроках математики в начальных классах. Критическое мышление играет важную роль в развитии у учащихся навыков логического анализа, оценки доказательств и принятия творческих решений. Преемственность обеспечивает последовательное и взаимосвязанное усвоение учебного материала. В статье предлагаются педагогические подходы и методы, направленные на развитие критического мышления и обеспечение преемственности, а также анализируется их эффективность в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Критическое мышление, преемственность, начальные классы, математика, педагогические подходы, логическое мышление, эффективность обучения.

**Annotation.** The article examines the development of critical thinking and ensuring continuity in mathematics lessons in primary schools. Critical thinking plays a crucial role in enhancing students' skills in logical analysis, evaluating evidence, and making creative decisions. Continuity ensures the consistent and interconnected acquisition of educational material. The article offers pedagogical approaches and methods aimed at fostering critical thinking and ensuring continuity and analyzes their effectiveness in the educational process.

**Keywords:** Critical thinking, continuity, primary school, mathematics, pedagogical approaches, logical thinking, educational effectiveness.

**Kirish.** Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi o'quvchilarning kelajakdagi o'quv jarayoni va kundalik hayotdagi ko'nikmalarni shakllantirish uchun poydevor yaratadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, analitik qobiliyatlari va ijodiy yondashuvlari rivojlanadi. Matematika ta'limida tanqidiy fikrlashni shakllantirish esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va masalalarni turli yondashuvlar bilan hal qilish qobiliyatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Tanqidiy fikrlash shaxsning muammolarni tahlil qilish, dalillarni asoslash, turli qarashlarni solishtirish va samarali yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ko'nikma matematika fanining o'ziga xosligi, ya'ni masalalarni yechish jarayonida mantiqiy va izchil yondashuvni talab qilishi sababli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash orqali mavzular o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, bilimlarning izchilligi va chuqurligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga bo'lgan zamonaviy yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammoli vaziyatlarda ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida tanqidiy fikrlash orqali uzviylikni ta'minlashning ahamiyati, pedagogik usullari va kutilayotgan natijalar tahlil qilinadi. Bu masala nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarning hayotga tayyorgarligini mustahkamlash nuqtai nazaridan ham muhimdir.

**Tanqidiy Fikrlash va Uning Matematika Ta'limidagi Roli**

Tanqidiy fikrlash shaxsning tahliliy va izchil fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy ko'nikma

hisoblanadi. Bu jarayon muayyan vaziyatni chuqur tahlil qilish, mavjud dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida tanqidiy fikrlashning ahamiyati nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashda ham namoyon bo'ladi.

#### Matematika va Tanqidiy Fikrlashning Bog'liqligi

Matematika tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda qulay fan hisoblanadi, chunki u mantiqiy qoidalar, dalillarni asoslash va turli usullarda yechim topish bilan bog'liq. Masalalar yechishda turli yondashuvlarni qo'llash imkoniyati o'quvchilarni ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi. Misol uchun, bir matematik masalani bir necha usulda yechishni o'rgatish orqali o'quvchilar yangi fikrlar ishlab chiqish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Tanqidiy fikrlash matematika darslarida quyidagi asosiy jihatlarida o'z ifodasini topadi:

- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish: O'quvchilar murakkab masalalar va savollar ustida ishlash orqali mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadilar.
- Dalillarni baholash: Masalalarni yechishda qo'llanilgan usullarni va ularning natijalarini o'zaro solishtirib, qaysi biri eng samarali ekanligini aniqlash.
- Yechimlarning mantiqiyligini tekshirish: O'quvchilardan masala javobining to'g'riligini isbotlash va dalillar keltirish talab qilinadi.

#### Tanqidiy Fikrlashning Matematika Ta'limidagi Afzalliklari

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish matematika ta'limining samaradorligini oshiradi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Analitik Qobiliyatlarni Rivojlantirish: O'quvchilar muammolarni chuqur tahlil qilish, ularga turli nuqtai nazardan yondashish ko'nikmalarini egallaydilar.
2. Ijodiy Fikrlash: Masalalarni turli usullar bilan hal qilish orqali o'quvchilar ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi.
3. O'ziga Ishonchni Oshirish: O'quvchilar o'z xulosalarini mustaqil asoslashni o'rganib, o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradilar.
4. Amaliy Ko'nikmalarni Mustahkamlash: Tanqidiy fikrlash yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi.

#### Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirishga Yo'naltirilgan Metodlar

Matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Ochib Savol Berish: Masalan, "Bu masalani qanday boshqa usullar bilan yechish mumkin?" yoki "Nega bu yechim eng samarali hisoblanadi?" kabi savollar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi.
2. Muammoli O'qitish: O'quvchilarga murakkab muammolarni berib, ulardan mustaqil izlanishni talab qilish orqali tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Amaliy Masalalar: Kundalik hayotga oid matematik masalalarni yechish orqali bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratish.
4. Guruhli Ish: O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, birgalikda masalalar yechish jarayonida fikr almashish va dalillarni baholashga jalb qilish.

#### Matematika orqali Tanqidiy Fikrlashni Hayotga Tatbiq Etish

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish faqat matematika darslarida cheklanib qolmay, balki hayotiy vaziyatlarda ham samarali qo'llanilishi lozim. Misol uchun, vaqtni boshqarish, xarid qilish, yoki kundalik masalalarni hal qilishda tanqidiy fikrlash yordamida o'quvchilar aniq va asosli qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

Tanqidiy fikrlash matematika ta'limida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z xulosalarini asoslashga va turli yondashuvlarni qo'llashga o'rgatadi. Bu ko'nikma nafaqat matematika fanida, balki kundalik hayotda ham o'quvchilarni muvaffaqiyatli va mantiqiy qarorlar qabul qiladigan shaxslar sifatida shakllantirishda muhimdir. Pedagoglar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning matematik bilimlarini nafaqat chuqurlashtirish, balki ularning ijodiy

salohiyatini oshirishga ham hissa qo'shadilar.

#### Uzviylikni Ta'minlashning Ahamiyati

Ta'lim jarayonida uzviylik – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlovchi muhim prinsip hisoblanadi. Uzviylik ta'lim mazmunining izchil va mantiqiy bog'liqligini, turli mavzular va bosqichlar o'rtasidagi aloqadorlikni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida uzviylikni ta'minlash nafaqat o'quvchilarning mazmuni yaxlit qabul qilishlarini, balki ularning kelajakdagi matematik fanlarni o'zlashtirish qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

#### Uzviylikning Mazmuni va Ta'limdagi O'rni

Uzviylik ta'limda turli mavzularni bir-biriga bog'lash, o'quv materialini oldingi va keyingi bilimlar bilan izchil integratsiya qilishni anglatadi. Matematika fanida uzviylikning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Bilimlarni mustahkamlash: Har bir yangi mavzu avvalgi bilimlarga asoslanadi va ularni mustahkamlaydi.
- Izchillikni ta'minlash: O'quvchilar o'rganayotgan mavzular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni anglab, ulardan samarali foydalanadi.
- Matematik tafakkurni rivojlantirish: Matematik amallarni turli darajalarda qo'llash orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalar (sonlar, arifmetik amallar, geometrik shakllar) keyinchalik algebra, geometriya va boshqa matematik sohalarni o'zlashtirishga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Uzviylikni ta'minlash orqali o'quvchilarda bilimlarni chuqurroq anglash va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi.

#### Matematika Ta'limida Uzviylikni Ta'minlash Yo'llari

Boshlang'ich sinflarda uzviylikni ta'minlash uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Oldingi bilimlarga tayangan holda yangi mavzularni o'zlashtirish: Har bir yangi mavzuni o'rgatishda oldingi bilimlar qayta ko'rib chiqiladi va ular asosida yangi tushunchalar shakllantiriladi. Masalan, qo'shish va ayirishni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar uchun ko'paytirish va bo'lish tushunchalari tushuntirilganda, ular bu amallarning mantiqiy davomiyligi ekanligini anglaydi.

2. Mavzularni bir-biri bilan bog'lash: Matematik mavzularni o'zaro bog'liq holda o'rgatish orqali o'quvchilarga bilimlarning yaxlit manzarasini yaratish mumkin. Masalan, geometrik shakllarning maydonini hisoblash masalalari arifmetik amallarni qo'llashni talab qiladi, bu esa mavzularni birlashtirishga imkon beradi.

3. Amaliyot va nazariyaning uzviyligi: Matematik nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash orqali o'quvchilarni faollikka undash va ularning bilimlarini mustahkamlash mumkin. Masalan, xarid qilishda hisob-kitob qilish, vaqtni boshqarish yoki geometrik shakllarni o'lchash kabi vazifalar amaliy faoliyat orqali nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

4. Progressiv murakkablashuv: Mavzularni o'rgatishda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini asta-sekin murakkablashtirish tamoyiliga asoslanish zarur. Oddiy arifmetik amallardan boshlab, keyinchalik murakkab matematik amallarni o'zlashtirish uzviylikni ta'minlaydi.

#### Uzviylik va Tanqidiy Fikrlashning O'zaro Aloqasi

Uzviylikni ta'minlash jarayonida tanqidiy fikrlash muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar mavzularni mantiqiy tahlil qilish, turli yondashuvlarni solishtirish va eng samarali usullarni qo'llash orqali bilimlarni yaxlitlashtiradi. Tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar turli mavzular o'rtasidagi aloqalarni anglab, bilimlarni bir butun sifatida qabul qilishga intiladi.

Masalan, sonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushungan o'quvchi bu bilimlarni keyinchalik tenglamalarni yechishda muvaffaqiyatli qo'llay oladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash o'quvchilarni bir masalani turli usullar bilan yechishga undaydi, bu esa ularning mavzularni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

#### Uzviylikni Ta'minlashning Natijalari

Uzviylikni ta'minlash orqali boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi:

1. Bilimlarning izchil rivojlanishi: O'quvchilarning bilimlari bosqichma-bosqich mustahkamlanib boradi.

2. Amaliy ko'nikmalarning shakllanishi: Matematik bilimlarni hayotiy masalalarda qo'llash qobiliyati rivojlanadi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash: O'quvchilar matematik masalalarga ijodiy va tanqidiy yondashishni o'rganadilar.

4. Kelajakdagi muvaffaqiyatli o'zlashtirish: Uzviylik asosida olingan bilimlar keyingi sinflardagi murakkab mavzularni o'zlashtirishga mustahkam poydevor yaratadi.

Uzviylik boshlang'ich sinflardagi matematika ta'limining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lib, bilimlarning izchilligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali o'quvchilarni nazariy va amaliy tayyorgarlikka yo'naltiradi. Tanqidiy fikrlash bilan uyg'un holda ta'lim jarayonida uzviylikni ta'minlash o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda va ularning kundalik hayotda mustaqil qaror qabul qilishiga zamin yaratishda asosiy rol o'ynaydi. Uzviylikni ta'minlash o'qituvchilarning turli mavzularni bir-biriga bog'lash, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va amaliy faoliyatga yo'naltirish orqali matematik bilimlarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va uzviylikni ta'minlash o'quvchilarning matematik bilimlarini izchil o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va kelajakdagi muvaffaqiyatli ta'lim uchun zarur poydevor yaratishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar turli masalalarni tahlil qilish, yechimlarni baholash va muqobil yondashuvlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon ularning bilimni faqat yodlash bilan chegaralanmasdan, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv orqali amaliyotda qo'llashiga imkon yaratadi.

Uzviylik ta'lim jarayonining izchil va mantiqiy bog'liqligini ta'minlash orqali o'quvchilarni yangi bilimlarni avvalgi o'rganilgan tushunchalar bilan integratsiya qilishga yo'naltiradi. Bu yondashuv matematika ta'limida o'quvchilarning mavzularni yaxlit qabul qilishlariga va bilimlarni hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llashlariga zamin yaratadi.

Pedagoglar tanqidiy fikrlash va uzviylikni ta'minlashga qaratilgan metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va maqsadli qilib tashkil etadilar. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning nafaqat matematika faniga, balki umumiy ta'limga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantiradi va ularni muvaffaqiyatli hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlash va uzviylikni ta'minlash, shubhasiz, zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv kelajak avlodni ijodkor, mantiqiy va amaliy fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lgan shaxslar sifatida shakllantirishning asosiy omillaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986.
2. Dewey, J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D.C. Heath, 1933.
3. Brookfield, S. D. Developing Critical Thinkers: Challenging Adults to Explore Alternative Ways of Thinking and Acting. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987.
4. Ennis, R. H. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996.
5. Polya, G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. – Princeton: Princeton University Press, 1945.

## **RUHIY SALOMATLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KUNDALIK JISMONIY MASHQLARNING AHAMIYATI**

*Gilijova Arzigul Mametmiratovna,  
Urganch davlat universiteti professori*

*Sobirova Sanobar Ro'ziboevna,  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada kundalik jismoniy mashqlarning inson ruhiy salomatligiga ijobiy ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muntazam mashqlar stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash, depressiyaning oldini olish va uyqu sifatini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu maqola jismoniy faollik va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni yoritib, kundalik mashqlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.*

*Kalit so'zlar: Ruhiiy salomatlik, jismoniy mashqlar, stressni kamaytirish, kayfiyat, uyqu sifati, depressiya, sog'lom turmush tarzi.*

## **ЗНАЧЕНИЕ ЕЖЕДНЕВНЫХ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ**

*Гилиджова Арзигуль Маметмиратовна,  
профессор Ургенчского государственного университета*

*Собирова Санобар Рузибаевна,  
преподаватель Ургенчского государственного университета*

*Аннотация. В данной статье научно обосновано положительное влияние ежедневных физических упражнений на психическое здоровье человека. Результаты исследования показывают, что регулярные тренировки эффективно снижают уровень стресса, улучшают настроение, предотвращают депрессию и повышают качество сна. Статья освещает связь между физической активностью и психическим здоровьем, подчеркивая важность ежедневных упражнений в формировании здорового образа жизни.*

*Ключевые слова: Психическое здоровье, физические упражнения, снижение стресса, настроение, качество сна, депрессия, здоровый образ жизни.*

## **THE IMPORTANCE OF DAILY PHYSICAL EXERCISES IN SHAPING MENTAL HEALTH**

*Gilijova Arzigul Mametmiratovna,  
Professor at Urgench State University*

*Sobirova Sanobar Ro'ziboevna,  
Lecturer at Urgench State University*

*Annotation. This article scientifically examines the positive impact of daily physical exercises on mental health. The research findings indicate that regular exercises are effective in reducing stress, improving mood, preventing depression, and enhancing sleep quality. The article highlights the connection between physical activity and mental health, emphasizing the importance of daily exercises in shaping a healthy lifestyle.*

*Keywords: Mental health, physical exercises, stress reduction, mood, sleep quality, depression, healthy lifestyle.*

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda inson salomatligi masalasi dolzarb muammolardan biriga aylangan.

Texnologiyalarning tez rivojlanishi, urbanizatsiya va ijtimoiy bosimning ortishi inson hayot tarzida jismoniy faollikning pasayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda ruhiy salomatlik masalasi insonning umumiy hayot sifati va farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ruhiy salomatlik nafaqat individual darajada, balki jamiyatda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish uchun ham asosiy omil hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar kundalik jismoniy mashqlarni insonning ruhiy holatini yaxshilash vositasi sifatida tavsiya etmoqda. Muntazam mashqlar stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va depressiyaning oldini olishda samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, jismoniy faollik insonning ichki uyg'unlikka erishishida va tashqi muhitga moslashishida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola ruhiy salomatlikni shakllantirishda kundalik jismoniy mashqlarning ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlanadi. Maqolada jismoniy mashqlarning ruhiy salomatlikka ta'sir mexanizmlari, ilmiy dalillar va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ruhiy salomatlik va jismoniy faollik o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda o'rganilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, ushbu sohada ilmiy yondashuvlar va xulosalarni tizimlashtirish imkonini beradi. Ko'plab ilmiy ishlarda muntazam jismoniy mashqlarning stressni kamaytirishi va ruhiy salomatlikni yaxshilashdagi o'rni ta'kidlangan. Xususan, anderson va brindle (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aerob mashqlari organizmdagi stress gormonlarini (masalan, kortizolni) kamaytirib, endorfin va serotonin kabi kayfiyatni yaxshilovchi moddalarni ko'paytiradi. Ushbu omillar ruhiy muvozanatni saqlashda asosiy rol o'ynaydi.

Smith va boshqalar (2016) tadqiqotlarida jismoniy mashqlar depressiya va tashvish alomatlarini kamaytirishda psixoterapiya va farmakologik davolashga muqobil yoki qo'shimcha vosita sifatida samarador ekanligi ta'kidlangan. Jismoniy mashqlar insonning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa depressiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kredl va kollektiv (2018) tomonidan olib borilgan izlanishlar kundalik mashqlar uyqu sifatini yaxshilashini ko'rsatadi. Ruhiy salomatlik bilan uyquning o'zaro bog'liqligi yaxshi o'rganilgan bo'lib, uyquning yetarli bo'lmasligi depressiya va stressni kuchaytiradi. Mashqlar uyqu siklini tartibga solishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlarda jismoniy mashqlar ruhiy salomatlikka yoshga qarab qanday ta'sir qilishi masalasi keng o'rganilgan. Hoffman va boshqalar (2020) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yosh o'smirlar uchun jismoniy faollik ijtimoiy muhitga moslashishni osonlashtirsa, keksa yoshdagilar uchun u xotira va diqqatni yaxshilashda samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda ruhiy salomatlik masalalari hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lsa-da, xalqaro tajribalar va tavsiyalar asosida jismoniy mashqlarni sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Masalan, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (who) tomonidan jismoniy faollikning ruhiy salomatlikka ta'siri bo'yicha chop etilgan hisobotlarda muntazam mashqlarni har bir yoshdagi inson uchun tavsiya qilishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik jismoniy mashqlar inson ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar mashqlar stressni kamaytirish, depressiyani yengish, kayfiyatni yaxshilash va umuman hayot sifatini oshirishdagi rolini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvlarni o'zbekiston sharoitida joriy qilish va kengaytirish orqali ruhiy salomatlikni rivojlantirishning samaradorligini oshirish mumkin.

#### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ruhiy salomatlikni shakllantirishda kundalik jismoniy mashqlarning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Metodologiya sifatida nazariy va empirik yondashuvlar qo'llanilgan bo'lib, bu mavzuni har tomonlama o'rganishga imkon beradi.

#### Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad: ruhiy salomatlikni yaxshilashda kundalik jismoniy mashqlarning ahamiyatini aniqlash va ularning samaradorligini isbotlash.

#### Vazifalar:

1. Jismoniy mashqlar va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish.
2. Kundalik mashqlarning stress, depressiya va kayfiyatga ta'sirini aniqlash.
3. Jismoniy faollikning ruhiy salomatlikni yaxshilashdagi o'rni bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

#### Tadqiqot yondashuvlari

##### 1. Nazariy tahlil:

- o Ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarni o'rganish.
- o Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (who) va boshqa xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari tahlili.

##### 2. Empirik tadqiqot:

- o So'rovnoma usuli yordamida ruhiy holat va jismoniy faollik darajasini o'lchash.
- o Eksperiment orqali jismoniy mashqlarning inson ruhiy salomatligiga ta'sirini baholash.

#### Tadqiqot usullari

##### 1. So'rovnoma va intervyu:

- o Tadqiqot ishtirokchilaridan jismoniy faollik darajasi, stress holatlari, uyqu sifatini aniqlash uchun ma'lumot yig'ish.

- o So'rovnoma savollari likert shkalasi asosida tuzilgan.

##### 2. Eksperimental tadqiqot:

- o Ishtirokchilar 8 hafta davomida kundalik jismoniy mashqlar (yengil aerobika, yoga, yurish) bilan shug'ullanishga jalb qilindi.

- o Har hafta ruhiy salomatlik darajasi o'lchandi (masalan, kayfiyatni baholash, tashvish darajasi, uyqu sifati).

##### 3. Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish:

- o Olingan natijalar spss dasturi orqali qayta ishlanadi.
- o Korelyatsiya va regreksiya tahlillari yordamida jismoniy mashqlar va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi.

#### Tadqiqot ob'ekti va sub'ekti

- Ob'ekti: kundalik jismoniy mashqlarning inson ruhiy salomatligiga ta'siri.
- Sub'ekti: turli yoshdagi (18–60 yosh oralig'idagi) ishtirokchilar, jumladan talaba, xodim va uy bekalari.

#### Tadqiqotning bosqichlari

##### 1. Tayyorlov bosqichi:

- o Tadqiqot dasturini ishlab chiqish va ishtirokchilarni tanlash.
- o So'rovnoma va eksperiment uchun zarur vositalarni tayyorlash.

##### 2. Amaliy bosqich:

- o Ishtirokchilarning dastlabki ruhiy holatini o'lchash.
- o Mashqlarni tashkil etish va kuzatish.

##### 3. Natijalarni tahlil qilish:

- o Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni tahlil qilish.
- o Xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

#### Tadqiqotning cheklovlari

- Ishtirokchilarning jismoniy faollik darajasini nazorat qilishning murakkabligi.
- Sub'ektiv omillarning natijalarga ta'sir qilish ehtimoli (masalan, ishtirokchilar kayfiyatining o'zgarishi).

Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Ushbu yondashuv ruhiy salomatlikni yaxshilashda kundalik jismoniy mashqlarning ahamiyatini chuqur o'rganishga imkon beradi va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

#### Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot ruhiy salomatlikni shakllantirishda kundalik jismoniy mashqlarning ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, empirik natijalar va ularning tahlili asosida bir qancha muhim xulosalar

qilindi.

Tadqiqot natijalari

### 1. Stress va tashvishni kamaytirish

Eksperiment davomida ishtirokchilarning stress darajasi muntazam mashqlar tufayli sezilarli darajada kamaydi. Ilk bosqichda ishtirokchilarning 68% o'zini stressli his qilgan bo'lsa, 8 hafta davomida bu ko'rsatkich 34% gacha pasaydi. Bu jismoniy mashqlar stressni kamaytirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

### 2. Kayfiyatni yaxshilash

Mashqlar natijasida ishtirokchilarning kayfiyati sezilarli darajada ko'tarildi. Tadqiqot boshlanishida o'zini baxtli his qilganlar 42% ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot oxirida bu ko'rsatkich 74% ga yetdi. Bu o'zgarish mashqlar davomida organizmda endorfinlarning ko'payishi bilan izohlanadi.

### 3. Uyqu sifatining yaxshilanishi

Tadqiqot davomida ishtirokchilarning uyqu sifati ham tahlil qilindi. Eksperimentdan oldin qatnashchilarning 55% uyqu bilan bog'liq muammolardan shikoyat qilgan bo'lsa, mashqlar natijasida bu ko'rsatkich 18% gacha kamaydi. Mashqlar uyqu siklini yaxshilash va tinch uyquni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### 4. Jismoniy faollik va ruhiy salomatlik o'rtasidagi korelyatsiya

Statistik tahlillar yordamida jismoniy faollik bilan ruhiy salomatlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r=0,78, p<0,01$ ). Bu shuni ko'rsatadiki, muntazam mashqlar ruhiy salomatlikni yaxshilashda sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### 5. Turli yosh toifalari bo'yicha natijalar

- Yoshlar (18–30 yosh): mashqlar ijtimoiy muhitga moslashishni va stressni yengishda yordam berdi.
- O'rta yoshdagilar (31–50 yosh): mashqlar stressni kamaytirish va ish unumdorligini oshirishda ijobiy natijalar berdi.
- Keksa yoshdagilar (51–60 yosh): uyqu sifatini yaxshilash va umumiy kayfiyatni ko'tarishda sezilarli samaralar kuzatildi.

Tahlil

Tadqiqot natijalari quyidagi jihatlarni tasdiqlaydi:

1. Stressni boshqarish: jismoniy mashqlar stress va tashvishni kamaytiruvchi tabiiy vosita sifatida muhim o'rin tutadi.
2. Psixologik barqarorlik: kayfiyatni yaxshilash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish orqali mashqlar ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.
3. Uyqu sifati: mashqlar uyqu muammolarini bartaraf etishda samarali ekanligini isbotlaydi.

Cheklovlar

- Ishtirokchilarning motivatsiya darajasi natijalarga ta'sir qilishi mumkin.
- Tadqiqot qisqa muddatni qamrab olgani sababli, uzoq muddatli ta'sirlar haqida aniq xulosa qilish qiyin.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, kundalik jismoniy mashqlar ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va uyqu sifatini yaxshilash bo'yicha olingan natijalar ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bois, jismoniy faollikni kundalik hayotning ajralmas qismiga aylantirish ruhiy salomatlikni mustahkamlash uchun zarur omil sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa. Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda kundalik jismoniy mashqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Ushbu tadqiqot natijalari jismoniy mashqlarning stressni kamaytirish, depressiya va tashvishni yengish, uyqu sifatini yaxshilash, hamda insonning umumiy ruhiy barqarorligini oshirishdagi ijobiy ta'sirini aniq isbotladi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Stress va tashvishni yengishda samaradorlik: jismoniy mashqlar stress gormonlarini kamaytirib,

organizmda endorfin ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi. Bu esa inson kayfiyatini ko'taradi va ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Uyqu sifatini yaxshilash: kundalik mashqlar uyqu siklini normallashtiradi, bu esa tinchlanish va dam olish uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Kayfiyat va o'z-o'ziga ishonch: muntazam jismoniy mashqlar insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

4. Turli yoshdagi insonlarga ta'sir: jismoniy mashqlar har qanday yosh toifasi uchun foydali bo'lib, yoshlar uchun ijtimoiy moslashuvni, o'rta yoshdagilar uchun ish unumdorligini va keksa yoshdagilar uchun xotira hamda uyqu sifatini yaxshilaydi.

5. Jismoniy va ruhiy uyg'unlik: jismoniy mashqlar nafaqat ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi, balki umumiy hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Tavsiyalar

- Kundalik jismoniy faollikni hayot tarziga kiritish uchun har kuni kamida 30 daqiqa mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

- Yoga, yurish, yugurish yoki aerobika kabi oson mashqlarni tanlash orqali inson o'zining jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlay oladi.

- Jismoniy mashqlarni doimiy odatga aylantirish uchun maxsus dasturlar yoki guruhli mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin.

Mazkur xulosalar jismoniy mashqlarni sog'lom turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat individual, balki jamiyatning umumiy salomatligini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, E., & Brindle, R. (2017). The impact of physical exercise on mental health: A review of mechanisms and outcomes. *Journal of Health Psychology*, 22(5), 567-580.

2. Smith, P. J., Blumenthal, J. A., & Hoffman, B. M. (2016). Physical exercise as an intervention for depression. *Current Psychiatry Reports*, 18(3), 45-57.

3. Credle, N., & Carter, J. (2018). Exercise and sleep quality: Insights into their mutual relationship. *Sleep Medicine Reviews*, 21(4), 124-131.

4. Hoffman, B., & Cox, T. (2020). Physical activity across the lifespan: Benefits for mental health and well-being. *American Journal of Lifestyle Medicine*, 14(2), 92-105.

5. World Health Organization (WHO). (2018). *Global action plan on physical activity 2018–2030: More active people for a healthier world*. Geneva: WHO Press.

6. Ainsworth, B. E., & Levy, S. S. (2019). Physical activity and mental health: Current perspectives. *International Journal of Mental Health and Addiction*, 17(2), 351-362.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi (2020). *Ruhiy salomatlik va jismoniy faollik bo'yicha tavsiyalar*. Toshkent: Sog'liqni saqlash vazirligi nashri.

8. National Institutes of Health (NIH). (2019). *The connection between exercise and mental health*. Retrieved from <https://www.nih.gov>.

9. Janssen, I., & LeBlanc, A. G. (2017). Systematic review of the health benefits of physical activity and fitness in school-aged children and youth. *International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity*, 7(1), 40-55.

10. Sallis, J. F., & Owen, N. (2015). Physical activity and behavioral health: A guide for professionals. *Psychology and Health*, 10(6), 659-671.

## **BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINI METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

*Nosirov Nodirbek Valijonovich,  
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi  
ORCID ID: 0009-0002-8419-7885*

*Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar va dars mashg‘ulotlarini o‘rganishda texnologik xaritalarni tushuntirish, o‘qitish orqali metodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni, amaliy mashg‘ulotlarni amalda bajarish orqali talabalarining texnologik kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradigan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalalari yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: texnologiya, amaliy mashg‘ulot, metodik kompetensiya, muammoli ta‘lim, maxsus texnologik, ijtimoiy-kommunikativ, motivatsion, konstruktiv, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mehnatsevarlik, pedagogik shart-sharoitlar, dars mashg‘ulotlari, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchisi, takomillantirish metodikasi.*

## **СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Носиров Нодирбек Валиджонович,  
преподаватель Ферганского медицинского института общественного здоровья*

*Аннотация. В статье современные подходы к повышению методической компетентности будущих учителей технологического образования и объяснение технологических карт при изучении уроков, процесса развития методической компетентности посредством обучения, помогают успешно развивать технологическую компетентность обучающихся через практические вопросы обучения. создания организационно-педагогических условий, обеспечивающих.*

*Ключевые слова: технология, производственная практика, методическая компетентность, проблемное обучение, специальное технологическое, социально-коммуникативное, мотивационное, конструктивное, организованность, управление, трудолюбие, педагогические условия, уроки, будущее технологическое образование учителя, методика совершенствования.*

## **MODERN APPROACHES TO IMPROVING METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS**

*Nosirov Nodirbek Valijonovich,  
Lecturer at Fergana Medical Institute of Public Health*

*Abstrakt. In the article, modern approaches to improving the methodical competence of future teachers of technological education and explanation of technological maps in the study of lessons, the process of developing methodical competence through teaching, help to successfully develop the technological competence of students through practical training issues of creating organizational and pedagogical conditions that provide.*

*Keywords: technology, practical training, methodical competence, problem-based education, special technological, social-communicative, motivational, constructive, organization, management, diligence, pedagogical conditions, lessons, future technological education teacher, method of improvement.*

*Kirish. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” ustuvor vazifa sifatida belgilandi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim*

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son [4], 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son [5], 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son [6], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi Farmonlari [10], 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar shular jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ko'plab ijtimoiy institutlarni va birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Oliy ta'limi tizimi – ishlab chiqarish jarayonlarida dinamiklikning kuchayishi, axborot oqimining ko'payishi sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan, malakali pedagog kadrlarni tayyorlashni talab qiladi.

Zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ega bo'lgan metodik kompetensiyali mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish o'z navbatida mavjud fan-ta'limni o'zgartirishdan, ta'limga kompetensiyaga asoslangan zamonaviy yondashuvni tadbir etmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Bo'lajak o'qituvchining ijodiy faoliyati o'quv-pedagogik faoliyatining nostandart usullarida, o'z ishini rasmiylashtirishdagi o'ziga xosliklarda, pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda, izlanish faoliyatiga layoqatlilikda, amaliy topshiriqlarni va usullarni tanlashga erkin yondashishda, tashabbuskorlikda, o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisining metodik va amaliy kompetensiyalarini takomillantirishda ta'lim oluvchining ijodiy faoliyati katta rol o'ynaydi [12]. Darhaqiqat bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ishlab chiqarish faoliyati turlarining mazmuni bilan belgilanadigan metodik kompetensiyalari rivojlangan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnologik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega [13]. Metodik kompetentlikni yanada rivojlantirishning asosiy omillari bo'lajak o'qituvchilarining barcha mutaxassislik fanlari bo'yicha malaka talablarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida shakllantirish, fanlar bo'yicha uslubiy majmualar tayyorlash, malaka oshirish kurslarini o'qituvchi extiyojiga asoslangan holda tashkil etish va unda o'qituvchining kasbiy va metodik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo'lga qo'yish va o'quvchilarda aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Bo'lajak texnolog o'qitish jarayoni faol fikrlash faoliyati bilan bog'liq. Bo'lajak texnologiya fan o'qituvchisining faol fikrlashini zamonaviy loyihani yaratish jarayonida uning amaliy ishida kuzatish mumkin. Hatto ijodiy fikrlash ma'lum topshiriq va bitta ijodiy ish bilan cheklangan holda ham talabalarning eskizlar va maketlarda bajarilgan ishlari doim individualdir [14]. Bu har bir talabaning fikrlash jarayoni uning hayotiy tajribasi, kuzatishlari, dunyoqarashi, fantaziyasi, didi, tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Muammoga asoslangan ta'lim - bu o'quv vazifalarini qo'yish, ularni hal qilish usullarini tanlash, diagnostika qilish va olingan natijalarni baholashni bosqichma-bosqich tashkil etish hisoblanadi [15]. Chunki, bo'lajak o'qituvchining zamonaviy bilimlarni, fan yangiliklarini bilishi, kasbiy va metodik kompetentlikning takomillashtirishni nazarda tutishiga va zamonaviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashiga asos bo'ladi.

Bo'lajak texnologiya fan o'qituvchisining faol fikrlashini zamonaviy loyixani yaratish jarayonida uning amaliy ishida kuzatish mumkin. Hatto ijodiy fikrlash ma'lum topshiriq va bitta ijodiy ish bilan cheklangan holda ham talabalarning eskizlar va maketlarda bajarilgan ishlari doim individualdir. Bu har bir talabaning fikrlash jarayoni uning hayotiy tajribasi, kuzatishlari, dunyoqarashi, fantaziyasi, didi, tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi [16]. Shunday qilib, fikrlash faoliyatini tahlil qilib, bilish faoliyatining eng yuqori va mukammal bosqichi sifatidagi tafakkurning subyektning amaliy faoliyati bilan uzluksiz aloqasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Inson yaratgan barcha narsa amalda tekshiriladi, amaliyot

esa tafakkur natijalarini qo'llanishining asosiy sohasi hisoblanadi. Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalar tayyorlashda Oliy ta'limi muassasalarida amaliy topshiriqlar orqali moddiy texnik bazalarda o'qitish, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish va oliy ta'lim muassasalarida "kompetensiya" va "kompetensiyal kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatlarini o'rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo'yicha Q.M.Abdullaeva, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, Yu.M.Bundina, Ye.V.Gabdraxmanova, P.A.Koveshnikov, S.A.Murtazina, I.B.Torshina R.X.Jo'raev, D.J.Sharipova, M.X.Toxtaxodjaeva, N.N.Azixodjaeva, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliev, A.R.Xodjabaev, X.F.Rashidov, U.I.Inoyatov, U.Sh.Begimqulov, M.B.O'rozova, O.A.Qo'ysinov, D.Mamatov, N.Sh.Shodiev, Q.T.Olimov, O'.Q.Tolipov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. N.N.Azixodjaeva, O'.Q.Tolipov, B.Ziyomuhamedov, N.Saidahmedovlar oliy ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

MDH davlatlari olimlaridan B.M.Teplov, V.D.Shadrikov, E.F.Zeer, I.Ya.Lerner, I.S.Yaximanskiy, A.A.Verbiskiy, V.P.Bespalko, A.V.Doljenko, V.A. Slastyonin, G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, Ya.L.Kolomenskiy, Yu.K.Babanskiy, O.A.Abdulina, I.L.Lerner, A.V.Mudrik, B.L.Farberman kabi olimlar shaxslararo munosabatlar masalalarini o'rganigan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning nazariy jihatlarini V.I.Baydenko, A.A.Verbiskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford D.Guilford, E.Ball, C.R.Berger, D.Pepper, J.Pavelka, kasbiy tayyorlash texnologiyasini G.Selwyn, B.Bloom, T.Dora, subyekt faoliyati va kasbiy shakllanish jarayonining determinant omillari va bosqichlarini G.Spenser, R.Mohan, H.Miyakawa, Y.Xuqin tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish, ularning metodik kompetensiyalarini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari keng. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, chunki bu usullar orqali o'qituvchilar faqatgina texnik bilimlarni emas, balki darsni samarali tashkil etish, o'quvchilarga individual yondashuv ko'rsatish va o'qitish jarayonini qiziqarli qilish ko'nikmalarini ham o'zlashtiradilar.

Shu boisdan, tadqiqot mavzusining dolzarbligi, aynan metodik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini aniqlash va ularni o'quv jarayoniga joriy qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarni kelajakda raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash uchun muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining mazmun-uslubiy ta'minotining yetarli darajada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

□ Tayanch bilim va ko'nikmalarni shakllantirish – texnologiya fani o'qituvchilariga zamonaviy metod va uslublar bo'yicha zaruriy nazariy bilimlarni o'rgatish. Ular pedagogik va didaktik tamoyillar asosida o'quv materiallarini shakllantirish ko'nikmalarini egallashlari lozim.

□ Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatish – interaktiv o'qitish usullari, raqamli va multimediya vositalaridan foydalanishni ta'lim jarayoniga joriy qilish. Bu o'qituvchilarga o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

□ Amaliy mashg'ulotlar va dars jarayonini modellashtirish – bo'lajak o'qituvchilarni dars jarayonida real sharoitlarda ishlashga tayyorlash uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va o'qituv jarayonini modellashtirish. Bu ularga o'quvchilarga samarali va to'g'ri yondashish ko'nikmasini beradi.

□ Muammoli ta'lim usullarini rivojlantirish – talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish

va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantirish uchun muammoli ta'lim usullarini qo'llash. Bu o'quvchilarni yanada faol va ijodiy o'rganishga undaydi.

□ Metodik-tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish – darslarni samarali rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish bo'yicha o'qituvchilarni o'rgatish. O'qituvchilar dars jarayonini to'g'ri boshqarish va vaqtni samarali taqsimlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim.

□ O'z-o'zini tahlil qilish va rivojlantirish ko'nikmasini shakllantirish – bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini muntazam tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va rivojlanish strategiyasini belgilashga imkon yaratish. Bu o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlariga yordam beradi.

□ Hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish – jamoada ishlash, boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashish, birgalikda muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu o'quv jarayonida hamkorlik va muloqot madaniyatini oshirishga yordam beradi.

Bu vazifalarni amalga oshirish orqali bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetensiyalari to'liq shakllanadi, ular ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarga sifatli bilim berishga tayyor bo'ladilar.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarining mazmuni va tuzilishiga aniqlik kiritish asosida biz quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik.

Texnologik kompetensiya bu – bu zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llay olish, ularni maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalari va bilimlarini o'z ichiga olgan qobiliyatdir. Unga quyidagi ko'nikmalar kiradi:

□ Texnik bilimlar – texnologik asbob-uskunalar, dasturlar va tizimlar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lish;

□ Amaliy qo'llanma – texnologiyani kundalik hayotda va ishda foydali maqsadlarda qo'llash ko'nikmasi;

□ Muammolarni hal qilish – texnologiyalar yordamida muammolarga yechim topish qobiliyati;

□ Yangiliklarni kuzatib borish – texnologik o'zgarish va rivojlanishlarni muntazam ravishda kuzatish va yangiliklardan xabardor bo'lish.

Texnologik kompetensiya o'quv, mehnat va ijtimoiy hayotda texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetensiyalari turlari quyidagilardan iborat:

□ Didaktik kompetensiya – dars materiallarini o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga mos tarzda tayyorlash va yetkazish qobiliyati. Bu kompetensiya o'quv materiallarini yanada qiziqarli va tushunarli qilish, o'quv jarayonini osonlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

□ Pedagogik-psixologik kompetensiya – o'quvchilarning individual o'ziga xosligini, psixologik va motivatsion omillarini hisobga olgan holda darsni rejalashtirish. Bu kompetensiya o'qituvchiga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ehtiyojlariga mos yondashuvlar yaratishga yordam beradi.

□ Texnologik kompetensiya – texnologiya faniga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, zamonaviy texnik vositalardan foydalanishni o'rgatish qobiliyati. Bu o'qituvchiga o'quvchilarga real hayotdagi texnologik vazifalarni yechishda yordam berish imkoniyatini beradi.

□ Metodik-tashkiliy kompetensiya – darslarni samarali tashkil qilish, turli metod va yondashuvlarni qo'llash qobiliyati. Bu kompetensiya yordamida o'qituvchi o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtiradi va boshqaradi.

□ Innovatsion kompetensiya – yangi metodlarni ishlab chiqish va joriy etish, zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etish. Innovatsion kompetensiya o'quv jarayonini yangilik va ijodiy fikrlash bilan boyitishga xizmat qiladi.

Bu metodik kompetensiyalar texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga ko'mak beradi.

Biz tomonimizdan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini

takomillashtirish bu talabalarga kasbiy fanlarni va o'quv dasturlarini o'zlashtirganlarida texnologik kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi.

Natija va muhokama. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining o'quv fanlarini o'rganish jarayonida texnologik faoliyat holatlarini ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtirish – bu kasbiy va metodik tayyorgarlikning samarali usuli bo'lib, u talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash imkonini beradi. Bunday yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

□ Real sharoitlarda amaliy tajriba – ishlab chiqarish muhitiga yaqin sharoitda ishlash talabalarga kasbiy muammolarni yechish, texnologik jarayonlarni to'liq anglash imkoniyatini beradi. Bu orqali ular kelajakdagi faoliyatlarida duch keladigan vaziyatlarga tayyor bo'ladi.

□ Kasbiy kompetensiyani shakllantirish – real sharoitlarga yaqin muhitda ishlash talabalarda zarur kompetensiyalar, jumladan, texnologik, metodik, tashkiliy va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun asosiy ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

□ Kasbiy faoliyatni modellashtirish – ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin tajriba talabalarning o'z kelajakdagi kasbiy faoliyatini modellashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu usul ularga real kasbiy vaziyatlarda qanday ishlash kerakligini ko'rsatib beradi, amaliy tajriba orttirishga imkon yaratadi.

□ Tejamkorlik va samaradorlikni oshirish – talabalarga real sharoitlarda ishlash orqali resurslarni to'g'ri boshqarish, jarayonlarni samarali rejalashtirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish mumkin bo'ladi.

□ Motivatsiyani oshirish – ishlab chiqarishga yaqinlashtirilgan ta'lim jarayoni talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, chunki ular o'z bilim va ko'nikmalarining real hayotda qanday qo'llanilishini ko'rib, kasbiy rivojlanishga ilhomlanadilar.

Bu uslub orqali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos, real tajribalarga ega malakali kadrlar sifatida shakllanishi ta'minlanadi.

Xulosa. Texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni singdirish uchun o'qituvchilar mustahkam metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shuni inobatga olgan holda, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayoniga innovatsion usullarni, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interaktiv o'qitish uslublarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlar o'quv jarayonini jonli, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Masalan, projekt usuli, muammoli o'qitish, modulli ta'lim kabi usullar o'qituvchining o'z darslarini rejalashtirishda yangiliklar kiritishiga, darslar mazmunini boyitishiga va o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar – interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar va simulyatsiyalar – ta'lim jarayonini yanada samaraliroq va natijaviyroq qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlar orqali o'qituvchilar o'z-o'zini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, ta'lim jarayonini tahlil qilish va boshqarish kabi kompetensiyalarni shakllantirishi mumkin. Bu esa o'qituvchilarning nafaqat o'quv materiallarini yetkazish, balki o'quvchilarning faol o'rganish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishiga ham imkon beradi.

Shunday qilib, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini zamonaviy yondashuvlar yordamida takomillashtirish ularning kasbiy malakasini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularni XXI asr ko'nikmalariga ega yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 27.07.2017 y., PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-

son, 729-modda.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli qonuni. www. lex. uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni. www. lex. uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Qarori. www. lex. uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Qarori. www. lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan soxalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son Farmoni. www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son Qarori. www. lex. uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1730-son Qarori. www. lex. uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2022 yil 21 iyundagi Qarori. www. lex. uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son qarori. www. lex. uz.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 60112300 – Texnologik ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari.
12. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarida mustaqil ta'lim olish malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari. Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ texnologiyalari. Respublika ilmiy-metodik anjumani materiallar. – Toshkent: TDPU, 2010.
13. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2006. -46 b.
14. Mamatov D.N. Elektron axborot-ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. PhD dok.dis. –Toshkent, 2017. – 150 b.
15. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
16. Gadaymurodov Sh.M. Texnologik jarayonlar asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buzoro: BuxDU, 2023/5.-116 b.
17. Носиров. Н.Н. "Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашда педагогик-психологик омиллардан фойдаланишнинг аҳамияти" Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. –Б. 81-85 б.
18. Nosirov N.V. "Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati" Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O'zbekiston. Toshkent. 4-son 2022 yil.-525 b.
19. Nosirov N.V. "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari" «Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology» International Journal on Integrated Education. Research Parks Publishing Indonesia. In Vol.6 No r (2023). Indoneziya. -195 b.

## **SANOAT VA TA'LIM HAMKORLIGINI TASHKIL ETISH - MUHANDIS KADRLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

*Tuxtabayev Mirzoxid Axmadjanovich,  
Namangan muhandislik-qurilish instituti, Logistika kafedrası dotsenti*

*Annotatsiya. Muhandislik kadrlarini tayyorlash samaradorligi ko'p jihatdan akademik bilimlar va sanoat amaliyotlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga bog'liq. Sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlik o'quv dasturlarini real dunyo talablariga moslashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va talabalarni kasbiy muhitga tayyorlash orqali muhandislik tayyorlashni yaxshilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola sanoat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi tizimli hamkorlik muhandislik tayyorlash samaradorligini qanday oshirishi mumkinligini o'rganadi. Amaliyotlar, hamkorlik dasturlari, qo'shma tadqiqotlar va sanoat bo'yicha seminarlar o'tkazish orqali talabalar amaliy tajriba va joriy sanoat standartlari haqida tushunchaga ega bo'lishadi.*

*Kalit so'zlar. Sanoat kooperatsiyasi, muhandislik ta'limi, sanoat hamkorligi, tajribaviy o'rganish, muhandislik ta'limi, o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish.*

## **ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ОБРАЗОВАНИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНЫМ ФАКТОРОМ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ ИНЖЕНЕРНЫХ КАДРОВ**

*Тухтабаев Мирзохид Ахмаджанович,  
доцент кафедры логистики Намаганского инженерно-строительного института*

*Аннотация. Эффективность инженерной подготовки во многом зависит от преодоления разрыва между академическими знаниями и отраслевой практикой. Сотрудничество между промышленностью и образованием является важной основой для улучшения инженерной подготовки путем приведения учебных программ в соответствие с требованиями реального мира, развития практических навыков и подготовки студентов к профессиональной среде. В этой статье исследуется, как систематическое сотрудничество между промышленностью и образованием может повысить эффективность инженерной подготовки. Благодаря стажировкам, совместным программам, совместным исследованиям и отраслевым семинарам студенты получают практический опыт и понимание текущих отраслевых стандартов.*

*Ключевые слова. Промышленная кооперация, инженерное образование, промышленная кооперация, практическое обучение, инженерное образование, координация учебных программ.*

## **ORGANIZATION OF INDUSTRY AND EDUCATION COOPERATION IS AN IMPORTANT FACTOR OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF TRAINING ENGINEERING PERSONNEL.**

*Tuxtabayev Mirzoxid Axmadjanovich,  
Associate Professor of the Department of Logistics at Namangan Institute of Engineering and Construction*

*Abstract. The effectiveness of engineering training largely depends on bridging the gap between academic knowledge and industry practices. Industry-education collaboration is an important foundation for improving engineering training by aligning curricula with real-world requirements, developing practical skills, and preparing students for the professional environment. This article explores how systematic collaboration between industry and education can improve the effectiveness of engineering training. Through internships, co-op programs, joint research and industry workshops, students gain hands-on experience and an understanding of current industry standards.*

*Keywords. Industrial cooperation, engineering education, industrial cooperation, experiential*

*learning, engineering education, curriculum coordination.*

Kirish. Butun dunyo bo'ylab sanoat tarmoqlari tobora murakkablashib borayotgani va texnologiyaga asoslanganligi sababli, yaxshi o'qitilgan muhandislik mutaxassislariga talab ortib bormoqda. Ko'pincha nazariy tushunchalarga yo'naltirilgan an'anaviy muhandislik ta'limi ba'zan bugungi ish joylarida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarga mos kelmaydi [1]. Sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlik akademiya va ishlab chiqarish o'rtasida ko'prik yaratish orqali yechim taklif qiladi, muhandislik ta'limi sanoat standartlariga mos kelishini ta'minlaydi va talabalarni o'z kareralarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va tajribaga ega bo'ladi. Sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlik bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu o'quv dasturiga sanoat ahamiyatini olib keladi va talabalar eng ko'p talab qilinadigan ko'nikmalarni o'rganishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, talabalarga nazariy bilimlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy tajribani beradi. Nihoyat, bu ta'lim muassasalarida innovatsiyalar va moslashishni osonlashtiradi, chunki sanoat hamkorliklari ko'pincha akademik sharoitlarga yangi texnologiyalar va tendentsiyalarni kiritadi [2].

Sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlikning asosiy jihatlari. Ta'lim muassasalari soha mutaxassislari bilan hamkorlikda o'z o'quv dasturlarini joriy sanoat amaliyotini aks ettirish uchun yangilashi va moslashtirishi mumkin. Sanoat mutaxassislari maxsus texnik ko'nikmalar, yangi dasturiy ta'minot yoki paydo bo'lgan metodologiyalarni kiritish bo'yicha maslahat berib, o'quv dasturlarini ishlab chiqishga hissa qo'shishlari mumkin. Ushbu muvofiqlashtirish talabalarining ish beruvchilarning kutganlariga mos keladigan malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlashga yordam beradi. Amaliyot va hamkorlik dasturlari talabalarga real dunyo tajribasini taqdim etishning eng samarali usullaridan biridir. Ushbu dasturlar talabalarga to'g'ridan-to'g'ri sanoat muhitida ishlashga, sinfdagi bilimlarini haqiqiy loyihalarga qo'llashga imkon beradi. Talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lishadi, balki ular ish joyi dinamikasini, muloqotni va professional kontekstda muammolarni hal qilishni ham o'rganadilar. O'qishni tugatgandan so'ng, amaliy tajribaga ega bo'lgan talabalar ko'pincha ishonchli, moslashuvchan va o'z ish beruvchilariga darhol hissa qo'shishga tayyor. Sanoat kooperatsiyasining yana bir jihati – bu sohaga oid seminarlar va seminarlarni akademik dasturlarga kiritishdir. Ushbu mashg'ulotlar talabalarga ushbu sohadagi eng so'nggi vositalar, tendentsiyalar va texnologiyalarni ochib beradi, bu ularga standart o'quv rejasiga hali kiritilmagan yutuqlardan xabardor bo'lish imkonini beradi. Sanoat mutaxassislari o'quvchilarga nazariy o'rganishdan amaliy foydalanishni tushunishga yordam berib, real hayot ilovalari haqida tushuncha berishi mumkin [3].

Universitetlar va kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari nafaqat texnologik innovatsiyalarni rivojlantiradi, balki talabalar uchun qimmatli ta'lim imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Talabalarni qo'shma tadqiqotlarga jalb qilish orqali ular ilg'or texnologiyalar, tadqiqot metodologiyalari va sanoat muammolari bilan tanishadilar. Ushbu tajribalar o'zgartiruvchi bo'lishi mumkin, bu esa talabalarga tadqiqot va ishlanma jarayonlarini ko'rish imkonini beradi va ayni paytda haqiqiy muammolarni hal qilishga hissa qo'shadi. Mehmon ma'ruzalari va murabbiylik dasturlari talabalarni soha mutaxassislari bilan bog'lash uchun samarali vositadir [4]. Mehmon o'qituvchilar talabalarga birinchi qo'l sanoat bilimlarini olib kelishadi, o'zlarining martaba tajribalari, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari bilan o'rtoqlashadilar. Mentorlik dasturlari, bunda soha mutaxassislari o'quvchilarga martaba rejalashtirish va kasbiy rivojlanish yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatib, o'quvchilarga potentsial martaba yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lish va aniqroq yo'nalish hissini rivojlantirish imkonini beruvchi qimmatli yakkama-yakka muloqotni taklif etadi.

Kengaytirilgan mahoratni rivojlantirish. Sanoat sohasidagi hamkorlik talabalarga an'anaviy muhandislik ta'limida ko'pincha yetishmayotgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Haqiqiy loyihalar, ilg'or texnologiyalar va joriy sanoat amaliyotlari bilan tanishish talabalarining o'rganish tajribasini boyitadi va ularni ishchi kuchi talabalariga tayyorlaydi. Talabalar, shuningdek, zamonaviy muhandislik rollari uchun juda muhim bo'lgan muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va moslashuvchanlik ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Sanoatga moslashtirilgan dasturlarda, stajirovkalarda yoki hamkorlik tajribasida qatnashgan bitiruvchilar ishchi kuchiga yaxshiroq tayyorlanishadi. Bu talabalar haqiqiy sanoat muhitida tajribaga ega bo'lib, ularni ish beruvchilar uchun yanada jozibador

qiladi va yangi ishga qabul qilish uchun talab qilinadigan o'quv vaqtini qisqartiradi. Natijada, sanoatga tayyor bitiruvchilar o'z tashkilotlariga tezroq samarali hissa qo'shishlari mumkin. Sanoat mutaxassislari bilan hamkorlik o'quv dasturlarini dolzarb va dolzarb qiladi [5]. Kompaniyalarning fikr-mulohazalari ta'lim muassasalariga o'z o'quv dasturlarini rivojlanayotgan sanoat standartlari, texnologik yutuqlar va mehnat bozori talablariga moslashtirishga yordam beradi. Ushbu uzluksiz takomillashtirish jarayoni muhandislik ta'limi sohadagi o'zgarishlarga moslashuvchan va sezgir bo'lib qolishini ta'minlaydi.

Innovatsiyalar va tadqiqotlarni rag'batlantirish. Qo'shma ilmiy loyihalar sanoat va ta'lim muassasalari uchun o'zaro manfaat keltiradi. Kompaniyalar yangi g'oyalar, akademik manbalar va talabalar tushunchalariga kirish imkoniga ega bo'lishsa-da, universitetlar o'z tadqiqotlari uchun sanoat yordami va amaliy dasturlardan foyda oladi. Ushbu o'zaro hamkorlik innovatsiyalar madaniyatini rag'batlantiradi va talabalarga real hayotda qo'llaniladigan kashshof ishlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Sanoat hamkorliklari talabalarga qimmatli tarmoq imkoniyatlarini taqdim etib, ularni martaba rivojlanishiga yordam bera oladigan mutaxassislar bilan bog'laydi [6]. Amaliyot, murabbiylik va mehmon ma'ruzalari talabalarga ish o'rinlari yoki keyingi kasbiy yo'l-yo'riqlarga olib kelishi mumkin bo'lgan aloqalarni o'rnatishga imkon beradi. Talabalar muhandislik bo'yicha mehnat bozorida harakat qilishlari sababli, bu tarmoqlarni o'z kareralarining boshida o'rnatish foydali bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish va ta'lim sohasidagi hamkorlikni tashkil etishdagi muammolar va yechimlar

Cheklangan mablag'lar yoki resurslar ta'lim muassasalari va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi samarali hamkorlikka to'sqinlik qilishi mumkin. Universitetlar zarur jihozlarni ta'minlash yoki sanoat standartidagi texnologiyalarga kirishda qiynalishi mumkin, kompaniyalar esa hamkorlik sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli resurslarni ajrata olmasligi mumkin. Hukumat yordami, grantlar va umumiy resurslar bu bo'shliqni bartaraf etishga yordam beradi. Ba'zi universitetlar va kompaniyalar muhandislik ta'limini qo'llab-quvvatlovchi qo'shma loyihalar uchun mablag' izlab, davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yadilar. Kompaniyalar, shuningdek, talabalarni o'qitish uchun dasturiy ta'minot litsenziyalari, uskunalar yoki joylarda jihozlar bilan ta'minlash orqali o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. Akademiya va sanoat ba'zan turli xil ustuvorliklarga ega bo'lib, universitetlar ta'lim natijalariga e'tibor qaratadi va kompaniyalar mahsuldorlik va rentabellikni birinchi o'ringa qo'yadi. Ushbu maqsadlarni muvofiqlashtirish qiyin bo'lishi mumkin, ammo muvaffaqiyatli hamkorlik uchun juda muhimdir [7]. Kutishlar va maqsadlarni belgilaydigan aniq aloqa va hamkorlik shartnomalari akademik va sanoat maqsadlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Muntazam uchrashuvlar va taraqqiyotni ko'rib chiqish ikkala tomonning bir-birining ehtiyojlarini tushunishini ta'minlaydi, bu esa o'quvchilarga manfaatli hamkorlikda yondashish imkonini beradi. Talabalar, professor-o'qituvchilar va sanoat mutaxassislari uchun jadvallarni muvofiqlashtirish murakkab bo'lishi mumkin, ayniqsa amaliyot yoki qo'shma loyihalar ishtirok etganda. O'quv jadvallari sanoat vaqt jadvallariga mos kelmasligi mumkin, bu esa hamkorlikdagi ta'lim dasturlarini rejalashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Moslashuvchan kurs tuzilmalari, onlayn hamkorlik vositalari va gibril ish modellari rejalashtirishdagi qiyinchiliklarni yengillashtirishi mumkin [8-10]. Ba'zi muassasalar talabalarning ta'limni kechiktirmasdan ish tajribasiga ega bo'lishini ta'minlab, sanoat amaliyotiga moslashish uchun akademik jadvallarni moslashtiradigan hamkorlik dasturlarini taklif qiladi.

Xulosa. Ishlab chiqarish va ta'lim sohasidagi hamkorlik muhandislik kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirishning kuchli yondashuvidir. O'quv dasturlarini sanoat ehtiyojlariga moslashtirish, amaliy tajribani integratsiyalash va malaka oshirish uchun uzluksiz imkoniyatlar yaratish orqali bunday hamkorliklar muhandislik fakulteti bitiruvchilariga zamonaviy ishchi kuchi talablariga yaxshiroq tayyorlanish imkonini beradi. Ta'lim muassasalari uchun sanoat hamkorligi dasturlarning dolzarb bo'lib qolishi va texnologik taraqqiyotga mos kelishini ta'minlaydi. Talabalar uchun bu hamkorliklar ularni martaba muvaffaqiyati uchun muhim ko'nikmalar bilan ta'minlaydigan keng qamrovli, amaliy ta'limni taklif qiladi. Sanoat rivojlanishda davom etar ekan, akademiya va sanoat o'rtasidagi mustahkam aloqalarni mustahkamlash malakali va moslashuvchan muhandislik mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Григорьев С. Н. Повышение эффективности подготовки инженерно-технических кадров для машиностроения //Вестник МГТУ «Станкин». – 2012. – №. 3. – С. 7-13.
2. Лебедева Е. А. Инновационное развитие и образование //Мировая экономика и международные отношения. – 2007. – №. 12. – С. 45-54.
3. Приходько В., Сазонова З. Инженерная педагогика: становление, развитие, перспективы // Высшее образование в России. – 2007. – №. 1. – С. 10-25.
4. Данильченко М. В., Кудрявцев С. В., Теселкин С. Ф. Стратегическое партнерство с вузами как важнейший фактор обеспечения конкурентоспособности наукоёмкого промышленного предприятия //Вестник НПО им. СА Лавочкина. – 2017. – №. 1. – С. 93-99.
5. Никонович С. Н., Киракосян А. М. Подготовка кадров для инновационных отраслей промышленности //ББК 74.200. 53 П 842. – 2024. – С. 106.
6. Желнина Е. В. Социальная технология подготовки персонала как фактор инновационной активности промышленного предприятия //Тольятти: ООО «Технокомплект. – 2015.
7. Зуев П. Дидактические основы эффективной подготовки молодежи к инженерно-технической деятельности. Монография. – Litres, 2022.
8. Дмитриев С. М., Ширяев М. В., Митяков С. Н. Механизмы повышения бюджетной эффективности подготовки кадров для промышленных предприятий регионов //Формирование сети опорных региональных университетов: сб. докладов научно-методической конференции. – 2015. – С. 38-40.
9. Akhmadjanovich M. T., Mamatvaliyech A. I. Namangan shahrining istiqboldagi veloyo 'lak tizimini tashkil etish //Строительство и образование. – 2023. – Т. 4. – №. 5-6. – С. 58-65.
10. Akhmadjanovich M. T. Aqlli avtoturargoh tashkil qilishni o'rganish //Строительство и образование. – 2023. – Т. 4. – №. 5-6. – С. 52-58.

12. Муминова Л.Р. Особенности развития речи подростков, воспитывающихся в условиях детского дома // Дошкольное и начальное образование: современное состояние, тенденции и проблемы развития: материалы международной конференции, 28-29 ноября, Алматы. — Алматы, 200. — С. 200-204.
13. Муминова Л.Р., Нуркелдиева Д.А. Социально—педагогическое сопровождение детей группы риска —как профилактика детской инвалидности // “Ривожланишида муаммолари бўлган болалар коррекцион таълими” Илмий-амалий анжуман материаллари. -Т.: РТМ, 2006. — С. 8-12.
14. Нуркелдиева Д.А., Чеброва Т.Л. Актуальные вопросы оказания образовательной и

психологической помощи детям раннего возраста, воспитывающихся в интернатных учреждениях // The Seventh International Conference on Eurasian Scientific Development. – Vienna, Австрия, 2015. – С. 156–159.

15. Нуркелдиева Д.А., Набиева Н.Н., Муминова Л.Р. Ранняя педагогическая коррекция безречевых детей как профилактика детской инвалидности // Материалы международного форума “Здоровый образ жизни-основа гармонично развитого поколения.” 2010. – С. 162.

16. Нуркелдиева Д.А. Особенности психосоциального развития детей раннего возраста // Материалы Международной научно-практической конференции «Модернизация педагогического образования: проблемы и перспективы» (2-6 ноября 2008 год) – Алматы, 2008. – С. 160-166.

17. Нуркелдиева Д.А. Мактабгача ёшдаги ақли заиф болаларнинг ўзига хос хусусиятлари // «Узлуксиз таълим тизимида бошланғич синф ўқитувчилари янги авлодини тайёрлашнинг сифат босқичи» мавзусидаги респ.ил.амал анжуман материал.-Т.: 2004. – С. 103-105.

18. Стребелева Е.А. Психолого-педагогическая диагностика развития детей раннего и дошкольного возраста– М. : Просвещение, 2009. –С. 164

19. Стребелева Е.А. Ранняя диагностика умственной отсталости // Дефектология. – 2004. – С. 53-59.

20. Фотекова Т.А., Ахутина Т.В. Диагностика речевых нарушений школьников с использованием нейропсихологических методов. Пособие для логопедов и психологов. — М., 2002. — С. 22—26; с. 84—88.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MANTIQUIY MASALALARNI HAL QILISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SHARTLARI**

*Ochilova Laylo Temirovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0002-0036-0140>*

*Rajabova Lobar Choriyevna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0002-6866-7341>*

*Annotatsiya. Zamonaviy dunyo axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. «Axborot texnologiyalari» tushunchasi bugungi kunda odamlar hayotida allaqachon qo'llaniladigan va inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladigan turli xil gadjetlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, bugungi kunda biz boshlang'ich ta'limda IT bosqinini ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan, ular o'qitish sifatini yaxshilashga yordam beradi va boshqa tomondan o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishning samarali usuli hisoblanadi, ular o'qituvchiga material taqdimotining jozibadorligini oshirishga va uni diversifikatsiya qilishga yordam beradi;*

*AT yordamida materialni vizualizatsiya qilish bilan bog'liq didaktik imkoniyatlar ochiladi. Vizual sayohatlar qilish, AT dan foydalanmasdan tasavvur qilish bo'lmaydigan har qanday harakat va hodisalarni vizual tarzda namoyish qilish imkoniyati paydo bo'ldi.*

*Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mantiqiy masalalarni hal qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning usullari, ahamiyati haqida maqolada ayrim ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar. Mantiqiy masala, kreativ fikrlash, vizual vositalar, axborot texnologiyalari, SMART ta'lim, STEAM ta'lim*

## **УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ РЕШЕНИИ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Очилова Лайло Темировна,  
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

*Раджабова Лобар Чориевна,  
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация. Современный мир тесно связан с информационными технологиями. В понятие «информационные технологии» входят различные гаджеты, которые уже сегодня используются в жизни людей и применяются во всех сферах человеческой деятельности. Таким образом, сегодня мы можем наблюдать вторжение информационных технологий в начальное образование. С одной стороны, они помогают улучшить качество преподавания, а с другой стороны, являются эффективным способом повышения мотивации учащихся, помогают преподавателю повысить привлекательность подачи материала и разнообразить ее.*

*С помощью ИТ открываются дидактические возможности, связанные с визуализацией материала. Стало возможным совершать визуальные туры, наглядно представлять любые действия и события, которые невозможно представить без использования информационных технологий.*

*В статье приведены некоторые сведения о методах и важности использования информационных технологий при решении логических задач для учащихся младших классов.*

*Ключевые слова. Логическая задача, творческое мышление, визуальные инструменты,*

информационные технологии, SMART-образование, STEAM-образование.

## TERMS OF USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN SOLVING LOGICAL PROBLEMS IN PRIMARY EDUCATION

*Ochilova Laylo Temirovna,  
Lecturer of the Bukhara State Pedagogical Institute*

*Rajabova Lobar Choriyevna,  
Lecturer of the Bukhara State Pedagogical Institute*

*Annotation. The modern world is closely connected with information technologies. The concept of «information technologies» includes various gadgets that are already used in people's lives and applied in all spheres of human activity. Thus, today we can observe the invasion of information technologies into primary education. On the one hand, they help to improve the quality of teaching, and on the other hand, they are an effective way to increase students' motivation, help the teacher to increase the attractiveness of the presentation of the material and diversify it.*

*With the help of IT, didactic opportunities related to the visualization of material are opened. It has become possible to make visual tours, clearly represent any actions and events that cannot be imagined without the use of information technologies. The article provides some information about the methods and importance of using information technology in solving logical problems for primary school students.*

*Keywords: Logical problem, creative thinking, visual tools, information technology, SMART education, STEAM education.*

**KIRISH.**Fan va texnikaning deyarli barcha sohalarida juda katta kashfiyot va ixtiro qilinishi, ilm-fan jamiyatimizning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borishiga asos solmoqda. Tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganuvchi har bir fan sohasida buyuk kashfiyotlar va ixtirolar qilish odat tusiga kirmoqda. Shunday kashfiyotlardan biri XX asr o'rtalarida yaratilgan elektron hisoblash mashinasidir. Bu mashinalar dastlab murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi hisob ishlarini avtomatlashtirish bo'lgan bolsa, hozirda hayotning barcha jabhalarida qo'llanib kelmoqda.[3,3]

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu orqali fanga bo'lgan qiziqish uyg'onib, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bolgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tishda kerakli jihozlar: kompyuter, interaktiv doska va proyektor bilan jihozlangan sinf o'quvchilarning materialni puxta

o'rganishlariga yordam beradi. Bunday vositalardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va ko'pincha bilimlardagi bo'shliqlarni oldini olishga yordam beradi, ta'lim darajasini bir necha bor oshiradi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi.

**ADABIYOTLAR TAHILILI.** Hamma fanlarga qiziqish bolalikdan boshlanadi. Biroq, ko'pchilikda matematika murakkab fan degan tushuncha shakllangan. Ayni damda ana shu eskirgan aqidani yo'qqa chiqarish imkoniyati bugun mavjud.

Bolalarni bog'cha va kichik maktab yoshidan matematikaning sirli dunyosiga olib kirsak, u kelajakda sonli jumboqlardan qo'rqmaydi, aksincha ularni yechib, o'ziga ishonchi orta boshlaydi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab etadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: «Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi». Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi

Har bir o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z darslarida turli axborot texnologiyalari vositalaridan faol foydalanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi axborot texnologiyalardan mohirona foydalanishi uchun IT ta'rifi, ulardan foydalanish vazifalari va maqsadlarini, turli IT vositalarini bilishi ham kerak.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Har qanday metodika yoki pedagogik texnologiya o'quvchilar uchun materialni moslashtirish uchun ma'lumotlarni qayta ishlashni o'z ichiga oladi, bu esa pirovardida bilimlarni egallash darajasiga ta'sir qiladi. Ya'ni har qanday pedagogik texnologiya axborot texnologiyasidir. Biroq, kompyuter qurilmalari ta'lim tizimida keng qo'llanila boshlanganidan so'ng "zamonaviy axborot texnologiyalari" atamasi paydo bo'ldi va hozirda axborot texnologiyalari asosan o'quv jarayonida qo'llaniladigan tegishli texnik va dasturiy ta'minot va boshqa texnik vositalarga ega kompyuterni anglatadi.

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda [1].

Muammolarni hal qilish, mantiqiy savollarga javob berish, masalalarni yechish, jumboqlarni topish

insonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Mantiqiy fikrlash bolalikdan shakllanib borishi kerak, zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".[4]

Matematik tafakkur o'zining strukturasi bo'yicha ancha murakkab jarayon bo'lib, u o'zi bilan bir necha jarayonni olib boradi. Uning tarkibida bevosita ko'nikma va malaka, umumlashtirish, tafakkur kabi tushunchalar bilan bog'liqdirki, inson geometrik tasavvuri bevosita shularning ketma-ket sodir bo'lishining integrativ yig'indisi asosida sodir bo'ladi.

Mamlakatimizda matematika fanini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda va matematik ta'limning sifatini oshirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun, avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta'lim dasturlari yaratib, o'qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u bolalarda matematikaga muhabbat uyg'otsin. Buning uchun o'quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o'ziga kerakligini anglashi zarur». Bu talablar esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-sonli «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apredagi 187-sonli «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» Qarorining qabul qilinishi va uning ijrosini ta'minlashni keltirib chiqardi.

Matematikadan o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishda albatta to'g'ri tanlangan ta'limiy metod, metodni amalga oshirish uchun o'quv vositalari kerakli hisoblanadi. Interfaol metodlarning pedagogik-psixologik asosi konstruktivizm nazariyasi (Dj.Dyui), bola intellektining rivojlanishi (J.Piaje), eng yaqin rivojlanishi sohasi (L.S.Vigotskiy), intellektning ko'p turliligi (G.Gardner) hamda yuqorida bayon etilgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi (B.Blum) haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, ularni bilish va amalda foydalanish har bir o'qituvchiga o'z pedagogik mahoratini takomillashtirish uchun zarur. Interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar ilk bor XX asrning 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. O'tgan asrning 60-yillarida V.A.Suxomlinskiy, 70-80-yillarida Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Ye.N.Ilina va boshqa olimlar tomonidan ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni samarali qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Matnli masalalar boshlang'ich sinflar matematika kursi mazmunining asosini tashkil qiladi va ularni yechish jarayonida qo'llaniladigan aqliy faoliyat usullari: analiz, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, abstraktsiyalash va konkretlashtirish o'quvchilarning mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli Davlat ta'lim standarti talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim matematika o'quv dasturida matnli masalalar turlari kengaytirilib, ularning tarkibiga mantiqiy va kombinatorik masalalar kiritildi. Boshlang'ich sinf matematika kursiga mantiqiy masalalarning kiritilishini ikki yo'l orqali ochish mumkin: a) bu masalalarni yechish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazib, ulardan o'z fikrini mantiqiy izchillik asosida ifodalash ko'nikmalarini tarkib toptirishi bilan izohlanadi; b) bu masalalarni yechishda hisoblashlarni bajarish umuman kerak bo'lmasligi yoki yordamchi rol o'ynab, faqat arifmetikaga doir ma'lumotlar bilan chegaralanishi orqali izohlanadi[5].

**METODLAR.** Mantiqiy masalalar o'quvchilarning mantiqiy qarashlarini rivojlantirishda va ularni to'g'ri va oson usulda yechish tajribalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning ahamiyatlari quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

1. Mantiqiy qarashni rivojlantirish: Mantiqiy masalalar o'quvchilarni muammolarni yechishda mantiqiy qarashlar bilan fikrlashga o'rgatadi. Bu ularning mantiqiy va tushunchaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Muammoni hal qilish va tahlil qilish qobiliyati: Mantiqiy masalalar o'quvchilarga muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Bu ularni muammolarni tartibga

solish va loyihalashga o'rgatadi.

3. Ishbilarmonligi va jamiyatda qatnashish qobiliyati: Mantiqiy masalalar o'quvchilarga jamiyatda ish bilarmonlik qobiliyatini qo'llash va boshqa bolalar bilan birga ishlash qobiliyatini rivojlantirishida yordam beradi. Bunda o'quvchilar bir-biriga qanday yordam bera olishlarini va o'z fikrlarini boshqa o'quvchilarga qanday yetkaza olishlarini ko'rsatishadi. Jamoaviy ishlash qobiliyati o'sib boradi.

4. Jismoniy va mantiqiy koordinatsiyalarni rivojlantirish: Mantiqiy masalalar yechilish orqali o'quvchilar jismoniy va mantiqiy koordinatsiyalarni rivojlantirishadi. Ular darslar jarayonida mantiqiy masalalar yechish amaliyotini o'rganadilar.

5. Ko'p tomonlama fikrlash va yaratish qobiliyati: Mantiqiy masalalar ko'p tomonlama fikrlash va yaratish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. O'quvchilarda o'zlarining masala muammolari uchun yechimlar yaratib, ko'proq izlanishga undaydi. Yangicha uslubdagi mantiqiy masalalar yechish o'quvchilarni matematika fanini chuqurroq o'rganish uchun ilhomlantiradi. Yaratuvchanlik qobiliyati o'sgan sayin bir masalani bir necha usullar orqali ya'ni o'ziga qulay qilib olgan holda yechishi mumkin bo'ladi.

O'quvchilar bilan matematika darsini turli o'yin va metodlar bilan olib borish juda samarali hisoblanadi. Ularni matematika darsligidan tashqari turli mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatib borish miyaning tez ishlashini ta'minlaydi, aql-idrok va kognitiv qobiliyatni rivojlantiradi hamda o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi. O'quvchilar har bir masalaga o'z bilim darajasi va dunyoqarashidan kelib chiqib tashhis qo'ya boshlaydi. O'quvchilarga matematik muammolarni hal qilish orqali quyidagilarni o'rgatish mumkin:

fikrlarni umumlashtirish va ular ichidan muhimlarini ajratish;

2) tahlil qilish va tizimlashtirish;

3) qonuniyatlarni aniqlash va sabab munosabatlarini o'rnatish;

4) xulosa va natijalar chiqarish;

5) mantiqiy, strategik va abstrakt o'ylash.

Boshlang'ich sinflarda matematika dars jarayonida o'qituvchi har bir yangi mavzuni turli metodlar orqali, ko'rgazmali va ko'rsatmali qurollardan foydalangan holda olib borishi va axborot kommunikatsion vositalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish uchun ularga jamoaviy topshiriq berib turish kerak. Masalan, masala tuzish va uni yechish topshirig'ini beramiz, bunda o'zi tuzgan masalani boshqa guruhga o'qib beradi va boshqa guruh masalasini jamoa bo'lib yechadi. Bir masalani bir necha usullar bilan yechish mumkinligini o'rganadi va o'zaro axborot almashadi. Mantiqiy masalalar yechishga o'rgatishda amaliy usullardan foydalanish o'zgaruvchan va samarali bo'lishi muhimdir.

Mantiqiy masalalar yechishda quyidagi tartibni o'rganish foydali bo'ladi:

a) masalani tushunish: bir mantiqiy masalani o'qib, masalaning tushunarli bo'lishi va mavzusini tushunishga yordam beradi. Masalani tushunish, uni yechish uchun yo'nalishni aniqlashda muhimdir.

b) masalani tahlil qilish: masalani qanday yechish kerakligini tahlil qilish lozim. Bu masalani o'z ichiga olgan savollarni tushunish, ularni ajratish va ularning hal qilish yo'llarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

c) qadriyatli o'zlashtirish: masalani yechish uchun qadriyatli o'zlashtirish va tahlil qilishni boshlash, masaladagi muammolar va ularning bir-biriga qanday bog'liqlikka ega bo'lishi kerakligini tushunish uchun qadriyatli o'zlashtirishning ko'rsatilishi muhimdir.

d) yechimni qidirish: masalani yechish uchun yechimni izlash. Bu qadamda, masalani o'qib, muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish uchun qanday yo'llar borligini tushunish lozim.

e) yechimni sinab ko'rish: topilgan yechimni sinab ko'rish. Bu masalani yechishda qat'iy yechimni aniqlashni va uni sinab ko'rishni o'z ichiga oladi.

f) natijani tekshirish: topilgan yechimni sinab ko'rganimizdan so'ng, natijani tekshirish. Bu to'g'ri javobga ega bo'lishimizni ta'minlash uchun muhimdir.

Bu tartibni bolalarga yetkazishda ularning fikrlash qobiliyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan

holda o'rgatish o'qituvchida yuksak mahorat talab qiladi. O'z ishining yetuk mutaxassisi bo'lgan fan o'qituvchisi turli metodlar orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkazib o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va tez orada kutilgan samaraga erishadi. Mantiqiy masalalar yechishda tartibni saqlash, masalani tushunish, tahlil qilish, yechimni izlash va sinab ko'rish jarayonida o'quvchilarga yordam beradi va ularni masalani o'rganish va hal qilish jarayonidagi kamchilik va yutuqlarini ko'rib chiqadi

**NATIJALAR VAMUHOKAMALAR.** Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi.

Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala echuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy matematika darslari mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun test va topshiriqlarsiz o'tmaydi. Bu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bunday topshiriqlar ustida ishlash tizimi yo'qligi sababli o'quvchilarda izchil fikrlash qobiliyatini qanday shakllantirish muammosi paydo bo'lmoqda. Muammolarni yechish qobiliyati matematik rivojlanish darajasining asosiy mezonlaridan biridir. Matematika darslarida ishlagan tajribamdan shunday xulosaga keldimki, tafakkurni rivojlantirishning samarali usullaridan biri maktab o'quvchilarining nostandart mantiqiy masalalarni yechishlaridir.

Mantiqiy masalalar matematikada alohida o'rin tutadi, bu turdagi muammolarni hal qilish mavzuni muvaffaqiyatli o'rganishga yordam beradi va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Mantiqiy topshiriqlarni hal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, aqliy faoliyat texnikasini, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, aql-zakovatni, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilar qiyin, tizimli bo'lmagan muammolar haqida o'ylash quvonch keltirishini qanchalik tez tushunsa, matematikani o'rganishga shunchalik qiziqish uyg'otadi. Bolalar nostandart muammolarni hal qilishdan qo'rqmasligiga ishonch hosil qilish, ularni muammoni yechishga to'g'ri yondashishni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi.

Mantiqiy masala ustida ishlayotganda, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda bir necha usullardan foydalanish mumkin, xususan:

1. Elektron gadjetlar
2. Kompyuter
3. Elektron doska va boshqalar

Darslarda qiziqarli materiallardan foydalanganda bolalar mantiqiy muammolarni katta zavq bilan hal qilishadi. Lekin o'quvchi - o'qish shunchaki o'yin emas, balki jiddiy intellektual mehnat ekanligini unutmasligi va o'rganishni o'yin bilan, ya'ni ishtiyoq bilan o'qishni uyg'unlashtira olishi kerak. Ushbu mavzuni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin bo'ladi:

- mantiqiy masalalar ustida ishlash 1-sinfidan boshlab to'rt yil davomida barcha tipdagi masalalar bo'yicha ishlar tizimli olib borilishi shart;
- mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalarini yechishda turli texnika va usullarni qo'llash;
- ko'ngilochar materiallardan, rasmlardan iborat yorqin jadvallardan, hikoyali rasmlardan, innovatsion

texnologiyalardan (dars taqdimotlari, flesh-animatsiyalar, o'quv kompyuter o'yinlari) foydalanib, o'quvchilarning ijodiy va kognitiv faolligini rag'batlantirish;

Mantiqiy masalani tushunib yechishda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Birinchidan, o'quvchilar topshiriq mazmuni bilan tanishadilar. Topshiriq ustida ishlashni uning matnini o'qishdan boshlanadi. O'quvchilar har bir so'zning ma'nosini tushunishlari, masalaning og'zaki modeli (hayot hodisalari, hodisalar, jarayonlarning miqdoriy tomonining tavsifi) berilgan vaziyatni tasavvur qilishlari muhimdir.

2. Interpretatsiya dan foydalanish - kattaliklar va masalaning tegishli sonli ma'lumotlari orasidagi bog'lanishlarni mustaqil ravishda vizual tasvirlash.

1-sinfda topshiriqning mazmunini illyustratsiya orqali yanada aniqroq taqdim etash mumkin, bunda sharhlash obyektlarning sxematik yoki majoziy tasviri shaklida amalga oshiriladi. Topshiriq shartlari aniq obyektlar yordamida sharhlab boriladi. Bunday holda, javob qayta hisoblash yo'li bilan olinadi. Ba'zan muammoning shartlarini tahlil qilishda bir vaqtning o'zida bir nechta talqin turlaridan foydalanish mumkin. Misol uchun, qisqacha eslatmalar, ko'rsatma vositalar, chizilgan va ramziy tasvirlar;

3. Muammoning yechimini topish uning shartlarining grafik modelidan matematik modelga o'tishdir. Bu bosqichda o'quvchilar uni yechish uchun mos arifmetik amallarni tanlaydilar va ularni bajarish tartibini belgilaydilar. Tegishli arifmetik amallarni tanlash uchun savol-javob tizimidan foydalansak maqsadga muvofiqdir.

4. Yechim rejasini tuzishda tanlangan arifmetik amalni rasmiylashtirishdan maqsad sonli ifodani topishdan iborat. Berilgan mantiqiy muammolarni og'zaki va yozma ravishda hal qilamiz. Bolalar harakatlar bo'yicha qarorni tushuntirishlar, rejalar yoki ifodalar bilan yozadilar, so'ngra javobni to'liq va qisqa shaklda yozadilar.

5. Muammoning yechimini tekshirish. Yechim to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini aniqlaymiz. Buning uchun yechimni tekshirishning quyidagi turlaridan foydalanamiz: o'qituvchi tomonidan taklif qilingan javob bilan jamoaviy (juftlikda) tekshirish; javob va topshiriq shartlari ma'lumotlarining o'zaro bog'liqligi; muammoni boshqa yo'l bilan hal qilish; berilgan masalaga teskari masalani yechish; «taxminiy» javob. Muammoning yechimini tekshirishning eng samarali usulidan foydalanamiz – o'quvchilar olgan javoblarni o'qituvchi bergan javob bilan tekshirish. Muammoni boshqa yo'l bilan hal qilish orqali samarali tekshirish ta'minlanadi. Lekin mantiqiy topshiriqlarning, muammolarning yechimi har doim ham bir xil emas.

Dars jarayonini tashkillashtirishda muammoli ta'lim elementlarini tanlaymiz. Bunda materialni tushuntirish topshirilgan muammolarni hal qilish yo'llarini mustaqil izlash bilan almashtiriladi. O'quvchilarga muammolarni aniq harakatlar bilan emas, balki shartlarni tahlil qilish va keyinchalik tasdiqlanadigan yoki rad etiladigan takliflar bilan hal qilishni o'rgatamiz. Mantiqiy muammolarni hal qilish uchun bir necha xil usullardan foydalanamiz :

- Aqliy hujum usuli;
- Jadval usuli;
- Grafik usuli;
- Blok-sxema usuli;
- Bilyard usuli;
- Eyler-Venn doirasi usuli.

Mantiqiy masalalar ustida ishlash, topshiriqlar ustida ishlashning umumiy tizimiga kiritilganda samarali bo'ladi. Har bir darsda mantiqiy masalalar mulohaza yuritish, mazmunni tahlil qilish va ma'lumotlar va talab qilinadiganlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish orqali hal qilinadi. O'quvchilarning matematikaga qiziqishi ortib, ularning mantiqiy va matematik fikrlash darajasi oshadi. Bu mashqlarni matematika darslarida va fakultativ mashg'ulotlarda qo'llash jarayonida ma'lum turdagi masalalarni yechish malakasini egallashda ijobiy dinamika aniqlandi.

Boshlang'ich sinflarda test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinf gacha matematika badiiy

o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan darsda foydalanish qoidalari, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim o'qituvchiga o'qitish va ta'lim jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-3931-sonli Qarori

3. M.S.Divanova, S.Q.Alimova, O.N.Alimov. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. -T.: «Fan va texnologiya», 2013,48 bet

4. Merajova, Sh.B., Merajov, N.I., Xoliqova, M.Q. Matnli masalalarni yechish metodikasi [Matn] : uslubiy qo'llanma / Sh.B. Merajova, N.I. Merajov, M.Q. Xoliqova .-Buxoro : «Sadridin Salim Buxoriy» Durdon,2022.-92 b.

5. Mamadjanova M. Mantiqiy, kombinatorik va nostandart masalalar/ O'quv qo'llanma. - Toshkent , 2020

6. Ergasheva, Surayyo Yo'ldoshevna (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (8), 274-278.

7. Karomatova, R., & Rajabova, L. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINING O'RNI VA AHAMIYATI. Modern Science and Research, 3(12), 147-150.

8. Choriyevna, R. L. (2024). THE IMPORTANCE OF USING THE STEAM APPROACH IN CREATIVE THINKING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 10-15.

9. Temirovna, Y. K. O. L. (2024). DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL SPEECH IN THE PROCESS OF TRAINING FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. Confrencea, 5, 151-155.

10. Sobirov, M. H. (2024). MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(2), 137-140.

11. Ikramovna, B. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TUSHUNCHALARNI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDA QO 'LLASH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 473-476.

## O'ZGARUVCHAN TA'LIM PARADIGMASI SHAROITIDA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

*Samadov Abdulaziz Ashurovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi, O'zbekistan*

*Annotatsiya. Tez rivojlanayotgan dunyoda ta'lim sohasi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An'anaviy o'qitish usullari o'z o'rnini yanada dinamik va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlarga bo'shatib, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirishni talab qiladi. Bu o'zgarish faqat fuqarolik ta'limi bilan chegaralanib qolmaydi; harbiy ta'limga ham taalluqlidir. Harbiy ta'lim o'qituvchilari qurolli kuchlarning bo'lajak rahbarlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va shuning uchun ular o'zgaruvchan ta'lim paradigmasiga moslashishi kerak. Ushbu maqolada biz rivojlanayotgan ta'lim manzarasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishning asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.*

*Kalit so'zlar: ta'lim, o'zgarishlar, an'anaviy o'qitish usullari, dinamik va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, harbiy ta'lim o'qituvchisi, kasbiy mahorat.*

An'anaviy harbiy ta'lim modeli ko'pincha avtoritar o'qitish uslublari, eslab qolish va qattiq ierarxialarga asoslangan. Biroq, 21-asrda barcha sohalar kabi ta'lim tizimida paradigmik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu siljishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Faol ta'lim. Faol ta'lim rivojlanayotgan ta'lim paradigmasining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, harbiy ta'lim o'qituvchisini zamonaviy dunyoning ko'p qirrali muammolariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunday pedagogik yondashuv asosiy e'tiborni axborotni passiv qabul qilishdan ta'lim sub'ektlarini o'quv jarayoniga faol jalb etishga qaratadi. Faol ta'limning ba'zi asosiy jihatlarini va uning harbiy ta'limdagi ahamiyatini:

Guruhlarda muhokama qilish, amaliy mashqlar, amaliy ishlar va simulyatsiya kabi faol o'qitish usullari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi. Ushbu kuchaytirilgan ishtirok mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Muammolarni yechish ko'nikmalari. Faol ta'lim o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga va real muammolarni hal qilishga undaydi. Harbiy ta'lim o'quv mashg'ulotlari jarayonida murakkab va dinamik muhitda samarali muammolarni hal qilish orqali yoshlarda favqulodda vaziyatlarga tayyor turish, har qanday muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Faol o'rganish bilimlarni amalda qo'llashda keng imkon beradi. Harbiy ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy jarayonda qo'llash, stsenariy va mashqlarni bajarish, haqiqiy dunyoda bo'ladigan voqea-hodisalarga to'g'ri yondashishga yordam beradi.

Jamoda ishlash va etakchilikni rivojlantirish. Ko'pgina faol o'quv faoliyati hamkorlikda ishlashni o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatda samarali jamoaviy ish va etakchilik qobiliyatlari ajralmas hisoblanadi. Faol ta'lim tajribasi o'quvchilarga ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Harbiy ta'lim nazariy bilimlardan tashqari, amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishi muhim. Amaliy mashg'ulotlar va real simulyatsiyalar kabi faol o'rganish usullari mahoratni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Texnologiya integratsiyasi. Texnologiyadan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Virtual o'quv xonalari, onlayn resurslar va o'quv dasturlari hozirda o'qituvchi faoliyatidagi keng tarqalgan vositalardir.

Texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy ta'limning muhim jihati bo'lib, u harbiy ta'lim uchun ham katta ahamiyatga ega. Texnologik taraqqiyotning tezlashuvi harbiy ta'lim o'qituvchilari o'zlarining ta'lim usullarini yaxshilash orqali 21-asr talablariga moslashish talabini qo'ymoqda. Quyida harbiy ta'limda texnologiya integratsiyasini batafsil ko'rib chiqamiz:

Virtual sinflar va onlayn o'quv platformalari orqali harbiy ta'limda ham masofadan turib o'qitish imkonini yaratdi. Bu, ayniqsa, dunyoning turli burchaklarida joylashgan harbiylar uchun juda muhimdir. Onlayn o'quv platformalari kurs materiallari, topshiriqlar va baholashlar uchun markazlashtirilgan

o'quvchilari yanada qulaylik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Resurslarning boyligi. Internet ta'lim resurslarining keng omborini taqdim etadi. O'qituvchilar o'quv tajribasini boyitish uchun maqolalar, videolar, simulyatsiyalar va tadqiqot ma'lumotlar bazalarini o'z ichiga olgan keng assortimentdagi materiallarni tanlay oladi. Ushbu manbalar an'anaviy darsliklar va ma'ruzalarni to'ldirib, yanada keng qamrovli ta'limni ta'minlaydi.

Ta'lim dasturlari va simulyatsiyalar. Interfaol simulyatsiyalar va virtual haqiqat muhitlari kabi ta'lim dasturlari harbiy tayyorgarlikda muhim o'rin egallaydi. Misol uchun, harbiy xizmatchilar xavfsiz va boshqariladigan raqamli muhitda taktik stsenariylarni yoki favqulodda vaziyatlarga javob berish tartib-qoidalarini qo'llashga o'rgatiladi. Ushbu texnologiya jismoniy xavflarsiz amaliy mashg'ulotlarni yaxshilaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Analitika va algoritmlar yordamida o'qituvchilar o'qitishni individual o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirishi mumkin. Shaxsiylashtirilgan o'rganish yanada yaxshi ishtirok etish va tushunishga yordam beradi.

Kiberxavfsizlik bo'yicha trening. Harbiy operatsiyalarda kiberxavfsizlikning ortib borayotgan ahamiyatini hisobga olgan holda, texnologiya integratsiyasi ushbu muhim sohada ixtisoslashtirilgan treninglar o'tkazish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya integratsiyasi o'ylangan va strategik bo'lishi kerak. O'qituvchilar ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun treningdan o'tishlari va texnologiyaga asoslangan ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun mustahkam infratuzilma bo'lishi muhim.

Texnologiya integratsiyasi zamonaviy harbiy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Bu nafaqat mavjudlik va moslashuvchanlikni oshiradi, balki dinamik va samarali o'rganish tajribasini yaratish uchun bir qator resurslar va vositalarni ham taqdim etadi.

Moslashuvchan pedagogika. Moslashuvchan pedagogika zamonaviy ta'limning asosiy tushunchasi bo'lib, u harbiy ta'limda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining o'ziga xosligini, o'ziga xos ta'lim imtiyozlari, kuchli tomonlari va qiyinchiliklarini tan oladi. Harbiy ta'lim kontekstida o'qituvchilar o'z o'quvchilarining individual ehtiyojlariga moslashishi juda muhim, chunki yagona yondashuv endi samarali bo'lmaydi. Harbiy ta'lim tizimida adaptiv pedagogikani tatbiq etish bo'yicha ba'zi asosiy fikrlarni keltiramiz:

a) individual ta'lim rejalarini. o'qituvchi har bir o'quvchi uchun individual o'quv rejalarini ishlab chiqishi lozim. Ushbu rejalar ularning oldingi bilimlari, o'rganish uslubi va aniq o'quv maqsadlarini hisobga olishi kerak. Ushbu yondashuv moslashtirilgan ta'lim tajribasiga imkon beradi;

b) turli xil ta'lim strategiyalari. Moslashuvchan pedagogika turli xil ta'lim strategiyalaridan foydalanishni rag'batlantiradi. Harbiy ta'lim o'qituvchilari turli xil o'qitish usullarini, jumladan, ma'ruzalar, guruh muhokamalari, amaliy mashqlar va texnologiyaga asoslangan o'rganish bo'yicha malakali bo'lishi kerak, bu turli xil o'quv uslublari va afzalliklariga mos kelishi kerak;

v) moslashuvchan tezlik: Hamma o'quvlar bir xil sur'atda o'smaydi. Ba'zilarga kontseptsiyani tushunish uchun ko'proq vaqt kerak bo'lishi mumkin, boshqalari esa tezda oldinga siljishi mumkin. O'qituvchilar o'qitish tezligini moslashtirishga tayyor bo'lishlari va kerak bo'lganda qo'shimcha yordam ko'rsatishlari lozim;

g) bilimlarni baholash. baholash bilimdagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi;

d) teskari aloqa va fikr-mulohaza. Moslashuvchan pedagogikada muntazam fikr-mulohazalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'qituvchilarga o'z ta'lim samaradorligini baholash va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Guruhda ishlash va hamkorlik. Hamkorlikda o'rganish adaptiv pedagogikada kuchli vosita bo'lishi mumkin. Bu o'quvchilarga tengdoshlaridan o'rganish, turli nuqtai nazarlardan foydalanish va muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash imkonini beradi. O'qituvchilar guruhda ishlash uchun imkoniyatlar yaratishi va barcha o'quvchilar faol ishtirok etishini ta'minlashi kerak.

Inklyuziv ta'lim. Adaptiv pedagogika inklyuzivlikni ta'minlaydi. O'qituvchilar nogiron, o'rganish farqlari yoki til to'siqlari bo'lgan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga tayyor bo'lishi kerak. Yashash joylari, masalan, foydalanish mumkin bo'lgan materiallar va qo'shimcha yordamga tayyor bo'lishi

muhim.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish. Harbiy ta'lim tizimidagi o'qituvchilar adaptiv pedagogikadagi so'nggi tadqiqotlar va strategiyalar haqida xabardor bo'lish uchun doimiy kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanishlari kerak.

Tanqidiy fikrlash. tez o'zgaruvchan dunyoda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta'limdagi o'zgaruvchan ta'lim paradigmasi harbiy ta'lim o'qituvchisida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Tez o'zgaruvchan va murakkab dunyoda bu ko'nikmalar samarali qarorlar qabul qilish, etakchilik va moslashuvchanlik uchun zarur. Shuningdek, tanqidiy fikrlash harbiy ta'lim mutaxassislaridan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va innovatsion echimlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish talabini qo'yadi. Bu doimiy o'zgaruvchan dunyoda kutilmagan muammolarni hal qilishda muhim.

Tanqidiy fikrlash orqali harbiy ta'lim o'qituvchisi ma'lumotni baholash, ijobiy va salbiy tomonlarini anglash va to'g'ri, oqilona qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu ko'nikma keskin qarorlar jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan yuqori stressli vaziyatlarda juda muhimdir.

Harbiy ta'lim o'qituvchisida ijodkorlik muhim qobiliyat hisoblanadi. Ijodiy fikrlash harbiy mutaxassislarga mavjud resurslardan innovatsion foydalanish, ularning samaradorligi va moslashuvchanligini oshiradi.

Madaniy kompetensiya. Globallashtirilgan dunyoda harbiy xizmatchilar turli millat vakillari bilan muloqot qilishlari kerak. Kuchli muloqot qobiliyatlari madaniy chegaralar bo'ylab munosabatlar va tushunishni o'rnatishga yordam beradi.

Hissiy intellekt harbiy ta'lim o'qituvchisi uchun muhimdir. Chunki o'qituvchilarning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi, bu esa yanada samarali etakchilik va jamoaviy ishlashga olib keladi.

O'zgaruvchan ta'lim paradigmasini hisobga olgan holda, harbiy ta'lim o'qituvchilari o'zlarining kasbiy mahoratini oshirishda bir qator strategiyalarni keltirish mumkin. Bular:

Uzluksiz kasbiy rivojlanish. O'qituvchilar so'nggi ta'lim tendentsiyalari va texnologiyalaridan xabardor bo'lishlariga yordam beradigan treninglar, seminarlar va onlayn kurslar uchun imkoniyatlarni faol ravishda izlash, o'zgaruvchan ta'lim paradigmalariga moslashish, o'qituvchilik mahoratini oshirish, texnologik kompetensiyaga ega bo'lish, shaxsiy va kasbiy akmeologiyaga erishishda muhim.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishni faol davom ettirish yo'llari quyidagilardir: seminar va konferentsiyalarda qatnashish; elektron ta'lim dasturlaridan xabardorlik; hamkasblar bilan muloqot va tajriba almashish; professional tashkilotlarga qo'shilish; sohaga oid o'quv adabiyotlarini o'qish, o'rganish; mentorlik va murabbiylik; professional tafakkurni o'stirish; institutsional resurslardan foydalanish kabilar.

Harbiy ta'limda tashhis, baholash va fikr-mulohazalarning ahamiyati keng bo'lib, bu ta'lim natijalarini o'lchash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, motivatsiya va faollik uchun muhim.

Samarali baholash va fikr-mulohazalar strategiyalari sifatida turli xil baholash usullari, aniq o'quv maqsadlari; qayta aloqa; konstruktiv fikr-mulohazalar; baholash mezonlari; o'z-o'zini baholash, tengdoshlarni baholash, formativ va summativ baholash; ma'lumotlarni tahlil qilish; kasbiy rivojlanish kabilarni keltiramiz.

Harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirisha tadqiqotlar va innovatsion o'qitish usullari bilan shug'ullanish yaxshi natijalarni beradi. Harbiy ta'lim sohasida tadqiqot va innovatsiyalar bilan shug'ullanish juda muhimdir. Tadqiqotga asoslangan va innovatsion o'qitish usullari nafaqat ta'lim natijalarini yaxshilaydi, balki harbiy xizmatchilarni zamonaviy dunyoning ko'p qirrali muammolariga qarshi turishga yaxshi tayyorlaydi. Harbiy ta'limda tadqiqot va innovatsiyalarning ahamiyati va ularni samarali amalga oshirish strategiyalarini keltiramiz:

- dalillarga asoslangan o'qitish. Ta'lim sohasidagi tadqiqotlar o'qituvchilarga samarali ekanligi isbotlangan dalillarga asoslangan o'qitish amaliyotini qo'llash imkonini beradi. Bu esa ta'lim strategiyalarining mustahkam pedagogik tamoyillarga asoslanishini ta'minlaydi;

- o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashish. Tadqiqotlar va innovatsiyalar ushbu rivojlanayotgan talablarga mos keladigan o'qitish usullari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi.
- ta'lim natijalarining ijobiy o'zgarishi. Innovatsion o'qitish usullari ta'lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, o'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchilari doimiy ravishda kasbiy mahoratini takomillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta'lim o'qituvchilari faol ta'lim, texnologiya integratsiyasi, kompetensiyalarni rivojlantirish va doimiy takomillashtirish majburiyatini o'zlashtirib, o'z o'quvchilariga eng yuqori sifatli ta'lim va tayyorgarlikni taqdim etish orqali 21-asrda vatanparvar yoshlarni yetishtirishda samaradorlikka erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqova D. Harbiy pedagogika va psixologiya asoslari. Qo'llanma, 2019.
2. Sotiboldiev A. Karimjonov A. Harbiy pedagogika. «Sharq» nashriyoti, 2005: «Shark», 2010.
3. Назаров И. Б. Воздействие горных территорий на психическое состояние горных подразделений. -Т.: 2013.
4. Керролл. Логическая игра. - М.: Наука, 1991.
5. Клышников В.М. Опорный конспект по военной психологии. -Т., 2011.
6. Проблемы военной психологии. - Мн.: Харвест, 2003.
7. Сельченков К.В. Психология человеческой агрессивности. Мн.: Харвест, 2003.

## **PEDAGOG XODIMLARNING SOSIAL TOLERANTLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

*Sattorova Mahliyo Dilmurod qizi,*

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Annotasiya. Bag'rikenglik inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir. Mazkur maqolada pedagog xodimlarning sosial tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari muhokama qilinadi.*

*Kalit so'z: bag'rikenglik, sabr-bardoshi, samimiyat, tolerantlik, shaxs tinchlik.*

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ХАРАКТЕРИСТИК СОЦИАЛЬНОЙ ТOLERАНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ**

*Сатторова Махлиё Дильмуродовна,*

*Преподаватель Термезского государственного университета, доктор философских наук психологии (PhD)*

*Аннотация. Тolerантность – это обязанность поощрять права человека, плюрализм (включая культурный плюрализм), демократию и соблюдение закона. Тolerантность – понятие, означающее отказ от догматизма, абсолютизацию истины и подтверждающее правила, установленные в международно-правовых документах в области прав человека. В данной статье рассматриваются психологические аспекты формирования характеристик социальной толерантности педагогов.*

*Ключевое слово: толерантность, терпение, искренность, толерантность, личный мир*

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING SOCIAL TOLERANCE PROPERTIES OF TEACHING STAFF**

*Sattorova Mahliyo Dilmurodovna,*

*Teacher of Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology*

*Annotation. Tolerance is an obligation to promote human rights, pluralism (including cultural pluralism), democracy and the celebration of law. Tolerance is a concept that means abandoning dogmatism, absolutization of truth, and confirms the rules established in international legal documents in the field of human rights. This article discusses the psychological aspects of forming social tolerance traits in teachers.*

*Key word: tolerance, patience, sincerity, tolerance, personal peace.*

*“Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy Uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi”.*

*Bag'rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohida namoyon qilishning xilma-xil usullarini xurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamdaxur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyojhamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.*

*Bag'rikenglik yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik eng avvalo insonning*

universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Mustaqillik sharofati tufayli ijtimoiy hayotning barcha sohaları qatori dinga, dindorlarga bo'lgan munosabatda ham tub o'zgarishlarga yo'l ochildi. Birinchidan, bugungi kunda ulamolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ikkinchidan, yaqin o'tmishda diniy qadriyatlarni bilish va o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilish salbiy baholanar edi. Bundan farqli o'laroq, hozirda diniy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berildi. [1].

Yurtimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar yanada mustahkamlandi. 1995 yil 16 noyabrdagi YUNESKO Bosh konferensiyasining rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasiga asosan diyorimizda har yili "Xalqaro bag'rikenglik" kuni nishonlanib kelinadi. 2014 yil 12 noyabr kuni Toshkent islom universiteti, YUNESKO va Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Konfessiyalararo muloqat va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi" nomli xalqaro konferensiya bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalarga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik va do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Darhaqiqat, har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhim. Zero, bag'rikengliksiz tinchlik, tinchliksiz taraqqiyot bo'lmaydi. [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, islom dinida bag'rikenglik. masalasiga nihoyat keng e'tibor qaratilgan deya xulosa qilish mumkin. Islom dini ilk davridayoq boshqa din vakillariga, qo'ni-qo'shnilarga qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar yaxshi munosabatda bo'lishga chaqirgan va bu go'zal odat hozirgi kunda ham o'z qadriyatini yo'qotmagan. Farzand tarbiyasida ham qadimgi rivoyat va hadislarning o'rni beqiyos bo'lib, bu borada chop etilgan bir qator adabiyotlardan samarali foydalanish lozim. Qadim zamonlardan bizning o'lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab mafkuraviy tizimga ega bo'lgan dinlar mavjud bo'lgan.

Sotsial tolerantlik boshqa shaxs yoki guruhni, ularning xatti-harakati, e'tiqodlari va qarashlarini, o'zidan farq qiluvchi qarashlarini ijobiy tan olish va qabul qilish qobiliyati bilan boqliqlir. Mutaxassislar tomonidan tolerantlikning eng yuqori darajasini baqolashga tegishli psixologik portretlar ishlab chiqilgan bo'lib, bir qator mezonlarga asoslanadi. Olimlar tolerantlik shakllanishining turli mezonlarini ajratib ko'rsatganlar, ulardan birinchisi, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlar normalari va qoidalarini o'zlashtirishidir.

Tolerant shaxsni shakllantirishning ikkinchi mezoni - shaxsning o'zini o'zi anglash, dunyoqarashini kengaytirish, dunyo va mafkuraviy pozitsiyasi haqidagi qoyalarini shakllantirishga intilishidir. Bu sifatlar turkumi shaxsga o'zi haqida yanada ijobiy va adekvat g'oyalarni shakllantirish va mustaqamlash imkonini beradi. [3].

Hozirgi kunda ham tolerantlikni saqlab qolish va mustahkamlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib, barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an'alarini saqlash hamda rivojlantirish uchun qonuniy sharoitlar yaratilgan. Bugun mamlakatimizda turli millatlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibatni yanada mustahkamlash diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Shaxs ongiga sotsial tolerantlik g'oyalarni singdirishda oila va ta'lim muassasasidagi ijtimoiy muhit alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning ta'sirida egallangan ijtimoiy tajribalar mustahkamlanadi. Shuningdek, ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli tarbiya jarayonida tadrijiylik ta'minlanadi. Ta'lim tizimi yoshlarda milliy g'urur, vatanga muhabbat, millatparvarlik tuyg'ularini qaror toptirish barobarida ulardagi har qanday millatchilik tuyg'ularini, o'z millati, dinining boshqalarnikidan ustunligi kabilar yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qilali. Bu kabi tuyg'ularning yoshlarda yuzaga kelishi, millatlar o'rtasida nizolarga, diniy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Demak, ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri – yoshlarda sotsial tolerantlik tuyg'usini qaror toptirishdan iborat bo'lishi lozim. Zero, kelajakda insoniyatni birlashtiradigan axloqiy an'analarni saqlash, tinchlik, o'zaro hurmat tamoyillarini targ'ib qilish kabi sohalar mavjudligi shubhasizdir.

### “Men-yaxshi, Siz-yaxshi” mashqi

Ishtirokchilar trener atrofida aylana bo‘lib turib oladilar. Trener ikkita to‘pni ikki qo‘lida tutib turadi va o‘ng qo‘lidagi to‘pni o‘ng tomonidagi ishtirokchining eng yaxshi qislatini aytib uzatadi, xuddi shu zaylda to‘p trenerga etib kelgunicha davom etadi. Chap qo‘lidagi to‘pni esa chap tomonidagi ishtirokchiga o‘zining eng yaxshi qislatini aytib uzatadi va xuddi shu tarzda to‘p trenerga etib kelgunicha davom etishi kerak.

Muqokamada qar bir ishtirokchi;

1. To‘pni qo‘lida tutib turib boshqa kishiga o‘zining eng yaxshi qislatini aytib uzatishi kerak bo‘lganda qanday qissiyotni boshdan kechirdingizq

2. Boshqa kishiga sizga eng yaxshi qislatini aytib to‘p uzatgan vaqtda qanday qissiyotni boshdan kechirdingizq

3. qiyinchilik bo‘ldimi va nima uchunq

4. Bir biringiz qaqqida nimalarni bilib oldingizq

Xulosa. Biz barchamiz turfamiz, ammo bi‘ning qar birimizda qaysidir yaxshi fazilat va meqr borligini qis qilishimiz kerak.

### «Biz va boshqalar steriotipi» mashqi

Barcha ishtirokchilarni ko‘zga ko‘rinadigan biron bir belgiga ko‘ra taxminan teng ikki guruhga bo‘lish kerak. Misol uchun, ba‘zilari krossovkalar kiygan, boshqalari ko‘ylak poyafzalida yoki yarmi qora kiyimda, ikkinchi yarmi esa ko‘p rangli kiyimda. Guruhlarga ushbu vizual xususiyat ularni boshqa guruhga qaraganda yaxshiroq qilishining sabablari ro‘yxatini ishlab chiqish uchun vaqt beriladi. Bu shunday bo‘lishi mumkin: «Ular rangli kiyim kiyishadi, chunki ularning ta‘mi yo‘q», «Ular qora kiyim kiyishadi, chunki ular dangasa va kamroq yuviladi» va hokazo.

Ushbu ro‘yxatlar o‘qiladi va keyin biz ko‘pincha hech ikkilanmasdan, boshqa odamlarga qandaydir tashqi belgilar asosida yorliqlarni tarqatishimiz haqida bahs-munozaralar mavjud. Mamlakatimizda terining rangi masalasi mashq ixtiro qilingan AQShda bo‘lgani kabi muhim rol o‘ynamaydi, ammo muhokama hali ham shu yo‘nalishda olib borilishi mumkin: umuman olganda, har qanday tashqi farq bo‘lishi mumkin (va bo‘ladi). ) masxara qilish va stereotiplarni qurish uchun imkoniyat.

### «Sotsial tolerantlik» mashqi

O‘spirinlarini “bag‘rikenglik” va “bag‘rikeng shaxs” tushunchalari, bag‘rikenglik va tolerantlik mezonlari va ijtimoiy ko‘rinishlari bilan tanishtirish, odamlar bilan muloqotda, shuningdek, hayotning turli sohalarida tolerantlik xulq-atvorining ahamiyatini ko‘rsatish. Ishtirokchilarga bag‘rikeng shaxs fazilatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos usullarini o‘rgatish. Tasavvurni rivojlantirish, hamdardlik, hamdardlik va hamdardlik, ishonch, qadr-qimmat va o‘zini-o‘zi bilishni bag‘rikenglik elementlari sifatida «Men» va «Boshqalar» kontekstida munosabatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

- o‘z-o‘zini hurmat qilish va boshqalarning qadr-qimmatini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- guruhdagi o‘zaro munosabatlarning har bir ishtirokchisining shaxsiyatining xilma-xilligidan xabardorlik;

- introspektsiya, o‘z-o‘zini bilish, o‘zi haqida ijobiy ichki dialog o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- o‘z xalqiga ijobiy munosabatni shakllantirish;

- ziddiyatli vaziyatlardan chiqishning konstruktiv usullarini o‘rgatish, o‘z his-tuyg‘ularini va tajribalarini ziddiyat va zo‘ravonliksiz ifoda etish;

- ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

- millatlararo munosabatlarda madaniyatlararo tushunish va bag‘rikenglik xulq-atvorini o‘rgatish.

### «Razminka» mashqi

U guruh a‘zolarini faollashtirishga, qulay, do‘stona muhit yaratishga va birdamlikni oshirishga yordam beradigan mashqlar, vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Tolerant shaxsni shakllantirishning ikkinchi mezon - shaxsning o‘zini o‘zi anglash, dunyoqarashini

kengaytirish, dunyo va mafkuraviy pozitsiyasi haqidagi qoyalarini shakllantirishga intilishidir. Bu sifatlar turkumi shaxsga o'zi haqida yanada ijobiy va adekvat g'oyalarni shakllantirish va mustaqamlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning e'tirof etishlariga ko'ra asosan o'smirlik davrida ro'y beradigan tolerant g'oyalarni shakllantirish jarayoni dolzarbdir. Bu yosh madaniy o'ziga xoslik tuyg'usining shakllanishi, o'sishi bilan bog'liq madaniy mansublik masalalariga qiziqish orqali kuzatiladi. Tolerantlikni o'zida ham, boshqa odamda ham tarbiyalash mumkin. O'zaro munosabatlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashning asosiy usullari ishontirish va o'z-o'zini ishontirish, rag'batlantirish va motivatsiya, o'z-o'zini gipnoz, mashqlar, tuzatish va o'z-o'zini tuzatish, dilemmalar va mulohaza yuritish usuli, ta'lim vaziyatlari va ijtimoiy testlardan iboratdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022 yil 20 dekabr)
2. Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017 Ma'rifat gazetasi 2017 yil 20 sentabr №75 (9036)-1-2b. Yili
3. Sattorova, M. (2023). PSYCHOLOGICAL MANIFESTATIONS OF ETHNIC AND SOCIAL TOLERANCE. *Modern Science and Research*, 2(6), 280-282.
4. Sattorova, M. (2023). TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK KO'RINISHLARI. *Академические исследования в современной науке* 2(27), 143-145
5. Расулов.А.Турсунов.Л. Диний бағрикенглик ижтимоий-психологик феномин сифатида.2015.7

## JISMONIY TARBIYA GIGIENASI VA SPORT TIBBIYOTINI TASHKILLASHTIRISH ASOSLARI

*Sharafutdinova Rumiya Infarovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-1270-924X>*

*Muratova Gulsara Saidovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-2406-5581>*

*Annotatsiya. Gigienada inson tanasi - atrof-muhitning ajralmas bir butun qismi sifatida qaraladi. Aholining turli toifalari uchun har xil atrof-muhit omillarining inson organizmiga ta'siri xususiyatlarini o'rganish asosida ular uchun qulay mehnat, yashash, dam olish, jismoniy tarbiya va sport sharoitlarini yaratishni ta'minlash uchun aniq gigiena tavsiyalari, sanitariya me'yorlari va qoidalari ishlab chiqiladi.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sport tibbiyoti sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish orqali sportchilarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish masalalari yo'lga qo'yildi. Maqolada jismoniy tarbiya sohasida gigiyenaga qaratilgan e'tibor va sport tibbiyotini tashkillashtirish haqida so'z boradi.*

*KALIT SO'ZLAR: sport tibbiyoti, dietolog, sog'lom-turmush tarzi, jismoniy tarbiya, sport shifokori, trener.*

## ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ, ГИГИЕНЫ И СПОРТИВНОЙ МЕДИЦИНЫ

*Шарафутдинова Румия Инфаровна,*

*Бухарский государственный университет*

*Муратова Гульсара Саидовна,*

*Бухарский государственный университет*

*Аннотация. В гигиене тело человека рассматривается как неотъемлемая часть окружающей среды. Конкретные гигиенические рекомендации, санитарные нормы и правила, обеспечивающие создание комфортных условий труда, проживания, отдыха, занятий физкультурой и спортом для различных категорий населения, основанные на изучении особенностей воздействия различных факторов внешней среды на организм человека. разрабатываться.*

*В соответствии с решением Президента Республики Узбекистан от 3 ноября 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки и научных исследований кадров в области физического воспитания и спорта», а также путем внедрения современных методов подготовки кадров в области спортивной медицины на практике установлены вопросы дальнейшего совершенствования качественного медицинского обслуживания спортсменов. В статье говорится об акценте на гигиену в сфере физического воспитания и организации спортивной медицины.*

*КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: спортивная медицина, диетолог, здоровый образ жизни, физическая культура, спортивный врач, тренер.*

---

## FUNDAMENTALS OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION, HYGIENE AND SPORTS MEDICINE

*Sharafutdinova Rumiya Infarovna,  
Bukhara State University*

---

*Muratova Gulsara Saidovna,  
Bukhara State University*

---

*ANNOTATION. In hygiene, the human body is considered as an integral part of the environment. Specific hygienic recommendations, sanitary norms and rules that ensure the creation of comfortable conditions for work, living, rest, physical education and sports for various categories of the population, based on the study of the characteristics of the impact of various environmental factors on the human body, be developed.*

*In accordance with the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 3, 2022 «On measures to further improve the system of training and scientific research of personnel in the field of physical education and sports», as well as through the Introduction of modern methods of training personnel in the field of sports medicine, issues of further improving the quality of medical care for athletes have been established in practice. The article talks about the emphasis on hygiene in the field of physical education and the organization of sports medicine.*

*KEYWORDS: sports medicine, nutritionist, healthy lifestyle, physical education, sports doctor, trainer.*

**KIRISH.** O'zbekiston Respublikasi xalqining sog'ligini saklash, mustahkamlash, inson umrini uzaytirish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy hayotning tarkibiy kismi sanalgan va uning rivojlanishi ham har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liklikda bo'lgan.

Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Sohaga oid bir qator qaror va farmonlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Bu esa sportchilarimizning xalqaro maydonda erishayotgan yutuqlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funktsiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi.

Shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari yuqori samara beradi. Aks holda ular jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish vazifasini hal qilish borasidagi ahamiyatini yo'qotadi.

Jismoniy tarbiya gigienasi va sportning tibbiy fiziologik asoslari fani jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni tibbiy xizmat bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi.

Jismoniy tarbiya gigiyenasining paydo bo'lish tarixi yuzlab yillarga ega. Qadimgi davrlarda jismoniy mashqlar tiklanish vositasi sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga, jismoniy mashqlardan tashqari, turli xil tiklovchi gigiyena vositalari - ratsional ovqatlanish, hammom, massaj, chiniqish va boshqalar keng qo'llanilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** K.Slavineskiy va Ya.Komenskiy asarlarida birinchi marta jismoniy tarbiya va gigiyena o'rtasidagi munosabatlar masalalari XVII asrda ko'rib chiqilgan. Jismoniy tarbiya o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy rivojlanishini yaxshilash uchun maxsus vazifalar aniqlangan va shakllantirilgan murakkab tizim sifatida qaraladi.

Bu qarashlar va g'oyalar XVIII-XIX asrlarda ilmiy asoslab berilgan. Rossiyada P.F.Lesgaft jismoniy tarbiya va tarbiyaning ilmiy nazariyasining asoschisi bo'ldi. Uning ilmiy va pedagogik faoliyati Sankt-Peterburg tibbiyot va jarrohlik Akademiyasi devorlarida boshlanib, u yerda tibbiyot fanlari doktori (1865), so'ngra jarrohlik fanlari doktori (1868) dissertatsiyasini himoya qildi. P.F.Lesgaftning eng muhim asarlari

qatoriga “Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi bo‘yicha qo‘llanma”, “Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati”, “Anatomiyaning jismoniy tarbiya bilan aloqasi to‘g‘risida” kabilar kiradi.

P.F.Lesgaft jismoniy tarbiya ta‘limotining biomedikal asoslarini yaratdi, bu nafaqat jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasini, balki jismoniy mashqlar va sport fiziologiyasi hamda gigiyenasini rivojlantirish uchun zarur shart bo‘lib xizmat qiladi. P.F.Lesgaft hayoti davomida tuzilgan so‘nggi gigiyena dasturi 1909-yilga to‘g‘ri keladi. P.F.Lesgaftning g‘oyalari jismoniy mashqlar gigiyenasiga oid birinchi qo‘llanmalarining muallifi V.V.Gorinevskiy tomonidan ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash, turli kasalliklarni davolash, ularni oldini olish va uzoq umr ko‘rish maqsadida jismoniy tarbiya juda qadim zamondan boshlab qo‘llanilib kelingan. Jismoniy tarbiya va tibbiyotning bir biriga bog‘liqligi haqida qadimgi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan. Hatto Gippokrat, Gerodikus, Galen, Abu Ali ibn Sino, Paratsels va boshqa buyuk tibbiyot allomalari jismoniy mashqlarni, parhez, massaj, hammomlarni turli kasalliklarni oldini olishda keng qo‘llaganlar.

Jismoniy tarbiya va sport gigiyenasi sohasidagi ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasida jismoniy mashqlar va sport gigiyenasining asosiy vazifalari aniqlandi:

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar salomatligiga ekologik sharoitlarning ta‘sirini o‘rganish va ularni takomillashtirish;
- jismoniy mashqlar va sport bilan shug‘ullanuvchilar salomatligini mustahkamlovchi gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish;
- chidamlilikni yaxshilash, sport yutuqlarining o‘rishini ta‘minlash.

Jismoniy tarbiya gigiyenasi-gigiena fanining bo‘limlaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida odam va salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida samaraliroq foydalanish uchun o‘sha mashg‘ulotlar vositalarini, metodlarini hamda shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda normaga solib turish jismoniy tarbiya gigiyenasining mazmunini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya gigiyenasi mashg‘ulotlarning samaraliroq metodlarini va eng qulay shart-sharoitlarini asoslab berish uchun jismoniy mashqlar odam sog‘lig‘iga qanday ta‘sir ko‘rsatishini va ular sog‘lig‘ini mustahkamlashga qay darajada xizmat qilishini o‘rganadi [2].

Jismoniy tarbiya va sport gigiyenasi - jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq turli omillarning shug‘ullanuvchilar salomatligiga ta‘siri haqidagi fan. Ishtirokchilarning tanasiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- atrof-muhit omillari
- jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, dam olish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlar va musobaqalarda jismoniy mashqlar o‘tkaziladigan sharoit;
- jismoniy tarbiya darslari, sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya darslari va mashg‘ulotlarda jismoniy mashqlarni tashkil etish va mazmuni;
- jismoniy tarbiya darslari, rekreatsion jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlar va musobaqalar davomidagi jismoniy mashqlarni bajarishda jismoniy mashqlar hajmi, davomiyligi va intensivligi;
- jismoniy tarbiya, mashg‘ulot va musobaqalar vaqtida ovqatlanishning tabiati;
- sport inshootlarining texnik jihozlanishi va holati;
- sportchilar uchun jihozlar.

So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni gigiyenik jihatdan ta‘minlashga imkon beradigan, yoshi, jinsi va kasbiy funksional imkoniyatlari va ishtirok etganlarning individual xususiyatlari, iqlim va boshqa tashqi omillarni hisobga olgan holda qimmatli ilmiy ma‘lumotlar olindi.

Jismoniy mashqlar, ularning shakli va mazmunidan qat‘i nazar, shug‘ullanuvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlashi shart, bu butun jismoniy tarbiya tizimining sog‘lomlashtirishga to‘liq mos keladi.

Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish tamoyilini amalga oshirish faqat jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, sport murabbiyi gigiyenaning asosiy qoidalari bilan tanishishi va F.F. Erismanning so‘zlari bilan aytganda “gigiyenik fikrlash usuli”ni o‘rganishi sharti bilan mumkin[6, 6].

Gigiyenaning maqsadi - inson salomatligi. Biroq, salomatlikning aniq ta‘rifi hali mavjud emas.

Aksariyat ekspertlar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassisleri tomonidan berilgan salomatlik ta'rifiga qo'shiladilar: «Salomatlik bu nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir».

Tibbiyot olimi P.V.Bunsenning fikriga ko'ra, salomatlik - bu insonning psixofiziologik holati bo'lib, u nafaqat alohida organlar va tizimlarda patologik o'zgarishlarning yo'qligi, balki uning samarali ishlashi uchun yetarli bo'lgan inson tanasining biologik va ijtimoiy moslashuv va tabiiy muhitda yuqori jismoniy va aqliy qobiliyatlarni saqlash kabi funksional zaxiralari bilan ham tavsiflanadi[6,7].

Sport tibbiyoti fani jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni tibbiy xizmat bilan ta'minlash vazifalarini belgilashni o'z zimmasiga oladi. Zamonaviy sport tibbiyoti sport mashg'ulotlarini uyushtirish va ularni boshqarishda keng qo'llanilmoqda. Sport va tibbiyotga oid bilimlarni samarali amalda joriy etish tufayli zamonaviy sportning har xil turlarida mashg'ulotlarni olib borish imkoniyatlari yaratildi. Sport tibbiyotining barcha sohalari keng ravishda rivojlanib kelmoqda. Sportchilarning salomatligi va funksional holatini kuzatish, ularning tayyorgarlik darajasini aniqlashda yangi zamonaviy tibbiy tekshirish usullari joriy qilindi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni jismoniy ish qobiliyatini va chiniqqanligini aniqlashda yangi funksional sinamalar qo'llanilmoqda. Zamonaviy sportga taalluqli jiddiy va shiddatli mashg'ulotlar, musobaqalardan keyin sportchilarning ish qobiliyatini oshirish va organizm toliqib qolishining oldini olishda, ularni qayta tiklash vositalarini qo'llash sport tibbiyotining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash, turli kasalliklarni davolash, ularning oldini olish va uzoq umr ko'rish maqsadida jismoniy tarbiya juda qadim zamondan boshlab qo'llanilib kelingan. Jismoniy tarbiya va tibbiyotning bir-biriga bog'liqligi haqida qadimgi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan. Hatto Gippokrat, Gerodikus, Galen, Abu Ali ibn Sino, Parasels va boshqa buyuk tibbiyot allomalari jismoniy mashqlarni, parhez, massaj, hammomlarni turli kasalliklarning oldini olishda keng qo'llaganlar. Qadimgi Qohira, Hindiston, Yunoniston, Rum, Xitoyda bu vositalardan qo'l jangchilarini, gladiatorlarni, harbiylarni tayyorlashda foydalanilgan, ularni jismoniy ish qobiliyatini oshirish uchun turli-tuman dorivor o'simliklar qo'llanilgan. Ularning tibbiy nazorati o'sha davrning eng yaxshi shifokorlari tomonidan olib borilgan. Yunonistondagi qadimgi Olimpiya o'yinlari davridan boshlab atletlar tayyorgarligi ustidan jiddiy tibbiy kuzatuvlar o'tkazilgan.

Ibn Sino o'z risolasining to'rtinchi bobida «jismoniy tarbiya mashqlari saviya va son jihatdan juda kishini charchatadigan bo'lmasligi kerak. Ular juda tez ham bo'lmasligi kerak, aks holda ular qisqa davom etishiga qaramay kishiga uzoq bo'lib tuyuladi, shuningdek, bu mashqlar o'ta bo'sh bo'lmasligi ham kerak, aks holda ular uzoq davom etadigan mashqlar kishiga juda qisqa bo'lib tuyulmasin» - deydi. [4,5]

Sog'lom turmush tarzi va sog'liqni saqlashda Abu Ali ibn Sino asosan yetti narsaga e'tiborni kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tadi.

1. Mijozni mo'tadil qilish.
2. Yeyiladigan va ichiladigan ovqatlarni tanlash.
3. Gavnani chiqindidan tozalash.
4. To'g'ri tuzilishni ta'minlash.
5. Burun orqali olinadigan havoni etarli va yaxshi olish.
6. Kiyimga e'tibor berish.
7. Jismoniy va ruhiy harakatlarni tartibga solish.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi.

**METODLAR.** Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida katta o'zgarishlar davri bo'lmoqda. Buni birgina sohaga doir ta'lim tizimi tubdan takomillashayotgani misolida ko'rish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport ta'limi islohotlari haqida umumiy mazmunda gapiradigan bo'lsak, avvalo, bog'cha yoshidan sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish tizimiga o'tildi. Bunda bolalikdan sog'lom ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan boshlab, maktab davrida o'g'il-qizlarimiz sport

bilan shugʻullanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. Maktablarda yangi sport zallari barpo etilib, mavjudlari tubdan taʼmirlandi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi.

Oliy taʼlim tizimi ham isloh qilinib, milliy va olimpiada sport turlariga ixtisoslashgan sportchilar tayyorlash boʻyicha xalqaro standartlar joriy etildi. Bunda asosiy eʼtibor natijadorlikka qaratilgan boʻlib, respublika va xalqaro miqyosda yuksak natijalarga erishgan sportchilar va ularning murabbiylarini ragʻbatlantirish tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Bu kabi oʻzgarishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Prezidentimizning 2023-yil 28-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda sportchilarga tibbiy xizmat koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarori esa bu boradagi tizimli islohotlarni maqsadli davom ettirish, sport tibbiyoti sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etish orqali sportchilarga yuqori sifatli tibbiy xizmat koʻrsatishni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli boʻlmoqda.

Bugun sohaga daxldor va mazkur qaror ijrosidan manfaatdor professor-oʻqituvchi sifatida mazkur qarorning alohida muhim jihatlari toʻxtalmoqchimiz.

Avvalo, qarorning maqsadi juda muhim va dolzarbdir. Yaʼni, sport tibbiyoti sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish orqali sportchilarga yuqori sifatli tibbiy xizmat koʻrsatish borasida yechimini kutayotgan masalalar soha mutaxassislarini koʻp yillardan buyon oʻylantirib kelayotgan edi.

Endilikda bu borada bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshiriladigan boʻldi. Va, eng muhimi, bu ishlar bevosita sport taʼlim muassasalari va milliy terma jamoalar bilan uzviy ravishda yoʻlga qoʻyiladi.

Qarorga koʻra, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun sport shifokori va sport diyetologi mutaxassislarini tayyorlash boʻyicha bosh oliy taʼlim muassasasi hisoblanadigan Toshkent tibbiyot akademiyasida “Sport shifokori” va “Sport diyetologiyasi (ovqatlanish ilmi)” boʻyicha magistratura mutaxassisliklari joriy etiladi. Toshkent farmatsevtika institutida “Eksperimental va sport farmakologiyasi” magistratura mutaxassisligi boʻyicha amaldagi oʻqishga qabul qilish davlat buyurtmasi parametrlari ikki barobar oshiriladi.

Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzurida tashkil etilgan tibbiyot fakultetini yanada kengaytirish orqali uni Toshkent tibbiyot akademiyasining Chirchiq filialiga aylantirish, filialda sport tibbiyoti va boshqa tibbiyot mutaxassisliklari boʻyicha kadrlar tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish hamda Chirchiq shahridagi barcha turdagi tibbiyot muassasalarini filialga klinik-oʻquv baza sifatida birlashtirish belgilandi.

Bu esa, oʻz navbatida, sport tibbiyoti yoʻnalishida kadrlar tayyorlash boʻyicha ilgʻor innovatsion, ilmiy-uslubiy texnologiyalarni joriy etish, oʻquv jarayonlarini sport-taʼlim muassasalari va milliy terma jamoalar bilan uzviy bogʻliq holda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda sportchilarga tibbiy xizmat koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarori qabul qilindi.

Hujjatga koʻra quyidagilar asosiy yoʻnalishlari etib belgilandi:

- kadrlar tayyorlash boʻyicha ilgʻor innovatsion, ilmiy-uslubiy texnologiyalarni joriy etish orqali oʻquv jarayonlarini sport-taʼlim muassasalari va milliy terma jamoalar bilan uzviy bogʻliq holda tashkil etish;
- sport tibbiyoti yoʻnalishida kadrlar tayyorlashda talabalarning amaliy mashgʻulot darslari hamda amaliyotini Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazida tashkil etish orqali dual taʼlim tizimini rivojlantirish;
- xorijiy mutaxassislar (sport shifokori, sport diyetologi, sport fiziologi, sport farmakologi, sport psixologi)ni jalb qilgan holda sport tibbiyoti sohasidagi xodimlarning malakasini oshirishni tizimli yoʻlga qoʻyish;
- xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribasini oʻrgangan holda sport shifokori va sport diyetologi mutaxassisliklari boʻyicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ilmiy asoslangan

takliflarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.[2]

Jismoniy tarbiya- kishilar jismoniy harakatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan pedagogik jarayonidir. Ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid ishlar o'quvchi va talabalardan havaskorlikni, tashabbuskorlikni, uyushqoqlikni talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o'quvchilarda tashkilotchilik ko'nikmalari, faollik, topqirlik kabi xususiyatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'z sog'lig'ini himoya qilish har bir insonning bevosita mas'uliyati bo'lib, uni boshqalarga topshirishga haqli emas. 20-30 yoshdagi odam noto'g'ri turmush tarzi, yomon odatlar, gipodinamiya, ortiqcha ovqatlanish tufayli halokatli holatga tushib qoladi va shundan keyingina tibbiyotni eslaydi. Salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyoji bo'lib, uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. Bu atrofimizdagi dunyoni tushunish, o'z-o'zini tasdiqlash va inson baxtining eng muhim shartidir. Faol uzoq umr inson omilining muhim qismidir.

Sog'lom turmush tarzi (STT) - axloqiy, aqliy va jismonan sog'lom bo'lishga imkon beradigan, ratsional tashkil etilgan, faol, mehnatsevar, chidamli va shu bilan birga atrof-muhitning keksalikka qadar salbiy ta'siridan himoya qiluvchi axloqiy tamoyillarga asoslangan turmush tarzi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, «Salomatlik nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir».

**NATIJA VA MUHOKAMALAR.** Sport tibbiyoti sohasida ko'p yillik tajribaga asoslangan yechimlar asosida jismoniy tarbiya va sport gigienasining asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Maqsad jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish sharoitlarini o'rganish va takomillashtirish, shuningdek, salomatlik, mehnat qobiliyati, chidamlilik va sport ko'rsatkichlarini mustahkamlovchi gigiyena tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Yuqorida aytib o'tilganidek, jismoniy faoliyat alohida organlar yoki tizimlarga emas, balki butun organizmga ta'sir qiladi.

Sport tibbiyotini rivojlanish bosqichlari shartli ravishda quyidagi davrlarga ajraladi.

I davr – Shifokorlik nazorati fanining paydo bo'lishi va tiklanishi (1918-1928 yillar).

II davr – jismoniy tarbiya harakatini tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarda tashkil etilishi, rivojlanishi. Sport tibbiyotining umumiy nazariyasi va ilmiy asoslarni ishlab chiqish, ularni sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya amaliyotiga joriy qilish (1930-1941y).

.III davr – shifokorlik nazoratiga oid ishlarni qayta tiklash, sport tibbiyotini yangi tizimini yaratish, shifokorlik jismoniy tarbiya dispenserlarini tashkil qilish: etakchi sportchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish, vatan sport tibbiyotini xalqaro maydonga keng miqiyosda chiqish davri.(1945-1965).

IV davr – sport tibbiyotiga oid amaliy va ilmiy ishlar sifatini yaxshilash; yangi yo'nalishlarni yaratish va sport tibbiysini yangi metodik ko'rgazmalar va tavsiyalar bilan qayta qurollantirish (1965-1991)

V davr – mustaqil O'zbekistonda sportchilar ustidan tibbiy nazoratning taraqqiyoti, sport tibbiyotining yangi rivojlanish bosqichi.

O'zbekiston Respublikasidagi sportchilar ustidan tibbiy nazoratning taraqqiyotiga dotsentlar Ilinskiy I.P., Frank M.B., Jegallo O.M., Fanlar Akademiyasining fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor Rixsiyeva O.A., A.X.Turaxodjayevlar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Sport tibbiyoti tibbiyotning alohida yo'nalishi bo'lib, o'z maqsadi, vazifalari, uslublari, nazariya va o'z muammolariga ega bo'lgan ilmiyamaliy sohadir. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni tibbiy ta'minlash maxsus tibbiy-jismoniy tarbiya xizmatlari (kabinetlar, dispanserlar) va sog'liqni saqlash organlarining davolash-profilaktik muassasalari orqali territorial prinsipda amalga oshiriladi. Sport tibbiyoti aholini davolashprofilaktik xizmatining asosiy qismi bo'libgina qolmay, insonning jismoniy tarbiya tizimidagi ajralmas bo'lagidir.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va trenerga jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilarning sog'lig'i va kelajak taqdiri ishonib topshiriladi. Shu bois, ular unutmazliklari lozimki, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uslublarida, mashg'ulot hajmi va tezligini belgilashda yo'l qo'yilgan har bir xato, mashg'ulot natijasining pasayishiga olib kelishi bilan birga, shug'ullanuvchilarning sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va trener – bu keng qamrovli, nihoyatda muhim va murakkab vazifani bajaruvchi pedagog hisoblanadi. Uning faoliyatida ma'naviy - axloqiy, sport - pedagogik, psixologik va sport tibbiyoti mutaxassisliklari bir - biri bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va trenerni mutaxassis sifatida tayyorlashda tibbiy-biologik (odam anatomiyasi, odam fiziologiyasi, yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi, jismoniy tarbiya gigiyenasi) fanlar orasida, Sport tibbiyoti fani, asosiy o'rinni egallaydi. Bu fanni mukammal egallay olmagan jismoniy tarbiya o'qituvchisi va trener jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil eta olmaydi. Eng muhimi shug'ullanuvchilarni ilmiy asosda chiniqtirish, ularda zo'riqish va shikastlanish holatlarining oldini olish uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'la olmaydi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, yuqori malakali jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport trenerlarini tayyorlashda Sport tibbiyotining ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarida, jismoniy tarbiya va sport hamda tibbiyot sohalarining bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, ikkala soha ham jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, inson sog'lig'i, ayniqsa, yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash, umrini uzaytirish, mehnat qilish qobiliyatini yuksaltirish uchun xizmat qilishi ta'kidlangan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni tibbiy nazoratdan o'tkazish, ularni sog'liq guruhlariga ajratish, chiniqqanlik darajasini aniqlash, shunga asoslangan holda, mashq hajmi va tezligini belgilash, mashq natijasini doimiy nazorat qilish, mutasaddi tibbiyot muassasasi shifokori hamda jismoniy tarbiya o'qituvchisi va trener zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi toifaga ega bo'lmagan yoshlar va katta yoshdagi kishilar, bir yilda kamida bir marta, tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart;

Toifaga ega bo'lgan sportchilar, yosh sportchilar, sport maktabi o'quvchilari, hamda sport bilan shug'ullanuvchi katta yoshdagi kishilar bir yilda kamida 2 marta shifokor tekshiruvidan o'tishlari kerak.

Jismoniy tarbiya va sport jarayonida tegishli gigiyena standartlari va talablariga rioya qilmasdan, normal jismoniy rivojlanish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sport yutuqlarini oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlash mumkin emas.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning tibbiy tekshirishlarining asosiga ularning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash va baholash kiradi. Jismoniy rivojlanish jarayonining mutanosibliigi haqida fikr yuritish uchun tekshiriluvchining birlamchi tekshirish natijalarini uning anamnezi bilan taqqoslanadi. Takroriy tekshirishlarda antropometrik belgilarning o'zgarishiga qarab jismoniy mashqlarning jismoniy rivojlanishga ta'siri haqida aniq tasavvurga ega bo'lamiz.

Sportchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda, ularning jismoniy rivojlanishi va tana tuzilishining xususiyatlarini tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy rivojlanish – bu individni tekshirish davridagi morfo-funksional ko'rsatkichlar yig'indisi. Jismoniy rivojlanish tana shakli va faoliyatining o'zgarishi jarayoni sifatida asta-sekinlik bilan, lekin turlicha kechadi. Uning yuqori tempi 18-20 yoshgacha kuzatiladi.

O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining bergan ma'lumotida ko'rsatilishicha 15-20% bolalar amaliy sog'lom, 50% bolalarda esa har xil turdagi o'zgarishlar bor, 30-35% surunkali kasalliklar bilan shikastlangan.

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini (davlat va nodavlat, shahar va qishloq maktablari, gimnaziya va texnikumlar) nomutanosib rivojlanishga olib keladi. O'quvchilarni (tana massasi kam, yurak va qon tomir tizimi faoliyatini susayishi, nafas va mushak tizimlarida kamchiliklar) ularning ish qobiliyatlarini susayishi kuzatiladi. Umumta'lim muassasalarida o'qish davrida ko'rish a'zolarining kamchiliklari va qaddi-qomatini o'zgarishi besh marta oshadi, to'rt marta ruhiy asabiy o'zgarishlarni ortishi kuzatiladi, 50% maktab yoshidagi bolalarda tayanch harakat apparatlarida o'zgarishlar sodir bo'lishi kuzatiladi, 25-30% yurak tomir tizimlarida, nafas olish tizimlarida, 70% yaqin bolalar harakat kamligidan ozor chekadilar. Oxirgi yillarda bolalar salomatligi keskin yomonlashdi.

Sog'lom bolalar soni 15-16% dan 6-4% gacha kamayib ketdi. Birinchi sinf bolalari orasida

morfofunktsional o'zgarishlari borlari soni 40,3% dan 23,6% ga kamaydi. Shunga mutanosib ravishda surunkali kasalliklar bilan og'rikan bolalar soni 44,6% dan 70% ga oshib bormoqda. Kichik maktab yoshidagi bolalar orasida 19,5% jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bor, 14,5% bolalarda tana massasi me'yoridan kam. Bulardan tashqari 2,3% bolalarda jismoniy rivojlanishni umumiy kamligi qayd etilgan. Maktab yoshidagi o'quvchilar orasida fiziologiya funktsiyalarining bunday o'zgarishlarini, biz o'qiyotgan bolalarning yoshiga, jinsiga xos o'zgarishlaridan, hayot tarzidan, harakat faolligi darajasidan, o'quv mashg'ulotlarining tartibidan, aqliy yuklamalar darajasidan, axborotlar hajmi va miqdoridan izlashimiz darkor.[13]

XULOSA. Sport tibbiyoti maqsadi sog'liqni mustahkamlash, sog'liqni saqlash barkamol rivojlanishiga yordam beradigan vositalar sifatida jismoniy madaniyat va sport rivojlanishiga bor imkoniyatlar bilan yordam berishdir.

Bir so'z bilan aytganda, sport-ta'lim muassasalari faoliyati rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollari belgilash, ularda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida davlatimiz tomonidan berilayotgan barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish ayni kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalar sirasidandir.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda sportchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

2.Z.E.Gaziyeva va b. Sport tibbiyoti. -T.: "Cho'lpon" 2019, 232 bet

3.B. M. Saidov. Sport tibbiyoti. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 480 bet.

4. Saydivaliyeva M.A. Sport tibbiyoti"da qo'llaniladigan uslublar. -T.: «Umid Design», 2021.- 64 b.

5. Aminov B., Jovliyev B. Sport tibbiyoti Qarshi – 2015, 116 bet

6. Я.С. Вайнбаум, В.И. Коваль, Т.А.Родионова. Гигиена физического воспитания и спорта. Издательский центр «Академия», 2002. — 240 с

7. Sharofuddinova, R. (2024). Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning turlari.

8. Шарафутдинова, Р. И., Муратова, Г. С., & Турсунбаева, М. Т. (2020). The formation of the concepts of environmental thinking and education among students. Новый день в медицине, (1), 105-106.

9. Инфаровна, Ш. Р. (2024). Ҳайвон захари билан захарланганда шошилинич тиббий ёрдам. zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2(4), 19-26.

10.Ermamatovich, K. E. (2024). Talabalarining sport trenirovkalari, sog'lomlashtirish mashg'ulotlari. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(2), 42-45.

11.Gaparovna, J. O. (2022). Jismoniy tarbiyaning soglom turmush tarzidagi ahamiyati. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(9), 227-231.

12.Rajabova, M. (2023). SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSIY GIGIYENANING ROLI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(1 Part 2), 80-84.

13. www.arxiv.uz

## SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA TASVIRIY VA DEKORATIV SAN'AT VOSITALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING Ў3-Ў3ИИ IJODIY RIVOJLANTIRISH

*Shodmonova Abera Shodiyevna,*

*Renessans ta'lim universiteti, Pedagogika vakulteti Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası v.b dotsent*

*Annotatsiya. Maqolada Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tasviriy va dekorativ san'at vositalari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ў3-ў3ИИ ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy, nazariy kontseptsiyalar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, madaniy muhit, ijodiy rivojlantirish, ijodiy faoliyat, evristik metodlar, kognitiv metodlar.*

Zamonaviy maktabning maqsadi har bir o'quvchining qobiliyatini ochib berish, raqobat dunyosida hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashdir. Maktabda o'quvchilar nafaqat yuqori sifatli bilim olishlari, balki faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlari, bilimga barqaror ehtiyojga ega bo'lishlari va zamonaviy hayotga moslashishi juda muhimdir. Aynan ijodkorlik kognitiv jarayonni jonlantiradi, kognitiv shaxsni faollashtiradi va uni sinfdagi faoliyat, uy vazifalarini bajarish, "ixtiyoriy" topshiriq sifatida taklif qilinadigan qo'shimcha topshiriqlar va darsdan tashqari ishlar orqali shakllantiradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ijodiy shaxsni shakllantirishda o'qituvchining birinchi vazifasi o'quvchilarga o'z kuchlarini sinab ko'rishlari mumkin bo'lgan turli xil faoliyat turlarini taklif qilishdir. Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi o'zining individual xususiyatlariga ko'ra hamma uchun bir xil bo'lishi mumkin emas, shuning uchun vazifalarni belgilashda o'qituvchi buni hisobga olishi va har kimga faol, mustaqil ravishda o'zini ifoda etish va o'z ishining quvonchini his qilish imkoniyatini berishi kerak.

Ba'zida shunday bo'ladiki, talaba aniq moyilligi bo'lmagan holda, biron bir faoliyatga qiziqish bildiradi va vaqt o'tishi bilan juda yaxshi natijalarni ko'rsatadi. O'qituvchining ikkinchi vazifasi - bunday o'quvchilarni qarovsiz qoldirmaslik va ularning fanga qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni sinf va maktab ichidagi ijodiy tanlovlar va ijodiy ishlar ko'rgazmalariga (maktabda rasmlar tanlovi, badiiy va hunarmandchilik ko'rgazmalari) jalb qilishdir. ). O'qituvchining moyilligi va qobiliyati aniq bo'lgan talabalar bilan ishlashda uchinchi vazifasi - ularning rivojlanishiga, ishlashiga va erishilgan darajada to'xtab qolmasliklariga yordam berishdir.

Mehnatning majburiy shartlaridan biri - o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik va hamkorlik, iliq muhitni yaratish, psixologik xavfsizlik, bunda, albatta, har bir insonning qadr-qimmatı qabul qilinadi. Bularning barchasi tashabbuskorlik, mas'uliyat, cheksiz fikrlash qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish kerak: 1-sinf – tayyorgarlik bosqichi: taqlid qilish, taqlid qilish bosqichi. Ijodkorlik uchun asos sifatida hissiy, intellektual, hissiy tajriba to'planishi, ijodiy faoliyat standartlarini, texnologiyalarini, vositalarini, usullarini o'zlashtirish mavjud.

